


# PEDAGOGIK MAHORAT

**2(2)**  
**2025**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2025-yil, fevral)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2025**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025, № 2

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** Buxoro davlat universiteti

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro ‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To ‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universiteti, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrova pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabog’yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)

Hamroyev Aljon Ro ‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo ‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To ‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro ‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To ‘xsanov Qahramon Rahimbo耶evich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehriddin Junaydullo耶evich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Nurullo耶ev Firuz No ‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

## Научно-теоретический и методический журнал

№ 2, 2025

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закириалиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбай Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрисенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Зотова Фирзуза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, Россия)*

*Хамроев Алижон Рузиколович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдулсаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтар Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Сайджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чарiev Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишин Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махмутмурод Хуррамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Каҳрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Марданович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Абдулаев Мехридин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD)*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёрновна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal

№ 2, 2025

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Prof. Tulkin Kh. Rasulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romn Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullova (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdumurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev*

*PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov*

*PhD in Pedagogical Sciences, Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova*

MUNDARIJA

Nº	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH</b>			
	<b>FAYZULLAYEVA Saodat Dilshodovna</b>	Pedagogik ta'lilda koinot sirlarini o'rganishda milliy meroslardan foydalanish va uning amaliy ahamiyati	8
	<b>JAMOLOV Shahboz Jamil o'g'li, ZIYAYEV Umrzoq Murodovich</b>	O'quvchilarning matematik bilimlarini universal harakat orqali modellashtirish	12
	<b>JUMAYEV Jura, XAYRULLAYEVA Durdona O'ktam qizi</b>	O'rta maktabda aniq integral mavzusini o'qitish bo'yicha takliflar	16
	<b>KAMOLOVA Dilshoda Odilovna</b>	Global ta'lim muhitida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	21
	<b>KARIMOVA Dilorom Amonovna, USMONOVA Lola Mallayevna, ERGASHEVA Ro'zigul To'lqin qizi,</b>	Kimyo fanini o'qitishda STEM yondashuvdan foydalanish	25
	<b>MUSTAFOYEV Erkin Bahronovich</b>	Integrativ yondashuv asosida fizika yo'nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari	30
	<b>MUXIDDINOVA Sevara Muxiddin qizi</b>	Biologik fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim muhitni loyihalashtirish texnologiyalari	35
	<b>SODIQOVA Dilnavoz Qambaraliyevna</b>	Tibbiyot oliygohlarida «Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» fanini o'qitishning maqsad va vazifalari	39
	<b>XAYRULLAYEV Choriqul Kazakovich</b>	Oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi usulidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	43
	<b>YUSUBJANOVA Musharraf Tursunali qizi</b>	Matematikani o'qitishda interfaol yondashuvlar: hodisaning ehtimolligini o'rgatishning samarali usullari	49
	<b>РАДЖАБОВА Марджона Рашидан кизи</b>	Современные педагогические технологии на уроках химии	54
	<b>UMIROV Xabibillo Baxodirovich</b>	Fizikadan to'garak mashg'ulotlarida akademik litsey o'quvchilarining texnik tafakkurini rivojlantirish metodikasi	58
	<b>XUDAYBERDIEVA Arofat Isroilovna</b>	Tezkor va tayanch konspektlar: ta'lim jarayonida samarali yozish ko'nikmalarini rivojlantirish	63
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>			
	<b>G'ANIBOYEV Ixtiyor Davlataliyevich</b>	Ko'pkurashchilarining jismoniy sifatini rivojlantirish metodikasi	69
	<b>MAMBETNAZAROV Islambek Muratbayevich</b>	Akademik eshkak eshuvchilarni eshish harakatlarini nazorat qilish xususiyatlari	74
	<b>MUNIROV Nurali Alisherovich</b>	Qo'1 jangi sportchilarida psixologik va jismoniy tayyorlikning o'zaro ta'siri	78

	<b>ORUNBAYEV Azamat</b>	Jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi talabalarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasini tadqiq etish	83
	<b>RAHMONOVA Mohinur Rasuljonovna</b>	O’quv-mashg’ulot bosqichidagi badiiy gimnastikachilarni jismoniy rivojlanganlik ko’rsatkichlari tahlili	87
	<b>TO’LQINOVA Shoxistaxon Qaxramon qizi</b>	Parataekwondochilarni o‘qitishning zamonaviy mashg’ulot jarayonlari	94
	<b>АБДУЛАХАТОВ Акрамжон Рўзмаматович</b>	Таълим-тарбия жараёнида спортнинг ўрни (Кураш спорт тури мисолида)	98

### SAN’AT

	<b>GULOV Sadritdin Niyazovich</b>	Musiqa ta’limida an’anaviy xonandalikning o‘rni va ahamiyati	102
	<b>QO’SAYEV Ilhom Axtamovich</b>	Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o‘rni	108
	<b>YAKUBOVA Gulnoz Madrimbayevna</b>	Bolalarni saxnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatishning ahamiyati	113
	<b>QULIYEVA Shahnoza Halimovna, SATVOLDIYEVA Malaxatxon A’zamjanovna,</b>	Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarining dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishda odam gavdasini nisbatlarga ajratish metodlari	117

### INKLYUZIV TA’LIM

	<b>AMINOV Alijon Axtamovich, RAZZOKOVA Moxinur Bahodir qizi</b>	Fizika ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda inklyuziv ta’limdan foydalanish	124
	<b>ABDUKADIROV Isroiljon Abdupattoyevich</b>	Ijtimoiy hamkorlik muhitida inklyuziv ta’limni tashkil etishning metodologik-tashkiliy asoslari	129

### TA’LIM MENEJMENTI

	<b>OSTONOV Zafar Zamnovich</b>	Maktabgacha ta’limni rivojlantirishda xalqaro tajribalar tahlili va taraqqiyot strategiyalari	133
	<b>YO’LDOSHEVA Gulhayyo Valigulovna</b>	Innovatsion yondashuv asosida oliv ta’lim imidjini takomillashtirishning pedagogik tizimi	138
	<b>RAJABOVA Kimyoxon Farmonovna</b>	Ta’lim integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturidan foydalanishning imkoniyatlari	142

### ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

	<b>NURMAXMATOV Lutfulla Abduxomid o‘g‘li</b>	Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	147
	<b>NUROVA Rohila Ismoil qizi</b>	Talabalarning kasbiy rivojlanishida teatr pedagogikasining ahamiyati	153
	<b>QIRBOYEVA Norgul Tuymurod qizi</b>	Talabalarda notiqlik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda interfaol ta’lim metodikasidan foydalanishning samaradorlik darajasi	158

	<b>RASULOVA Rayxon Baxritdinovna</b>	O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rnini	162
	<b>XO‘JANAZAROV Zayniddin Rashidovich</b>	Oliy ta’limda zamonaviy ta’lim vositasi sifatida smart texnologiyasining imkoniyatlari va ahamiyatini tahlil qilish	166
	<b>JO‘RAYEV Olim Ismoilovich</b>	Amaliy mashg‘ulotlarni interfaol metodlardan foydalanib VR amaliy muhit asosida o‘qitish	170

### RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM

	<b>MIRZAYEV Tolibjon To’raqul o’g’li</b>	Axborot himoyasi va uning turlari	175
	<b>BAXTIYOROVA Durdonna Ixtiyorovna</b>	Sun’iy intellektdan foydalanishning innovatsion imkoniyatlari va xavfsizlik choralarining ilmiy tahlili	179
	<b>DJALILOVA Zarnigor Obidovna, AZADOV Azizbek Rustambekovich</b>	Integration of digital technologies in the teaching process	183
	<b>GANIYEVA Barno Ilhamovna</b>	O‘zbekistonda kutubxonachilik ta’limi rivojlanishining zamonaviy bosqichlari	187
	<b>JAMOLOV Abulfayzxon Shuxratovich, URMANOV Shingis Mayxan ugли</b>	The role of platforms such as Moodle, Google Classroom, and Microsoft Teams in the educational process	191
	<b>KARIMOV Feruz Raimovich</b>	Umumta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda interaktiv ta’lim platformalarining ahamiyati	197
	<b>KUDENOV Temurbek Maxsetbayevich</b>	Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish	202

### MA’NAVIYAT VA TARBIYA

	<b>BEGMATOVA Dilnoza Muxtarovna</b>	Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish strategiyalarini qo‘llash samaradorligi	208
	<b>ERGASHEV Najibullo Xasan o’g’li</b>	O‘quvchilarga milliy qadriyatlardan foydalanish orqali musiqiy-estetik tarbiya berish mexanizmlari	212
	<b>ERGASHEVA Maftuna Alisher qizi</b>	Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asaridagi tarbiyaviy g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyati	216
	<b>ФАЙЗИЕВА Мафтуна Илхомовна</b>	Педагогические условия реализации воспитательных функций учебных занятий в вузах	221
	<b>TEMIROVA Muqaddas Azamotovna</b>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiya fani asosida dunyoqarashini shakllantirish	225
	<b>XAKIMOVA Mukaddas Sadriddinovna</b>	Ar-Roziy ijodidagi psixoterapevtik qarashlar	230

### PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

	<b>SAMADOVA Sarvinoz Samad qizi</b>	Jadidlarning ma’rifiy qarashlari va ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi	234
--	-------------------------------------	--	-----

## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

PEDAGOGIK TA’LIMDA KOINOT SIRLARINI O‘RGANISHDA MILLIY MEROSLARDAN  
FOYDALANISH VA UNING AMALIY AHAMIYATI

*Fayzullayeva Saodat Dilshodovna,  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada tabiat va Koinot bilan bog‘liq bilim va urf-odatlar keltirilgan bo‘lib, ularning astronomik ma’nolari ham keltirilgan. Maqolada keltirilgan astronomik ma'lumotlar uning jozibadorligini oshirib, astronomiyaga oid adabiyotlardagi mavzularni boyitish va mazmunan to‘ldirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** kashfiyat, Oy, Quyosh, xalq rivoyati, osmon jismi, harakat, o‘z o‘qi atrofida harakat, sutka, o‘lcham, tutilish, Oy tutilishi, Quyosh tutilishi, nurlanish.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТАЙН ВСЕЛЕННОЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

*В этой статье представлены знания и обычаи, связанные с природой и Вселенной, а также их астрономические значения. Астрономические данные, представленные в статье, повышают ее привлекательность и служат обогащению и содержательному наполнению тем в астрономической литературе.*

**Ключевые слова:** открытие, Луна, Солнце, народное предание, небесное тело, движение, движение вокруг своей оси, сутки, размер, затмение, лунное затмение, солнечное затмение, излучение.

### USE OF NATIONAL HERITAGE IN STUDYING THE SECRETS OF THE UNIVERSE IN PEDAGOGICAL EDUCATION AND ITS PRACTICAL SIGNIFICANCE

*This article examines the knowledge and traditions associated with nature and the Cosmos, and also provides their astronomical meaning. The information provided increases the attractiveness of science, enriches and fills educational literature with valuable materials.*

**Keywords:** the discovery, the moon, the sun, the folk tale, the celestial body, the movement, the movement around its axis, the day, the size, the eclipse, the eclipse of the moon, the eclipse of the sun, the radiation.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng, yurtimizda o‘zlikni anglash jarayoni keng quloch yoydi. O‘zbek xalqi o‘zining ilmiy-ma’naviy merosidan bahramand bo‘la boshladi, ilm va tafakkur sarchashmalar bo‘lgan “Akademiya” lar va ularning faoliyati haqida kengroq ma'lumotga ega bo‘ldilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorining so‘z boshisida ... bir necha asrlar davomida aniq va tabiiy fanlar O‘zbekiston zaminida keng rivojlanib, O‘rta Osiyo hududi dunyo intellektual markazi bo‘lib kelgan. Yurtimiz hududida yuzaga kelgan birinchi va ikkinchi Renessans davri butun dunyo tan oladigan mashhur daholar yetishtirib berdi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Ali ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi va Sharqning boshqa olimlari ilmiy tadqiqotlari jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘sghanligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Jahon ilm-fani tarixida atigi to‘rtta akademiya mavjud bo‘lgan bo‘lib, shularning ikkitasi bugungi O‘zbekiston zaminida paydo bo‘lgan va faoliyat yuritgan. Insoniyat tarixidagi ilk akademiyalardan biri, bundan ming yil muqaddam, aniqrog‘i 1004 yilda tashkil etilgan Xorazm Ma’mun akademiyasidir. Akademiyada astronomiya fani sohasida yetarli darajada yutuqlarga erishilganligi va Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlarni kamolotga yetkazgani nafaqat bizga, balki butun dunyoga juda yaxshi ma'lum, shuningdek ular yurtimizda I-renessans davrini ochib berishdi, Renessans davrining tamal toshini qo‘yishdi.

Ikkinci akademiya esa, bundan 600 yil oldin ko‘hma Samarqand zaminida tashkil etilgan bo‘lib, Mirzo Ulug‘bek (Samarqand) astronomiya maktabidir. Unda Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy va Ali Qushchi singari buyuk allomalar voyaga yetdi. Bu maktab bizning yurtimizda buyuk kashfiyotlar, ya’ni II-renessans davrini oolib berdi.

*O‘zbekiston o‘zining tarixiy boy ilmiy va madaniy meroslari bilan jahonda hamma davrda yetakchi o‘rinda turgan. Jumladan, yurtimizda qadimdan astronomiya fani ancha rivoj topgan tabiiy fanlardandir. Yurtdoshlarimizning kashfiyotlari esa hozirgi kunda jahon fanining asl durdonalari hisoblanadi [1].*

**Asosiy qism.** o‘tmishi buyuk xalqimiz orasida osmon jismlari bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘plab rivoyatlar bor va bu rivoyatlar ayni texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda ham haqiqatni belgilab beradi. Biz quyida astronomiyada, o‘zbek adabiyotida, xalq o‘g‘zaki ijodida Oy va Quyosh bilan bog‘liq ayrim rivoyatlar va ularning astronomik ma’no va mazmuni bilan keltitilgan ma’lumotlarni keltiramiz:

### **Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘**

#### **Gapning ma’nosи:**

➤ Bu gap xalq ichida asosan, iste’dod egalariga nisbatan aytildi, ya’ni o‘z iste’dodingni bugun namoyon eta olmasang, albatta, ertaga u namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi;

➤ Bu gap xalq ichida vaqtincha ishi yurmagan kishilarga ham qaratila aytildi, ya’ni ishing bugun yurishmasa, ertaga hamma ishing yurishib ketishi aniq, dehan ma’noda ham ishlatalidi;

#### **Astronomik ma’nosи:**

Oy ham boshqa osmon jismlari singari doimiy harakatda, ya’ni Oy o‘z o‘qi hamda yer sayyorasi atrofida harakatlanadi. Istalgan osmon jismining o‘z o‘qi atrofida aylanish davri shu osmon jismi uchun sutka (bir kecha-kunduz) davomiyligi bo‘ladi, osmon jismining biror markaziy jism atrofida (Oy uchun Yer markaziy jism, Yer uchun esa Quyosh markaziy jism bo‘ladi) aylanish davri esa shu osmon jismi uchun yil davomiyligini beradi. Oyning o‘z o‘qi atrofida aylanish davri 29,53 Yer sutkasiga teng, demak Oyda o‘n besh Yer sutkasi kunduzi-yu o‘n besh Yer sutkasi kechasi bo‘ladi.

### **Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi**

#### **Gapning ma’nosи:**

➤ Bu gap xalq orasida inson tomonidan biror bir xatti- harakat (noto‘g‘ri ish, noto‘g‘ri faoliyat) yashirilganda aytildi;

➤ Inson tomonidan aytigan yolg‘on fikr yoki ish oshkor bo‘lganda aytildi;

➤ Inson o‘zidagi kasallikni yashirganda aytildi.

#### **Astronomik ma’nosи:**

Bizning Yer planetamizga eng yaqin bo‘lgan osmon jismi Oy hisoblaniladi. Aslida Oy osmonda bizga yaqin bo‘lib ko‘rinsada, u ancha uzoqda joylashgan. Bu holni quyidagicha ham izohlash mumkin: Inson harakatlanganda (biror transport vositasida bo‘lganda ham) go‘yoki Oy uni ta‘qib etayotgandek tuyuladi.

Yer va Oy orasidagi masofa 60 Yer radiusiga teng, ya’ni Oygacha bo‘lgan haqiqiy masofa 384400 km. ga teng [1, 2].

### **Oyning ham bir tomoni ko‘rinadi**

#### **Gapning ma’nosи:**

➤ Inson tomonidan olib borilgan ish me’yorida bajarilsa-da, lekin bu ishni mukammal poyoniga yetkaza olmasligi haqida fikr yuritildi;

➤ Inson tomonidan olib borilgan izlanish (ko‘zlangan maqsad) qaysidir darajada mahorat bilan bajarilgandir, lekin izlanishning to‘la-to‘kis bajarilmasligi haqida fikr yuritildi, chunki ilm bepoyondir. Masalan, 50 yil oldin qabul qilingan standartlarda rangning oqlik darajasi 100% deb olingan bo‘lsa, bugungi kunda texnologiyalarning rivojlanishi asosida undan-da ortig‘ini olish mumkin);

#### **Astronomik ma’nosи:**

Biz Oyning faqat bir tomonini ko‘ra olamiz, ikkinchi tomonini ko‘ra olmaymiz. Bunga asosiy sabab, Oy o‘z o‘qi atrofida har bir Yer sutkasi davomida sharqqa tomon qariyb  $13^{\circ}$  burchakka buriladi. Shu vaqt davomida esa Oy Yer atrofida ham  $13^{\circ}$  burchakka buriladi. Demak, Oyda sutka va yilning davomiyligi bir xil, ya’ni 1 Oy sutkasi= $29,53$  Yer yiliga, 1 Oy yili= $29,53$  Yer sutkasiga teng. Vaqtning sutka va yil o‘lchov birliklari osmon jismlarining harakati bilan bog‘liq. Demak, sutka va yil barcha joylarda bir xil kechmaydi. Har qanday osmon jismining o‘z o‘qi atrofida bir marta to‘la aylanishi uchun ketgan vaqtga sutka deyiladi. Har qanday osmon jismining markaziy osmon jismi (Yer uchun Quyosh, Oy uchun Yer markaziy osmon jismi) atrofida bir marta to‘la aylanishi uchun ketgan vaqtga yil deyiladi.

Shunday qilib, Oy o‘z o‘qi atrofida bir marta to‘la aylanishi uchun ketgan vaqt ichida Yer atrofida ham bir marta to‘la aylanadi. Shu boisdan biz Oyning ikkinchi tomonini hech qachon ko‘ra olmaymiz.

### Osmonda Oyning hukmronligi Quyosh chiqquncha

#### Gapning ma’nosи:

➤ Bu gap xalq ichida o’ziga bino berib, manmanlikka berilgan insonlarga qarata aytildi;

➤ Amal kursisiga o’tirib, o’z xizmat vazifasidan shaxsiy manfaatni ko’zlab ish yuritayotgan va jamoat fikr-mulohazalarini inobatga olmagan rahbar shaxslarga qarata aytilgan.

#### Astronomik ma’nosи:

Osmonda faqat yulduzlar, Quyosh o’zidan nur taratadi. Oy o’zidan nur taratmaydi. Oy sirtini Yerdan qaytgan Quyosh nurlari yoritadi. Shuning uchun ham Oy nur sochayotgandek tuyuladi. Yerning o’z o’qi atrofida aylanishi bois, biz kechasi Quyoshni ko’ra olmaymiz. Oyni esa, osmonda ko’proq kechasi kuzatamiz. Quyosh ko’ringanda osmonda Oy deyarli ko’rinmay qoladi, chunki Oydan taralayotgan nur Quyoshnikidan bir necha ming marta kichikdir. Misol tariqasida ularning yoritilganliklarini taqqoslaymiz:

$$E_{Oy}=0,25 \text{ lyuks} \quad E_{Quyosh}=100000 \text{ lyuks}$$

Demak, Quyoshning Yer sirtini yoritishi Oynikidan 400000 marta kattadir.

#### Oy ham qizaradi

#### Gapning ma’nosи:

➤ Bu gap ayrim insonlar biror ishni yoki vazifani bajarishni o’zlariga to’la ishonch hosil qilib aytib, yakunida bajara olmagan paytlarida aytildi;

➤ Bu gap yana inson o’ziga va birovga qat’iy ishonib, biror bir ishni bajarishni va’da berib, oxiriga qizarib qolmasliklari uchun aytildi.

#### Astronomik ma’nosи:

Quyosh-kunduziy yulduzimiz Yer va Oyni yoritganligi bois, ular o’zlaridan konussimon shakldagi soyalar tashlaydi. Bu osmon jismlari doimiy harakatda bo’lganliklari sababli, ular ma’lum bir vaqt o’tgach bir to’g’ri chiziqdicha yotadilar. Shu vaqtida ularning soyasi bir-biriga tushadi. Agar Oy Yerning soyasiga kirsa, Oy tutiladi. Oyning chala va to’la tutilish hollari kuzatiladi. Oy Yer soyasiga kira boshlasa yoki chiga boshlasa, u holda Oyning chala va Oy to’la Yer soyasida bo’lganda Oyning to’la tutilishi kuzatiladi. Oyning to’la tutilishi 100 minutgacha davom etadi. Oyning to’la tutilishiga asosiy sabab, Yerdan Oyga tushgan soyaning o’lchami (diametri) Oyning o’lchamidan katta bo’ladi. Oyning diametri 3476 km. ga teng, yerdan tushgan soya o’lchami esa, undan katta. Oy faqat tutilganda qizaradi (qizg’ish tusga kiradi), chunki soyada Quyosh nurlanishlari tarkibidagi qizil nurlar ko’proq sochiladi. Bu hodisa xalq orasida “Oy qonga belandi”, “Oy qo’tonladi” deb ham yuritiladi. Masalan, tungi osmon sferasining rangi qora rangda bo’lib, bu osmon sferasining haqiqiy rangidir. Kunduzgi osmon sferasining rangi zangori, ya’ni ko’k rangda bo’ladi, chunki Yer atmosferasida Quyosh nurlari tarkibidagi ko’k ranglar eng ko’p sochiladi.

#### Oyda yuribdi (Hali u Oyda yuribdi)

#### Gapning ma’nosи:

➤ Bu gap inson chuqur xayolga berilganda, atrofdagilarga nisbatan befarq bo’lganida (birovlar aytgan gap va maslahatlarni eshitmaganda) aytildi;

➤ Yana bu gap o’ta o’zboshimcha kishilar, o’zining yo’l qo’yan xatolarini tan olmaydigan, atrofdagilarga nisbatan hurmatda bo’lmaydigan kishilarga nisbatan qaratila aytildi.

#### Astronomik ma’nosи:

Ma’lumki, Oy tabiiy yo’ldoshimiz o’zining atmosfera qatlamiga ega emas, ya’ni muhit mavjud emas. Bunga asosiy sabablardan biri-Oy massasining kamligi. Shuning uchun, Oyda bir kishi ikkinchi kishini har qancha chaqirmas, u odam eshitmaydi, chunki tovush ham muhitlarda zarrachalar orqali tarqaladi, bo’shilqda esa tarqalmaydi.

#### Osmon qorong‘u zulmatga aylandi

#### Gapning ma’nosи:

➤ Bu gap xalqimiz orasida kunduzi Quyoshni osmonda ma’lum bir muddat ko’ra olmagan (aynan o’sha hududda Quyoshning to’la tutilishi) paytlarida ishlataladi;

➤ Bu gap yana xalqimiz orasida ulug’ yoki buyuk insonlar (daholar) olamdan ko’z yumganlarida ham aytildi;

#### Astronomik ma’nosи:

Quyoshning tutilishi tabiiy holdir. Agar Oyning soyasi Yerga tushsa, u holda Quyosh tutiladi. Quyoshning to’la tutilishi bir vaqtning o’zida Yer sharining barcha joylarida kuzatilmaydi, chunki Oydan Yerga tushayotgan soya o’lchami (diametri) Yerning o’lchamidan juda kichik, ya’ni soya diametri 250 km. gacha bo’ladi (bunda aynan aniq o’lcham ko’rsatmasligiga sabab, Oyning Yer atrofida ellips bo’ylab harakatlanganligi uchun Yer va Oy orasidagi masofa ham o’zgarib turadi va bu tushayotgan soya o’lchamining o’zgarishiga olib keladi). Ana shu soya Yerning qaysi joyida tushsa, shu joyda Quyoshning to’la tutilishi, qolgan joylarda esa Quyoshning qisman tutilishi kuzatiladi, Quyoshning to’la tutilishi 7 minut

40 sekundgacha davom etadi. Quyosh tutilishi (to‘la tutilishi) aynan bir joyda kamida 200 yildan so‘ng ro‘y beradi. Quyoshning tutilishi bir yilda 2÷4 martagcha kuzatiladi.

#### Kunchiqar yurt (mamlakat)

##### Gapning ma’nosи:

- Bu gap asosan Yaponiya va yaponlar to‘g‘risida so‘z borganda ishlatiladi.

##### Astronomik ma’nosи:

Yaponiya – Yer planetasining shimoliy yarimsharida joylashgan eng sharqiy (uzoq sharqdagi) davlatadir. Har kuni Quyosh chiqishini birinchi bo‘lib Yaponiya qarshi oladi, chunki Quyosh sharqdan chiqib, g‘arbgaga botadi [1, 3,4].

**Xulosa** qilib aytganda, xalqimiz orasidagi rivoyat va urf-odatlar ilmiy ma’noga ega bo‘lib, fanni nazariy va amaliy ma’lumotlar bilan boyitdi, fanning jozibadorligini yanada oshiradi, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

*Taklif. tarixiy ilmiy meroslarimizni o‘rganishimiz bizning buyuk o‘tmishli xalqimizga bo‘lgan hurmat va ehtiromimizni bildiradi. Ajdodlarimiz meroslarini qanchalik ko‘p o‘rgansak, qanchalik ko‘p tadqiq qilsak shunchalik olamni keng anglay olishimiz hamda dunyoviy bilimlarimiz oshib boraveradi.*

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar astronomiyaga oid o‘quv adabiyotlaridagi mavzularni boyitishga va mazmunan to‘ldirishga xizmat qilishi shubhasiz. Shuningdek, dars davomida olingan ma’lumotlardan foydalanilishi natijasida ta’lim oluvchilarning oladigan bilimlari hajmi kengayadi, ularni mustaqil fikrlashga va izlanishga undaydi.

#### Adabiyotlar:

1. D.I.Kamolova. Ommabop astronomiya (o‘quv-uslubiy qo‘llnma). Lider Press, Toshkent: 2009.
2. Kamolov I.R., Mamadazimov M., Izbosarov B.F. Astronomiya (o‘quv qo‘llanma). Toshkent.: Sano-standart., 2014
3. Kamolov I.R., Kamolova D.I., Sayfullayeva G.I., Sattorov A.R., Barakayeva S.T., Narbayev A.B., Tillaboyev A.M. Umumiy astronomiya (darslik). Termiz.: TerDU NMM., 2023.
4. Ravshanova S.D. “Astronomiya fanini o‘qitishni milliy-ilmiy meroslardan foydalanib takomillashtirish metodikasi” (magistrlik dissertatsiyasi). Navoiy.: Navoiy DPI., 2023.

## O’QUVCHILARNING MATEMATIK BILIMLARINI UNIVERSAL HARAKAT ORQALI MODELLASHTIRISH

*Jamolov Shahboz Jamil o’g’li,  
Toshkent kimyo-tehnologiya instituti  
Shahrisabz filiali katta o’qituvchisi  
Ziyayev Umrzoq Murodovich,  
Toshkent kimyo-tehnologiya instituti  
Shahrisabz filiali katta o’qituvchisi*

*Ushbu maqolada Davlat ta’lim standartlarini boshlang’ich sinflarda qo’llash natijasida beradigan samaralari, ularni modellashtirish metodi orqali qo’llab yanada oshirish haqidagi qarashlar keltirilgan. Undan tashqari modellashtirish metodida universal harakatlarni joriy etish haqida ham fikr yuritilgan.*

*O’quvchilarning bilish faktori doirasidagi qiziqishlari mulohaza qilish faktori doirasidagi qiziqishlariga aylantirish va ta’limning “bilaman – idrok etmoqchiman – idrok etdim” sxemasi asosida interfaol usulda tashkil etilishini ta’minlash aynan shaxsga yo’naltirilgan boshlang’ich ta’limning modellashtirish metodlari sifatida qaralishi kerak.*

**Kalit so’zlar:** modellashtirish, DTS, universal harakat, muvaffaqiyat muhiti, interfaol.

## МОДЕЛИРОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ УНИВЕРСАЛЬНЫХ ДЕЙСТВИЙ

*В данной статье представлены взгляды на эффективность применения Государственных образовательных стандартов в начальных классах и их дальнейшее повышение путём использования метода моделирования. Кроме того, в методе моделирования рассматривается введение универсальных движений.*

*Преобразование интересов учащихся в рамках познавательного фактора в интересы в рамках фактора рассуждения и обеспечение организации обучения интерактивным способом на основе схемы «знаю - хочу воспринять – воспринял» следует рассматривать именно как методы моделирования личностно-ориентированного начального образования.*

**Ключевые слова:** моделирование, ГОС, универсальное действие, среда успеха, интерактивный.

## MODELING STUDENTS' MATHEMATICAL KNOWLEDGE THROUGH UNIVERSAL MOTION

*This article presents the results of the application of State Educational Standards in primary grades, their further improvement through the modeling method. In addition, the introduction of universal actions in the modeling method is also considered.*

*The transformation of students' interests within the knowledge factor into interests within the reflection factor and the organization of education in an interactive way based on the “I know - I want to perceive - I have perceived” scheme should be considered as modeling methods of person-oriented primary education.*

**Keywords:** modeling, DTS, universal action, success environment, interactive.

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim islohotiga katta e’tibor qaratilayotgan bir davrda, yangilanishlar jarayonini miqyos va mazmun jihatidan o’rganib borilmoqda. Bu islohotlar esa bugungi kunning talabidir. Ta’limning zamонави rivojlanish bosqichida o’quvchiga ma’lum bir o’quv fani bo’yicha iloji boricha ko’p bilim va ko’nikmalar berishdan ko’ra, uni har qanday sharoit va vaziyatlarda asqotadigan harakatlar sodir eta olish ko’nikmasi bilan qurollantirish muhimroq. Bu harakatlar o’quvchini rivojlantiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, rivojlanayotgan jamiyat uchun kerakli shaxs bo’lib tarbiya topishga ko’maklashadi, ijtimoiy tajriba orttirishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bu qilinayotgan ishlar o’quvchilarning fikrlashini, mantiqiylik nazaridan xulosa chiqarishini, o’z xulosalarini umumlashtirolishini, yakuniy bir to’xtamga kela olishini, mulohaza yuritishini, narsa va hodisalarning ta’rifini qay darajada keltira olishi va shunga o’xshash xususiyatlar kiradi. Sodda qilib aytganda, ta’lim tizimiga qo’yiladigan zamонави talablar o’quvchini “o’rganishga o’rgatish”ni taqozo etmoqda.

**Asosiy qism.** Zamonaviy ta’lim uchun kerak bo’ladigan kategoriyalarning barchasi boshlang’ich ta’lim o’quv fanlari uchun ham xosdir (bilim va ko’nikma, fikrlash va mulohaza, muhokamalarning mantiqiyligi va voqe-a-hodisalarini baholash aniqligi va boshqalar).

Bugungi kunda ta’lim tizimining negizini Davlat ta’lim standartlari tashkil etadi. Davlat ta’lim standartlari uchun birlamchi uslub hujjatlarining tahlili shuni ko’rsatadiki, unda sanab o’tilgan to’rtta guruuga mansub universal o’quv harakatlari (hammabop o’quv harakatlari deyish ham mumkin) ning barcha ko’rinishlari muayyan fanning tub mohiyatini o’zida aks ettiradi. Unda universal o’quv harakatlari mavjud bo’lib, universal o’quv harakatlari o’z ichiga boshqaruv, idrok etish, umumlashtirish, shaxsga mo’ljallangan maqsadlari asosidagi o’quv harakatlarini oladi. Shundan xulosa qilish mumkinki, bir tomonidan universal o’quv harakatlari o’quv fani tarkibiga kiruvchi muhim element hisoblansa, ikkinchi tomonidan muayyan o’quv fanining tarkibiy qismi sifatida o’rganib chiqamiz.

Yuqorida keltirib o’tganimizdek, universal o’quv harakatlarining to’rtta asosiy alohida holda yoki umumiylar tarzda qo’llaniladi. Bir dars jarayonining o’zida har bir ko’rinish alohida holda yoki umumiylar tarzda qo’llaniladi. Boshqaruv ko’rinishidagi universal o’quv harakatlari modellashtirish metodini boshlang’ich ta’lim fanlariga tatbiq etishda qo’llanilishining mazmun mohiyati shundan iboratki, dars jarayonida o’qituvchi fikrlar oqimini, mulohazalar o’zini boshqaruvchi sifatida muhim rol o’ynaydi. U bugungi o’tiladigan dars mavzusini e’lon qilgani holda bo’lishi kutilayotgan munozaralar, fikrlar to’qnashuvining asosiy yo’nalishini ko’rsatib beradi. Shu asnoda tanishtiruv ko’rinishidagi universal o’quv harakatlariga o’tildi. Tanishtiruv universal o’quv harakatlarida o’qituvchi o’rganilishi kerak bo’lgan tushuncha, yechilishi so’ralayotgan topshiriqqa doir dastlabki, birlamchi ma’lumotlarni o’quvchilar e’tiboriga havola etadi. Muhokamalarga passiv aralashgan holda to’g’ri fikr bildirayotgan o’quvchilar ma’nana rag’batlantirib boradi. Umumlashtiruv universal o’quv harakatlarida esa o’quvchi yoki faol o’quvchi barcha aytilgan mulohazalarini xulosa shakliga keltiradi, xulosalar baholanadi va umumlashtiriladi. Umumlashtirish so’ngida muayyan bir tushuncha xususida oxirgi yakunlovchi xulosa aytiladi. Universal o’quv harakatlarining shaxsga mo’ljallangan ko’rinishida esa o’qituvchi muhokama, fikrlar almashinuvi va munozaralar davomida faol qatnashgan o’quvchilarni e’tibor etadi. Shu yo’l bilan universal o’quv harakatlarining barcha ko’rinishlari bitta dars davomida to’liq namoyon bo’ladi. Ayni vaqtida universal o’quv harakatlarini qo’llash orqali o’qituvchi DTS va ta’limga qo’yiladigan eng zamonaviy talablar asosida dars o’ta olishini qayd etib o’tishimiz kerak.

Universal o’quv harakatlarining barcha ko’rinishlari muayyan mavzu bo’yicha ma’lumotlarning ko’pligi, topshiriqlarni bajarish variantlarining xilma-xilligini taqozo etadi. Bu o’z-o’zidan ma’lum: masalan, dastlabki tushuncha o’rganilayotgan darsda o’qituvchi o’quvchilar uchun mazkur mavzu bo’yicha yetarlicha ma’lumot bera olmasligi tabiiy. Taqdim etilgan ma’lumotlar aynan bitta tushunchaga daxldor bo’ladi va hali boshqa tushuncha o’rganilmagani uchun atamalararo bog’liqlik bo’lmaydi. Tabiiyki, bunday vaziyatlarda universal o’quv harakatlari samaradorligi pastroq bo’ladi. Navbatdagi mavzular o’tilayotganda navbatdagi tushunchani to’liq o’zgartirish uchun ma’lumotlar yetarli bo’ladi, o’qituvchi o’tgani darsda o’rganilgan tushuncha bilan joriy darsda o’rganilayotgan tushunchalar orasidagi bog’liqlikni va ular ishtirotida yangi tushuncha hosil qilish yo’llanirini topishni topshiriq sifatida beradi. Natijada universal o’quv harakatlari darsdan darsga tamoyili asosida rivojlanib, ravnaq topib boradi va nihoyat, o’qituvchining asosiy dars o’tish vositasiga aylanadi.

Boshlang’ich ta’limdagi asosiy o’quv fanlari o’quvchilarda fikrlash, mulohaza qilish, narsa va voqe-a-hodisalarga o’z fikri nuqtai nazaridan baho berish fazilatlarini shakllantiradi, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini oshiradi. O’quvchi ifodalar, bog’liqliklar bilan tanishib borish asnosida topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini, mantiqiy fikrlash izchilligini ta’minlab boradi; tushunchalarni avval didaktik tarzda, so’ng mantiqiy-mulohazaviy tarzda ta’rif eta bilish qobiliyatiga ega bo’ladi; harakatni sodir etish va natijani taqqoslash ko’nikmasiga ega bo’ladi; oldiga qo’yilgan maqsadga eltuvchi usulni topa oladi; ramzlar, belgilarni va ishoralar yordamida vaziyatlarni reallashtirishni o’rganadilar; ma’lumotlarni yig’ish, tartib asosida yozish va mazkur ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish salohiyatlari oshadi; shakl, raqam va ma’lumotlarni tasniflash hamda ularning ahamiyatini belgilashni o’rganadilar”. Mazkur o’quv-uslubiy tadbirlar natijasida o’quvchi “fanni o’zlashtirish bilan bir qatorida o’zining o’qishi va ijtimoiy hayotiga faol aralashuvi uchun kerak bo’lgan tizimli belgililar, ramzlardan foydalanishni o’rganadi, unda ijtimoiylashuv jarayoni kuchayib boradi”.

Universal o’quv harakatlarining har bir guruhiba modellashtirish metodini alohida va umumlashtirgan holda joriy etish tavsiya qilinadi. Tanishtiruv mohiyatiga ega bo’lgan universal o’quv harakatlarining shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. O’quvchilarni matnli topshiriqlarni bajarishga (model turlari: ramziy, grafikli, fanniy o’zgalashtirilgan) tayyorlashning xilma-xil modellarini tanlash, tayyorlash va amaliyotga joriy etish;

2. Kichik yoshdagi o’quvchilarning tadqiqot ishlarini to’g’ri tashkil etish uchun kalkulyator modelidan foydalanishni yo’lga qo’yish;

3. O’quvchilarda universal o’quv harakatlarining shakllanishi va rivojlanib borishi uchun o’quv topshirqlari sifatida beriladigan intellektual va amaliy vazifalarning xilma-xilligini ta’minlash: boshqaruv, tanishtiruv, umumlashtiruv, shaxsga mo’ljallagan mazmunidagi universal o’quv harakatlarilarini har bir dars jarayoni uchun ishlab chiqish (Masalan, tushuntir..., tekshir..., tanla..., taqqosla..., qonuniyatni top..., xulosa to’g’rimi?, top..., mulohaza qil..., kuzat..., xulosa yasa...va hokazo);

4. O’quvchilardan Shahlo va Mahmud fikrni rivojlantiruvchi topshiriq oladi: ikkalasiga bir xil ma’lumot va bir xil topshiriq beriladi; ularning ma’lumotlardan foydalanish qobiliyati va topshiriqni bajarishdagi tasavvurlari sinaladi;

5. O’tgan mavzularda o’rganilgan asosiy tushunchalar va yangi darsda kontekst sifatida keltirish orqali darsning “takrorlash”, “o’tgan mavzuni mustahkamlash” qismi o’tiladi va usulning mahsuldarlik darajasi qayd etib boriladi (bunda mahsuldarlik darajasini aniqlash keltirilgan kontekstning mazmuni, hajmi va o’rinli yoki noo’rinligiga qarab aniqlanadi);

6. O’quvchilardan Shahlo va Mahmud topshirqlarni bajarish ketma-ketligini o’rganganlik darajasini aniqlash uchun sub’ekt sifatida tanlanadi: bunda ularning o’z-o’zini tekshirish, javoblarni taqqoslash, o’quv vazifasini qo’ya bilish qobiliyatları, mulohaza yuritish darajalari va topshiriqni bajarish ketma-ketligiga rioya qilishlar kabi ko’rsatkichlar qayd etib boriladi;

7. O’quvchilarning fanlarni mustaqil o’rganishlari, maqsad qo’yishlari, fanni o’zlashtirib olishni rejalashtirishlari va o’z-o’zlarini sinovdan o’tkazishlarini ta’minlash uchun fanlar bo'yicha elektron darsliklar ishlab chiqiladi;

8. Yangi ko’inishdagi nazorat ishlari – boshlang’ich ta’lim fanlari negizida keng qamrovli nazorat ishlari tavsiya etiladi, unda o’quvchilarning muayyan mavzu emas, butun fan bo'yicha erishgan natijalari, shuningdek, fanlararo bog'liqliklarni o’zlashtirganliklari ham namoyon bo'ladi va universal o’quv harakatlarining shakllanganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

9. Bu yerda ularning o’zaro bahs-munozaralari, o’quvchilarga savollar berishi, mulohaza qilish qobiliyatları, fikrlarining yo’nalishlari o’qituvchi uchun muhokama muhitini hosil qiladi. Bunda o’qituvchi suhbat usulida darsni tashkil etadi; bunda har bir o’quvchida universal o’quv harakatlari namoyon bo'ladi; o’quvchilar o’zaro suhbatga kirishadilar va Shahlo bilan Mahmudning mulohazalarini muhokama qiladilar, shu bilan ularda ilmiy til shakllana boradi, savol berish ko’nikmasi paydo bo'la boradi; munozarada ishtirok etayotganlardan birining fikrini rad etib, ikkinchisini qo'llab-quvvatlash va buning sababini tushuntirib berish layoqati rivojlna boradi, har bir o’quvchining suhbatda ishtirok eta bilish muhiti hosil bo'ladi;

10. O’quvchilarning guruhlar shaklida, umumiylar o’rganishlari uchun ulardan juftliklar hosil qilib, Shahlo bilan Mahmudga o’xshab, bahs-munozara va suhbat muhitini yuzaga keltirish yaxshi samara beradi;

11. Boshlang’ich ta’lim fanlari mantiqiy mazmunini qurishga yangicha yondashuv (xususan, mavzularning mantiqiy jihatdan bog'liqligi ta’minlangan ketma-ketligi, samarali takrorlash, bajariladigan amallarning ketma-ketlik tartibi);

12. Matnli topshirqlarning mazmuni, ya’ni syujeti bolalar sport sektsiyalari, mehnat, Vatan, oila, tabiatni muhofaza qilish kabi qadriyatga aylangan mavzularda bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o’quvchilarda fanlarga bo’lgan qiziqish yanada ortadi, ikkinchidan, topshirqlarni ifoda holiga keltirishda tasavvur kuchayadi, uchinchidan, o’quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhi rovijланади, to’rtinchidin, o’quvchi sekin-astalik bilan fanlar orasidagi bog'liqlikni his etib boradi.

13. Qiyosiy tarzda o’rganish, ya’ni “o’z suratlaringni Eshmatning suratlari bilan solishtirib ko'r va xato-kamchiliklarining o’z ko’zing bilan ko’rib, idrok qil” sifatidagi topshiriqlar va uy vazifalari qo’llaniladi.

Ta’limda «muvaqqiyat muhitini» tashkil etish, bolaga o’qishda muvaqqiyat qozonishiga yordam berish, uning o’z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish, o’quvchiga atrofdagilarning har biri o’zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlan Tirish. O’quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o’ziga ham shaxs nuqtayi nazaridan qarash talab etiladi.

Shaxsga yo’naltirilgan mazmundagi boshlang’ich ta’lim oldiga DTS malaka talablari asosida yangi maqsadlarning qo’yilishi boshlang’ich ta’limning o’zgaruvchan, ko’pqirrali va baholash mezonlarining nisbatan soddalashtirilganlishini taqozo etadi. Bu xususiyatlarning hammasini umumlashtirib “ko’pqirralilik” deb ataymiz. Bundan keyingi o’rinlarda “ko’pqirralilik” degan tushuncha bilan boshlang’ich ta’limda shaxsga yo’naltirilganlik tamoyilining aynan o’zgarib turishi, natijalarni aniqlash osonligi va bilim olishning bir chiziqli emasligini nazarda tutilgan bo'ladi.

Ko’pqirralilik tushunchasining joriy etilishi o’quvchilarning boshlang’ich ta’limda tushunchalarni o’zlashtirish jarayonida o’quvchilardan kelib tushadigan savollar ko’inishidagi talablarga javob sifatida namoyon bo'ladi. O’quvchilarning bilish faktori doirasidagi qiziqishlari mulohaza qilish faktori doirasidagi

qiziqishlariga aylantirish va ta'limning “bilaman – idrok etmoqchiman – idrok etdim” sxemasi asosida interfaol usulda tashkil etilishini ta'minlash aynan shaxsga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'limning modellashtirish metodlari sifatida qaralishi kerak. Butun sinf haqida bunday deb bo'lmaydi. Masalan, “Bilaman – idrok etmoqchiman” ko'rinishidagi natijaga erishish mumkin. Lekin “idrok etdik” degan samara har doim bo'lavermaydi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilganlik mazmunidagi ta'lim joriy etiladi va bu esa o'z navbatida yuqorida ta'rif bergan “ko'pqirralilik” tushunchasining tatbiq etilishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa** sifatida shuni aytish mumkinki, modellashtirish metodlarini matematika fanida joriy etishda o'quvchining sinfdagi ahamiyati sinfdan sinfga o'sib boradi, mantiqiy va aqliy fikrlashini yanada shakllantiradi. Shunga mos ravishda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Bu modellashtirish metodi orqali universal o'quv harakatlarini ham oshiradi, ham ta'lim sifatini yuksaltirishga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Корнилов В.С. Гуманитарная компонента прикладного математического образования // Вестник Московского городского педагогического университета. Серия: Информатика и информатизация образования. 2006. №7. С. 94-99.
2. Мордкович А.Г. Беседы с учителями математики: Учеб.-метод. Пособие/А.Г. Мордкович. – 2-е изд., доп. И перераб. – М.: ООО «Издательство Оникс»: ООО «Издательство «Мир и Образование», 2008. – 336с.
3. Моро М. И., Волкова С. И., Степанова С. В. Математика. Учебник. 1 класс. В 2 частях – М.: Просвещение – 2014.
4. Нуруллаева Ш.Ў. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчилари педагогик тайёргарлигини моделлаштириш назарияси ва методикаси. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Қарши. 2021.-63 б.
5. Пиаже Ж. Как дети образуют математические понятия // Вопросы психологии , 1966 . № 4 . с 121-127.
6. Подходова Н.С. Метаметодический подход к образовательному процессу // Современные научноемкие технологии. – № 6. – 2004 – С. 14 – 16.v
7. Пышкало А.М. Совершенствование математической и методической подготовки учителей начальных классов [Текст] / А. М. Пышкало, Л. П. Стойлова // Советская педагогика. — 1976. — № 2. — С. 90 – 96.

## O’RTA MAKTABDA ANIQ INTEGRAL MAVZUSINI O’QITISH BO’YICHA TAKLIFLAR

Jumayev Jura,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti  
j.jumaev@buxdu.uz  
Xayrullayeva Durdona O’ktam qizi,  
Buxoro davlat universiteti magistranti

*Maqolada o’rta maktab kursida o’tiladigan “Aniq integral” tushunchasini o’quvchilarga tushunarli tarzda bayon etishga yangicha yondashuv tavsija etilgan. Bunda 11-sinf matematika darsligida integrallanuvchi soha yuzasini tushuntirishda yana bitta qo’shimcha rasm qo’yish, trapetsiya ko’rinishini to’g’ri to’rtburchak ko’rinishiga kelishini tushuntirish, Nyuton-Leybnis formulasini keltirib chiqarishda aniqlik kiritish va bunda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo’llari tavsija etilgan.*

**Kalit so’zlar:** Aniq integral, matematikani o’qitish, egri chiziqli trapetsiya, to’g’ri to’rtburchak, boshlang’ich funksiya, hosila, Nyuton-Leybnis formulasi.

### ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО ПРЕПОДАВАНИЮ ТЕМЫ «ОПРЕДЕЛЁННЫЙ ИНТЕГРАЛ» В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

*В статье рекомендуется новый подход к объяснению понятия «Определённый интеграл» в курсе средней школы в доступной для учащихся форме. В связи с этим в учебнике математики для 11 класса рекомендуется при объяснении площади интегрируемого поля добавить ещё одну картинку, объяснить приведение формы трапеции к прямоугольнику, а также ввести некоторые объяснения к способу вывода формулы Ньютона-Лейбница, приводятся аспекты использования информационных технологий при решении задач.*

**Ключевые слова:** определённый интеграл, преподавание математики, криволинейная трапеция, прямоугольник, первообразная функция, производная, формула Ньютона-Лейбница.

### SUGGESTIONS FOR TEACHING A SPECIFIC INTEGRAL SUBJECT IN SECONDARY SCHOOL

*The article recommends a new approach to explaining the concept of "Definite Integral" in a high school course in a form accessible to students. In this regard, in the mathematics textbook for grade 11, it is recommended to add another picture when explaining the area of the integrated field, explain the reduction of the trapezoid shape to a rectangle, and also introduce some explanations for the method of deriving the Newton-Leibniz formula, and provide aspects of using information technology in solving problems.*

**Keywords:** definite integral, teaching mathematics, curvilinear trapezoid, rectangle, primitive function, derivative, Newton-Leibniz formula.

**Kirish.** Hozirgi paytda turli sohalarda matematikaning o‘rni ortib borayotgani sari uning o’rta maktabda o’quv predmeti sifatidagi ahamiyatini oshirib, uning oldiga o’quvchilarning nafaqat kitoblardan olingan tayyor bilimlar bilan ish yurita oladigan, balki tobora murakkablashib borayotgan jarayonlarni boshqara oladigan insonlarni tarbiyalash vazifasini qo’yadi. Matematikani umumiyligi nuqtayi nazardan, turli faktlar va hodisalarni qamrab olishga imkon beradigan umumiyligi g’oyalari va usullarga ega bo’lgan ilmiy ma'lumotlar to’plami deyish mumkin. Shuning uchun maktab oldida turgan vazifalardan biri maktab matematika kursining mazmunini zamonaviy fan yutuqlariga yaqinlashtirish, matematik madaniyat darajasini oshirish, maktab o’quvchilarining matematik rivojlanish darajasini oshirishdir.

Hozirgi vaqtda o’rta maktabda “Aniq integral” mavzusini o’rganishning aktualligi “Aniq integral” mavzusining mazmunini aniqlash bilan bog’liq uslubiy muammolarining mavjudligi va bu mavzu bo’yicha asosiy tushunchalarni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishining murakkabligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, mavzuning ilmiy taqdim etilishi va uning o’quvchilar uchun ochiqligi, ta’lim samaradorligi va sifatini oshirish vazifasi bilan o’rta maktabda “Aniq integral” mavzusini o’rganish uslublarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o’rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo’lib turibdi.

Shuning uchun ham matematikani o’qitishda turli qarashlarga ega tadqiqotlar paydo bo’lishi tabiiydir. Ayniqsa, amaliy ahamiyatga ega bo’lgan aniq integralni oqitish borasida ham tadqiqotlar davom etmoqda[1-4,9-11].


O’quv va uslubiy adabiyotlarda borligi qayd etilgan antiderivativ va integralni o’rganishning bir necha usullari keltirilgan, masalan, avval aniq integral ta’rifi keltirilib, o’quvchilar Nyuton-Leybnits formulasi haqida tasavvurga ega bo’lgandan so’ng boshlang’ich funksiya beriladi, so’ng aniq integralga o’tildi kabi takliflar berilgan. Bunda aniq integralni kiritish turlicha usullari taklif etiladi: birinchisi – integral boshlang’ichning orttirmasi sifatida, ikkinchisi – integral bu integral summalar yig’indisi sifatida.

Sh. A. Alimov [2], Mordkovich [3] kabi mualliflarning asarlarida avval boshlang’ich funksiya berilib, so’ng ularfiguralar yuzini hisoblashda qo’llaniladi.


Yuqoridagi tahlillardan ko’rinadiki, aniq integralni o’rta matabda o’qitish mavzusi bo’yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Maktab kursida aniq integralni o’qitishda integral osti funksiyasi boshlang’ichining kesma oxirlaridagi qiymatlari ayirmasi sifatida olinishi sifatida yondashilib tushuntiriladi va u Nyuton-Leybnis formulasi deyiladi. Hozirgi maktab darsligida keltirilgan ushbu formulasini tushuntirish ketma-ketligi o’quvchilarga yanada tushunarliroq bo’lishi uchun ayrim mulohazalarni keltirmoqsimiz.

**Metodika.** 11- sinf darsligida aniq integral mavzusi quyidagi tushuntirishlar bilan boshlanadi: 1-rasmida tasvirlangan shakl *egri chiziqli trapetsiya* deyiladi. Bu shakl yuqorida  $y = f(x)$  funksiyaning grafigi bilan, quyidan  $[a; b]$  kesma bilan, yon tomonlardan esa  $x = a, x = b$  to‘g’ri chiziqlarning kesmalari bilan chegaralangan.  $[a; b]$  kesma egri chiziqli trapetsiyaning *asosi* deyiladi[4].

Egri chiziqli trapetsiyaning yuzini qaysi formulaga ko‘ra hisoblaymiz, degan savol tug‘iladi. Shu yerda agar  $y = f(x)$  to‘g’ri chiziq bo’lganda bu figura trapetsiya ko’rinishini olgan bo’lar va, uning yuzini topish formulasini oldin ko’rganmiz, qani, hurmatli o’quvchilar, bu qanday formula edi, deb o’quvchilarni muloqotga tortishni taklif qilgan bo’lar edik. Formula aniqlangandan so’ng, endi  $y = f(x)$  egri chiziq bo’lganda bunday formula mavjud emasligi, bu yerda so’nggi soatlarda ko’rilgan integral mavzusidan foydalanish mumkinligi aytilib, 1-rasmga qaytilsa, tushunish yanada yaxshiroq bo’lishi mumkin.



1-rasm. Bir tomoni  $y = f(x)$  chiziq bilan chegaralangan yuza.



2-rasm. Yuzani  $S(x)$  funksiyasi kabi belgilash.


Endi bu yuzni  $S$  deb belgilash taklif etiladi.  $S$  yuzni  $f(x)$  funksiyaning boshlang’ich funksiyasi yordamida hisoblash mumkin ekanligi aytilib, shunga oid mulohazalar keltiriladi.

So’ng  $[a, x]$  asosli egri chiziqli trapetsiyaning yuzini  $S(x)$  deb belgilash taklif etiladi (2-rasm), bunda  $x$  shu  $[a; b]$  kesmadagi istalgan nuqta:  $x = a$  bo’lganda  $[a, x]$  kesma nuqtaga aylanadi, shuning uchun  $[a, x]$  da  $S(a) = 0$ ;  $x = b$  da  $S(b) = S$ .


Shundan so’ng  $S(x)$  ni  $f(x)$  funksiyaning boshlang’ich funksiyasi bo’lishini, ya’ni  $S'(x) = f(x)$  ekanini ko’rsatishga o’tildi.  $S(x+h) - S(x)$  ayirmani ko’rishga o’tildi, bunda  $h > 0$  ( $h < 0$  hol ham xuddi shunday ko’riladi). Bu ayirma asosi  $[x; x+h]$  bo’lgan egri chiziqli trapetsiyaning yuziga teng (3-rasm). Kitobda keltirilgan 3-rasmdagi ko’rinishdan h qadam katta qilib olingani uchun egri chiziqli

trapetsiya deb aytib ketilgan, va agar  $h$  son kichik bo’lsa, u holda bu yuz taqriban  $f(x) \cdot h$  ga teng, ya’ni  $S(x+h) - S(x) \approx f(x) \cdot h$  deyilgan. Demak,

$$\frac{S(x+h) - S(x)}{h} \approx f(x) \quad (1)$$



**3-rasm. h qadam kattaroq  
ko'rinish holati.**



**4-rasm. h qadam kichik ko'rinish holati.**

degan xulosaga kelinyapti. Bu yerda trapetsiya holdan to’g’ri to’rtburchak ko’rinishiga o’tib ketilyapti, shuning uchun biz bu yerda 3-rasm o’rniga 4-rasmni qo’yishni taklif qilamiz, agar shunday qilinsa, oradan trapetsiya so’zi chiqib ketadi, o’quvchini bu so’z chalkashtirmaydi, yuzani  $f(x) \cdot h$  ko’rinishda olish 4-rasmdagi ko’rinishdan mantiqan to’g’ri ekan ko’rinadi.

Endi (1) taqribiy tenglikning chap qismi  $h \rightarrow 0$  da hosilaning ta’rifiga ko’ra  $S'(x)$  ga intilishi, shuning uchun  $h \rightarrow 0$  da  $S'(x) = f(x)$  tenglik hosil bo’lishini ko’rsatish mumkin. Demak,  $S(x)$  yuz  $f(x)$  fiunksiya uchun boshlang’ich funksiyasi ekanligi aytildi.

Endi darslikda boshlangich funksiya  $S(x)$  dan ixtiyoriy boshqa boshlangich  $F(x)$  funksiya o’zgarmas songa farq qiladi, ya’ni

$$F(x) = S(x) + C \quad (2)$$

deb ketilgan. Lekin buni ma’nosi keltirilmagan. Bizningcha, ushbu formulani quyidagicha tushuntirish mumkin. 2-rasmda keltirilgan yuza  $x$  ga bog’liq bo’lganligi uchun

$$S(x) = \int_a^x f(t) dt \quad (3)$$

deyish mumkin. Bu yerda  $t$ - biror bir o’zgaruvchi. Aniqmas integral nuqtayi-nazaridan biror  $F(x)$  funksiya (3) dagi  $f(x)$  ning boshlang’ich funksiyasi bo’lsa, quyidagi tenglik o’rinli:

$$F(x) = S(x) + C \quad (4)$$

Bu tenglikdan  $x=a$  da  $F(a) = S(a) + C$  va (3)ni hisobga olgan holda  $S(a) = 0$  bo’lgani uchun  $C = F(a)$  ga ega bo’lamiz. U holda (3) tenglikni quyidagicha yozish mumkin:

$S(x) = F(x) - F(a)$ . Bundan  $x=b$  da  $S(b) = F(b) - F(a)$  ekanini topamiz. Bu esa 1-rasmdan S sohaning yuzi.

Demak, egri chiziq bilan chegaralangan yuzani (1-rasm) quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$S(b) = F(b) - F(a) \quad (5)$$

bunda  $F(x)$  - berilgan  $f(x)$  funksiyaning istalgan boshlangich funksiyasi.

$S(b)$  esa (3) ni hisobga oladigan bo’lsak,  $S(b) = \int_a^b f(x) dx$  kabi bo’lad. U holda (5)

quyidagi ko’rinishni oladi:


$$\int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a) \quad (6)$$

Shunday qilib, egri chiziqli sohaning yuzini hisoblash  $f(x)$  funksiyaning  $F(x)$  boshlang'ich funksiyasini topishga, ya'ni  $f(x)$  funksiyani integrallashga keltiriladi va (6) formula Nyuton-Leybnis formulasi deb atalishi aytib o'tiladi.

Hozirgi vaqtida kompyuter va noutbuklar maktablarda, o'qituvchilar qo'lida ko'payib borayotgani ulardan o'quv jarayonida keng qo'llash imkoniyatini yaratmoqda. Aniq integral mavzusida o'quvchilarga berilgan murakkabroq topshiriqlarni to'g'ri bajarilganini shu integralni kompyuterda tezda bajarib tekshirib olish mumkin. Buning uchun hozirgi vaqtida keng tarqalgan, oliv ta'linda keng qo'llanilayotgan MathCAD tizimidan foydalanish mumkin[5-9]. Ushbu dasturni kompyuterda o'rnatish qiyin emas. MathCADdagi Calculus palitrasidan foydalanib aniq integralni natijasini tezda olish mumkin(5-rasm).

$$\int_8^{27} \frac{1}{\sqrt[3]{x}} dx = 7.5$$

$$\int_0^3 x \sqrt{x+1} dx = 7.733$$



**5-rasm. Calculus komponenti va uning yordamida natijalar olish**


Shuningdek, o'quvchilarda integrallash sohasi yanada tushunarli bo'lishi uchun uni ranglarga bo'yab ko'rsatish imkonini ham bor. Buning uchun MathCAD tizimidagi dasturlash imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Misol tariqasida MathCAD ekranida  $\int_{-2}^8 (\sqrt{x^3 + 16}) dx$  integrallash sohasini bo'yash usulini keltiramiz[6].

$$f1(x) := 0 \quad f2(x) := \sqrt{x^3 + 16}$$

$$xmin := -2 \quad xmax := 8 \quad d := 1000 \quad dn := \frac{xmax - xmin}{d}$$

$$\begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix} := \begin{cases} \text{for } i \in 0, 2.. d \\ \quad x_i \leftarrow xmin + dn \cdot i \\ \quad x_{i+1} \leftarrow x_i + dn \\ \quad y_i \leftarrow f1(x_i) \\ \quad y_{i+1} \leftarrow f2(x_{i+1}) \\ \end{cases} \begin{pmatrix} x \\ y \end{pmatrix}$$

Ushbu dastur yordamida olingan natijalar bo'yicha integrallash sohasini MathCAD imkoniyatlari yordamida olamiz:



**6-rasm. Integrallash sohasi**

**Xulosa.** O’rta maktab kursida aniq integralni o’qitishda darslikka qo’shimcha ravishda mavzuni olib beruvchi rasmlar, formulalar, tusuntirishlar kiritish tavsiya etildi. Nyuton-Leybnis formulasi g’oyasini olib berishda yondashuv taklif etildi. Shuningdek, aniq integral mavzusini o’tish vaqtida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keltirildi. Ushbu mulohazalardan foydalanish o’quvchilar tomonidan mavzuni to’laroq tushunishga imkon beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Капкаева Л.С. Теория и методика обучения математике: частная методика. В 2 ч. Часть 2: учеб. пособие для вузов / Л. С. Капкаева . – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Юрайт, 2017. – 191 с.
2. Алимов Ш.А. и др. Алгебра и начала математического анализа. Учебник для 10-11 классов//М.: Просвещение, 2012. 464 с.
3. Mirzaahmedov M.A., Ismailov Sh.N., Amanov A.Q. Algebra va analiz asoslari. 11-sinf uchun darslik. Toshkent, “Zamin nashr”, 2018. 192 b.
4. Мордкович А.Г. Алгебра и начала математического анализа. 10-11 классы. В 2 частях. Часть 1. Учебник (базовый уровень) -. М.: 2014. - 311с.
5. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar.[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8701](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701)
6. Jumayev J., Shamsiddinova M.U. Aniq integral mavzusini o’qitishda python grafik imkoniyatlaridan foydalanish// Pedagogik mahorat, 2023, № 9, 240-245 b. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAA AJ&citation\\_for\\_view=Ej9NBzMAAA AJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ej9NBzMAAA AJ&citation_for_view=Ej9NBzMAAA AJ:IjCSPb-OGe4C)
7. Жумаев Ж., Опокина Н.А. Решение математических задач в пакетах математических программ Maxima и MathCAD. Электронное учебное пособие, Казань: КФУ, 2021г. – 228 с.
8. Sharipov N.Z., Gafurov K.X., Jumayev J. Mahalliy soya urug‘ini po‘stlog‘idan ajratish jarayonini tadqiq qilish// Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. Ilmiy-texnikaviy jurnal. № 4, 2022. 47-52 betlar.
9. Мехов В.В. Интегральное исчисление в школьном курсе математики//Автореферат магистерской работы. Саратов-2017. [http://elibrary.sgu.ru/VKR/2018/44-04-01\\_010.pdf](http://elibrary.sgu.ru/VKR/2018/44-04-01_010.pdf)
10. Джумаева О.А. и др. Методические приемы решения задач по теме «Интегральное исчисление» в школе и вузе//Didactics of mathematics: Problems and Investigations. 2024, no. 3 (63)
11. Xudayberganov G., Vorisov A.K., Mansurov X.T., Shoimqulov B.A. Matematik analizdan ma’ruzalar. O’quv qo’llanma//Т.:2010,” Voris-nashriyot”. 37 b.

## GLOBAL TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Kamolova Dilshoda Odilovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Texnologik ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi*

*Ushbu maqola global ta’lim muhitida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlanadirishga qaratilgan metodikani takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda talabalarning ekologik bilim, mas’uliyat va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun zamonaviy va interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanishning samaradorligi o‘rganildi. Statistik tahlillar talabalarning ekologik bilim darajasi 40% dan 85% gacha oshganligini ko‘rsatdi. Shuningdek, ekologik mas’uliyatni rivojlanirishda texnologiyalarga asoslangan yondashuvlar va jamoaviy loyihalarning muhim ahamiyati aniqlangan. Maqolada ekologik ta’lim jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Ushbu tadqiqot natijalari ekologik ta’limni zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etishning dolzarbligini tasdiqlaydi.*

**Kalit so‘zlar:** ekologik kompetentlik, ekologik ta’lim, texnologik yondashuv, mas’uliyat, innovatsion metodlar, jamoaviy loyihalar, ekologik ong, global ta’lim muhiti.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ГЛОБАЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

В статье представлены результаты исследования по совершенствованию методики, направленной на развитие экологической компетентности обучающихся в глобальной образовательной среде. В ходе исследования изучалась эффективность использования современных и интерактивных методов обучения для формирования экологических знаний, ответственности и практических навыков студентов. Статистический анализ показал, что уровень экологических знаний студентов увеличился с 40% до 85%. Также определена важность технологических подходов и коллективных проектов в развитии экологической ответственности. В статье даны конкретные рекомендации по совершенствованию процессов экологического образования. Результаты данного исследования подтверждают актуальность организации экологического образования с помощью современных технологий.

**Ключевые слова:** экологическая компетентность, экологическое образование, технологический подход, ответственность, инновационные методы, коллективные проекты, экологическое сознание, глобальная образовательная среда.

### IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING THE ECOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN A GLOBAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

*This article contains the results of a study on improving the methodology for developing students' environmental competence in a global educational environment. The study examined the effectiveness of using modern and interactive teaching methods to form students' environmental knowledge, responsibility and practical skills. Statistical analysis showed that the level of environmental knowledge of students increased from 40% to 85%. It also identified the important role of technology-based approaches and team projects in developing environmental responsibility. The article provides specific recommendations for improving environmental education processes. The results of this study confirm the relevance of organizing environmental education using modern technologies.*

**Keywords:** ecological competence, environmental education, technological approach, responsibility, innovative methods, team projects, environmental awareness, global educational environment.

**Kirish.** Global ta’lim muhiti hozirgi zamon ehtiyojlariga javob beruvchi muhim omillardan biri sifatida ko‘rilmoxda. Zamonaviy ta’lim tizimi talabalarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni ham berishni maqsad qilib qo‘yadi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik kompetentlik talabalarning global muammolarni tushunishi va ularning yechimida faol ishtirok etishini ta’minlovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik muammolar nafaqat bir mamlakat yoki mintaqqa, balki butun dunyo uchun dolzarb masalalarga aylangan. Atmosfera ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv

resurslarining kamayishi va boshqa ko‘plab ekologik xavflar insoniyatning kelajagini xavf ostiga qo‘ymoqda. Shu bois, ta’lim muassasalarida ekologik kompetentlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bu jarayon talabalarda ekologik ong, mas’uliyatli xulq-atvor, va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Akbarova (2023) tomonidan ta’kidlanganidek, ekologik kompetentlik nafaqat tabiatga mas’uliyatlil munosabatni, balki ekologik muammolarni hal etish bo‘yicha amaliy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirishda talabalarning ekologik tarbiyasini takomillashtirish, innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish, va global ekologik muammolar bo‘yicha xabardorlikni oshirish katta ahamiyatga ega. Hamrayeva va Yo‘ldasheva (2023) ilmiy ishlarida ta’kidlanganidek, oliy ta’lim muassasalarida ekologik ta’limni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur muhitda ekologik tarbiya talabalarning nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ko‘nikmalarini shakllantiradi, balki ularning ijtimoiy mas’uliyat hissini ham oshiradi. Shuningdek, ekologik kompetentlikni shakllantirishda bolalarning tabiatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish muhim ahamiyatga ega. Sadinova (2022) ekologik ta’lim orqali bolalarda mas’uliyat hissini rivojlantirishning samaradorligini ta’kidlaydi. Ularning tabiatga nisbatan hurmat va ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari kelajak avlod uchun qulay muhit yaratishning asosi hisoblanadi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali ekologik ta’limni takomillashtirishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Saidova (2022) axborot texnologiyalarining ekologik ta’limdagi o‘rni va uning samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilgan. Zamonaviy vositalardan foydalanish talabalar uchun ekologik bilimlarni yanada qiziqarli va samarali qilib ko‘rsatadi. Mazkur maqolada talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari, global ta’lim muhitida foydalanilayotgan metodlar va innovatsiyalar o‘rganiladi. Bu jarayon ekologik mas’uliyatli jamiyatni shakllantirish uchun muhim qadam hisoblanadi.


**Adabiyotlar tahlili.** Akbarova (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ekologik kompetentlikni rivojlantirishning mazmun va metodlarini o‘rganishga qaratilgan. Uning ta’kidlashicha, ekologik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida nazariy bilimlar bilan birga, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhimdir. Bu esa zamonaviy ekologik ta’lim metodikalarining takomillashtirilishini talab qiladi. Sadinova (2022) ekologik ta’limning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini ta’kidlab, bolalarda tabiatga nisbatan mas’uliyat hissini shakllantirishda ekologik tarbiyaga asoslangan metodlarni samarali qo‘llashni tavsiya qiladi. Uning tadqiqoti bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni qo‘llash orqali ekologik tarbiya natijalarini optimallashtirishga yo‘naltirilgan.

Hamrayeva va Yo‘ldasheva (2023) oliy ta’limda ekologik tarbiyani rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni taklif qilgan. Ularning fikricha, ekologik ta’lim nafaqat nazariy asoslari, balki amaliy mashg‘ulotlar orqali ham talabalarning ekologik madaniyatini oshirishi zarur. Saidova (2022) ekologik ta’limni innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirishni o‘rganib chiqdi. Uning fikricha, axborot texnologiyalari orqali ekologik muammolarni tushunish va hal etish bo‘yicha interaktiv yondashuvlar talabalar orasida samarali natijalar berishi mumkin. Yuqoridaqgi adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik kompetentlikni rivojlantirishda global ta’lim muhitida o‘qitishning innovatsion usullari, axborot texnologiyalari va amaliy mashg‘ulotlardan keng foydalanish talab qilinadi. Shu tariqa, ekologik ta’lim nafaqat talabalarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning ekologik mas’uliyatini ham shakllantiradi.

**Metodlar.** Ushbu tadqiqotda talabalar ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Metodologiya sifatida aralash uslub (mixed-methods) qo‘llanildi, bu esa sifat va miqdoriy ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda, talabalarning ekologik kompetentligini aniqlash uchun so‘rovnama va intervylar o‘tkazildi. So‘rovnomalar 150 nafar oliy ta’lim talabalari o‘rtasida o‘tkazilib, ularning ekologik ong, mas’uliyat hissi va amaliy ko‘nikmalarini baholandi. Shuningdek, o‘quv dasturlarining ekologik tarkibini tahlil qilish uchun mazmuniy tadqiqot o‘tkazildi. Ikkinci bosqichda, innovatsion ta’lim metodlari sinovdan o‘tkazildi. Ushbu jarayonda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv treninglar tashkil etildi. Treninglarda talabalarning ekologik mas’uliyatini oshirish uchun ekologik loyihibar va simulyatsiyalardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar statistik va kontent tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalarining ishonchhliligi ta’minlandi. Shu orqali ekologik kompetentlikni rivojlantirishning samarador yondashuvlari aniqlandi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda o‘tkazilgan metodlarning samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Tadqiqotda qatnashgan 150 nafar talabandan dastlabki bosqichda olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning ekologik bilimlari va mas’uliyati past darajada edi. Jumladan, 67% talabalar o‘z bilimlarini ekologik masalalar bo‘yicha yetarli emas deb baholagan, 28%

talabalar esa ilgari hech qanday ekologik trening yoki amaliy mashg‘ulotlarda qatnashmagan. Shuningdek, 60% talabalar ekologik muammolarga amaliy yondashuvga oid ko‘nikmalarga ega emasliklarini tan olishdi. Trening va amaliy mashg‘ulotlardan keyingi natijalar sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Talabalarning ekologik bilimlari o‘rtacha 40% darajadan 85% darajaga oshdi. Bu, xususan, ekologik muammolarni tushunish, ularni tahlil qilish va yechim taklif qilish ko‘nikmalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ekologik loyihalarda faol ishtirok etish istagini bildirgan talabalar soni dastlabki bosqichda 42% ni tashkil etgan bo‘lsa, treninglardan so‘ng bu ko‘rsatkich 78% gacha ko‘tarildi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida interaktiv usullarning samaradorligi yuqori bo‘ldi. Jumladan, ekologik masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan guruh loyihalari va ekologik simulyatsiyalar orqali talabalarning qiziqish darajasi oshdi. Tadqiqot jarayonida ekologik bilimlarni texnologiyalar yordamida o‘zlashtirgan talabalar soni 55% dan 92% gacha oshdi.



**1-rasm. Natijalar jamlanmasi**

Shuningdek, talabalar orasida ekologik mas’uliyatga oid amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish ularning jamiyatda ekologik masalalarni tushunish va ularga yechim taklif qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Masalan, trening davomida talabalar 12 ta ekologik loyiha ishlab chiqib, ularni baholashda yuqori natijalar qayd etildi. Ushbu loyihalardan 7 tasi jamoaviy ish bo‘lib, barcha ishtirokchilar ekologik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini namoyish etdilar. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ekologik treninglar va amaliy mashg‘ulotlar talabalar o‘rtasida ekologik ongni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ekologik loyihalarda yetakchilik qilishga tayyor bo‘lgan talabalar soni **15%** dan **62%** gacha oshganligi qayd etildi. Ushbu natijalar ekologik ta’limning amaliy yondashuvlarga asoslangan holda olib borilishi samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida ekologik kompetentlik darajasini oshirish bo‘yicha maxsus strategiyalar ishlab chiqildi. Ushbu strategiyalarni keng miqyosda qo‘llash talabalar ekologik mas’uliyatini yanada oshirishga va ularni ekologik muhitni yaxshilashda faol ishtirokchi bo‘lishiga yordam beradi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari ekologik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ishlatalgan metodik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqladi. Dastlabki bosqichda talabalar ekologik bilimlar va mas’uliyat borasida past ko‘rsatkichlarni qayd etgan bo‘lsa, o‘quv va amaliy mashg‘ulotlardan so‘ng bu ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi. Masalan, ekologik bilim darajasining 40 foizdan 85 foizgacha o‘sisi talabalarning ekologik masalalarga e’tiborini kuchaytirganligini ko‘rsatadi. Bu esa, ekologik ta’lim jarayonida yangi va innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Muhokama jarayonida ekologik kompetentligini rivojlantirishda qo‘llanilgan trening va amaliy mashg‘ulotlar texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarining muhim rol o‘ynaganligi aniqlandi. Jumladan, interaktiv mashg‘ulotlar va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan simulyatsiyalar talabalar qiziqishini oshirgan. Shu bilan birga, ekologik mas’uliyatni rivojlantirishda jamoaviy ishlarga asoslangan loyihalar ham samarali bo‘ldi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalardan foydalangan talabalar soni 55 foizdan 92 foizgacha oshdi. Bu raqamlar ekologik ta’limni zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etishning ijobiy natijalarini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, treninglardan so‘ng talabalarning ekologik muammolarga amaliy yondashuv darajasi sezilarli darajada o‘zgardi. Dastlabki bosqichda ekologik loyihalarda faol ishtirok etgan talabalar soni 42 foiz bo‘lsa, treninglardan so‘ng bu ko‘rsatkich 78 foizga yetdi. Ushbu natijalar ekologik mas’uliyatni

shakllantirishda amaliy mashg‘ulotlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda ekologik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan strategiyalar talabalarning ekologik ongini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Jumladan, ekologik muammolarni hal qilishda liderlik qilishga tayyor bo‘lgan talabalar soni 15 foizdan 62 foizga oshgani o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rsatadi. Bu esa ekologik ta’lim tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot ekologik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy va innovatsion metodlarni qo‘llash samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Talabalar o‘rtasida ekologik bilim va mas’uliyat darajasining sezilarli oshishi ekologik ta’limning texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirilishi kerakligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlar va jamoaviy loyihalarning ahamiyati muhim bo‘ldi.

Tadqiqot davomida ekologik kompetentlikni rivojlantirishning asosiy omillari quyidagilar ekanligi aniqlandi:

1. Interaktiv va texnologik o‘qitish usullarini qo‘llash.
2. Jamoaviy ishlarga asoslangan ekologik loyihalalar tashkil etish.
3. Ekologik mas’uliyatni rivojlantiruvchi treninglarni muntazam ravishda o‘tkazish.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Ekologik ta’lim jarayonini texnologiyalarga asoslangan interaktiv metodlar yordamida boyitish.
- Talabalarda ekologik mas’uliyatni rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar va treninglarni ko‘paytirish.

- Talabalarni ekologik loyihalarda ishtirok etishga jalg qilishni rag‘batlantirish.

Xulosa qilib aytganda, ekologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodlarning natijadorligi yuqori ekanligi tadqiqot davomida isbotlandi. Ushbu metodlarni keng miqyosda qo‘llash orqali ekologik ta’lim tizimini takomillashtirish va jamiyatda ekologik ongni rivojlantirishga erishish mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Akbarova, S. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish mazmuni. // Prospects of development of science and education, 1(9), 48-51.
2. Sadinova, K. D. (2022). Zamonaviy ekologik ta’limda bolalarning tabiatga, jamiyatga va o‘z-o‘ziga nisbatan mas’uliyatli munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari. // Miasto Przyszlosci, 29, 194-196.
3. Hamrayeva, O. F., & Yo’ldasheva, F. R. (2023). Oliy ta’lim muassasasida ekologik tarbiyani rivojlantirish. // Yangi O‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 1(1), 37-40.
4. Saidova, N. (2022). Bolajak boshlangich sinf oqituvchilari kompetentligini oshirishda axborot texnologiyalarining orni. // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(22), 4-7.
5. Xasanovna, R. M. (2024). Rivojlanish psixologiyasida yosh o‘ziga xosliklari. // The latest pedagogical and psychological innovations in education, 1(2), 183-189.
6. Xalmatova, D. A. (2024). Talabalarga ijtimoiy-gumanitar fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Pedagogik diagnostika va korreksiya fani misolida). // Pedagog, 7(3), 140-147.

## KIMYO FANINI O‘QITISHDA STEM YONDASHUVDAN FOYDALANISH

*Karimova Dilorom Amonovna,*

*Navoiy davlat universiteti, Kimyo kafedrasi professori*

*Usmonova Lola Mallayevna,*

*Navoiy davlat universiteti, Kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*Ergasheva Ro‘zigul To‘lqin qizi,*

*Navoiy davlat universiteti, Kimyo kafedrasi tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitish jarayonida STEM yondashuvdan foydalanish haqida fikrlar berilgan. O‘qitishning zamonaviy usullari va ularning o‘quvchilar bilim olishidagi ahamiyati berilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish masalalari berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** STEM, o‘qituvchining vazifasi, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, axborot texnologiyalari, muhandislik, dasturiy ta’milot.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОДХОДА STEM В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

*В данной статье изложены идеи по использованию STEM обучения химии. Приведены современные методы преподавания и их значение в обучении студентов. Также освещены вопросы формирования самостоятельного мировоззрения студентов, обучения критическому мышлению.*

**Ключевые слова:** STEM, задача учителя, мировоззрение, критическое мышление, информационные технологии, инженерный, программное обеспечение.

### USING THE STEM APPROACH IN CHEMISTRY TEACHING

*This article outlines ideas for using STEM in teaching chemistry. Modern teaching methods and their importance in teaching students are presented. The issues of forming an independent worldview of students and teaching critical thinking are also covered.*

**Keywords:** STEM, role of the teacher, worldview, critical thinking, information technology, engineering, software.

**Kirish.** Zamonaviy o‘quv jarayonini yangilikni izlamasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buning uchun yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi. Kimyo-bu juda qiyin fan va o‘qishning birinchi yilida ko‘plab mакtab o‘quvchilar qiziqishini yo‘qotadilar. Har bir o‘qituvchi o‘z fani doirasida mакtab o‘quvchilariga qiziqish uyg‘otishini istaydi, kimyo fanida o‘quvchilar nafaqat formulalar va kimyoviy reaksiya tenglamalarini yoza oladilar, balki dunyoning kimyoviy manzarasini tushuna oladilar, mantiqiy fikrlay oladilar, shunda har bir dars bayram, o‘qituvchi va o‘quvchilarga quvonch baxsh etuvchi teatr kabi o‘tadi.

**Asosiy qism.** Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tayyor ma’lumotni tinglash o‘rganishning eng samarasiz usullaridan biridir. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchini o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. O‘quvchilar fanga qiziqqan taqdirdagina ma’lumotlarni mustaqil izlanish orqali o‘rganishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi axborot yetkazuvchi rolini unutishi, u o‘quvchilar faoliyatini tashkilotchisi rolini o‘ynashi, ta’lim va rivojlanish sodir bo‘ladigan ozuqaviy muhitni tashkil etuvchi o‘qituvchi-murabbiy, maslahatchi va yordamchi bo‘lishi kerak.

Har bir o‘qituvchi o‘z oldiga asosiy vazifa sifatida o‘quvchilarining bilim olishiga bo‘lgan qiziqishini, ijodkorligini rivojlantirishdan iborat, chunki o‘quv jarayonidagi qiziqish va ijodkorlik o‘quvchilarini fan bo‘yicha chuqurroq bilim olishga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydigan kuchli vosita deb qarashi lozim. Ushbu vazifalarni hal qilish yo‘llaridan biri ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bo‘lib, u o‘qitishning shakl va vositalarini o‘zgartirish, kengaytirish imkonini beradi.

Zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining maqsadi-STEM yondashuvdan foydalanish orqali o‘quv fanining motivatsiyasini oshirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. STEM ta’limi-innovatsion metodologiya bo‘lib, u to‘liq tizimli, jumladan tabiiy fanlarni muhandislik, texnologiya va matematika bilan birgalikda o‘rganishni anglatadi.

STEM texnologiyalaridan foydalanganda muammoga yechim topish va axborot bilan ishlashni o‘rganish qobiliyati rivojlanadi. STEM texnologiyasi bilan aniq javoblar berilmaydi, ularni o‘zingiz topishingiz kerak. Bu o‘quvchilarga o‘z tajribasidan kelib chiqib, xulosalar tuzish, olingan bilimlarni amaliyatga qo‘llash va muammo bo‘yicha o‘z (yoki guruh) nuqtayi nazarini taklif qilish imkonini beradi.

STEM texnologiyalari amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga va umumiyl o‘rtalim mifikatitiruvchilarining ta’lim muassasalarida ijodiy g‘oyalarini amalga oshirishni davom ettirishga tayyorligini shakllantirishga yo‘naltirilgan kadrlar tayyorlashda va keyingi kasbiy faoliyatida katta imkoniyatlarga ega.

Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar oddiy va qulay muhandislik yechimlari asosida zamonaiviy materiallar va jihozlardan foydalangan holda mustaqil ravishda mahsulot prototiplarini yaratadilar. Yakuniy mahsulotni yaratish uchun o‘quvchilar mavjud jihozlarning qismlaridan foydalanishlari yoki plastmassa va kartondan model yaratishlari mumkin, ammo har qanday holatda ular turli materiallarni birlashtirishda tajribaga ega bo‘ladilar, moddalarning xususiyatlarini hisobga olishni o‘rganadilar va qanay qilib eng yaxshi ulanishni tushunadilar. Modelni iloji boricha funksional va samarali qilish uchun uning tarkibiy qismlari o‘rganiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish STEM o‘rganish uchun bir imkoniyatdir. Tanqidiy fikrlash mavjud vaziyatga mustaqil, xolis qarashni, ma’lum faktlarga shubha qilish qibiliyatini va o‘z yechimlarini yaratish uchun ma’lumotlarni mustaqil tahlil qilishni nazarda tutadi. Tanqidiy fikrlaydigan o‘smir axborot maydoni bilan eng samarali munosabatda bo‘ladi va har qanday ma’lumotdagagi qarama-qarshiliklarni baholay oladi va topa oladi. Muammoli ta’limdan foydalanish kimyoni o‘qitishda muammoli vaziyatlarning yechimlarini amalga oshirishfa, to‘g‘ri javoblarni topishda va rejalashtirilgan yechim yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishda o‘zini isbotlagan STEM yondashuvidir.

Bu yerda muhim jihat o‘quvchilarda aqliy faoliyatning alohida uslubi, tadqiqot faoliyati va mustaqilligini shakllantirishdir. Muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchida ongli qiyinchilik tu’diradi, uni yengish ijodiy izlanishni talab qiladi, o‘quvchini fikrlashga, chiqish yo‘lini, sababini izlashga majbur qiladi, bu esa fanga faol kognitiv qiziqishlarning rivojlanishiga yordam beradi. Kimyo darslarida interfaol modullardan foydalanish STEM ta’limining yana bir yondashuvidir. Interfaol modullar ma’lumotlarning aniq tuzilishi, materiallarning optimallashtirilgan hajmi, izolyatsiyasi, tarkibning o‘zini o‘zi ta’minalash va yaxshi ravshanlik darajasi bilan ajralib turadi. O‘rganilayotgan materialning dastlabki, nazorati qisqa vaqt ichida kimyoviy diktant yoki testlarni yaratish uchun turli xil dasturlar va xizmatlar (MyTest, Scratch, Learningapps.org. va boshqalar) yordamida test topshiriqlari yordamida tekshirilishi mumkin.

Learningapps.org.-bu o‘rganish va o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash uchun bepul Web 2.0. xizmati. Ushbu xizmatdan foydalanish sizga darsning turli-bosqichlarida (so‘roq qilish, takrorlash, o‘rganilgan materialni mustahkamlash, guruh ishini tashkil qilishda) foydalanadigan yorqin interfaol vazifalarni olish imkonini beradi. Masalan, “Oksidlar” mavzusini o‘rganishda oksiddagi elementning valentligini aniqlash uchun topshiriqlardan foydalanilsa, bu o‘quvchilarning qisqa vaqt ichida nomenklatura bo‘yicha olgan bilimlarini tekshirish imkonini beradi.

Learningapps xizmati mavzu bo‘yicha bog‘langan barcha mashqlarni bir blokga birlashtirib, ilovalar yaratish uchun juda qulay.

Genial.ly-bu bloglar va veb-sayt uchun chiroyli interfaol kontent yaratish uchun onlayn xizmat: taqdimotlar, interfaol plakatlar, o‘yinlar, infografika va boshqalarini qamrab oladi. Darslarda ko‘p hollarda interfaol plakatlardan foydalaniladi. Interfaol plakat- bu interfaol yo‘nalishga ega bo‘lgan elektron o‘quv vositasi bo‘lib, u sizga kerakli grafik, matn, ovozli ma’lumotlarni ko‘rsatish imkonini beradi. Shunday qilib, idrok etishning axborot kanallarini yuqori darajada jalb qilish, o‘quv jarayonining ko‘rinishi va mavzuga singib ketish darajasining o‘zgarishi ta’milanadi. Masalan, Kislorod oddiy modda sifatida, Tabiatdagi kislorod, Havo gazlar aralashmasidir. Gazlarni yig‘ish usullari mavzusidagi materialni o‘rganish jarayonida talabalar mustaqil ravishda kislorodning tabiatdagisi o‘rni haqida plakat yaratadilar.

Shunday qilib, interfaol elektron plakatlar zamonaiviy ko‘p funksiyali o‘qitish vositasi bo‘lib u barcha o‘quvchilarni mavzuni o‘rganishda jalb qiladi, darsning barcha bosqichlarida ma’lum miqdordagi ma’lumotlar bilan, jumladan, ko‘p bosqichli ishlarni yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash, tizimlashtirish va umumlashtirish, olingan bilimlarni o‘zlashtirish sifatini nazorat qilish ta’milanadi. Ta’lim jarayonida bunday interfaol modullardan foydalanish o‘quvchilarga yo‘qadi, bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga, o‘quvchilarning faol, mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, tadqiqot, fikrlash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

STEM texnologiyalari o‘quvchilarga katta hajmdagi ilmiy va o‘quv ma’lumotlarini qiziqiqsh va tez o‘zlashtirishimkonini beradi, dars yanada qiziqarli va maftunkor bo‘ladi, o‘quvchilarning bilim olishi sifati yaxshilanadi va eng muhimmi bu material xotirada uzoq saqlanib qoladi. O‘quv jarayoniga STEM texnologiyalaridan foydalanish o‘rganishni individuallashtirish, kompyuter yordamida o‘quvchilar bilimini

takomillashtirish, kamchiliklarni tuzatish va ortiqcha yuklamani qisman bartaraf etish imkonini beradi. STEM texnologiyalaridan foydalangan holda, barcha o‘quvchilar o‘quv jarayoniga jalg qilinadi va o‘z bilimlarini tushunish va mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘lib, muhokamada qatnashish, bahslashish va o‘z dunyoqarashini himoya qilish imkoniyatlariiga ega bo‘ladi. Munozara jarayonida o‘quvchilarning sub’yektiv tajribasi talab qilinadi va ularning shaxsiy dunyoqarshi shakllanadi. O‘nta usulni sinab ko‘rish va ma’lum bir o‘quvchilar guruhi uchun eng samaralisini tanlash, o‘nta darslikni ko‘rib chiqish va individual sharoitlarni hisobga olgan holda ularning hech biriga qat’iy rioya qilmaslik-bu jonli o‘qitishning yagona mumkin bo‘lgan usuli hisoblanadi.

Mahoratlari pedagog sifatida har doim yangilik qiling va sinab ko‘ring-natijalarni tushunishga asoslanib, doimiy ravishda talab qiling, tinimsiz takomillashtirish-bu o‘qituvchi uchun yagona to‘g‘ri kursdir

Kimyo kursiga integratsiyalashgan STEM ta’lim o‘z ichiga quyidagi maqsadlarni oladi:

➤ kimyo kursidan o‘quvchilar kreativligini shakllantirish;

➤ kimyo fani bilimlaridan foydalangan holda, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish, mavzuning yashirin ma’nosini tushunish, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa shaxs tomonidan shaxs ongingin boshqarilishiga qarshi turish qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ kimyo fani bilimlaridan foydalangan holda, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish, mavzuning yashirin ma’nosini tushunish, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa shaxs tomonidan shaxs ongingin boshqarilishiga qarshi turish qibiliyatlarini rivojlantirish;

➤ kimyodagi shakllangan bilim va ko‘nikmalar tizimiga uning mazmuniga mos keladigan sinfdan tashqari ma’lumotlarni umumiy bazaviy ta’lim talablaridan kelib chiqqan holda kiritis;

➤ o‘quvchilarning kimyodan texnik- ijodkorlik, konstruktorlik qobiliyatlarini oshirish.

Kimyo kursidan o‘quvchi mavzuni mustaqil o‘zlashtirishga erishish; kimyo kursidan o‘quvchi mavzu doirasida o‘zini tanqidiy baholay olishiga erishish; kerakli texnik ma’lumotlarni, shu jumladan, turli xil texnik vositalardan foydalangan holda qidirish, tayyorlash, uzatish va ko‘chirib olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kabi masalalarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida STEM texnologiyasini qo‘llab darslarni tashkil etishning didaktik mexanizmlari takomillashitirilgan sxemasi ishlab chiqildi. Modelda o‘quvchi kompetentligini rivojlantirishda STEM texnologiyasini qo‘llash jarayonidan faoliyatlarini innovatsion, kompetensiyasiv, integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish mazmuni berilgan bo‘lib, o‘quvchi kompetentligini rivojlanishini STEM texnologiyasi asosida baholash va natijadorlik darajalari e’tiborga olinadi.

Kimyo fanini o‘qitishning vazifalari bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida o‘ziga xos qo‘srimcha vazifalar orqali o‘qitish sifatining samaradorligiga erishishni taqozo etadi. Bu qo‘srimcha vazifalar bugungi talabaning zamonaviy qarashlaridan kelib chiqqan tanlanishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Ta’lim tizimida STEM dasturining afzalligi shundan iboratki, bunda o‘quvchi oldingidek devorga osilgan plakatlar yoki videolar bilan emas balki o‘zining mehnati bilan ham mavzuni tushunishga harakat qiladi. Chunki hozirgi shiddat bilan rivojlangan davrda talabani devorga osilgan plakatlar va videoroliklar yordamida darsga qiziqtirish qiyin. STEM o‘qitishning integratsiyalashgan yondashuvdir. Ya’ni bu yondashuv doirasida akademik ilmiy-texnikaviy tushunchalar real hayot kontekstida o‘rganiladi. Ushbu yondashuvning maqsadi maktab, jamiyat, ish va dunyo o‘rtasida STEM savodxonligi va global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni rivojlantirishga hissa qo‘sadigan mustahkam aloqalarni o‘rnatishdan iborat, va o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi integratsiya o‘zi nima? uning ta’lim tizimidagi ahamiyati nimada? tabiiy fanlarni o‘qitishda integratsiya qanday amalga oshiriladi? Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) o‘quvchini ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi, tabiatni to‘g‘ri va to‘la anglashga undan oqilona foydalanishga, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ta’limni integratsiyalash orqali fanlarni o‘qitishda fanlararo aloqalarni o‘rnatish. Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) talabani ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi, tabiatni to‘g‘ri va to‘la anglashga undan oqilona foydalanishga, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi..

Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o‘qitishda ularning integratsiyasini ta’minalashga yetarli e’tibor berilmay kelmoqda. Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o‘quv rejalarida ushbu fanlarni o‘qitishning vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg‘unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta’minalovchi o‘quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart- sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

O‘quv fanini o‘rgatishdan maqsad talabani fandagi obyektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub’ektiv yangilikka ega bo‘lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Bu ma’noda integratsiya-fanlarning differentsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o‘quv fanlariga bo‘lib o‘qitish tizimining

kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minalash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O‘quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma’noda qaralganda, o‘quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o‘zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.O‘quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub’ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan borat bo‘lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi sub’ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyasining turli shakllari taklif qilinadi.

STEM ta’lim tizimi bizning ta’limga bo‘lgan qarashlarimizni o‘zgartiradi. Bunda talaba amaliy qobiliyatga ega bo‘lib, shu bilan bir qatorda talaba irodasini, texnik- ijodkorligini ham oshiradi. Chunki talaba ma’ruza va amaliyotda olgan bilimlarni tasavvur eta olib o‘z qo‘llari bilan yasay olsa bu talabada o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshishiga olib keladi. STEM ta’lim dasturi bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir.

Ta’lim tizimida STEM dasturini qo‘llash talaba g‘oyasini haqiqatga aylantirishiga yordam beradi. Ya’ni agar biz an’anaviy ta’limni asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlarni fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEM ta’lim esa an’anaviy ta’limda olingan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu esa bilim qadrini oshiradi, haqiqatda ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilim haqiqatdan ham qadrlidir.

Ta’lim tizimida STEM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts texnologiya instituti (MIT)dir. Bu institutning shiori “Mens et Manus” (Aql va qo‘l) bu institut talabalarga STEM tushunchasini o‘rganish va tanishish uchun birinchilardan bo‘lib yordam berdi..

Tadqiqotlar statistikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2011-yildan boshlab, dunyo bo‘yicha STEM ta’lim tizimiga bo‘lgan talab 13% oshgan. Boshqa ta’lim tizimida esa bu ko‘rsatkich 9,8% oshgan. Bu ko‘rsatkich ham dunyo ta’lim tizimida ham ushbu ta’lim tizimiga nisbatan talab katta va natijadorligi yaxshi.

STEM ta’lim tizimining asosiy shiori Science is fun! Ta’lim quvnoq bo‘lishi kerak, talaba bu fanni o‘qib qiziqishi kerak STEM yondashuv talabalarni tajribalarni mustaqil o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishiga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga yordam beradi. Bu bilan bo‘lajak mutaxassislarining mustaqil o‘quv faoliyatlarini rivojlantirish, o‘quv va ilmiy ishlarning mushtarakligini ta’minalash, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, shular asosida yetuk mutaxassis tayyorlash sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida har bir talabada “mustaqil fikrlash” darajasida, qobiliyatlarning tarkibiy qismlarini ajratib olish mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy- tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarni bilim va qiziqishlarini va ijodiy qibiliyatlarini rivojlanishida, kimyoviy tushunchalarni, mahorat va ko‘nikmalarini shakllanishiga, talabalarni bilish faolligini rivojlanishiga bag‘ishlangan tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar bir qancha bo‘lib, ulardan ushbu sohada foydalanimilib kelinmoqda.

**Xulosa.** Kimyo kursini o‘rganishda o‘quvchilarning mustaqil rivojlanishi eksperimentlarni qo‘llashni nazariy aspektlari ham tadqiqotlarda o‘rganilgan. Ta’lim tizimida STEM dasturi asosida foydalanib o‘qitish laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkillashtirish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilangan: talabalarda atrof olamdagи texnik va kommunikatsion o‘zgarishlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish; fan-texnika va texnologiyalar taraqqiyotini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda ixtirochilik va konstrukturlik qibiliyatlarini shakllantirish; o‘quvchilarning atrofdagi hodisalarni kuzatish va tahlil qilishga, o‘rganiladigan hodisaning boshqa hodisalarga bog‘liqligi, hodisa va qonuniyatlarning eksperimental ravishda tekshirib ko‘rish usullarini ishlab chiqish, olgan bilimlarini amalda tadbiq etish, kasb tanlashga yo‘llash masalasida auditoriyadan tashqari ishlar alohida o‘rin tutadi. Kimyo fanini o‘qitishda STEM dasturini qo‘llash orqali o‘quvchilarni bu fanga qiziqishini oshirish bilan birga tabiatga, atrof-muhitga munosabatini ham o‘zgartirishga erishish mumkin. Dars davomida quvnoq o‘yinlar tashkil qilinib (masalan Kislorod mavzusida) ekologiyaga bog‘lash orqali tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Karimova D.A., Gadoyeva G.Y. Kimyo fanini o‘qitishda ko‘rgazmali usullarning qo‘llanilishi. // Birinchi Renessans: Abu Rayhon Beruniy va tabiiy fanlar evolyutsiyasi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.2023-y. 25-may.
2. Karimova D.A. Methodology of assessment of student knowledge in pedagogical higher education institutions using pisa, PIRLS international research programs, computer and information technologies. // International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.458 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022.
3. Karimova D.A. Kimyo fanini o‘qitishda kompyuterli dasturiy-metodik materiallarni tahlil qilish. “Uchinchi renessans davri imkoniyatlari, takliflar, muammo va istiqbolli rejalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.248-254 bet. 2022-yil oktabr.

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA FIZIKA YO‘NALISHI TALABALARINING  
AMALIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI**

*Mustafayev Erkin Bahronovich,  
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
erkinmustafayev4@gmail.com*

*Mazkur maqola, integrativ yondashuv asosida fizika yo‘nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlanirishning metodologik asoslarini tahlil etishga bag‘ishlangan. O‘quv jarayonida talabalar faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni amaliy faoliyatda samarali qo‘llay olishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan, maqola integrativ yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rnini va ahamiyatini yoritadi, shu bilan birga fizika fanini o‘qitishda metodologik asoslarning ahamiyatini o‘z ichiga oladi.*

*Bu maqola, fizika yo‘nalishidagi o‘qituvchilar, ta’lim metodistlari va ilmiy tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib, amaliy kompetentlikni rivojlanirishda integrativ yondashuvning metodologik asoslarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.*

**Kalit so‘zlar:** integrativ yondashuv, amaliy kompetentlik, fizika ta’limi, metodologik asoslar, pedagogik metodlar, kognitiv jarayonlar, interaktiv o‘qitish, amaliy bilimlar, fizikaviy modellar, praktikum, o‘qitishning differensial yondashuvi, talabalar faoliyati, shaxsiy yondashuv, innovatsion metodlar.

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ-ФИЗИКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО  
ПОДХОДА**

Данная статья посвящена анализу методических основ развития практической компетентности студентов-физиков на основе интегративного подхода. В образовательном процессе студенты должны иметь возможность эффективно применять не только теоретические знания, но и практическую деятельность. С этой точки зрения в статье подчёркивается роль и значение интегративного подхода в образовательном процессе, а также отмечается значение методических основ в обучении физике.

Данная статья является важным научным ресурсом для учителей физики, методистов образования и научных исследователей, помогающим лучше понять методологические основы интегративного подхода к развитию практической компетентности.

**Ключевые слова:** интегративный подход, практическая компетентность, физическое образование, методические основы, педагогические методы, познавательные процессы, интерактивное обучение, практические знания, физические модели, практикум, дифференцированный подход к обучению, деятельность учащихся, личностный подход, инновационные методы.

**METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF PRACTICAL  
COMPETENCE OF PHYSICS STUDENTS ON AN INTEGRATIVE BASIS**

*This article is devoted to the analysis of the methodological foundations of the development of practical competence of physics students based on an integrative approach. In the educational process, students should be able to effectively apply not only theoretical knowledge, but also practical activities. From this point of view, the article highlights the role and importance of the integrative approach in the educational process, and at the same time includes the importance of methodological foundations in teaching physics.*

*This article is an important scientific resource for physics teachers, educational methodologists and scientific researchers, which helps to better understand the methodological foundations of the integrative approach to the development of practical competence.*

**Keywords:** integrative approach, practical competence, physics education, methodological foundations, pedagogical methods, cognitive processes, interactive teaching, practical knowledge, physical

**Kirish.** Ta’limning modernizatsiya qilinishi munosabati bilan yangi ta’lim texnologiyalari elementlari oliy ta’lim tizimiga kirib kelmoqda, bu yerda samarali vositalar va rivojlanish yo‘nalishlari aniqlanmoqda. Zamonaliv sharoitlarda OTM fizika yo‘alishi bitiruvchisi fizika ixtisosligi bo‘yicha tadqiqotchi-pedagog malakasiga ega bo‘ladi. OTM Fizika yo‘nalishi bitiruvchilari tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar amalidagi davlat ta’lim standartlarida bayon etilgan [Oliy ta’lim DTS va malaka talablari].

**Tadqiqot obyekti:** Integrativ yondashuv asosida fizika yo‘nalishi talabalarining amaliy kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari mavzusida tadqiqot obyektini quyidagicha aniqlash mumkin. Tadqiqot obyektiga fizika yo‘nalishi talabalarining ta’lim jarayoni va amaliy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar kiradi.

**Qo‘llanilgan metodlar:** suhbat, kuzatish, tajriba, test.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda OTMdA kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu mutaxassisni tayyorlashda zarur bo‘lgan kasbiy sifatlar va ko‘nikmalarining to‘g‘ri to‘plamini shakllantirish bilan bog‘liqdir [13], [16].

Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga ko‘plab olimlar turli sohalarda diqqat qaratib kelmoqdalar [17], [14].

OTMlarda ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida hali ham kognitiv (bilimga asoslangan) yondashuv ustunlik qilmoqda. Bu yondashuv asosan bilimlarning o‘zlashtirilishiga qaratilgan bo‘lib, ularning amaliyotda qo‘llanilishiga esa kam e’tibor qaratiladi. Shu sababli, nazariy bilimlar o‘zlashtirilsa ham, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari yetarlicha shakllantirilmaydi. Shu bilan birga, har bir predmet bo‘yicha o‘quv ko‘nikmalari kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hozirgi kunda OTMlarda o‘qitish jarayoni quyidagicha tuzilgan: bilimlarni talabalarga yetkazish (ma’ruza, tushuntirishli, namoyishli), talabaning mustaqil ravishda o‘rganishi va o‘zlashtirishi, hamda yakuniy natija — bilim zaxirasi va eruditsiyani shakllantirish (imtihonlarda namoyish etiladi) [13, 38-bet]. Informatsion model asosidagi ta’lim metodologiyasini takomillashtirish o‘quv sifatini yaxshilamaydi.

P.Y.Galperinning aqliy faoliyat va tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish kontseptsiyasining paydo bo‘lishi operatsion ta’lim modellarini yaratishga olib keldi. Psixologlarning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, ta’lim jarayoni faqat bilimlar yig‘ish uchun emas, balki amaliyotda samarali ishlashni o‘rgatish uchun kerak [12, 47-b], [14]. Shu sababli, OTM fizika ixtisosliklarida amaliyot bosqichida operatsion faoliyatli yondashuvi qo‘llaniladi, ammo matematika va tabiiy-ilmiy fanlar blokida hali ham kognitiv yondashuv ustunlik qilmoqda.


Yevropa mamlakatlarda ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar umumiy obyektiv sabablarga asoslangan paradigmalar o‘zgarishini keltirib chiqardi. Bu esa oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini (DTS) qayta ko‘rib chiqish zaruratinini tug‘dirdi.

Mutaxassis tayyorlashning ta’lim modeli o‘zgarib bormoqda, ya’ni klassik malakadan (bilim, ko‘nikma, malakalar) kompetentsiyaga (kompetentsiya — bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlarning birligi) o‘tmoqda.

Terminologik aniq aniqlikni kiritamiz: malaka — ma’lum talablarga javob beradigan va kasbiy (xizmat) vazifalarining belgilangan doirasini bajarish uchun zarur bo‘lgan kompetentsiyalar to‘plami; kompetentsiya — bilim, ko‘nikma, shaxsiy sifatlar va amaliy tajribadan tashkil topgan tizim bo‘lib, bu shaxsnинг ma’lum sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilaydi; kompetentlik — bu ma’lum shaxs tomonidan kompetentsiyalarni o‘zlashtirish natijasidir. “Kompetentlik” “malaka” dan farqli o‘laroq, faqatgina kasbiy bilim va ko‘nikmalarini emas, balki mustaqillik, mas’uliyat, tashabbuskorlik, hamkorlik, jamoada ishlash qobiliyati, kommunikativ qibiliyatlar, o‘qish, baholash, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalanish kabi sifatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim standarti — ta’lim sifatining ijtimoiy me’yoriy ko‘rsatkichi bo‘lib, u normativ hujjatda mustahkamlangan va huquqiy maqomga ega (N.A. Selezneva); kasbiy standart esa kasb bo‘yicha minimal talablarni aks ettiruvchi hujjat bo‘lib, malaka darajalari va ishlarning xavfsizligi va samaradorligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan (O.Ilchenko).

Yangi DTSning asosida “natijadan boshlab” yondashuv yotadi, ya’ni ta’lim mazmuni talqin qilinadi: kasbiy faoliyatning xususiyatlaridan boshlab maqsadlarni belgilash (oliy ta’limning minimal natijalari) va undan keyin ta’lim mazmuni va usullarini tanlashga o‘tiladi.

Shunday qilib, 1-rasmda bitiruvchining kompetentlik modelining tuzilmasi ko‘rsatilgan.



**1-rasm. Bitiruvchining kompetentlik modeli**

Yuqorida rasm "Oliy o'quv yurtining bitiruvchisi uchun kompetentlik modeli"ni aks ettiradi. Ushbu rasm talabaning o'quv faoliyati va kelajakdagi kasbiy faoliyati o'rtaсидagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Diagrammaning asosiy elementlari quyidagicha:

1. O'quv faoliyati — bu talabaning ta'lif olish jarayoni, unda talaba tegishli kompetentsiyalarni egallaydi.
2. Kompetensiyalar — bu talabaning bilimlari, ko'nikmalari, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy sifatlarining birligi bo'lib, uni kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi.
3. Kasbiy faoliyat — bu talabaning kasbiy yo'nالishda ishlashi, unda o'z kompetentsiyalarini amalda qo'llaydi.
4. Malaka talablari — bu mutaxassisning kasbiy malakasini aniqlash uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalar majmuasi.
5. Ish beruvchi — bu bitiruvchining kasbiy faoliyatini baholovchi va uning kompetentsiyalariga talab qo'yuvchi tomon.
6. DTS (Davlat ta'lif standarti) — bu ta'lif sifatining davlat tomonidan belgilangan normativ talablari.
7. Kasbiy standart — bu kasb bo'yicha minimal talablarni aks ettiruvchi me'yoriy hujjat bo'lib, malaka darajalarini belgilaydi.

Kompetentlik modeli bo'yicha OTM bitiruvchisi uchun asosiy komponentlar: ta'lif standartining komponenti sifatida kompetentsiyalar va professional standartning komponenti sifatida malaka tavsiflaridir. Bu tavsiflar mutaxassisning kasbiy vazifalari, ko'nikmalari va huquqlarini o'z ichiga oladi, shuningdek, ish beruvchi tomonidan qo'yilgan talablarni aks ettiradi. Ushbu ikkala komponentning o'zaro uyg'unligi va integratsiyasi o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos kelishini ta'minlaydi.

Kompetentsiyalar ikki turga bo'linadi:

1. **Umumiy kompetentsiyalar** — bu mutaxassisning kasbiy faoliyatida ham, shaxsiy hayotida ham muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-shaxsiy, umumilmiy va instrumental ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

2. **Kasbiy kompetentsiyalar** — bu mutaxassisning o'z kasbiga oid vazifalarni bajarishi uchun zarur bo'lgan umumkasbiy va maxsus ko'nikmalardan iborat.

Kasbiy kompetentlikni turli nuqtayi nazardan baholash mumkin:

- **Kognitiv aspekt:** bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish;
- **Motivatsion aspekt:** bilim va ko'nikmalarni qo'llashga tayyorlik;
- **Xulq-atvor aspekt:** turli sharoitlarda faoliyat yuritishga tayyorlik;
- **Etik espekt:** faoliyat natijalariga nisbatan mas'uliyatlilik.

Ta'lif mazmuni sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- Ta'lif mazmunining dolzarbliji va hajmi talabalarning kompetentsiyalariga mos kelishi;
- Ta'lif dasturidagi fanlar va mavzular o'rtaсидagi uzviy bog'liqlik;
- Ta'lifning fundamental va universal xususiyatlarga ega bo'lishi.

Ta'lifda amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchilarining faoliyat uslubini ham o'zgartirishni talab qiladi. Endilikda o'qituvchilar faqat ma'lumot yetkaшиб bilan cheklanmasdan, talabalarni ham faol fikrlash jarayonlariga jalb etishlari lozim. Fizika o'qitish jarayoni endilikda hozirgi va kelajak faoliyatlarga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatli va innovatsion yondashuvlar (o'yinlar, muammolar tahlili, rollar o'ynash, treninlar) orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, ta'lif jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtaсиda tenglik, hamkorlik va o'zaro hurmatga asoslangan bo'lishi kerak.

**Kompetentli yondashuv** o‘qituvchilarga bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar birlikda shakllanishi kerakligini talab qiladi. Ushbu yondashuvda o‘quv dasturlari o‘rtasidagi uzviylik va fanlararo bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi. Natijada, talaba kasbiy faoliyatga tayyor bo‘ladi va o‘z bilimlarini amalda qo‘llay oladi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabaning shaxsiy rivojlanishi va kasbiy o‘sishi ta’minlanadi, bunda kompetentlik modeli va shaxsiy yondashuvlar birgalikda qo‘llaniladi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida kasbiy va umumiy ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur, chunki zamonaviy dunyoda kasbiy muvaffaqiyat uchun keng ko‘lamli ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

Har qanday tadqiqotning, shu jumladan pedagogik tadqiqotning ham asosiy maqsadi — qonuniyatlarini o‘rnatishdir. I.P.Podlasiy pedagogikada ko‘rib chiqilayotgan qonuniyatlar ro‘yxatini to‘liq tavsiflab, ularni quyidagi guruhlarga ajratadi: didaktik (mazmuniy-jarayoni), gnoseologik, psixologik, kibernetik, ijtimoiy va tashkiliy [14, 36-b]. Y.N.Babanskiy ham pedagogik qonuniyatlarning o‘ziga xos tasnifini keltiradi [16].

Bizning tadqiqotimizning metodologik asosi sifatida qo‘shimcha va maxsus qonuniyatlarini [130], ya’ni tabiiy-ilmiy pedagogik [8], professional ta’lim hamda axborot texnologiyalarini [9], [13, 79-83-b] ajratib ko‘rsatish zarur.

“Metodologiya (“metod” va “logiya”) - bu metodlar va faoliyat vositalari haqidagi ta’limot [10]. Keng ma’noda metodologiya har qanday faoliyatning zaruriy komponentini tashkil qiladi. Metodologik bilimlar ma’lum faoliyat turlarining mazmuni va ketma-ketligini (normativ metodologiya) va amalda bajarilgan faoliyatning tavsifini (tavsif metodologiyasi) belgilaydigan normalar shaklida namoyon bo‘ladi. Ikkala holatda ham bu bilimning asosiy vazifasi qaysidir obyektni bilish yoki amaliy o‘zgartirish jarayonini ichki tashkil etish va tartibga solishdir [106].

Boshqa ensiklopedik nashrlarda "metodologiya" tushunchasi ta’riflari quyidagicha:

“Metodologiya 1) har qanday fanda qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari majmui; 2) dunyoni ilmiy bilish va o‘zgartirish metodi haqidagi ta’limot” [13]. Fan metodologiyasining predmeti, uning metodologik tahlili ilmiy tadqiqotning xilma-xil metodlari, texnikasi va operatsiyalarini, uning normalari va ideallarini, shuningdek, ilmiy bilimlarni tashkil etish shakllarini qamrab oladi [15].

A.M.Novikovning metodologiya tushunchasiga ta’rifi boshqa tadqiqotchilarining ishlarida qo‘llanila boshlandi. A.M. Novikov "Metodologiya sxemasi" quyidagi shaklga ega [14]:

1. Faoliyatning xususiyatlari: tamoyillari, shartlari, meyorlari.
2. Faoliyatning mantiqiy tuzilishi: subyekt, obyekt, predmet, shakllar, vositalar, metodlar, faoliyat natijasi.
3. Faoliyatning vaqt tarkibi: faoliyat fazalari, bosqichlari.

Faoliyatni amalgalashish jarayoni loyiha doirasida vaqt va resurslar bilan cheklangan fazalar va bosqichlarda ma’lum vaqt ketma-ketligida amalgalashish ma’lum tizimni maqsadli yaratish yoki o‘zgartirish sifatida qaraladi.

Shunday qilib, pedagogik qonuniyatlarning tahlili va baholanishi orqali eng muhim va umumiyligi qonuniyatlarini ajratish mumkin; shuningdek, fizika ixtisosligi talabalarini o‘qitish jarayoniga o‘ziga xos qonuniyatlar aniqlanadi:

- an’anaviy ta’lim usullari va zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalarning izchilligi, maqsadga muvofiqligi va integratsiyasi asosida oliy ta’limning yaxlit tizimi shakllanadi;
- fizikani o‘zlashtirish sifatining ichki va tashqi motivatsiya darajasi, kasbiy yo‘nalish va muammoli masalalar xususiyatiga, ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyati hamda talabalar tomonidan mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishiga bog‘liqligi; ta’lim jarayonini boshqarish tizimi va metodik ta’minotning bog‘liqligi;
- mutaxassisni tayyorlash jarayoni kasbiy-integratsion asosda shakllanadi va mustaqil hamda tadqiqot faoliyatini ko‘nikmalarining rivojlanishiga katta e’tibor beriladi;
- kasbiy kompetentlik va shaxsiy o‘zini namoyon qilish talabaning faol ishtiroki va shaxsiy o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, Fizika zamonaviy tabiiy fanlar uchun asosiy fundamental ilmiy fanlardan biri hisoblanib, hozirgi zamonaviy ilmiy dunyoqarash paradigmasi fizik tasavvurlarga asoslanadi [14, 6-b.].

Fizika fan sifatida ilmiy metodga ega bo‘lib, tabiatni miqdoriy darajada fundamental qonunlar va tamoyillar orqali izohlaydi [12, 117-118-b]. Fundamental darajada tabiat yagona bo‘lib, undagi chegaralar shartli ravishda belgilangan. Tabiiy fanlarning hech biri fizika kabi keng qamrovli hodisalarini qamrab olmaydi. Barcha tabiiy fanlar bir yo‘l yoki boshqa usulda fizika bilan bog‘liq yoki unga tayanadi [13, 3-b].

**Olingan natijalar.** Fizika eksperimental tadqiqot metodlarining ixtirosi va takomillashtirilishida katta rol o‘ynaydi. Tibbiyot, farmatsiya, biologiya, kimyo, geologiya va boshqa fanlar fizika usullaridan ilmiy va amaliy tadqiqotlarda foydalanish orqali sifatli sakrashga erishgan. Boshqa tomondan, ko‘plab fizik

yo‘nalishlar mustaqil fanlarga aylangan: biofizika, astrofizika, geofizika, fizikaviy kimyo, elektronika, tibbiyot fizikasi va boshqalar.

O‘quv kurslaridagi materiallarni tuzish va tanlash didaktikaning muhim muammosi hisoblanadi. Bu muammoni hal qilish uchun tamoyillar, talablar va mezonlardan iborat tizimni belgilash lozim. Biz OTMlarda fizika ixtisosligi talabalarini o‘qitishga yordam beruvchi asosiy didaktik tamoyillarni ajratib ko‘rsatdik.

Albatta, OTM ta’limi kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, OTMning vazifasi talabalarni ta’lim olishga motivatsiya qilishga imkoniyat yaratishdir [15, 108-109-b.].

**Xulosa.** Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda shaxs rivojlanishining tashqi va ichki determinantlari, jumladan, davlat va insonning o‘zi ham muhim rol o‘ynaydi. Bu determinantlar shaxsning rivojlanishiga, uning kasbiy sifatlarini takomillashtirishga bevosita ta’sir qiladi. Fanlararo integratsiya asosida rivojlantirilgan kasbiy ko‘nikmalar mutaxassislarning kasbiy faoliyatidagi ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kompetentlik, kompetensiya, integrativ yondashuv, integratsiya, model, modellashirish mazmuni aniqlashtirilib, tahlil qilingan va mualliflik ta’riflari keltirilgan. Keltirilgan nazariy tahlillar va ta’riflar tadqiqotimizning nazariy asosini tashkil etdi. Tahlil natijalari esa tadqiqot mavzusining dolzarb ekanigini asosladi.

### Adabiyotlar:

1. American Association for the Advancement of Science. (2011). A framework for K-12 science education: Practices, intersectional concepts, and core ideas. Washington, DC: Author.
2. Bransford JD, & Stein BS (1993). The Ideal Problem Solver: A Guide to Improving Thinking, Learning, and Creativity. New York: WH Freeman.
3. National Council of Mathematics Teachers. (2000). Principles and standards for school mathematics. Reston, VA: Author.
4. National Research Council. (1999). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and Schooling. Washington, DC: National Academies Press.
5. Thornton, R., & Sokoloff, D. (1990). Electrical power study with real-time computer feedback. American Journal of Physics, 58(9), 858-865.
6. Maxmanov E.B. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlanishda mantiqiy fikrlash kompetentsiyalarini takomil qilish //Namangan davlat universiteti-2021. –T. 1. – S. 581.
7. Binokulovich, Maxmanov Ergash. "Laboratoriyaning rivojlanishi Suyuqlik va qattiq jismlarda solishtirma solishtirma issiqlik sig‘imini aniqlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar." // Ta’lim fanlaridagi Evropa tadqiqot va aks ettirish jurnali. 8.9- jild (2020).
8. Ishmurodova G.I., Maxmanov E.B. Talabalarning fizikadan mantiqiy masalalar echish ko‘nikmalarini shakllantirish //” Zamoniyiv ta’lim jurnali ”, 2020, 3-son 16-23-bet
9. Maxmanov E. B. Fizika o‘qish yarayonda talabalarning o‘quv kompetentsiyalarini tegishli //A ILM. – S. 75.
10. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Fizika fanidan laboratoriya mashqlarotlarini innovatsion yondoshuv asosiyda utkarish // Sovremennoe obrazovanie (O‘zbekiston). – 2019. – №. 8 (81). – S. 16-22.
11. Ishmurodova G. I., Maxmanov E. B. Master-klass asosida fizikadan masalalar echish mashqlarotlarini tashkil qilish //Sovremennoe obrazovanie (O‘zbekiston). – 2020. – №. 10 (95). – S. 11-17
12. Abdullayev M. S. (2017). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: O‘qituvchi.
13. Sodiqov, M. T. (2015). Fizika ta’limi metodikasi. Toshkent: Fan.
14. Jumaniyozov S. (2018). Ta’lim va tarbiya: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi.
15. Toshev Sh. H. (2020). Innovatsion metodlar va amaliy ta’lim. Toshkent: Science and Technology.
16. Raximov A. A. (2019). Pedagogik integratsiya va uning ta’lim tizimidagi o‘rni. Toshkent:
17. Abdug‘aniev S. I. (2021). Fizika ta’limida amaliy kompetentlikni rivojlantirish metodlari. Samarqand.

**BIOLOGIK FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM MUHITNI  
LOYIHALASHTIRISH TEKNOLOGIYALARI**

*Muxiddinova Sevara Muxiddin qizi,  
Buxoro davlat tibbiyot instituti Tibbiy biologiya kafedrasи o‘qituvchisi*

*Respublikamizda joriy etilgan oly ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardan biri ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi. Aynan shu maqsadda ushbu maqolada biologik fanlarni o‘qitishda innovatsion ta’lim muhitni loyihalashtirish texnologiyalari haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, innovatsiya, pedagogik texnologiya, pedagogik innovatsiya, pedagogik munosabat, o‘quv materiali, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, texnologik innovatsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, iqtisodiy innovatsiyalar, tashkiliy innovatsiyalar, innovatsion pedagogik faoliyat.

**ТЕХНОЛОГИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН**

*Одной из важных задач, стоящих перед внедряемой в нашей республике системой высшего образования, является создание инновационной среды в образовательном процессе. Именно с этой целью в статье представлена информация об инновационных технологиях проектирования обучающей среды при преподавании биологических дисциплин.*

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, инновация, педагогическая технология, педагогическая инновация, педагогическое отношение, учебный материал, информационно-коммуникационные технологии, технологические инновации, педагогические инновации, экономические инновации, организационные инновации, инновационная педагогическая деятельность.

**INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT DESIGN TECHNOLOGIES IN BIOLOGICAL SCIENCES TEACHING**

*One of the important tasks set for the higher education system introduced in our republic is to create an innovative environment in the educational process. For this purpose, this article provides information on the technologies for designing innovative educational environments in teaching biological sciences.*

**Keywords:** pedagogical activity, innovation, pedagogical technology, pedagogical innovation, pedagogical attitude, educational material, information and communication technologies, technological innovations, pedagogical innovations, economic innovations, organizational innovations, innovative pedagogical activity.

**Kirish.** Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor- o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonida biologiyani innovatsion muhitni loyihalashtirish, maqsadga muvofiq tashkil etishga zamin tayyorlaydigan o‘quv-metodik majmua, elektron darsliklar, nostonart adaptiv testlar banki, o‘quv kurslari bo‘yicha sillabus yaratish orqali talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta’lim samaradorligiga erishish uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va yangilash, ularni davlat talablari va jahon ta’lim standartlari darajasiga ko‘tarish islohotlar davrining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Innovatsiya – inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, in – kiritish, novatsya yangilik degan ma’noni beradi. O‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchidan ko‘p qirrali izlanish va amaliy faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda oliy ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

**Metodlar.** Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o‘qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o‘qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Respublikamizda joriy etilgan olyi ta’lim tizimiga innovatsiya quyidagi yo‘llar orqali tatbiq etilmoqda:

- Axborot va kommunikatsion texnologiyalar-texnologik innovatsiyalar;
- Ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va talabalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar - pedagogik innovatsiyalar;
- Ta’lim sohasidagi zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar - iqtisodiy innovatsiyalar;
- Ta’lim sohasidagi zamonaviy tuzilmalar - tashkiliy innovatsiyalar;

Ma’lumki, yuqorida qayd etilgan innovatsiyalar ta’lim-tarbiya jarayoniga kompleks holda joriy etilishi o‘qituvchidan muayyan metodik bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek, pedagogik kompetentlik (layoqat)ni talab etadi.

O‘qituvchining zamonaviy metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi, shuningdek, pedagogik kompetentlik(layoqat)ning mavjudligi uning o‘z pedagogik faoliyatida barkamol shaxsni voyaga yetkazishni nazarda tutishiga asos bo‘ladi.

Quyida ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini yangilash, uning borishi va talabalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar - pedagogik innovatsiyalar haqida fikr yuritiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatlari qo‘llash uchun biologiya o‘qituvchilari maxsus metodik bilim va ko‘nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo‘ladigan metodik tayyoragarlikka ega bo‘lishlari lozim.

**Natijalar va munozara.** Pedagogik texnologiya atamasiga shu muammo bo‘yicha izlangan har bir olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergen. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflarning ichida eng maqsadga muvofig‘i YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya - o‘qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Bu yerda inson salohiyati deyilganda o‘qituvchining pedagogik va talabalarning bilish faoliyati, texnik resurslar deganda o‘qitish metodlari va vositalari nazarda tutilmoqda.

Bizning nazarimizda, pedagogik texnologiya - ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchining pedagogik va talabaning o‘quv-bilish faoliyatini uyg‘un ravishda tashkil etish, mazkur faoliyatni faollashtirish maqsadida, samarali o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimlar majmuasidir.

Pedagogik texnologiyalarning uchta darajasi mavjud:

1. Umumiy metodik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatları, kontseptual asoslari, o‘qituvchi va talabaning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o‘quv fani, kursni o‘qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta’lim mazmunini talabalar ongiga singdirishda foydalaniladigan o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta’lim-tarbiya jarayonining ma’lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to‘ldiradi va taqozo etadi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlariidagi ta’lim tizimida muvaffaqiyatlari qo‘llanilib kelayotgan va didaktikada ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar shaxsga yo‘naltirilganligiga, ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarilishiga, shaxsga bo‘lgan munosabatiga, hozirgi zamon ta’lim tizimida hukmronlik qilayotgan an‘anaviy ta’limni mazmunan yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilganligiga ko‘ra tasniflanadi.

Hozirgi zamon ta’lim tizimida hukmronlik qilayotgan an‘anaviy ta’limni mazmunan yangilash va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan texnologiyalarni didaktik maqsadlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya;

- Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya;

- Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar.

- O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishslash asosidagi pedagogik texnologiya.

Quyida shu texnologiyalarga qisqacha to‘xtalamiz.

1. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya; Mazkur texnologiya o‘qituvchi va talaba shaxsi o‘rtasidagi munosabatlarni mukammallashtirish, talaba shaxsiga individual yondashish, ta’lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish, ta’lim mazmunini insonparvarlik g‘oyalari bilan boyitishni nazarda tutadi.

2. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya. Mazkur texnologiya biologiyani o‘qitishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Bu texnologiyalar guruhi didaktik-o‘yin, rivojlantiruvchi, muammoli, modulli va kommunikativ ta’lim texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

3. Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar biologiyani o‘qitishda ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish orqali samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Ularga dasturli o‘qitish, differensial ta’lim, ta’limni individuallashtirish, guruhli va jamoaviy hamkorlik uyg‘unlashtirilgan ta’lim texnologiyalari kiradi.

4. O‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishslash asosidagi pedagogik texnologiya. Mazkur texnologiya o‘quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishslash orqali talabalarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining samaradorligini oshirish, aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish orqali mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida lokal (modul) va xususiy metodik darajada qo‘llaniladi.

Biologiya o‘qituvchisi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval mashg‘ulotning ma’lum bosqichida lokal (modul) darajada qo‘llashi maqsadga muvofiq. Bunda avval yangi mavzu o‘rganilib, talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli o‘yin mashqlar, musobaqa, trening o‘tkazadi. Talabalarning bu faoliyatga kirishishi va muayyan ko‘nikma va malakalarini egallagandan so‘ng, pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘tkazishi, ya’ni xususiy metodik darajada qo‘llashi mumkin.

Xususiy metodik darajada mashg‘ulotning barcha bosqichlari pedagogik texnologiya talablari asosida tashkil etiladi. Bunda o‘qituvchi o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda qaysi texnologiyadan foydalanish, mazkur texnologiya asosida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari, mashg‘ulotda talabalarning bilishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari, talabalarning o‘zlashtirgan bilimini nazorat qilish va baholash yo‘llarini belgilashi lozim.

Biz pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratdik:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

2. Biologiya mashg‘ulotlarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar guruhiga:

- Ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi;
- Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar;
- Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalar;
- Ta’limni differensiallashtirish va individuallashtirish;

Biologiya mashg‘ulotlarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga:

Didaktik o‘yin texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi va an‘anavy ta’lim texnologiyalari kiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablar va biologik ta’lim mazmunining yangilanishi nafaqat o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish, balki o‘qituvchining funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko‘nikma va malakalarini egallah, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo‘g‘rilgan o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining faoliyati pedagogik faoliyat, talabalarning faoliyati esa, o‘quv - bilish faoliyati sanaladi.

XXI asr biologiya o‘qituvchisi axborot yetkazish, rahbarlik, interfaollik, tashkilotchilik, talabalarga tegishli maslahat berish, nazorat, tarbiyaviy, tadqiqot, innovatsion va loyihalash funksiyalarini egallagan bo‘lishi lozim. Samaradorlikni o‘qitish jarayonining axborot yetkazish, tashkilotchisi va

boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchi faoliyati muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining faoliyati yosh avlodning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniq qobiliyatlarini uyg‘un ravishda, rivojlantirish maqsadida ta’lim mazmuniga binoan ularning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sanaladi.

Ushbu faoliyat quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- o‘quv materialini tanlash, tizimga solish, mantiqiy ketma-ketlikda loyihalash.
- talabalarning o‘quv materialini qabul qilish, anglash va ongli o‘zlashtirish imkonini beradigan o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarini tanlash.
- pedagogik jarayonni yahlit holda har bir talabalarning o‘qitish maqsadlariga muvofiq o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish, ularning bilimlar tizimi va bilimlarni o‘zlashtirish usullarini egallashlariga erishish.
- talabalarning mashg‘ulotlar va auditoriyadan tashqari ishlar, ekskursiyalar davomidagi o‘quv-bilish faoliyatini rejalashtirish va loyihalash.
- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish usullarini egallashga qaratilgan ongli va faol faoliyatini tashkil etish va rag‘batlanirish metodlarini belgilash.
- talabalar tomonidan o‘quv topshiriqlarini bajarilish sifatini orttirish yo‘llarini belgilash.
- nazorat, o‘qitish natijalarini tahlil qilish va talabalar shaxsini rivojlantirish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni belgilash.
- o‘qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

O‘qituvchining ta’lim jarayonini boshqarish vazifasi o‘qitish jarayoniga faqat tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan cheklanmasdan balki, mazkur jarayonning sub’ekti bo‘lgan talabalar shaxsida axloqiy sifatlarning shakllanishi, ma’naviy yuksalishni ko‘zda tutadi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o‘qituvchi avvalo faoliyat turlari, unga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinajak natijalarni faraz qilishi zarur.

O‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi rahbarlik roli, talabalarning o‘quv materialini ongli va faol o‘zlashtirish faoliyatini boshqarish sanaladi. Buning uchun u:

- ilmiy jihatdan asoslangan Blum taksonomiyasiga muvofiq o‘quv vazifalarini belgilashi;
- talabalar tomonidan ushbu vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan qulay psixologik muhitni vujudga keltirish;
- o‘quv vazifalarini hal etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat haqida aniq ko‘rsatma berishi;
- talabalar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni faraz qilishi, ularga o‘z vaqtida va yetarli darajada yordam ko‘rsatishi;
- talabalarda o‘zaro hamkorlik, yordam, samimiy muloqot, burch va ma’suliyat hissini vujudga keltirishi zarur.

O‘qitish jarayonidagi o‘qituvchi faoliyatining har bir bosqichi talabalar faoliyatining xarakteri va shaxsidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Shu sababli, o‘qituvchi faoliyatni amalga oshirishda muayyan bosqichdagi, o‘quv fani va uning har bir bo‘limidagi o‘qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi, ularni evolyutsion tarzda amalga oshirish yo‘llarini belgilashi lozim. Oliy ta’lim muassasalarida biologiyani o‘qitish shakllari: ma’ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘uloti, auditoriyadan tashqari ishlar, ekskursiya va to‘garak mashg‘ulotlari sanaladi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Ta’lim-tarbiya jarayoniga axborot va kommunikatsion texnologiyalar, texnologik innovatsiyalar, pedagogik innovatsiyalar, iqtisodiy innovatsiyalar, tashkiliy innovatsiyalar kirib kelishi munosabati bilan biologiya o‘qituvchisi ham o‘z pedagogik faoliyatiga innovatsiyalarni kiritishi, innovatsion pedagogik faoliyatga ega bo‘lishiga zamin yaratadigan zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yishi lozim.

### Adabiyotlar:

1. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T Biologiya o‘qitish metodikasi. –T. 2012
2. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// Naturalista campano Volume 28 Issue 1, 2024, -pp.
3. Imamova Shafoat Mahmudovna. A simulation trainer’s educational competence in the process of forming students’ professional competence// International Journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
4. Imomova Shafoat Mahmudovna, Norova Fazilat Fayzulloyevna. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish// Miasto Przyszlosci, Vol. 32 (2023), C.47-49.
5. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. “Cho‘lpon” T.: 2011 - 128 bet.

## TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA «TIBBIYOT TEKNIKASI VA YANGI TIBBIYOT TEXNOLOGIYALARI» FANINI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

*Sodiqova Dilnavoz Qambaraliyevna,  
Buxoro davlat tibbiyot institutining tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada «Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» fanning dolzarbligi, fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyiligi, fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, fanning predmeti va mazmuni, fanning o'qitishdan maqsad, fanning vazifasi, o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalgalashiriladigan masalalar doirasida talaba nimani bilishi kerakligi yoritilgan.*

*Tibbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan o'qituvchilar talabalarining nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni amalgalashirish uchun o'qitish strategiyalarini moslashtirishga undaydi.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiyot texnikasi, tibbiy texnologiyalar, uslubiy jihatdan uzviylik, pedagogik texnologiyalar, loyihalash.*

### ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «МЕДИЦИНСКАЯ ТЕХНИКА И НОВЫЕ МЕДИЦИНСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ» В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

*В статье рассматривается актуальность дисциплины «Медицинская техника и новые медицинские технологии», её взаимосвязь с другими дисциплинами учебного плана и её методическая согласованность, использование современных информационно-педагогических технологий в преподавании дисциплины, проектирование учебных занятий. Освещены предмет и содержание предмета, цель обучения предмету, задачи предмета, а также то, что должен знать студент в рамках вопросов, которые предстоит решить в процессе освоения изучаемого предмета.*

*В связи с быстрым развитием медицинских технологий преподавателям необходимо адаптировать свои стратегии обучения, чтобы гарантировать, что студенты вооружаются теоретическими знаниями и практическими навыками.*

**Ключевые слова:** *медицинская техника, медицинские технологии, методическая последовательность, педагогические технологии, проектирование.*

### GOALS AND TASKS OF TEACHING THE SCIENCE OF «MEDICAL TECHNIQUES AND NEW MEDICAL TECHNOLOGIES» IN MEDICAL UNIVERSITIES

*The article discusses the relevance of the discipline «Medical Engineering and New Medical Technologies», its relationship with other disciplines of the curriculum and its methodological consistency, the use of modern information and pedagogical technologies in teaching the discipline, designing training sessions. The subject and content of the subject, the purpose of teaching the subject, the objectives of the subject, as well as what the student should know in the framework of the issues that must be resolved in the process of mastering the subject are covered. Due to the rapid development of medical technologies, teachers need to adapt their teaching strategies to ensure that students are armed with theoretical knowledge and practical skills.*

**Keywords:** *medical equipment, medical technologies, methodological sequence, pedagogical technologies, design.*

**Kirish.** Termodinamika qonunlaridan bizga ma'lumki, tirik organizm atrof - muhit bilan o'zaro ta'sirlashgan holdagini, ya'nini modda va energiya almashinishi natijasida yashashi mumkin. U muhitning radiatsiya, rentgen nurlari, ultrabinafsha, infra - qizil, harorat, namlik, havo bosimi shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishlaridan keskin ta'sirlanadi. Tashqi muhitning organizmga ta'siri faqatgina tashqi faktor sifatida hisobga olinmasdan, undan davolash usuli (klimatoterapiya va baroterapiya) sifatida ham foydalanish mumkin [1 - 3].

Shifokor o'zining amaliy faoliyati jarayonida atrof - muhitning bunday faktorlarini inson organizmiga ta'sirini baholay bilishi lozim. Chunki diagnostika va davolash uchun zarur bo'lgan inson organizmida sodir bo'ladigan turli murakkab jarayonlar: qon aylanishi, tomir bo'ylab elastik to'lqin va tebranishlarni (pulslar) tarqalishi, yurakning mexanik ish faoliyati, biopotentsiallarning generatsiyasi, nafas olish, issiqlik uzatish,

bug’lanish, hujayralardagi modda almashinishi – diffuziya hodisasi va hokazolarga tashqi muhit faktorlari ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun zamonaviy tibbiyot barcha kasalliklarni diagnostikasi, davolash va sanitariya gigiena usullari uchun yuqorida faktorlar ta’sirini qayd qiluvchi, ishlov beruvchi va turli energetik kattaliklar bilan ta’sir etuvchi turli tibbiy priborlar, apparatlar va jihozlardan foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun diagnostik apparatlarning asosiy qismi: kalorimetrik, balistikardiograf, polyarimetr, elektrokardiograf, fonokardiograf, reograflar va boshqalar haqida malumotga ega bo’lish lozim.

Davolash maqsadida organizmga turli fizik faktorlar (ultratovush, elektr toki, elektromagnit maydon va boshqalar) bilan dozali ta’sir ko’rsatishni taminlovchi elektron qurilmalar, mikroto’lqinli terapiya apparatlari, elektroxirurgiya uchun apparatlar, kardiostimulyatorlar va boshqalarni tuzilishi va ishlash prinsiplarini bilish maqsadga muvofiqdir.

«Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» kursi nihoyasida barcha talabalar quyidagi zaruriy, nazariy va amaliy ko’nikma hamda malakalarga ega bo’lishlari va quyidagilarni bilishi kerak:

- tashxis qo’yishda, davolash va ilmiy tadqiqot maqsadlarida foydalaniladigan tibbiy asboblar, pribor va apparatlarning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsiplarini;

- tibbiyot asboblari, pribor va apparatlarda energiya tashuvchi hisoblanuvchi fizikaviy omillarning a’zo va to’qimalarga ta’sir mexanizmlarini;

- tibbiyot muassasalarida, maxsus klinika va markazlarda davolash texnologiyalari tizimini tuzilishini umumiyl prinsiplarini.

Yuqorida ko’rsatilgan ko’nikma va malakalarga ega bo’lgandan so’ng, mustaqil ravishda quyidagilarni bajara olishi lozim:

- maxsus tibbiy diagnostika va davolash uchun zarur bo’lgan tibbiy asbob va uskunalarga hamda pribor va apparatlarni maqsadga muvofiq tanlay bilish;

- tibbiy asbob va uskunalar hamda pribor va apparatlarning texnik xususiyatlarini, ularning tuzilishi va ishlan prinsiplarini ilmiy tushungan holda texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi;

- diagnostikada, davolashda, jarrohlik va reanimatsiyada foydalaniladigan asboblar va qurilmalardan foydalanishni, tibbiy malumotlarni qayd qilish va hujjatlashni.

«Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» fanini o’rganish uchun tibbiyot elektronikasini ilmiy asoslangan holda mukammal o’rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirgi vaqtida elektronika tushunchasi keng tarqalgandir. Zamonaviy texnika fani bo’lgan elektronika, eng avvalo, hozirgi zamon fizika yutuqlariga asoslanadi, shuning uchun elektron apparatlarsiz hozirgi kunda kasalliklar diagnostikasini ham, ularni effektiv davolashni ham amalgalashni oshirib bo’lmaydi [4].

Davolash maqsadida organizmga turli fizik faktorlar (ultratovush, elektr toki, elektromagnit maydon va boshqalar) bilan dozali ta’sir ko’rsatishni ta’minlovchi elektron qurilmalar: mikroto’lqinli terapiya apparatlari, elektroxirurgiya uchun apparatlar, kardiostimulyator va boshqalar bo’lib hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyot elektronikasining asosi kibernetika elektron qurilmalari bo’lib, ular:

- a) tibbiy-biologik axborotni qayta ishlash, saqlash va avtomatik analiz qilish, muayyan masofaga uzatish uchun elektron hisoblash mashinalari;

- b) hayot uchun zarur bo’lgan jarayonlarni boshqarish va odamni o’rab olgan atrof - muhitning holati ustidan avtomatik tartib o’rnatish uchun tuzilmalar;

- v) biologik jarayonlarning elektron modellari va boshqalarni tashkil qiladi.

Tibbiyot elektorinikasi asbob va apparatlarining ishlatilishi diagnostika hamda davolashning samaradorligini va tibbiyot xodimining mehnat unumdarligini oshiradi.

**Fanning dolzarbliyi.** Oliy ta’lim, jumladan tibbiyot oliygochlari tubdan isloh qilinayotgan hozirgi davr barcha fanlar qatorida Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari” faniga nisbatan ham o’z talablarini qo’ymoqda. Ushbu talablar ta’lim berish sifatini va effektivligini oshirish bilan bir qatorda bitiruvchilarining malakaviy ko’nikmalarini oshirishga yo’naltirilgan. Tibbiyot oliygochlaringin bitiruvchilarini inson organizm a’zo va sistemalarini dasturiy mikroprotessorlarda ishlovchi tibbiy asbob-uskunalar yordamida tekshirib, tekshiruv natijalarini tahlil qila olishga tayyor bo’lmoqlari lozim. Buning uchun bo’lajal hamshiralarda maxsus tibbiy uskunalarni ishlatishda kerak bo’ladigan bilim va ko’nikmalarni hosil qilish maqsadga muvofiq bo’ladi.

**Fanning o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uslubiy jihatdan uziyiligi.** «Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari» tibbiy-biologik fan hisoblanib, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga taaluqlidir. U talablarga VIII - semestrda o’qitiladi.

«Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari» fani matematika, kompyuter texnikasi va informatika, biofizika, tibbiy statistika, biologiya, anorganik va biologik kimyo fanlaridan olgan bilimlariga asoslanadi. Normal va patologik fiziologiya, anatomiya, histologiya va boshqa klinik yo’nalishdagi fanlarni o’zlashtirish uchun asos bo’ladi.

**Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni.** «Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari» fani oliv ma'lumotli hamshiralarda tibbiy bilimlar asosini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. U boshqa fanlar bilan birgalikda organizmdagi turli kasalliklarni aniqlashni va ularni to'g'ri baholashda biofizikaviy mexanizmlari to'g'risida yaxlit ma'lumot berishni, shu bilan birga, talabada klinik fikr yuritishning rivojlanishini ta'minlaydi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash.** Talabalarga bilim berishning asosiy tamoyillari qator ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishdan iborat bo'lib, ularda talabalar tibbiy injiniriyaning asosiy tushunchalari, paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, shuningdek, tibbiyot texnikasi, texnologiyalarining klassifikatsiyasi bilan tanishadilar. Ular biomeditsin injeneriyada qo'llanuvchi tibbiy apparatlarning ishlashi asosini tashkil etuvchi fizik va biofizik hodisa va qonuniyatlar bilan tanishadilar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarga oddiy diagnostik, qayd qiluvchi va fizioterapevtik asboblar, a'zolarni o'rmini bosuvchi qurilma va sistemalar, yordamchi apparatlar, ularning tuzilishi va ishslash prinsiplari haqida tushuncha beriladi.

**Fanning predmeti va mazmuni:** - talabalarga «Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari» fani asosida yotuvchi fizik, biofizikaviy qonuniyatlarni, tibbiy asbob uskunalarining ishlash prinsipi, sun'iy a'zo va sistemalar nazariyasini o'rgatish va ba'zi amaliy ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan.

**Fanning o'qitishdan maqsad:**- matematik, biofizik va kompyuter bilimlariga, olgan bilimlari va ko'nikmalarini tibbiy apparatura va tibbiy texnologiyalarni qo'llashda mantiqiy analiz etuvchi vosita sifatida qo'llay oluvchi yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

**Fanning vazifasi:**- «Tibbiyot texnikasi va yanga tibbiyot texnologiyalari» fanining asosiy vazifasi bo'lajak mutaxassislarga chuqur nazariy bilimlarga asoslangan tibbiy asbob - uskunalar bilan ishlash ko'nikmalarini singdirish, zamonaviy tibbiy apparatlari va diagnostika va davolashda qo'llanuvchi yuqori texnologik tibbiy usullarni o'rgatishdan, ionlovchi nurlanishlardan himoyalanish usullari, umumiy dozimetriya prinsiplari, biovizualizatsiya turlari, radionuklidlardan tibbiyotda foydalanish kabi yo'nalishlar bilan tanishtirishdan iborat. »»

**«Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:**

- tashhis qo'yishda, davolash va ilmiy tekshirish maqsadlarida qo'llaniladigan tibbiy asboblarining tuzilishi, vazifasi va ishslash prinsiplari asoslarini,

- tibbiyot asboblarida energiya tashuvchi hisoblanuvchi fizikaviy omillarning a'zo va to'qimalarga ta'sir mexanizmlarini, maxsus klinika va markazlarda davolash texnologiyalari tizimini tuzilishining umumiy prinsiplarini,

- maxsus tibbiy tashxis va muolajalar uchun zarur bo'lgan tibbiy asbob va uskunalarini maqsadga muvofiq tanlay bilishni,

- tibbiy asboblarining texnik hujjalarni, ularning tuzilishi va ishslash prinsiplarini malakali tushunishi, texnik muhofaza qoidalariiga rioya qilishni, davolashda, diagnostikada, jarrohlik va reanimatsiyada foydalilanadigan asboblar va qurilmardan foydalanish, tibbiy ma'lumotlarni qayd qilish va hujjatlashni bilishi va ulardan foydalana olish;

- fizikaviy qonuniyatlarni tirik organizmdagi jarayonlarga tadbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- tibbiy – biologik ma'lumotlarni fizik – texnikaviy asboblar va apparatlar yordamida olish, qayd etish va tahlil etish malakalariga ega bo'lishi kerak.

**Xulosa.** Yuqorida ko'rsatilganlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari» fani - bugungi kunda tibbiyot amaliyotining muammolarini yechishda, hamda davolash va ilmiy – tadqiqot faoliyatini sifatlari va samarali darajada olib borishda, tibbiyot elektronikasi va kibernetikasiga asoslangan axborot kommunikatsion texnologiyalaridan to'g'ri foydalana oladigan kadrlarni tayyorlashda alohida o'r'in tutadi. «Tibbiy biologik ishi» yo'nalishi mutaxassisligini olgan bakalavrlar zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida olingan tibbiy – biologik ma'lumotlarni qayta ishslash, tahlil qilish, hamda taqdim qila olishi zarur.

Ushbu maqola odam organizmini tibbiy texnika jihozlari yordamida a'zo va turli sistemalarini tashxis usullarini amalga oshirishga, davolash va olingan tibbiy ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilishga, hamda bo'lg'usi «Tibbiy biologik ishi» yo'nalishi mutaxassislarida klinik fikrlash, kasallik va uning belgilarini ilmiy asoslash uchun zamin yaratib beradi.

Tibbiyot institutini bitirgan «Tibbiy biologik ishi» yo'nalishi mutaxassislari, inson organizmining barcha organ va tizimlarini kompyuterlar bilan ulangan tibbiyot priborlari va apparaturalaridan foydalanib,

tekshirish natijalarini tahlil qilish va undan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlay olishga taylor bo'lishlari lozim.

Tibbiy texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan o'qituvchilar talabalarning nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlanishini amalga oshirish uchun o'qitish strategiyalarini moslashtirishlariga undaydi. Ushbu maqolaning mazmun mohiyati talabi bilan zamонавиy adabiyotlar ko'rib chiqildi, turli xil pedagogik usullar muhokama qilindi va tibbiy texnologiyalar fanida ta'lim natijalarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Adabiyotlar:**

1. Remizov A.N. Tibbiy va biologik fizika. Ibn Sino nomidagi nashriyot. 2024. 665 s.
2. Филонин О. В. Общий курс компьютерной томографии / Самарский научный центр РАН. — Самара, 2012. — 407 с. — ISBN 978-5-93424-580-2.
3. S. X. Umarov. Tibbiyot texnikasi va yangi tibbiyot texnologiyalari. Toshkent – 2019. – 303 bet.
4. The Michigan Heart: The World's First Successful Open Heart Operation? Part I — Stephenson — 2007 — Journal of Cardiac Surgery — Wiley Online Library.

**OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA KIMYO FANLARINI O‘QITISHDA KEYS STADI  
USULIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Xayrullayev Choriqul Kazakovich,  
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti  
xayrullayev.choriqul@bsmi.uz*

*Maqola oliv o‘quv yurtlarida kimyo fanini o‘qitishda keys-stadi usulidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Ta’lim jarayonida ushbu yondashuvning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, uning talabalarda tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikma va amaliy masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Keys metodini kimyo o‘quv dasturlariga integratsiyalash imkoniyatlari tahlil qilinadi, jumladan, real misollar va amaliy vaziyatlardan foydalanish nazariy materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga va uni real sharoitlarda qo‘llashga yordam beradi. Maqolada, shuningdek, turli ta’lim muassasalarida ushbu usulni qo‘llash bo‘yicha muvaffaqiyatli amaliyotlar tavsifi va uning talabalarni kimyo va unga aloqador fanlar bo‘yicha nostandard masalalarni yechishga tayyorlashdagi samaradorligi tadqiq etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** keys-stadi usuli, kimyo o‘qitish, oliv ma’lumot, tanqidiy fikrlash, tahliliy ko‘nikmalar, amaliy qo‘llash, o‘qitish usullari, real hayot tajribasi, ta’lim texnologiyalari, faol o‘qitish usullari.

**ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА CASE STUDY ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ В ВУЗАХ**

Статья посвящена особенностям использования метода *case study* (кейс-метод) при преподавании химии в высших учебных заведениях. Рассматриваются основные преимущества и недостатки данного подхода в образовательном процессе, а также его влияние на развитие критического мышления, аналитических навыков и умения решать практические задачи у студентов. Анализируются возможности интеграции метода *case study* в учебные планы по химии, включая использование реальных примеров и практических ситуаций, что способствует лучшему усвоению теоретического материала и его применению в реальных условиях. Статья также включает описание успешных практик применения метода в различных образовательных учреждениях и его эффективность в подготовке студентов к решению нестандартных задач в области химии и смежных дисциплин.

**Ключевые слова:** метод *case study*, преподавание химии, высшее образование, критическое мышление, аналитические навыки, практическое применение, учебные методики, реальный опыт, педагогические технологии, активные методы обучения.

**FEATURES OF USING THE CASE STUDY METHOD IN TEACHING CHEMISTRY IN UNIVERSITIES**

*The article is devoted to the specific features of using the case study method in teaching chemistry in higher education institutions. The main advantages and disadvantages of this approach in the educational process are considered, as well as its impact on the development of students' critical thinking, analytical skills and the ability to solve practical problems. The possibilities of integrating the case study method into chemistry curricula are analyzed, in particular, the use of real examples and practical situations helps to better master theoretical material and apply it in real conditions. The article also describes successful practices in using this method in various educational institutions and studies its effectiveness in preparing students to solve non-standard problems in chemistry and related disciplines.*

**Keywords:** *case study method, chemistry education, higher education, critical thinking, analytical skills, practical application, teaching methodologies, real-life examples, active learning, pedagogical techniques.*

**Kirish.** Oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanlarini o‘qitish, talabalarni nafaqat ilmiy nazariy bilimlar bilan ta’minalash, balki ularni amaliy faoliyatga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Kimyo, o‘zining murakkabliklari va turli amaliyotlarga asoslangan tabiatini bilan talabalarga yirik ilmiy va texnik muammolarni hal qilishda yordam beradigan fanlardan biridir. Kimyo fanlarini samarali o‘qitish, an’anaviy

yondashuvlardan tashqari, zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llashni talab qiladi. Shu maqsadda, so'nggi yillarda ta'lif jarayonida keys stadi (case study) usuli keng qo'llanilmoqda.

Keys stadi usuli, talabalarga real hayotdag'i muammolarni tahlil qilish va yechim topishda o'z bilimlarini qo'llash imkoniyatini beradigan interaktiv o'qitish metodidir. Bu metod talabalarni faqatgina ma'lumotlarni yodlashga emas, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Kimyo fanida, masalan, kimyoviy jarayonlar, laboratoriya ishlarining murakkabligi, atrof-muhitni himoya qilish va texnologik ishlab chiqarishdagi muammolar keys stadi usulida yaxshi aks ettiriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lif muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi (case study) usulidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda turli xil ilmiy va pedagogik manbalarga tayanildi. Keys stadi usuli, o'qitishning interaktiv va amaliy yo'nalishlarini ta'minlashi bilan, ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'qitish samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida ta'kidlangan. Quyida, keys stadi usulining kimyo fanlarini o'qitishdagi afzallikkleri va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha muhim adabiyotlar tahlil qilinadi.

*Pedagogik metodlar va keys stadi usuli.* Birinchi o'rinda pedagogik metodlarni o'rganish muhimdir. Keys stadi usulining o'qitish jarayonida qanday qo'llanilishi, uning talabalarning fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga doir ahamiyati Kolb (1984) tomonidan taqdim etilgan "tajribaviy o'qitish" nazariysi muhim ahamiyatga ega. Kolbning fikriga ko'ra, o'qitish jarayoni faqatgina ma'lumotlarni yetkazishdan iborat emas, balki talabalarni o'z tajribalari orqali o'rganishga yo'naltiradi. Kolb (1984) va uning davomchilarining ishlari, keys stadi usulining amaliyatga qaratilgan tabiatini tushunishda yordam beradi, chunki bu usul talabalarni real muammolarni tahlil qilish va yechim topishga undaydi.

Beedie (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda keys stadi usulining talabalarni faqat nazariya bilan cheklamasdan, ularni real hayotdag'i muammolarni hal qilishga yo'naltirishda samarali ishslashini ko'rsatgan. Beedie keys stadi metodining tahliliyi va interaktiv yondashuvlarni taqdim etishini ta'kidlab, uni o'qitishda talabalarni nafaqat bilimlar bilan ta'minlash, balki amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ham samarali deb hisoblagan.

*Kimyo fanlarida keys stadi usulining qo'llanilishi.* Kimyo fanlarida keys stadi usulining qo'llanilishi haqida bir nechta ilmiy manbalarda izohlar mavjud. Prince va Felder (2006) o'zlarining "Engineering Education" jurnalida keys stadi usulining kimyo va boshqa texnik fanlarda o'qitish samaradorligini oshirishdagi o'rnini ko'rsatdilar. Ular, keys stadi usulini kimyo fanini o'qitishda laboratoriya ishlarida talabalarni faollashtirish, amaliy ma'lumotlarni berish va turli xil kimyoviy jarayonlarni o'rganishga yordam berishini ta'kidladilar. Ularning fikricha, keys stadi orqali talabalar kimyo fanidagi muammolarni tushunib, yangi yechimlarni yaratishda ijodiy yondashuvni o'zlashtiradilar.

Herreid (2004) esa, keys stadi usulining kimyo darslarida samarali qo'llanilishini tahlil qilgan. U keys stadi metodini o'qitishda talabalar uchun aniq bir kimyoviy masalani hal qilish jarayonida interaktivlikni ta'minlashni va bilimlarni amaliyatda qo'llashni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish mumkinligini ko'rsatgan. Herreidning ta'kidlashicha, kimyo darslarida keys stadi usulidan foydalanish talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qiladi, ularni tahlil qilish, qaror qabul qilish va muammolarni yechish ko'nikmalariga ega qiladi.

*Keys stadi usulining o'quvchilarni rivojlantirishdagi roli.* Boud (2006) keys stadi usulining talabalarga nafaqat ilmiy ma'lumotlarni, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishini ta'kidlagan. Uning fikricha, keys stadi usuli talabalarga nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirishga, balki yangi bilimlar yaratish va ularni real hayotdag'i muammolar bilan bog'lashga imkoniyat yaratadi. Boudning ishlarida keys stadi usulining talabalarning tajriba asosida o'rganishiga qulay imkoniyatlar yaratishini ko'rsatilgan.

Gijsselaers (1996) esa, keys stadi usulining talabalarda jamoada ishslash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini o'rganib chiqdi. Gijsselaers keys stadi metodining jamoaviy yondashuvni kuchaytirishga, talabalarni muammoni hal qilishda bir-birlari bilan fikr almashishga va niyoyat, yechim topishga undashda samarali ekanligini ko'rsatdi. Kimyo fanida, ayniqsa laboratoriya ishlarida guruh bilan ishslash talabalar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi va keys stadi bu jarayonda samarali vosita sifatida ishlaydi.

*Pedagogik samaradorlik va metodologik yondashuvlar.* Barkley (2009) keys stadi usulining pedagogik samaradorligini baholagan va bu metodni o'qitish jarayonida talabalar faolligini oshirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. U, keys stadi metodining talabalarning faolligini oshirish, talabalarga real muammolarni hal qilishda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga yordam berishini ta'kidlagan. Keys stadi usuli, o'qituvchi bilan talabalar o'rtaсидаги aloqani yanada kuchaytiradi va talabalarning o'z bilimlarini amaliyatda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

*Keys stadi usulining amaliy qo'llanilishi va tajribalar.* Herreid va Schiller (2013) keys stadi usulining kimyo fanlarida amaliy qo'llanilishi bo'yicha ko'plab misollarni keltirib, uni o'qitishda qanday ijobiy natijalar ko'rsatganini sharhlashtirishga. Ularning fikriga ko'ra, keys stadi metodidan foydalanish talabalarni amaliy muammolarni hal qilishda rag'batlantiradi, ularning ilmiy va texnik salohiyatini oshiradi va kimyo faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Tadqiqotlar, keys stadi usulining talabalar bilimlarini yodlashdan ko'ra, chuquroq o'zlashtirishga yordam berishini ko'rsatadi.

Keys stadi usulining kimyo fanlarini o'qitishda qo'llanilishi, talabalarga faqatgina nazariy bilimlar berish bilan cheklanmay, balki ularga real hayotdagi muammolarni hal qilishda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Adabiyotlar tahlili, keys stadi usulining pedagogik samaradorligini va kimyo fanlari o'qitishdagi afzalliklarini ko'rsatadi. Keys stadi usuli, talabalarni tanqidiy fikrlashga, ijodiy yondashuvni rivojlantirishga va jamoada samarali ishlashga undaydi. Shuningdek, bu metod talabalar uchun kimyo fanining amaliy va nazariy jihatlarini birlashtiruvchi, interaktiv o'qitish usuli sifatida ahamiyatlidir.

**Metod va metodologiya.** Maqlola oliy ta'limga muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi (case study) usulidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda qo'llanilgan metod va metodologiya quyidagi asosiy qadamlarni o'z ichiga oladi:

*Adabiyotlar tahlili.* Avvalo, keys stadi usulining o'quv jarayonidagi o'rni va kimyo fanida qo'llanilishi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Bu bosqichda pedagogik va ilmiy maqlolar, monografiyalar, tezislar va boshqa ilmiy manbalar orqali keys stadi usulining ta'limga tizimiga kirib borish jarayoni, uning kimyo fanidagi afzalliklari va samaradorligi haqida ma'lumot to'plandi. Shuningdek, keys stadi usulining o'qitishda qanday yondashuvlar bilan integratsiyalashgani va ularning kimyo fanini o'rgatishda qanday natijalar bergani o'rganildi.

*Tahlil metod.* Keys stadi usulining kimyo fanlarini o'qitishga ta'siri tahlil qilindi. Bu metod orqali, kimyo o'qitish jarayonida talabalar tomonidan yuzaga keladigan muammolar va ushbu muammolarni hal etishda keys stadi usulining qanday rol o'ynashini aniqlashga harakat qilindi. Tahliliy metod talabalarни interaktiv muhitda fikrlashga, qarorlar qabul qilishga, ilmiy-texnik muammolarni hal qilishga va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Ushbu metod o'quv jarayonining samaradorligini baholash uchun kimyo o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini solishtirishni o'z ichiga oldi.

*Kvantitativ va sifatli tahlil.* Maqola davomida keys stadi usulining kimyo fanida qo'llanishi bo'yicha talabalarning fikrlarini tahlil qilish uchun ikkita asosiy metoddan foydalanildi:

- *Kvantitativ tahlil:* Oliy ta'limga muassasalarida kimyo fanlarida keys stadi usulining samaradorligini o'chash uchun so'rovnomalar va anketalar ishlab chiqildi. Talabalarga keys stadi usuli bilan o'qitilgan darslar bo'yicha savollar berildi va bu savollar orqali talabalarning yondashuvni qanday qabul qilgani, uni amaliyotda qanday qo'llaganligi haqida ma'lumotlar to'plandi.

- *Sifatli tahlil:* Bu metod yordamida talabalar bilan intervyular o'tkazildi, ularning keys stadi usuliga bo'lgan munosabatlari va tajribalari tahlil qilindi. Sifatli tahlil usuli talabalarning o'z fikrlarini va darslar davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

*Praktik tadqiqotlar va laboratoriya ishlari.* Keys stadi usulining kimyo fanlaridagi o'quv jarayoniga qo'llanilishi laboratoriya ishlarida ham sinovdan o'tkazildi. Talabalar o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlashdi, shuningdek, turli xil kimyoviy muammolarni yechishda keys stadi usulining qanday samarali yordam bergani kuzatildi. Tadqiqotlar kimyo fanining amaliy jihatlarini real hayotdagi holatlar bilan bog'lab o'rgatishda ushbu usulning afzalliklarini ko'rsatdi.

*Solishtirish metodologiyasi.* Keys stadi usulini boshqa pedagogik metodlar bilan solishtirish metodologiyasi ham qo'llanildi. Oliy ta'limga kimyo fanini o'qitishda eng ko'p ishlatiladigan an'anaviy metodlar, masalan, leksiya, laboratoriya ishlar va praktikumlar bilan keys stadi usulining afzalliklari va kamchiliklari o'rganildi. Ushbu metodologiya yordamida keys stadi usulining kimyo o'qitish jarayonigagi ijobiy ta'siri va talabalarning faolligini oshirishdagi ahamiyati aniqlashtirildi.

*Empirik tadqiqotlar.* Tadqiqotning yakuniy qismida keys stadi usulining kimyo fanlaridagi ta'limga samaradorligini amaliyotda baholash uchun real guruuhlar bilan empirik tadqiqotlar o'tkazildi. Bu tadqiqotlar davomida keys stadi metodidan foydalanilgan darslarda talabalarning o'rganishdagi muvaffaqiyatlari, o'zlashtirish darajasi va umumiyligi faollik darajasi o'chandi. Tadqiqot natijalarini orqali usulning kimyo fanlarini o'qitishda samaradorligini aniqlashga harakat qilindi.

Metod va metodologiya yordamida o'tkazilgan tahlil, solishtirish va empirik tadqiqotlar asosida, keys stadi usulining oliy ta'limga muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishdagi afzalliklari va uning talabalarning ilmiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni aniqlandi. Keys stadi metodining o'ziga xos xususiyatlari, talabalarni real hayotdagi muammolarni yechishga tayyorlash, tanqidiy fikrlash va jamoada ishslash kabi ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati muhokama qilindi.

**Tadqiqotlar natijasi.** Oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi usulidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bir nechta muhim jihatlarni oshib berdi. Tadqiqotlar, keys stadi usulining kimyo fanlarida qo'llanilishining talabalarni faollashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy muammolarni hal qilishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqotlar natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

*Talabalar faolligini oshirish.* Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keys stadi usuli talabalarning darsga bo'lgan faolligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalarga real hayotdagি muammolarni tahlil qilish va ularni yechish vazifasi yuklatilganda, ular nafaqat passiv ravishda ma'lumotlarni qabul qilish, balki o'zlarining fikrlarini erkin ifoda etish, guruhda ishslash va o'zaro fikr almashish orqali mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtiradilar.

Bir nechta oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan so'rovlар va intervylular natijasida, keys stadi metodini qo'llagan talabalar, o'zlarining darsdagи faolligi va ishtiroki sezilarli darajada oshganini bildirganlar.

*Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanishi.* Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keys stadi usuli talabalarda tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlanirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Keys stadi metodida talabalar real muammolarni tahlil qilib, qaror qabul qilish jarayonida o'z bilimlarini amaliyatga tadbiq etadilar. Bu esa, ularning tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va ilmiy jihatdan to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

*Laboratoriya ishlarida samaradorlikni oshirish.* Kimyo fanida keys stadi usulining qo'llanilishi laboratoriya ishlarida ham o'zining samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqotlarda, keys stadi usuli orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirdilar, balki kimyoviy tajribalar va amaliy laboratoriya ishlarini orqali bilimlarini mustahkamlashga erishdilar. Bu esa, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlaniradi va kimyo fanidagi amaliy ishlarini aniqroq bajarish imkoniyatini yaratadi.

*O'quvchilarning guruhda ishslash ko'nikmalarining rivojlanishi.* Tadqiqotlar keys stadi usulining talabalar orasida guruhda ishslash ko'nikmalarini rivojlanirishga qanday yordam berishini ko'rsatdi. Kimyo fanlarida keys stadi usuli talabalarga jamoaviy tarzda muammoni hal qilishni ta'minlab, guruhda ishslash va bir-birligа bilimlarni yetkazish jarayonini samarali tashkil etadi. Bu esa, talabalarning o'zaro fikr almashish, jamoa ichida samarali muloqot o'rnatish va guruh ishlarini muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlaniradi.

*Kimyo faniga qiziqishni oshirish.* Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keys stadi usuli talabalarda kimyo faniga qiziqishni oshirishga yordam beradi. Real hayotdagи masalalar va muammolarni yechish talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qiladi va ularni o'quv jarayoniga faol qo'shilishiga undaydi. Talabalar, keys stadi usuli orqali kimyo fanining amaliy ahamiyatini tushunib, ilmiy tajribalar va laboratoriya ishlariga qiziqish bildirdilar.

Tadqiqotlar natijalaridan shuni ta'kidlash mumkin: oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi usulining qo'llanilishi talabalarda bir qator ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Bu usul talabalarning faolligini oshiradi, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlaniradi, laboratoriya ishlarida samaradorlikni ta'minlaydi, guruhda ishslash ko'nikmalarini mustahkamlaydi va kimyo faniga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keys stadi usulining kimyo ta'limida qo'llanilishi talabalarni bilim olish jarayoniga faol jalb qiladi, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlaniradi va o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

**Muhokama.** Oliy ta'lim tizimida kimyo fanlarini o'qitish, faqatgina nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lmay, balki talabalarni amaliyatga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Kimyo fanlari, o'zining murakkabligi va turli xil kimyoviy jarayonlar, reaksiyalar va laboratoriya ishlarini o'z ichiga olganligi sababli, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik metodlarning qo'llanilishi talab etiladi. Bugungi kunda kimyo fanlarini o'qitishda keys stadi (case study) usuli keng tarqalgan pedagogik yondashuvlardan biriga aylangan.

Keys stadi usuli talabalarga aniq bir muammoni yoki holatni taqdim etib, uni tahlil qilish va yechim topish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodidir. Bu usul talabalarni faqatgina ma'lumotlarni yodlashga emas, balki tanqidiy fikrlashga, qaror qabul qilishga va amaliy muammolarni hal qilishga undaydi. Kimyo fanida bu metod, kimyoviy jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda, talabalarga real hayotdagи kimyoviy muammolarni yechish imkoniyatini beradi.

Keys stadi usulining kimyo o'qitishidagi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. Amaliy va nazariy bilimlarni birlashtirish. Kimyo fanining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning kuchli nazariy va amaliy jihatlaridan iboratligidir. Keys stadi usuli talabalarga kimyoviy reaksiyalarni, laboratoriya ishlarini va texnologik jarayonlarni nazariy jihatdan tushunish bilan birga, ularni haqiqiy holatlarda qanday qo'llashni ham o'rgatadi. Masalan, talabalar kimyoviy texnologiyalarni ishlab chiqish,

ekologik xavf-xatarlarni baholash yoki kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish kabi amaliy vazifalarni bajarishlari mumkin.

2. Real hayotdagi vaziyatlarga oid masalalar. Kimyo fanida, ko‘pincha haqiqiy hayotdagi muammolarni yechish talab etiladi. Keys stadi usuli orqali talabalar amaliyatga tayyorlanadilar, chunki ular real hayotdagi kimyoviy jarayonlarni o‘rganishadi. Masalan, atrof-muhitni himoya qilish, kimyoviy chiqindilarni qayta ishlash, yangi dorivor moddalarning sintezi kabi masalalar talabalarga taklif qilinishi mumkin. Bu esa, talabalar uchun fan va uning amaliy ahamiyatini yanada yaxshiroq anglash imkonini yaratadi.

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Keys stadi usuli ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar holatni tahlil qilish, turli xil faktlarni solishtirish va yechimlar izlashda o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga o‘rgatiladi. Kimyo fanida, masalan, kimyoviy reaktsiyalarni optimallashtirish, yangi metodlarni kashf etish yoki jarayonlarni takomillashtirishda ijodiy yondashuv zarur bo‘ladi. Keys stadi, talabalarga ana shu ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

4. Jamoada ishslash va muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirish. Kimyo fanini o‘qitishda laboratoriya ishlari, jamoaviy tadqiqotlar va guruhli muhokamalar alohida o‘rin tutadi. Keys stadi usulida talaba guruhlarda ishslashni o‘rganadi va jamoada muammoni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu o‘qituvchiga talabalar orasida samarali muloqot va fikr almashish jarayonlarini boshqarishga imkon beradi. Kimyo o‘qitish jarayonida guruhli ishslash orqali talabalar bir-birlarining fikrlarini eshitish, baholash va umumiy qarorga kelishni o‘rganadilar.

5. Tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilishni rivojlantirish. Kimyo fanida ko‘plab nazariy va amaliy savollar mavjud, bu esa, talabalarga turli fikrlarni tahlil qilish va tanqidiy qarorlar qabul qilishni o‘rganishni talab etadi. Keys stadi usulida talabalar ko‘pincha qaror qabul qilishda ishtirot etadilar va bu jarayonda turli xil fikrlar va yechimlarni muhokama qiladilar. Kimyo fanidagi murakkab masalalarni hal qilish uchun tanqidiy fikrlash juda muhimdir.

Keys stadi usulining kimyo ta’limiga kiritadigan afzalliklari:

- Talabalar uchun yanada interaktiv va qiziqarli o‘qitish: Keys stadi usuli talabalarini passiv eshituvchilardan faol ishtirotkchilarga aylantiradi. Bu esa, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.
- Amaliy va nazariy bilimlarni o‘zgartirish imkoniyati: Kimyo fanidagi kompleks jarayonlarni o‘rganish va amaliyatga qo‘llash talabalarni ilmiy va texnik jihatdan tayyorlaydi.
- Tajriba almashish va o‘rganish: Keys stadi usuli talabalarni o‘zaro tajriba almashishga undaydi, bu esa, ta’limda samarali o‘rganishning asosiy shartlaridan biridir.
- Muammolarni real hayot sharoitida yechish imkoniyati: Talabalar o‘zları uchun yangi va murakkab bo‘lgan muammolarni yechishda o‘z bilimlarini qo‘llashga imkon topadilar.

**Xulosa.** Oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanlarini o‘qitishda keys stadi usulidan foydalanish o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklariga ega. Tadqiqotlar va tahlillar natijasida, ushbu pedagogik metodning nafaqat ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishda, balki talabalar orasida tanqidiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, guruhda ishslash va muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rnini borligi aniqlangan.

Keys stadi usuli talabalarini real hayotdagi muammolar bilan tanishtiradi va ularni tahlil qilish orqali ilmiy g‘oyalar va nazariyalarni amaliyatga tadbiq etishga undaydi. Kimyo fanlari o‘qitish jarayonida bu metod talabalarning faolligini oshiradi, guruhda ishslash va jamoada fikr almashish ko‘nikmalarni rivojlantiradi, shuningdek, ilmiy va texnik qarorlar qabul qilishda mustaqil yondashuvni shakllantiradi. Oliy ta’limda kimyo fanlarini o‘qitishda keys stadi usulining qo’llanilishi, talabalar uchun nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshiradi, balki ularning kelajakdagi professional faoliyatiga ham tayyorlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, keys stadi metodining kimyo fanlarida qo’llanilishi talabalarning ilmiy va amaliy ko‘nikmalarni birlashtiruvchi yondashuv bo‘lib, ular o‘quv jarayonida yanada samarali ishtirot etishadi. Shuningdek, bu usul talabalarни faqatgina ma‘lumotlarni yodlashga emas, balki ularni chuqurroq o‘rganishga, muammolarni kompleks tarzda hal qilishga undaydi. Kimyo fanlarining murakkab tabiatini va amaliy ahamiyatini tushunishda keys stadi usulining roli ayniqsa katta.

### Takliflar.

1. **Keys stadi usulini kengroq joriy etish:** Oliy ta’lim muassasalarida kimyo fanlari o‘qitishda keys stadi usulini kengroq joriy etish zarur. Bu metod talabalarning ilmiy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi, ularni mustaqil fikrlashga va tahliliy yondashuvni o‘zlashtirishga undaydi. Darslarda keys stadi usulini muntazam qo‘llash orqali talabalarning o‘qitish jarayonidagi faolligi oshadi va ilmiy masalalarni hal qilishda chuqurroq yondashuvga erishiladi.

2. **Keys stadi metodini laboratoriya ishlariiga integratsiya qilish:** Kimyo fanlarida keys stadi usulini laboratoriya ishlari bilan birlashtirish, talabalar uchun ilmiy jarayonlarni yanada qiziqarli va

interaktiv qilishga yordam beradi. Talabalar real laboratoriya muammolarini hal qilishda keys stadi usulini qo'llagan holda, o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Laboratoriya ishlarida keys stadi metodining samarali qo'llanishi talabalarga ilmiy qarorlar qabul qilishda amaliy tajriba beradi.

**3. Pedagogik tayyorgarlikni kuchaytirish:** Keys stadi usulini samarali qo'llash uchun o'qituvchilarni tegishli pedagogik tayyorgarlikdan o'tkazish muhimdir. O'qituvchilar keys stadi usulining afzallikkari va metodikasini to'liq tushunib, darslarda uni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallashlari kerak. Shu bilan birga, keys stadi metodini o'qitishda eng yaxshi tajribalar va yondashuvlarni tarqatish uchun o'qituvchilar orasida seminarlar, kurslar va amaliyotlar tashkil etilishi lozim.

**4. Muammolarni hal qilishda talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish:** Keys stadi metodidan foydalanishda talabalar, ayniqsa yangi boshlovchilar, muammolarni hal qilishda ba'zan qiyonalishlari mumkin. O'qituvchilar talabalarni boshlang'ich bosqichda yo'naltirishi, ular uchun kerakli manbalarni taqdim etishi va ular bilan interaktiv tarzda ishlashi zarur. Bu, talabalar uchun o'z bilimlarini amaliyotga tadbiq etishda yordam beradi va ularning o'qish jarayonidagi ishtirokini samarali qiladi.

**5. O'qitish samaradorligini baholash:** Keys stadi metodining samaradorligini muntazam ravishda baholash va tahlil qilish kerak. Buning uchun o'quvchilardan so'rovnomalari, intervylular va testlar o'tkazilishi mumkin. O'qitishning samaradorligi va talabalarning bu metodga bo'lgan munosabati doimiy ravishda o'rganib borilishi, metodni takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, keys stadi usulining muvaffaqiyatli qo'llanilishini baholash uchun talabalarni o'zlashtirish darajasini o'lchash uchun aniq mezonlar ishlab chiqish lozim.

**6. Oliy ta'lif tizimida keys stadi usulini tarmoqlar bo'yicha joriy etish:** Keys stadi usulini nafaqat kimyo, balki boshqa texnik va tabiatshunoslik fanlari o'qitishda ham qo'llash kerak. Bu metod talabalarni fanlararo yondashuvga, muammolarni integratsiyalashgan tarzda hal qilishga o'rgatadi. Oliy ta'lif tizimida keys stadi usulini boshqa fanlarda ham tatbiq etish orqali talabalar ko'proq multidisipliner yondashuvni o'rganishadi.

**Xulosa qilib aytganda,** keys stadi usuli oliy ta'lifda kimyo fanlarini o'qitishda muhim pedagogik vosita sifatida o'qitish samaradorligini oshiradi, talabalar ko'nikmalarini rivojlantiradi va amaliyotga tayyorlashni ta'minlaydi. Ushbu metoddan samarali foydalanish talabalarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan, balki real hayotdagি muammolarni hal qilishga tayyorlashda ham katta rol o'ynaydi. Shuning uchun keys stadi usulini oliy ta'lif tizimida kengroq tatbiq etish va uning samaradorligini doimiy ravishda tahlil qilish zarur.

### Adabiyotlar:

1. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice-Hall.
2. Beedie, C. (2003). The Case Study Method in Chemistry Education: Its Role and Impact. // Journal of Chemical Education, 80(4), 470–475.
3. Prince, M. J., & Felder, R. M. (2006). Inductive Teaching and Learning Methods: Definitions, Comparisons, and Research Bases. // Journal of Engineering Education, 95(2), 123-138.
4. Herreid, C. F. (2004). Case Study Teaching in Science Education. // Journal of College Science Teaching, 33(1), 36-39.
5. Herreid, C. F., & Schiller, N. A. (2013). Case Studies and the Flipped Classroom. // Journal of College Science Teaching, 42(5), 62–67.
6. Gijselaers, W. H. (1996). Management Education and Development: A Reflection on the Case Method. // Journal of Management Education, 20(1), 26-46.
7. Tiwari, A., Lai, P. W., & So, M. K. (2006). Case-based Learning: A Review of the Teaching Method. // International Journal of Engineering Education, 22(1), 11-19.

**MATEMATIKANI O’QITISHDA INTERFAOL YONDASHUVLAR: HODISANING  
EHTIMOLLIGINI O’RGATISHNING SAMARALI USULLARI**

*Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi,  
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
Yusubjanovam271994@gmail.com*

*Mazkur maqola umumiyo‘rtta ta’lim mакtabalarida o‘quvchilarga hodisaning ehtimolligini hisoblash usullarini interfaol metodlar yordamida o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, unda hodisaning ehtimolligi va uning turlariga doir ayrim ma‘lumotlar keltirilgan. PISA xalqaro baholash testida ham ushbu fanga oid savollar mavjud bo‘lib, unda qatnashgan o‘quvchilarimiz aynan shu fanga oid savollarda past natijalarga erishishgan. Bundan fanni o‘qitishga alohida yondashuv zarurligi ma‘lum bo‘ladi. Ya’ni fanni o‘qitishda interfaol usullar bilan o‘quvchilarni qiziqishini oshirish, bilimlarini mustahkamlash va dars jarayonini samarali olib borilishini ta’minlash zarur. Bulardan xulosa qilib, ushbu tadqiqotda dars jarayonida hodisalar ehtimolligini Pazl (Jigsaw) va rolli o‘yinlar metodlari yordamida qanday olib borishni tushuntirib berilgan. Demak, o‘qituvchining interfaol metodlarning qaysi turini tanlashidan qat’iy nazar, undan dars jarayonida foydalanishi darsning samaradorligini oshirishga, ko‘proq o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishga, ularni mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** hodisa, hodisaning ehtimolligi, ehtimollik turlari, Pazl (Jigsaw) metodi, rolli o‘yinlar metodi.

**ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ МАТЕМАТИКЕ: ЭФФЕКТИВНЫЕ  
МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ВЕРОЯТНОСТИ СОБЫТИЯ**

*Данная статья предназначена для обучения учащихся общеобразовательных школ методам расчёта вероятности события с использованием интерактивных методов и содержит некоторую информацию о вероятности события и его видах. В международном оценочном тесте PISA также есть вопросы, связанные с этим предметом, и наши студенты, участвовавшие в нём, показали низкие результаты по вопросам, связанным с этим предметом. Отсюда становится ясно, что необходим особый подход к преподаванию науки. То есть при преподавании естественных наук необходимо повысить интерес учащихся, закрепить их знания и обеспечить эффективное проведение учебного процесса интерактивными методами. В заключении в данном исследовании объясняется, как провести вероятностные события в ходе урока с помощью методов «пазл» и ролевой игры. В заключение можно сказать, что независимо от того, какой вид интерактивных методов выбирает учитель, их использование в ходе урока способствует повышению эффективности урока, привлечению большего количества учащихся к процессу урока, развитию их логического мышления. мышление.*

**Ключевые слова:** событие, вероятность события, виды вероятности, метод «Пазл», метод ролевой игры.

**INTERACTIVE APPROACHES TO TEACH MATHEMATICS: EFFECTIVE METHODS OF  
TEACHING PROBABILITY**

*This article is aimed at teaching students in secondary schools how to calculate the probability of an event using interactive methods, and it contains some information about the probability of an event and its types. The PISA international assessment test also has questions related to this subject, and our students who participated in it achieved low results in questions related to this subject. From this, it becomes clear that a special approach for teaching science is necessary. That is, in the teaching of science, it is necessary to increase the interest of students, strengthen their knowledge and ensure the effective conduct of the lesson process with interactive methods. In conclusion, in this study, it is explained how to conduct the probability of events in the course of the lesson with the help of Jigsaw and role-playing methods. In conclusion, it can be said that regardless of which type of interactive methods the teacher chooses, using them in the course of the lesson serves to increase the effectiveness of the lesson, to attract more students to the lesson process, and to develop their logical thinking.*

**Keywords:** event, event probability, types of probability, Jigsaw method, role-playing game method.

**Kirish.** Ehtimollar nazariyasi hozirgi davrda turli sohalarda keng qo'llaniladi. Uning kundalik hayotimizdagi ahamiyati, analitik tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Jumladan, maktablarda ehtimollikni o'qitish o'quvchilarga statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni baholash va turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini beradi. Ehtimollar nazariyasini umumiyligi o'rta ta'lim mакtablarida algebra fani tarkibida o'rgatiladi. Ya'ni mamlakatimizda 2018-yildan o'quv dasturlariga ushbu bo'lim ham kiritilgan. Bu fanga oid savollarni Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida, bundan tashqari PISA xalqaro baxolash testida ham uchratamiz. PISA test jarayonlarida qatnashgan o'quvchilarimiz aynan shu kategoriyyadagi savollarda qiyonalishgan, past natija ko'rsatishgan. Hozirgi kunda mакtab o'quvchilarida ham bu bo'limni o'zlashtirishda va bunga doir mavzularni o'quvchilarga tushuntirishda ham o'qituvchilarda turli kamchilik va muommolar yuzaga kelmoqda. Bu esa fanni o'qitishga alohida yondashish va aynan ehtimollar nazariyasini mакtabda o'rgatishga doir metodik tavsiyalar zarurligini anglatadi. Bularni inobatga olib, ushbu tadqiqotda o'quvchilarga ehtimollar nazariyasini asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan hodisaning ehtimolligi mavzusini interfaol metodlar yordamida samarali o'rgatish usullarini keltirdik. Ya'ni dars jarayonida hodisalar ehtimolligini Pazl (Jigsaw) va rolli o'yinlar metodlari yordamida qanday olib borishni tushuntirib berdik. Bundan tashqari mavzuga doir nazariy bilimlarni hayotiy masalalar yechish namunalari yordamida mustahkamlash imkonini ham yaratdik.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ehtimollar nazariyasi fanini rivojlanishiga va fan sifatida tarkib topishiga ko'plab olimlar hissa qo'shgan. Jumladan, Blez Paskal (ehtimollar nazariyasi asoschilaridan biri), Pyer Ferma (Paskal bilan birgalikda ehtimollik nazariyasining ilk asoslarini yaratgan,[1] U Kombinatorik yondashuv yordamida ehtimollarni hisoblashni asoslab bergan), Yakob Bernulli ("Katta sonlar qonuni"ni isbotlab bergan va u yaratgan Bernulli teoremasi ehtimollikning fundamental qoidalaridan biridir), Andrey Kolmogorov (Zamonaviy ehtimollar nazariyasining asoschisi), Pyer-Simon Laplas (Bayes ehtimoli tushunchasini rivojlanirgan), Bayes (Shartli ehtimollarni hisoblashning asosiy qoidalarini kiritgan), Feller (Ehtimollar nazariyasini keng ko'lamda tushuntirgan) kabilar. Ushbu olimlarning tadqiqotlari ehtimollar nazariyasi va matematik statistikani hozirgi zamonaviy shakliga keltirdi. Hozirgi kunda ham bu ishlarni dunyo miqyosida ko'plab olimlar davom ettirib, ushbu fan bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Xususan, Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari fanini o'qitishga doir chet el olimlaridan Carmen Batereno, Juan D. Godino, Rafael Roa (2014) "Training Teachers to teach probability", Feng Wang, Xiapping Xu "Discussion on the Teaching Method of Probability Theory and Mathematical Statistics", Renalyn De Mesa Mender "Mathematics teaching strategy in statistics and probability", Shuai Liu, Renyong Guo and others, "An Effective Teaching Method of the Course "Probability Theory and Mathematical Statistics" in Higher Education by Formative Evaluation", Murad Barakayev, Kamola Turgunova and others. "Methodology of Teaching Theory of Probability and Elements of Mathematical Statistics with the help of Practical Problems", Wenyao Xiong "Research on the Probability Theory and Mathematical Statistics Teaching" kabilar o'zlarining tadqiqotlari fanni samarali o'qitishga doir foydali ma'lumotlar keltirishgan[2,3,4,5,6,7]. " Matematika o'zining qat'iy mantig'i va mavhum tushunchalari bilan ko'p o'quvchilarni tashvishga soladi va o'zidan uzoqlashtiradi. Biroq o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb qilishga asoslangan zamonaviy o'qitish usullari sezilarli darajada bu munosabatni yaxshilashi mumkin"- deydi o'z tadqiqotlarida L.Hetmanenko. Interfaol ta'lim usullari o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiladi[8]. T. Peterson va M. Thomas (2021) ta'kidlashicha, "Ehtimollik tushunchalarini o'qitishda interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularda yanada chuqrurq tushunchalarni shakllantiradi"[9] -bu metodlar o'quvchilarga real hayotiy holatlar orqali abstrakt tushunchalarni osonroq tushunish imkonini beradi kabi fikrlar ham ehtimollik tushunchasini o'rgatishda aholida yondashuvlar zarurligini asoslaydi.

Ushbu tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish uchun quyidagi tadqiqot usullari foydalanildi:

- Mavjud adabiyotlar haqida umumiyligi ma'lumot, ya'ni adabiyot sharhi, tadqiqot bo'yicha mavjud ilmiy maqolalar, tadqiqotlar, kitoblar va boshqa nashrlarning keng tahlilini matematika kontekstida o'rganish. Ushbu usul hozirda bu sohada natijalar, tendensiylar, usullar va tadqiqotlar haqida umumiyligi ma'lumot beradi.

- Pedagogik amaliyotni tahlil qilish. Interfaol ta'limdan foydalanadigan matematika o'qituvchilarining tajribasini o'rganish. Bunga sinfda o'qituvchilar va o'quvchilarning mulqotlarini kuzatish, o'quv materiallarini tahlil qilish, suhbatlar orqali.

Ushbu usullarning birgalikda olib borish bizga interfaol ta'lim orqali ehtimollikni o'rganishni har tomonlama ko'rib chiqish imkonini beradi, shuningdek, o'quv jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

**Natijalar va muhokama.** Interfaol o‘qitish usullari — bu o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, ma’lumotni passiv ravishda o‘zlashtirishdan ko‘ra, ularni faol tarzda o‘rganishga jalb qiluvchi innovatsion strategiyalardir. Bu usullar hamkorlik, tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa zamonaviy ta’limda zarur ko‘nikmalarini shakllantiradi. Hodisalar ehtimolligini interfaol metodlar yordamida o‘rgatishdan oldin ehtimollikka ta’rif bersak: U yoki bu hodisaning muvaffaqiyatli ro‘y berish imkoniyatini hodisaning ehtimolligi deyiladi va P orqali belgilanadi[1,10]. Hodisaning ehtimolligini bir nechta ta’riflarini ham keltiramiz:

**Ehtimollikning klassik ta’rifi.** Agar biror tajribada n ta teng imkoniyatli, o‘zaro juftma-juft birgalikda bo‘lmagan natija mavjud bo‘lib, ulardan m tasi A hodisa uchun qulaylik tug‘diruvchi imkoniyatlar bo‘lsa, u holda  $\frac{k}{n}$  nisbat A hodisaning ro‘y berish ehtimolligi deyiladi va quyidagicha yoziladi:  $P(A) = \frac{k}{n}$  [10].

Masala. O‘yin kubigini bir marta tashlanganda toq sonli ochko chiqish ehtimolligini toping.

Yechish: A- hodisani “toq son chiqish” hodisasi deylik. Bunda bizda uchta imkoniyat mavjud: ya’ni 1,

3, 5 ochkolarni tushushi, demak k=3. Jami hodisalar esa n=6 ta, shu sababli  $P(A) = \frac{3}{6} = \frac{1}{2}$ .

**Ehtimollikning statistik ta’rifi.** A hodisaning nisbiy chastotasi deb, ushbu hodisa ro‘y bergan tajribalar soni k ning o‘tkazilgan barcha tajribalar soni n ga nisbatiga aytildi va W(A) kabi belgilanadi:  $W(A) = \frac{k}{n}$ . Agar tajribalar soni yetarlicha ko‘p bo‘lsa va shu tajribalarda biror A hodisaning nisbiy chastotasi biror o‘zgarmas son atrofida tebransa, bu songa A hodisaning statistik ehtimolligi deyiladi.  $W(A)=P(A)$

Masala. Tanga tashlash tajribasida gerb tomoni tushish ehtimolligini toping.

Yechish: A-hodisani “gerb tomoni tushish” hodisasi deylik. Tajribada ikkita hodisa ro‘y beradi: gerb yoki raqam tomoni tushish, ya’ni n=2. Demak,  $W(A) = \frac{1}{2}$ . Ta’rifga ko‘ra bu tajribani yetarlicha ko‘p marta takrorlasak,  $W(A)=P(A)$  ga teng bo‘ladi. Endi bu tushunchalarni o‘rganishni quyidagi interfaol metodlar yordamida ko‘rib chiqamiz. Avval ushbu metodlarni o‘tkazish tartibini ko‘rib chiqaylik.

**1) Pazl usuli (Jigsaw) metodini** birinchi marta Elliot Aronson va uning hamkasbleri 1970-yillarda ishlab chiqqan. “The Jigsaw Classroom: Building Cooperation in the Classroom” (1978)— Elliot Aronson, M. K. Blaney, C. Stephan, P. Sikes, va J. S. Snapp tomonidan yozilgan kitobda Jigsaw metodining prinsip va amaliyotlari to‘liq yoritib berilgan[11]. Bundan tashqari “The Jigsaw Classroom” (2000) — Elliot Aronson tomonidan yozilgan yana bir kitobda Jigsaw metodining tasvirlanishi va uning o‘quvchilar orasida hamkorlikni qanday rivojlantirishga yordam berishi haqida keng tushunchalar berilgan.

**Pazl usuli (Jigsaw)** — bu hamkorlikka asoslangan interfaol ta‘lim metodlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga jalb qiladi va ularning birgalikda o‘quv materialini o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Bu usul jamoaviy ishslash, mas’uliyatni bo‘lishish va bilim almashishga katta e’tibor qaratadi.

Pazl usulining maqsadi:

- O‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik va jamoaviy ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish.
- Dars jarayonida teng faoliyatni ta’minlash va har bir ishtirotchini faollikka jalb qilish.
- Mavzuni har tomonlama o‘rganish orqali chuqur tushunish va o‘zlashtirishni kuchaytirish.
- Har bir o‘quvchining o‘quv jarayonidagi mas’uliyatini oshirish.

Pazl usulini o‘tkazish tartibi:

**Tayyorlov bosqichi:-** Mavzu tanlanadi va kichik bo‘laklarga ajratiladi. Har bir bo‘lak alohida bir qismni tashkil etadi. O‘quvchilar 4-6 kishidan iborat guruhlarga ajratiladi.

**Guruhlarni shakllantirish-** Har bir guruuh a’zosi o‘z qismiga javobgar bo‘lgan "ekspert" bo‘lib, ajratilgan bo‘lakni mustaqil o‘rganadi.

**Ekspert guruuhlarini hosil qilish-** Barcha guruhlardan bir xil mavzu qismi ajratilgan o‘quvchilar birlashib, “ekspert guruuh” hosil qiladi. Ekspert guruhlarda o‘quvchilar o‘z qismidagi materialni chuqur o‘rganadilar va uni boshqalarga qanday tushuntirish bo‘yicha reja tuzadilar.

**Asosiy guruhlarga qaytish-** Har bir ekspert o‘z boshlang‘ich guruhiqa qaytadi va mavzuning o‘z qismiga oid bilim va tushunchalarni guruhdagi boshqa a’zolarga tushuntiradi.

**Umumlashtirish -** Barcha guruhlar o‘z qismi bo‘yicha ma’lumotlarni taqdim etib, mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqaradi. O‘qituvchi faoliyatni nazorat qiladi, qo‘llab-quvvatlaydi va jarayonni yakunlaydi.

**2) Rolli o‘yinlar metodining ta’lim sohasidagi qo‘llanilishi haqida bir nechta kitoblarda ma’lumotlar kelirilgan.** Xususan, “Role Play in Language Education” (Rod Ellis, 1994), “Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy” (H. Douglas Brown 1994, 2001), “Learning by Doing: A Guide to Teaching and Learning Methods” (Graham Gibbs, 1988), “Role Playing in Classroom Teaching” (David W. Johnson, Roger T. Johnson, 1989). Bu kitoblar ta’limda rolli o‘yinlarning qo‘llanilishi va uning samaradorligini ko‘rsatib beradigan eng asosiy mambalardir. Rolli o‘yinlar metodining ta’limda qanday ishlashi, o‘quvchilarga o‘zaro, birqalikda faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish va tajriba asosida o‘rganishning ahamiyati haqida batatsil ma’lumotlar keltirilgan. O‘qituvchilar uchun mashqlar, usullar va tajribalar ham berilgan.

**Rolli o‘yinlar metodi** — interfaol ta’lim texnologiyalari orasida mashhur bo‘lgan metod bo‘lib, o‘quvchilarni hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali bilim olishga jalb qiladi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyatda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

Rolli o‘yinlar metodining maqsadi:

- O‘quvchilarni muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o‘rgatish.
- Jamoaviy ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Abstrakt tushunchalarni hayotiy holatlar orqali oson tushunishga yordam berish.
- Qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilish va mas‘uliyatni his qilishga o‘rgatish.
- O‘quvchilarni o‘zaro hurmat va hamkorlikka jalb qilish.

Rolli o‘yinlar metodining o‘tkazish tartibi:

**Tayyorlov bosqichi:** O‘qituvchi mavzu yoki muammoli vaziyatni tanlaydi. Vaziyatning maqsadi va kutilayotgan natijalari belgilanadi. Rollar aniqlanadi va har bir rol uchun vazifalar belgilanadi.

**Rollarni taqsimlash:** O‘quvchilarga rollar tarqatiladi. Bu ixtiyoriy ravishda yoki o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Har bir rol o‘quvchiga tushuntiriladi va ular tayyorgarlik ko‘radi.

**O‘yin jarayoni:** O‘quvchilar o‘z rollarini bajarish uchun vaziyatni sahnalaشتiradilar. O‘qituvchi jarayonni kuzatib, zarur hollarda yo‘naltiradi.

**Tahlil va muhokama:** O‘yin yakunida jarayon va natijalar muhokama qilinadi. O‘quvchilar o‘zlarini bajargan rollar haqida fikr bildirishadi. O‘qituvchi o‘yinni yakunlaydi.

Ushbu metodlar yordamida hodisaning ehtimolligi tushunchasini o‘rgatishda yuqoridağı metodlarni o‘tkazishning barcha qismlari ushbu mavzuga moslashtiriladi, ya’ni mavzuga doir savollar ro‘yhati tuzib chiqiladi. Qolgan jarayonlar esa tartib bo‘yicha davom etadi. Masalalar yechish namunalaridan foydalanib esa o‘quvchilarni bilimlarini yana bir bor baholash mumkin.

**Interfaol metodlarning kamchiliklari:**

**• Vaqt sarfi:** Interfaol faoliyatlarni tayyorlash va boshqarish ko‘p vaqt talab etadi. Dars jarayoni esa chegaralangan.

**• Ta’limni rivojlantirish ehtiyoji:** Ba’zi usullarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarga kasbiy rivojlanish kerak bo‘lishi mumkin.

**• Resurslarga bog‘liqlik:** Ba’zi usullar texnologiya va ko‘plab materiallarga katta ehtiyoj sezadi.

Lekin bular dars jarayonida interfaol metodlarni ehtiyojini kamaytirmaydi.

**Masalalar yechishdan namunalar:**

**1-masala.** Qutida 3 ta ko‘k, 4 ta sariq, 5 ta qizil shar bor. Tasodifan bir shar olindi. Olingan sharning: 1) ko‘k; 2) sariq; 3) qizilbo‘lishlik ehtimolligi qanday?

**Yechish:**

$$1) P(A)=\frac{k}{n}=\frac{3}{12} \quad 2) P(B)=\frac{k}{n}=\frac{4}{12} \quad 3) P(C)=\frac{k}{n}=\frac{5}{12}$$

**2-masala.** Lotereyada 1000 ta chipta bo‘lib, undan 20 tasi yutuqli. Bitta chipta xarid qilindi. Xarid qilingan chipta: 1) yutuqli; 2) yutuqsiz bo‘lishlik ehtimolligi qanday?

**Yechish:** 1) A hodisaga qulaylik yaratuvchi imkoniyatlar  $k=20$  ta, jami hodisalar  $n=1000$ , demak yutuqli bo‘lishlik ehtimoli:  $P(A)=\frac{k}{n}=\frac{20}{1000}$ ; 2) B hodisaga qulaylik yaratuvchi imkoniyatlar  $k=980$  ta, jami hodisalar  $n=1000$ , demak yutuqsiz bo‘lishlik ehtimoli:  $P(B)=\frac{k}{n}=\frac{980}{1000}$

**3-masala.** O‘quvchi imtihonga tayyorlanish jarayonida unga beriladigan 30 ta biletning uchtasiga tayyorlanishga ulgurmadi. Imtihonda talabaga bilgan bilet ni tushishining ehtimolligi qanday?

**Yechish:** A hodisaga qulaylik yaratuvchi imkoniyatlar k=27 ta, jami hodisalar esa n=30 ga teng:

$$P(A)=\frac{k}{n}=\frac{27}{30}$$

**4-masala.** Tanga 6 marotaba ketma-ket tashlanganda har safar gerb tomoni bilan tushdi. Tanga yana bir marotaba tashlansa gerb tomoni bilan tushish ehtimolligi qanday?

**Yechish:** Tanga tashlashda gerb yoki raqam tomoni tushish hodisalari bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan hodisalar bo‘lganligi uchun, har bir tashlashda ularning ehtimolligi  $P(A)=\frac{k}{n}=\frac{1}{2}$  ga teng bo‘ladi.

**Xulosa.** Zamonaviy interfaol o‘qitish metodlari ta’lim jarayonini passiv bilim ulashishdan faollikni oshiradigan, o‘quvchilar ishtirokini kuchaytiradigan, hamkorlikdagi jarayonga aylantiradi. Ular yordamida o‘qituvchilar dars maqsadlariga moslashtirilgan turli strategiyalarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarga chuqur bilim berishlari, mavzuga doir tushuncha hosil qilishlari va ularga mustahkam zarur hayotiy ko‘nikmalarini o‘rgatishga erishishlari mumkin. Hodisalar ehtimolligini interfaol metodlar orqali o‘rgatish esa samarali va qiziqarli o‘quv muhitini yaratadi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat ehtimollik haqida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki ularni amaliy masalalarda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Chunki hayotimizda tez-tez buning ehtimoli ko‘proq, buniki kamroq degan fikrlarni uchratamiz. Demak, ehtimollikni hisoblashni o‘rganish turli hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va hayotiy ma’lumotlar bilan ishslash imkoniyati esa o‘quvchilarning analitik tafakkurini rivojlantirishga, mantiqiyl fikrlashini oshirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzaahmedov M.A. “Algebra 9-sinf uchun darslik”. “O‘qituvchi”. Toshkent-2019. 186-b.
2. Carmen Batereno, Juan D. Godino, Rafael Roa (2014) “Training Teachers to teach probability” Journal of Statistics Education-March (2014). <https://www.researchgate.net/publication/240359028>
3. Feng Wang, Xiapping Xu “Discussion on the Teaching Method of Probability Theory and Mathematical Statistics”
4. Renalyn De Mesa Mender “Mathematics teaching strategy in statistics and probability”. // Internationa Journal of Research Publications.310-321
5. Shuai Liu, Renyong Guo and others, “An Effective Teaching Method of the Course “Probability Theory and Mathematical Statistics” in Higher Education by Formative Evalution”. // International Conference on Mechatronics, Electronic, Industrial and Control Engineering (MEIC 2015). 1088-1091
6. Murad Barakayev, Kamola Turgunova and others. “Methodology of Teaching Theory of Probability and Elements of Mathematical Statistics with the help of Practical Problems” // Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 44 No. 6 (2023). 2712-2718.
7. Wenyao Xiong “Research on the Probability Theory and Mathematical Statistics Teaching 6th International Conference on Electronic, Mechanical, Information and Management (EMIM 2016). Published by Atlantis Press. 883-885
8. Liydmila Hetmanenko. “The role of interactive learning in mathematics education: fostering student engagement and interest” // Multidisciplinary Science Journal. May 2024 6:2024ss0733 DOI:10.31893/multiscience.2024ss0733
9. Peterson, T., & Thomas, M. (2021). Integrating technology in teaching probability: A modern approach. // Mathematics Education Research Journal, 29(2), 89-110.
10. A. Abdushukurov. “Ehtimollar nazariyasi va Matematik statistika”. Toshkent-2010.
11. Elliot Aronson, M. K. Blaney, C. Stephan, P. Sikes, and J. S. Snapp. The Jigsaw Classroom: Building Cooperation in the Classroom (1978). Addison-Wesley Publishing Company 1978.p-198.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ ХИМИИ

*Раджабова Марджона Равшан кизи,  
преподаватель кафедры «Химия»  
факультета точных и естественных наук  
Бухарского государственного педагогического института*

*Статья посвящена анализу использования современных педагогических технологий на уроках химии и во внеклассной деятельности как средство оптимизации образовательного процесса. Каждый учитель хочет, чтобы его предмет вызывал глубокий интерес у школьников, чтобы ученики умели не только писать химические формулы и уравнения реакций, но и понимать химическую картину мира, умели логически мыслить, чтобы каждый урок был праздником, маленьким представлением, доставляющим радость и ученикам и учителю. Мы привыкли, что на уроке учитель рассказывает, а ученик слушает и усваивает. Слушать готовую информацию – один из самых неэффективных способов учения. Знания не могут быть перенесены из головы в голову механически (услышал – усвоил). Многим кажется, что нужно только заставить слушать ученика и дело тут же пойдёт на лад. Однако ученик, как любая личность, наделён свободой воли, с которой нельзя не считаться. Поэтому нарушить этот природный закон и подчинить их себе даже ради благих целей невозможно. Желательного результата на этом пути добиться нельзя.*

**Ключевые слова:** знание, игра, технология, формула, групповые технологии, "Звездный час", «Эрудиты».

## KIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

*Maqola kimyo darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tahliliga bag'ishlangan. Kimyo darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonini optimallashtirish vositasi sifatida. Har bir o'qituvchi o'z mavzusiga maktab o'quvchilarida chuqur qiziqish uyg'otishni istaydi, shunda o'quvchilar nafaqat kimyoviy formulalar va reaksiya tenglamalarini yoza olishlari, balki dunyoning kimyoviy tasvirini tushunishlari, mantiqiy fikrlashlari, toki har bir dars bayram, kichik tomosha bo'lib, o'quvchilarga ham, o'qituvchiga ham quvonch baxsh etadi. Dars davomida o'qituvchi gaplashishi, o'quvchi esa tinglab o'rganishiga o'rganib qolganmiz. Tayyor ma'lumotni tinglash o'rganishning eng samarasiz usullaridan biridir. Bilimni mexanik ravishda boshdan boshga o'tkazib bo'lmaydi (eshitilgan - o'rganilgan). Ko'pchilik talabani tinglashga majburlash kerak deb o'ylashadi va hamma narsa darhol yaxshilanadi. Biroq talaba har qanday shaxs kabi, iroda erkinligiga ega, uni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu tabiiy qonunni buzish va ularni, hatto, yaxshi maqsadlarda ham bo'yundirish mumkin emas. Istalgan natijaga bu yo'l bilan erishib bo'lmaydi.*

**Kalit so'zlar:** bilim, o'yin, texnologiya, formula, guruh texnologiyalari, "Eng yaxshi soat", "Eruditlar".

## MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN CHEMISTRY LESSONS

*The article is devoted to the analysis of the use of modern pedagogical technologies in chemistry classes. Modern pedagogical technologies in chemistry lessons and in extracurricular activities as a means of optimizing the educational process. Every teacher wants his subject to arouse deep interest among schoolchildren, so that students can not only write chemical formulas and reaction equations, but also understand the chemical picture of the world, be able to think logically, so that every lesson is a holiday, a small performance that brings joy to both students and teacher. We are used to the fact that during the lesson the teacher talks, and the student listens and learns. Listening to ready-made information is one of the most ineffective ways to learn. Knowledge cannot be transferred from head to head mechanically (heard - learned). Many people think that they just need to force the student to listen and things will immediately improve. However, the student, like any person, is endowed with free will, which cannot be ignored. Therefore, it is impossible to break this natural law and subjugate them even for good purposes. The desired result cannot be achieved this way.*

**Keywords:** knowledge, game, technology, formula, group technologies, "Finest Hour", "Erudites".

**Введение.** В педагогике неизбежно возникают вопросы: “чему учить?”, “зачем учить?”, “как учить?”, но, вместе с тем, появляется ещё один: “Как учить результативно?”.

Сегодня в центре внимания - ученик, его личность, неповторимый внутренний мир.

Каждый учитель хочет, чтобы его предмет вызывал глубокий интерес у школьников, чтобы ученики умели не только писать химические формулы и уравнения реакций, но и понимать химическую картину мира, умели логически мыслить, чтобы каждый урок был праздником, маленьким представлением, доставляющим радость и ученикам и учителю. Мы привыкли, что на уроке учитель рассказывает, а ученик слушает и усваивает. Слушать готовую информацию - один из самых неэффективных способов учения. Знания не могут быть перенесены из головы в голову механически (услышал - усвоил). Многим кажется, что нужно только заставить слушать ученика и дело тут же пойдёт на лад. Однако ученик, как любая личность, наделён свободой воли, с которой нельзя не считаться. Поэтому нарушить этот природный закон и подчинить их себе даже ради благих целей невозможно. Желательного результата на этом пути добиться нельзя.

Отсюда следует, что необходимо сделать из ученика активного соучастника учебного процесса. Ученик может усвоить информацию только в собственной деятельности при заинтересованности предметом. Поэтому учителю нужно забыть о роли информатора, он должен исполнять роль организатора познавательной деятельности ученика. Необходимо, чтобы в результате деятельности, ученик самостоятельно приходил к каким-либо выводам, чтобы сам для себя созидал знание. Важнейшим принципом дидактики, является принцип самостоятельного созидания знаний, который заключается в том, что знание учеником не получается в готовом виде, а созидается им самим в результате организованной учителем определённой познавательной деятельности. Развитию познавательных и творческих интересов у учащихся способствуют различные виды технологий.

**Основная часть.** В настоящее время в педагогический лексиконочно вошло понятие педагогической технологии. Технология - это совокупность приёмов, применяемых в каком-либо деле, мастерстве, искусстве (толковый словарь). Есть множество определений понятия «педагогическая технология». Нами было выбрано следующее: это такое построение деятельности педагога, в которой все входящие в него действия представлены в определённой последовательности и целостности, а выполнение предполагает достижение необходимого результата и имеет прогнозируемый характер. Сегодня насчитываются больше сотни образовательных технологий. Внедрение современных технологий обучения и их систематическое использование способствует повышению качества обучения, мотивации, формированию функциональной грамотности учащихся и ключевых компетенций, развитию потенциальных способностей учащихся. Новые технологии дают новые возможности по формированию личностного потенциала и обеспечению успешности выпускника школы. Чтобы помочь современному школьнику, нам необходимо самим не отставать от современности. В этих условиях учителю необходимо ориентироваться в широком спектре современных инновационных технологий, идей, направлений и осваивать современные образовательные технологии, быть технологически грамотным современным педагогом, владеющим современными методиками обучения.

Обучающийся после окончания должен:

- гибко адаптироваться в меняющихся жизненных ситуациях, самостоятельно приобретая необходимые знания, применяя их на практике для решения возникающих проблем, чтобы на протяжении всей жизни иметь возможность найти в ней свое место;

- самостоятельно увидеть возникающие в реальной действительности проблемы и искать пути рационального их решения; чётко осознавать, где и каким образом приобретаемые ими знания могут быть применены в окружающей их действительности;

- грамотно работать с информацией (уметь собирать необходимые для решения определённой проблемы факты, анализировать их, выдвигать гипотезы решения проблем);

- быть коммуникабельными, контактными в различных социальных группах, уметь работать сообща в различных областях, в различных ситуациях, предотвращая или умело выходя из любых конфликтных ситуаций;

- самостоятельно работать над развитием собственной нравственности, интеллекта, культурного уровня.

На сегодняшний день использование современных образовательных технологий, обеспечивающих личностное развитие за счёт уменьшения доли репродуктивной деятельности (воспроизведение оставшегося в памяти) в учебном процессе, можно рассматривать как ключевое условие повышения качества образования, снижения нагрузки студентов, более эффективного использования учебного времени.

В своей практике я систематически использую игровые формы организации контроля знаний и постоянно замечаю, как это повышает интерес студентов к изучаемому материалу и предмету в

целом, как они, которые в последнее время так мало читают, вдруг начинают листать книги, справочники, энциклопедии. Так на уроках, при изучении тем, связанных с экологией, например по теме “Природные источники углеводородов и их переработка”, применяю ролевые игры с применением экспертных групп. Делимся на две группы: “специалистов” и “журналистов”. Первые подбирают материал и готовят наглядное пособие. Вторые готовят вопросы, которые они должны задавать во время игры.

**Игровые технологии** - игра наряду с трудом и учением - один из видов деятельности не только ребёнка, но и взрослого. В игре воссоздаются условия ситуаций, какой-то вид деятельности, общественный опыт, а в результате складывается и совершенствуется самоуправление своим поведением. В современной школе, делающей ставку на активизацию и интенсификацию учебного процесса, игровая деятельность используется в следующих случаях:

- в качестве самостоятельной технологии;
- как элемент педагогической технологии;
- в качестве формы урока или его части;
- во внеклассной работе.

Интеллектуально-творческие игры (ИТИ) стимулируют развитие познавательных интересов учащихся, способствуют развитию их интеллектуально-творческих способностей, дают возможность ребятам самоутвердиться и реализовать себя в интеллектуально-творческой сфере через игру, помогают восполнить дефицит общения. ИТИ могут быть использованы не только во внеклассной и внеурочной работе, но и на уроках (при изучении нового материала, повторении пройденного, контроля знаний учащихся и т.д.)

Для закрепления материалов в 8-9 классах использую дидактические игры: "Химические кубики", "Химическое лото", "Крестики-нолики", "Найди ошибку", "Химический бой", «Валентинское лото», «Расшифруй фразу». Так же на внеклассных занятиях провожу зрелищные интеллектуально-творческие игры: "КВН", "Что, где, когда?", "Звёздный час", «Эрудиты».

**Компьютерная технология** - в конце XX века человечество вступило в стадию развития, которая получила название постиндустриального или информационного. Информационная технология - это не только технология, предполагающая использование в образовательном процессе компьютера. По сути дела, любой процесс, связанный с переработкой информации, может называться информационной технологией, однако, более правильно, под информационной технологией понимают совокупность средств и методов сбора, обработки и передачи данных для получения информации нового качества о состоянии объекта, процесса или явления (информационного продукта). Целесообразность использования компьютера в учебном процессе должна быть подтверждена педагогическими целями, достижение которых возможно только с применением компьютера, благодаря его возможностям. Компьютер может поддерживать и тем вносить разнообразие в процесс изложения нового материала, не исключается возможность моделирования с помощью компьютера химических процессов и явлений и, конечно же, в процессе контроля качества образования. При упоминании моделирования с помощью компьютера химических процессов и явлений, я ни в коем случае не призываю заменить живой демонстрационный эксперимент компьютерной версией. Я говорю о тех случаях, когда нет возможности в демонстрации из-за отсутствия необходимых реактивов или условий для проведения. Компьютер задействует наглядно-образное мышление, способствующее более эффективному усвоению учебного материала.

Использование компьютера и мультимедийных технологий даёт положительные результаты при объяснении нового материала, моделировании различных ситуаций, при сборе нужной информации, при оценке ЗУН и т. д., а также позволяют на практике реализовать такие методы обучения, как: деловые игры, упражнения по решению проблем, презентации и прочее. На своих уроках я использую различные программы на дисках, которые помогают мне для объяснения новых или повторения старых тем, закрепить и систематизировать полученные знания. Пример одного урока. Тема: "Подгруппа кислорода, характеристика. Получение кислорода". В процессе урока использовался мультимедийный проектор, где на экране демонстрировались опыты, которые в школьной лаборатории продемонстрировать невозможно. Так же на экране проектировались несколько таблиц. Ребятам предлагалось проанализировать, сравнить и сделать вывод. Из вышеизложенного приходим к выводу, что компьютерная технология повышает уровень обучения и вызывает интерес учащихся к предмету.

На своих уроках использую различные программы, преследуя следующие цели: формирование умений обработки информации; развитие коммуникативных способностей; подготовка личности «информационного общества»; формирование исследовательских УУД, умения принимать

оптимальные решения; максимально наглядная подача учебного материала. В зависимости от формы, целей и задач урока компьютерные технологии применяются как:

- источник учебной информации (частично или полностью заменяющий учителя или книгу);
- наглядное пособие, используя возможности мультимедиа и телекоммуникации;
- тренажёр;
- средство диагностики и контроля.

Компьютерные технологии используются на всех этапах процесса обучения:

- при объяснении нового материала (источник учебной информации),
- при повторении (дидактические материалы);
- для контроля знаний (тесты),
- с целью организации досуговой среды.

Например, на уроках-презентациях: «Почему протекают химические реакции», «Расчёты по термохимическим уравнениям» и «Решаем задачи по химическим уравнениям» реализуется видеометод; решение по алгоритму, используется мультимедийный тест, который сопровождается оценивающими элементами и звуковыми положительными и отрицательными реакциями в зависимости от правильного решения задач, что снижает напряженность на уроке, делает обстановку более комфортной.

**Заключение.** В своей работе использую различные компьютерные средства обучения:

- ресурсы Internet для сбора дополнительной информации по теме урока и создания компьютерных презентаций внеурочных и внеклассных мероприятий;
- компьютерное сопровождение к исследовательским проектам учащихся;
- контролирующие компьютерные средства обучения, например, «Тесты по химии»;
- компьютерные средства, как наглядные пособия: «Кирилл и Мефодий», библиотека электронных наглядных пособий для 8-11 классов и т.д.

Результаты использования ИКТ:

- Создание банка данных (компьютерные презентации учащихся 8, 9 классов) и компьютерные презентации учителя (по темам).
- Ежегодное повышение активности учащихся в использовании ИКТ при подготовке уроков и внеклассных мероприятий.
- Выступления на школьных методических объединениях, педсоветах, семинарах для учителей.

На любом этапе урока можно использовать компьютерные презентации, как индивидуально, так с помощью интерактивной доски.

Для закрепления материалов использую дидактические игры: “Химические кубики”, “Химическое лото”, “Крестики-нолики”, “Найди ошибку”, “Химический бой”, «Валентное лото», «Расшифруй фразу». Так же на внеклассных занятиях провожу зрелищные интеллектуально-творческие игры: “КВН”, “Что, где, когда”, “Звездный час”, «Эрудиты».

#### Литература:

- 1.Гузеев В. В Образовательная технология: от приема до философии. – М., 2020
2. Ксендзова Г. Ю. Перспективные технологии: Учебно-методическое пособие. – М., 2021.
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М., 1989.
4. Гузеев В.В Образовательная технология: от приема до философии. - М., 1996
5. Ксендзова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учебно-методическое пособие. - М., 2000.

**FIZIKADAN TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA AKADEMIK LITSEY  
O‘QUVCHILARINING TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Umirov Xabibillo Baxodirovich,*

*Qarshi davlat texnika universiteti “Nuriston” akademik litseyi fizika fani o‘qituvchisi*

Bu maqola juda qiziqarli va hozirgi vaqtida dolzarb bo‘lib, akademik litsey o‘quvchilarida texnik tafakkurni rivojlanirish uchun aniq metodik yondashuvlarni talab etadi. Fizikadan to‘garak mashg‘ulotlarida akademik litsey o‘quvchilarining texnik tafakkurini rivojlanirish deganda, o‘quvchilarning fizik bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash orqali texnologik fikrlash va muhandislik qobiliyatlarini shakllantirish tushuniladi. Bu jarayon o‘quvchilarning ilmiy-texnik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, yechim topish va innovatsion fikr yuritish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘garak mashg‘uloti, texnik tafakkur, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, ijodiy fikrlash, kasbiy yo‘nalish, yaratuvchanlik va innovatsion fikrlash.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ  
АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ НА ЗАНЯТИЯХ КРУЖКА ПО ФИЗИКЕ**

Эта статья очень интересна и актуальна в настоящее время и требует конкретных методических подходов для развития технического мышления у учащихся академических лицееев. Под развитием технического мышления учащихся академического лицея в кружковых занятиях по физике понимается формирование технологического мышления и инженерных способностей путем связывания физических знаний учащихся с практикой. Этот процесс направлен на повышение у учащихся способности выявлять, анализировать, находить решения и инновационно мыслить научно-технические проблемы.

**Ключевые слова:** кружковые занятия, техническое мышление, теоретические знания, практические навыки, творческое мышление, профессиональная ориентация, креативность и инновационное мышление.


**METHODOLOGY FOR DEVELOPING TECHNICAL THINKING IN ACADEMIC  
LYCEUM STUDENTS DURING PHYSICS EXTRACURRICULAR ACTIVITIES**

*This article is highly relevant and interesting today, as it requires specific methodological approaches to develop technical thinking in academic lyceum students. Developing technical thinking in physics extracurricular activities involves fostering technological thinking and engineering skills by linking theoretical knowledge with practice. This process aims to enhance students' abilities to identify, analyze scientific and technical problems, find solutions, and engage in innovative thinking.*

**Keywords:** extracurricular activities, technical thinking, theoretical knowledge, practical skills, creative thinking, professional orientation, creativity, and innovative thinking.

**Fizikadan to‘garak mashg‘ulotlari** o‘quvchilarning fizika fanini chuqurroq o‘rganishiga, nazariy bilimlarining amaliyot bilan mustahkamlashiga va texnik tafakkurini rivojlanirishga yordam beradi.

Quyida akademik litsey o‘quvchilarining texnik tafakkurini rivojlanirish uchun fizikadan to‘garak mashg‘ulotlarining zarur qismlarini ko‘rsatib o‘tilgan (1-rasm):



**1-rasm. To‘garak mashg‘ulotlarining zarur qismlari**

## 1. Nazariy bilimlarni mustahkamlash

- Dars davomida o‘rganilgan fizik qonuniyatlar va tushunchalarni to‘garak mashg‘ulotlarida amaliy tajribalar orqali chuqurroq tushunish mumkin.
- Nazariy materialni hayotiy va qiziqarli mashqlar orqali ko‘rib chiqish bilimlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**Misol:** Elektromagnit induksiya mavzusi bo‘yicha kichik generator modeli yaratish orqali jarayonni amalda ko‘rish (2-rasm).

## 2. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish

- To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarga tajribalar o‘tkazish, texnik loyihami yaratish va muhandislik bilimlarini amaliyotga taqbiq qilish imkonini beradi.
- Real muammolarni hal qilish jarayonida o‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

**Misol:** O‘quvchilarni elektr zanjirlarini yig‘ish, ularning ishlashini sinash va tahlil qilishga o‘rgatish.

## 3. Texnik tafakkurni rivojlantirish

- Fizikadan to‘garaklar texnik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni hal qilishga qaratilgan mashqlar orqali texnik tafakkur qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- O‘quvchilar texnologik yangiliklarni o‘rganadi va innovatsion fikr yuritishni o‘zlashtiradi.

**Misol:** Suv energiyasidan foydalaniib, energiya manbai sifatida kichik model yaratish (3-rasm).

## 4. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish

- To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi, ularga o‘z g‘oyalari asosida yangi texnologiyalar va qurilmalar yaratishga imkon beradi.

**Misol:** Quyosh batareyalari yordamida ishlovchi o‘ziga xos qurilma loyihasini ishlab chiqish (5-rasm).

## 5. Kasbiy yo‘nalish berish

- To‘garak mashg‘ulotlari texnik va ilmiy sohalarga qiziqish uyg‘otadi.
- O‘quvchilar kelajakda muhandislik, fizika, IT yoki texnologiyaga oid sohalarda ishlash uchun zarur bo‘lgan bazaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

**Misol:** Robototexnika yoki elektronikaga oid loyihami bilan ishlash orqali o‘quvchilarning bu sohalarga qiziqishi ortadi (6-rasm).


## 6. Tanlov va olimpiadalarga tayyorgarlik

- To‘garaklar o‘quvchilarning olimpiadalar, ilmiy-tadqiqot loyihami va ko‘rik-tanlovlarda ishtiroy etishi uchun tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

• Amaliyot va loyihami orqali ularda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi.

## 7. Jamoaviy ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish

- To‘garaklar guruh bo‘lib ishlashni va birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rgatadi.
- O‘quvchilar o‘zarlo fikr almashish va jamoaviy fikrlashni rivojlantiradi.



2-rasm.



3-rasm.



5-rasm.



6-rasm.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki - fizikadan to‘garak mashg‘ulotlari nafaqat nazariy bilimlarni amaliyat bilan mustahkamlash uchun, balki texnik tafakkur, ijodiy fikrlash va kasbiy yo‘nalish berish uchun ham muhimdir. Bu mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtiradi, innovatsion fikrlashni rivojlantiradi va kelajakdagi muvaffaqiyatlarga poydevor qo‘yadi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarning ilmiy-texnik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, yechim topish va innovatsion fikr yuritish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan asosiy tushunchalardan biri o‘quvchining texnik tafakkur haqidagi aytadigan bo‘lsak:

**Texnik tafakkur** – bu insonning muayyan texnik muammolarni hal qilishga, texnologik jarayonlarni tushunishga va ularni takomillashtirishga qaratilgan fikrlash qobiliyatidir. Bu tafakkur turi muhandislik, fizik va texnologiya sohalarida ishlash uchun zarur bo‘lgan mantiqiy, tahliliy va ijodiy qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

#### **Texnik tafakkurning asosiy xususiyatlari:**

**Amaliyotga yo‘naltirilganlik** - Muammolarni nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan hal qilishga qaratilgan fikrlash.

Masalan, fizika fani misolida muammolarni amaliy jihatdan hal qilishga qaratilgan fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi yondashuvlar va misollarni qo‘llash mumkin:

##### 1. Haqiqiy hayotga oid masalalar bilan ishslash

- Misol: “Nima uchun avtobus tormoz berganida ichkaridagi odamlar oldinga siljiydi?” masalasini muhokama qilish orqali impuls va inersiya tushunchalarini tushuntirish.

- Amaliy tajriba: Shisha ichida suv va muzlatilgan muzning erish jarayonini kuzatib, issiqlik o‘tkazuvchanligi va latent issiqlik tushunchasini tahlil qilish.

##### 2. Laboratoriya va tajribalar orqali o‘rgatish

- Misol: O‘quvchilarga oddiy asbob-uskunalar yordamida elektr toki o‘lchagichni yaratish topshirig‘i beriladi. Bu ularda elektr qonunlarini amalda tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

- Tajriba: Torsion kuchlarini o‘lhash uchun oddiy tarozilar yaratish va natijalarni kuzatib xulosa qilish.

##### 3. Loyihaviy faoliyatni yo‘lga qo‘yish

- O‘quvchilarga biror muammoni hal qiluvchi loyihami ishlab chiqish topshiriladi, masalan:

- Kichik shamol generatori yaratish.

- Quyosh panellarining samaradorligini o‘lchaydigan qurilmani loyihalash.

##### 4. Haqiqiy muammolarning yechimlarini izlashi

- Misol: O‘quvchilar maktabdagи elektr sarfi bo‘yicha tahlil qilib, uni kamaytirish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqadilar.

##### 5. Ko‘rgazmali o‘yinlar va simulyatsiyalar

- Fizik qonuniyatlarni tushuntiruvchi interaktiv o‘yinlardan foydalanish, masalan, “niqoblangan Nyuton qonunları” o‘yini orqali kuch, tezlanish va massa munosabatlarini tushuntirish.

##### 6. Hodisalarga amaliy javob berish

- Savol: Agar telefoningiz tez-tez isib ketsa, qanday qilib uni sovitish usulini fizik qonunlarga asoslangan holda ishlab chiqasiz?

- Tajriba: O‘quvchilar bu muammoni hal qilish uchun issiqlik tarqalishi va materiallarning issiqlik sig‘imini o‘rganadilar.

##### 7. Muhandislik yondashuvi

- Vazifa: Suvni 1 metr masofaga ko‘tarish uchun minimal energiya sarflaydigan nasos tizimini yaratish.

Natijalar esa quyidagicha bo‘ladi: ushbu yondashuvlar o‘quvchilarni:

- Nazariy bilimlarini amalda qo‘llashga,

- Muammolarni tahlil qilish va yechim topishga,

- Jamoaviy ishslash va loyiha ustida ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rgatadi.

Akademik litsey o‘quvchilarining texnik tafakkurini rivojlantirishda mantiqiy tahlil qilish qobiliyati ham zarur hisoblaniladi.

**Mantiqiy tahlil qilish qobiliyati** - Texnik muammolarni kichik qismlarga ajratib tahlil qilish va ularga yechim topish.

Masalan, **texnik muammolarni kichik qismlarga ajratib tahlil qilish va ularga yechim topish** fizika fanida o‘quvchilarga muammolarni tizimli va mantiqiy tarzda hal qilishni o‘rgatishning samarali usulidir. Quyida bu yondashuvni fizika fani misolida qanday qo‘llash mumkinligi haqida ba’zi misollar keltiraman:

1. Mashinani harakatga keltirish masalasi

- **Masala:** Biror mashina yoki transport vositasini harakatga keltirish uchun kerakli kuchni hisoblash.

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Mashinaning massasi va tezlanishini aniqlash.
2. Harakatni boshlash uchun zarur bo‘lgan kuchni hisoblash (Nyutonning ikkinchi qonuni).
3. Friktsiya va aerodinamik qarshilikni hisobga olish.
4. Natijada barcha kuchlar ta’sirini aniqlash.

○ **Yechim:** Har bir kichik qismni tahlil qilib, natijada to‘liq yechimga kelish. O‘quvchi shu orqali har bir fizika qonunini amalda qo‘llashni o‘rganadi.

2. Elektron qurilmadagi nosozlikni tahlil qilish

- **Masala:** Elektron qurilmaning ishlamasligi.

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Qurilmaning elektr zanjirini tekshirish (xususan, batareya va kabelni).

2. Qismlarni izolyatsiya qilish va ularning ishlashini tekshirish.

3. Qismlar orasidagi to‘g‘ri tok o‘tishiga va kontaktlarning yaxshiligiga ishonch hosil qilish.

4. Nosozlik sabablarini izlash (masalan, qisqa tutashuv, kontsentratsiyalashgan korroziya yoki elektr o‘tkazuvchanlikdagi muammolar).

○ **Yechim:** O‘quvchilar har bir kichik muammoni tahlil qilib, barchasini tuzatish orqali butun tizimning qanday ishlashini o‘rganadilar.

3. Issiqlikni o‘tkazish masalasi

• **Masala:** Agar ikki turli material o‘rtasida issiqlik uzatilsa, qanday qilib issiqlik o‘tkazish jarayonini hisoblash mumkin?

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Har bir materialning issiqlik o‘tkazuvchanligini aniqlash.

2. Temperaturaning o‘zgarish darajasini hisoblash.

3. Materialning qalinligini va yuzasini o‘lchash.

4. Ularning haroratga ta’sirini tahlil qilish (qarshilik va issiqlikning o‘tkazilishi).

○ **Yechim:** O‘quvchilar issiqlik o‘tkazuvchanligi va issiqlikning uzatilish jarayonlarini qaysi fizika qonunlariga asoslanib hisoblashni o‘rganadilar.

4. Aerodinamik qarshilikni hisoblash

- **Masala:** Mashina yoki samolyotning havo qarshiligi.

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Obyektning shaklini va hajmini tahlil qilish.

2. Havo zichligini va haroratni o‘rganish.

3. Obyektning harakat tezligini va uning yuzasini hisobga olish.

4. Aerodinamik qarshilikni hisoblash formulalarini qo‘llash.

○ **Yechim:** Har bir qismni alohida tahlil qilib, yakuniy qarshilikni aniqlash orqali o‘quvchi aerodinamik qonunlarni amalda qo‘llashni o‘rganadi.

5. Ko‘priq yoki binoning barqarorligini tekshirish.

- **Masala:** Ko‘priqning yoki binoning barqarorligini tekshirish.

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Qurilmaning materialini va uning kuchlanishini hisoblash.

2. Tizimli kuchlarning taqsimlanishini tahlil qilish (masalan, vertikal va gorizontal kuchlar).

3. Qurilmaning qismlari orasidagi mustahkamlilikni tekshirish.

4. Kengayish va qisqarish jarayonlarini kuzatish.

○ **Yechim:** Har bir qismini alohida tahlil qilib, ko‘priqning yoki binoning umumiy barqarorligi haqidagi yakuniy xulosa qilish.

6. Akustik tizimning ishlashini tahlil qilish.

- **Masala:** Kichik akustik tizimning ovozini yaxshilash.

**Kichik qismlarga ajratish:**

1. Dinamik va rezonansni hisoblash.

2. Ovozning tezligi va chastotasi.

3. Tizimning samaradorligini aniqlash.

○ **Yechim:** Har bir elementni tahlil qilib, akustik tizimni optimallashtirishdan iborat bo‘ladi.

Natijaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu yondashuv o‘quvchilarga muammolarni qismlarga ajratib, har birini alohida tahlil qilish orqali mukammal yechim topishga yordam beradi. Ular nafaqat fizika qonunlarini amalda qo‘llashni, balki tahliliy va tizimli fikrlashni rivojlantiradilar.

Texnik tafakkurni rivojlantirish jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Ayniqsa, akademik litsey va kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda to‘garak mashg‘ulotlari muhim o‘rin tutadi.

To‘garak mashg‘ulotlarining texnik tafakkurni rivojlantirishdagi roli.

1. **Amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish**-to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Masalan, fizika, robototexnika yoki muhandislik to‘garaklarida o‘quvchilar turli qurilmalarni loyihalash, dasturlash va tajribalar o‘tkazish orqali o‘z bilimlarini chuqurlashtiradilar.

2. **Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish**-texnik tafakkur muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyatini talab qiladi. To‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarga turli masalalarni hal qilish orqali analitik fikrlash va muhandislik yondashuvlarini o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

3. **Yaratuvchanlik va innovatsion fikrlashni rivojlantirish**-To‘garaklar doirasida o‘quvchilarga mustaqil loyihalar yaratish imkoniyati beriladi. Bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishiga yordam beradi.

4. **Jamoaviy ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish**-Texnik muammolarni hal qilish ko‘pincha jamoaviy ishni talab qiladi. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jamoaviy loyihalarda ishslash, fikr almashish va o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

5. **Kasbiy yo‘nalish berish**-Texnik yo‘nalishdagi to‘garaklar o‘quvchilarga turli kasb va yo‘nalishlar haqida tushuncha berib, ularning kelajakdagi kasbiy tanloviga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishlari va iste’dodlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** To‘garak mashg‘ulotlari texnik tafakkurni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir. Ular o‘quvchilarga amaliy bilim va ko‘nikmalarini egallash, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, jamoada ishslash hamda kelajakdagi kasbini tanlashda yordam beradi. Shuning uchun akademik litseylarda texnik yo‘nalishdagi to‘garak mashg‘ulotlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

### Adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., G‘ulomov A., To‘xliev X. “Fizika. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik.” Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.
2. Rashidov R., Bo‘ronov S. “Fizika va texnika asoslari.” Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
3. Volkenstein M.V. “Umumiy fizika kursi.” Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020.
4. Raufov I., Ahmedov S. “Akademik litsey o‘quvchilari uchun fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlari.” Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
5. Xolmirzaeva N. “Texnik ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan to‘garak mashg‘ulotlari metodikasi.” Toshkent, 2020.
6. Tursunov B. Fizika to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti, 2021.
7. Karimov Sh. Akademik litsey o‘quvchilarining texnik tafakkurini rivojlantirish omillari. O‘zbekiston pedagogika jurnali, 2022-yil, №3, 45-56 betlar.
8. Ismoilov H. “Fizika darslarida texnik topshiriqlar orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish.” Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar jurnal, 2021-yil, №2, 67-75 betlar.
9. Abdurahimov F. “Akademik litseylarda texnik yo‘nalishda to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning samarali usullari.” Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2019.
10. Halliday D., Resnick R., Walker J. “Fundamentals of Physics.” 10th Edition, Wiley, 2018.
11. Serway R., Jewett J. “Physics for Scientists and Engineers.” 9th Edition, Cengage Learning, 2019.
12. Young H., Freedman R. “University Physics with Modern Physics.” Pearson, 2018.

**TEZKOR VA TAYANCH KONSPEKTLAR: TA’LIM JARAYONIDA SAMARALI YOZISH  
KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Xudayberdieva Arofat Isroilovna,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori,

Fizika va energetika kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari nomzodi

100011, Toshkent Sh., Navoiy ko’chasi, 32,

khudayberdieva\_arofat@mail.ru

Ushbu maqola o’qish jarayonida tezkor va tayanch konspektlarni yozish ko’nikmalarini rivojlanirishga bag’ishlangan. Tezkor va tayanch konspektlarning ta’riflari va farqlari talabalar uchun ta’lim materialini samarali ravishda o’zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tezkor konspektlar asosiy g’oyalilar va formulalarini tezda ajratib olishni ta’minlaydi, tayanch konspektlar esa materialning batafsil tahlilini keltiradi. Maqolada fizika fanini o’rganishda bu konspektlar qanday foyda keltirishi va ularni qanday samarali ishlatish mumkinligi ko’rsatilgan. Konspet yozishda tizimli yondashuv, grafikalar va diagrammalardan foydalanishning ahamiyati ta’kidlanadi. Maqola o’quvchilarga sinovlarga tayyorlanish va ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni rivojlanirishda konspektlar yozishning ahamiyatini ko’rsatadi.

**Kalit so’zlar:** interaktiv usullar, konспект, jarayon, fizika, grammatika, xulosalar, trening.

**ОПЕРАТИВНЫЕ И ОПОРНЫЕ КОНСПЕКТЫ: РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ  
ЭФФЕКТИВНОГО ПИСЬМА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ**

Данная статья посвящена развитию навыков оперативного и базового конспектирования в процессе чтения. Определения и различия оперативных и базовых конспектов имеют важное значение для эффективного усвоения студентами учебного материала. Быстрые конспекты обеспечивают быстрое выделение основных идей и формул, в то время как базовые конспекты предоставляют подробный анализ материала. В статье показано, как эти конспекты могут быть полезны при изучении физики и как их можно эффективно использовать. Подчёркивается важность системного подхода, использования графики и диаграмм при конспектировании. Статья демонстрирует важность написания конспектов для учащихся в подготовке к тестам и развитии навыков, необходимых для научных исследований.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, конспект, процесс, физика, грамматика, выводы, тренинг.

**QUICK AND BASED OUTLINES: DEVELOPING EFFECTIVE WRITING SKILLS IN  
EDUCATION**

This article is dedicated to developing the skills of writing quick and main outlines in the learning process. The article explains the definitions and differences between quick and main outlines, emphasizing their importance in helping students efficiently absorb and understand study materials. Quick outlines allow students to quickly identify and record key ideas and formulas, while main outlines provide a more detailed analysis with examples and theoretical explanations. The article also discusses the significance of these skills in studying physics, their impact on improving comprehension and retention, and how to use them effectively. The importance of a systematic approach and the use of graphics and diagrams when writing outlines is highlighted. The article concludes by emphasizing the role of outlining in successful exam preparation and academic research.

**Keywords:** interactive methods, outlines, process, physics, grammar, conclusion, training.

**Kirish.** Tezkor va tayanch konspektlar yozish ko’nikmasi zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular o’qish materiallarini samarali va tezda tahlil qilish, asosiy fikrlarni ajratib ko’rsatish va o’z bilimlarini tizimli ravishda ifodalashga yordam beradi. Bu ko’nikma nafaqat o’qish jarayonini yengillashtiradi, balki ilmiy ishlanmalar va boshqa akademik faoliyatlar uchun zarur bo’lgan asosiy ko’nikmalardan biridir. Tezkor konспект — bu o’qilgan materialning eng muhim va asosiy qismlarini qisqacha va aniq ifodalashdir. Bunda faqatgina o’quvchi uchun eng muhim bo’lgan ma’lumotlar tanlanadi va ular tezda yodlanadigan va esda saqlanadigan shaklda yoziladi. Boshqacha aytganda, tezkor konспект o’qish

jarayonida asosiy g'oyalarni va fikrlarni ajratib, ularga qisqacha izohlar berishdan iborat. Tayanch konspektlar esa o'qilgan materialning umumiyligi tuzilmasini va asosiy tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Ular ko'proq murakkab va batafsil bo'lishi mumkin, chunki ular ko'proq o'rganilgan mavzu bo'yicha to'liq tushuncha beradi. Tayanch konspektda mavzuning asosiy yo'nalishlari, muhim atamalar, masalalar va ularga oid yechimlar taqdim etiladi.

**Asosiy qism.** Konspekt yozishda eng avvalo tizimli yondashuv zarur. Har bir bo'limni va mavzu bo'yicha asosiy fikrlarni oldindan rejalashtirib, ular haqida qisqacha eslatmalar qilish kerak. O'qish jarayonida asosiy g'oyalarni ajratib, ularga mos keladigan qisqa izohlar yoziladi.

Tezkor konspekti yozishda, avvalo, o'qilgan materialdan eng muhim g'oyalarni ajratish lozim. Bu o'quvchining yodlashiga yordam beradi va eslab qolishga qaratilgan materialni belgilashga yordam beradi.

Tayanch konspektda esa, batafsilroq, ammo qisqacha tarzda mazmunli materiallar ko'rsatiladi. O'quvchi o'qish materialini tahlil qilib, har bir bo'limni qisqa va aniq shaklda ifodalashi kerak. Aks holda, konspektlar noaniq va murakkab bo'lib qoladi.

Grafik va diagrammalardan foydalanish: Tezkor va tayanch konspektlarni yozishda turli grafikalar, diagrammalar yoki jadvallarni qo'shish foydali bo'lishi mumkin. Bu o'qish materialini tushunishni osonlashtiradi va ko'proq vizual eslab qolishni ta'minlaydi.

Tayanch konspektlarda asosiy tushunchalar va atamalarni ajratib ko'rsatish uchun tayanch so'zlar yoki iboralar yordamida qisqa fikrlarni tuzish zarur. Bu, o'z navbatida, asosiy ma'lumotlarni tezda topishga yordam beradi.

Tezkor va tayanch konspektlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

■ **Vaqtni tejash:** Tezkor konspektlar materialni tezda o'zlashtirishga imkon beradi. Ularni qayta ko'rib chiqish, o'qilgan mavzularni tezda yodlash va kerakli ma'lumotni tezda olish imkonini yaratadi.

■ **Tushunishni yaxshilash:** Tayanch konspektlar esa o'quvchiga mavzuni chuqurroq tushunish imkonini beradi, chunki ular materialni batafsil tahlil qilishga yordam beradi.

■ **Samara va samaradorlik:** Konspektlar yozish orqali o'quvchi o'z materialini tizimli ravishda o'rganadi, bu esa uni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Fizika fani bo'yicha konspektlarni yozish, o'quvchilarining ilmiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda, shuningdek, murakkab fizikaviy jarayonlarni samarali o'zlashtirishda juda muhim rol o'ynaydi. Fizika - bu tushunishga va tahlil qilishga talabchan bo'lgan fanga xos bo'lgan turli ilmiy qonuniyatlarni, matematik formulalarini va tajribaviy natijalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun, fizikani o'rganuvchi talabalar konspekt yozish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'z bilimlarini tizimli ravishda tashkil eta olishlari va fizikaviy materiallarni yanada samarali o'zlashtira olishlari kerak.

Fizika fanini o'rganishda tezkor konspektlar yozishning asosiy maqsadi — fizikaviy jarayonlarni tezda va samarali o'zlashtirishdir. Buning uchun quyidagi yondashuvlarni qo'llash mumkin:

Asosiy tushunchalar va formulalarini ajratish: Fizikada har bir mavzu o'ziga xos asosiy tushunchalar va formulalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "Harorat va issiqlik energiyasi" mavzusida o'quvchi Stefan-Boltzmann qonuni yoki termodinamikaning asosiy qonunlarini ajratib olish kerak. Bu tushunchalarni qisqacha va aniq tarzda konspektga yozish zarur.

Asosiy fizik qonuniyatlarni keltirish: Har bir mavzu bo'yicha o'quvchi fizikaviy qonuniyatlarni ko'rsatib, ularning matn va formuladagi izohlarini qisqacha yozib olishi kerak. Masalan, "Neytronlarning xususiyatlari" bo'yicha izohlar keltirilganda, neytronning massa va zaryadlari, shuningdek, ularning atom yadrolaridagi roli haqida qisqacha ma'lumot keltiriladi.

Qisqa va aniq ifodalash: Tezkor konspektlarda qisqalik va aniq bo'lish juda muhimdir. Shuning uchun, o'quvchi eng zaruriy formulalarini va fizikaviy qonuniyatlarni tushunarli va o'zlashtirishga oson bo'lgan shaklda yozib olishi kerak.

Fizikaviy jarayonlarni tasvirlash: Fizika fani ko'plab jarayonlar va tajribalarni o'z ichiga oladi. Masalan, elektr tokining qarshiligi, magnit maydonidagi o'zgarishlar yoki energiyaning saqlanish qonuni haqida tayanch konspektda batafsil misollar, diagrammalar va tasvirlar bo'lishi kerak.

Har bir fizikaviy qonuniyat va formula o'zaro bog'langan misollar bilan mustahkamlanishi lozim. Misollar ko'rsatish orqali, o'quvchi o'zining o'rgangan formulalarini qanday qo'llashni, ularni turli sharoitlarda qanday amalda ishlashini o'rganadi. Masalan, "Kinematika" bo'yicha tezlik, tezlanish va yo'lni hisoblash bo'yicha misollarni qo'llash.

Asosiy atamalar va tushunchalarni tushuntirish: Tayanch konspektda har bir asosiy tushuncha va atama uchun qisqacha izohlar berish zarur. Masalan, "Kinetik energiya" yoki "Gravitatsion maydon" kabi atamalarni aniq tushuntirish va ularni qanday qo'llashni tushuntirish talab qilinadi.

Fizika fanida konspektlar yozishning afzalliklari

Yodlashni osonlashtiradi: Tezkor konspektlar yordamida o'quvchilar formulalarini va asosiy qonuniyatlarni tezda yodlay olishadi. Bu esa sinovlarga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi.

Tushunishni yaxshilaydi: Tayanch konspektlar orqali o'quvchilar fizikaviy jarayonlarni, nazariyani va amaliyotni bir-biriga bog'lab tushunishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, yangi mavzularni o'rganishda yordam beradi.

Sinovlarga tayyorgarlik: Fizika fanidan o'tish uchun talabalar JN, ON, YN va imtihonlarga tayyorlanishlari kerak. Konspektlar tez va samarali tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi, chunki ular materialni tizimli va yodda saqlanadigan shaklda ifodalash imkonini beradi.

Fizika fanini o'rganish — bu nafaqat nazariy bilimlarni, balki tajribaviy bilimlarni ham egallashni talab qiladigan murakkab jarayon. Fizika nafaqat formulalar va qonunlar to'plami, balki bu qonunlarni real dunyoda qanday qo'llashni tushunishdir. Shuning uchun, fizikani o'rganishda konspekt yozish ko'nikmalarini shakllantirish talabalar uchun katta ahamiyatga ega. Tezkor va tayanch konspektlarni yozish, o'quvchilarga murakkab fizikaviy jarayonlarni yanada samarali va tizimli o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Tezkor konspekt va tayanch konspekt — bu ikki turdag'i konspektlar fizika fani bo'yicha o'zaro bog'liq, ammo turli vazifalarni bajaradi. Tezkor konspekt o'qish jarayonida materialni tezda o'zlashtirish, asosiy g'oyalari, formulalar, va fizikaviy qonuniyatlarni yodlashga yordam beradi. Bu konspektida, faqat eng muhim va zaruriy ma'lumotlar ajratib olinadi. Tayanch konspekt esa ilmiy muammolarni chuqurroq tahlil qilishni va materialni kengroq tushunishni ta'minlaydi. Bu turdag'i konspektlar ko'proq batafsil bo'lib, fizikaviy qonuniyatlar, ularning qo'llanilishiga oid misollar, formulalar va tushunchalar to'liqroq tarzda ifodalanadi. Fizika fani bo'yicha konspektlarni yozishning har ikkala turi bir-birini to'ldiradi va birgalikda o'quvchini chuqurroq bilimga erishtiradi. Tezkor va Tayanch konspektlarning maqsadi va ahamiyati (fizika fani misolida) Fizika — bu ilm-fan sohasining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, uning o'rganilishi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Fizika fani bo'yicha bilimlarni samarali o'zlashtirish uchun talabalarga konspekt yozish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Konspektlar ilmiy materialni tizimli tarzda o'zlashtirish, yodlash va tahlil qilishga yordam beradi. Fizika fani bo'yicha tezkor va tayanch konspektlar yozishning o'ziga xos maqsadlari va ahamiyatlari mavjud bo'lib, bu ko'nikmalar talabalarning ilmiy faoliyatini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Konspekt — bu o'qish materialining asosiy tushunchalarini, formulalarini va fizikaviy qonuniyatlarini qisqacha va aniq shaklda yozib olishdir. Fizika fani konspektlarning maqsadi va ahamiyati quyidagicha bo'ladi:

Fizika fanidagi har bir mavzu muhim fizikaviy qonuniyatlar, formulalar va tushunchalarga asoslanadi. Tezkor konspektlar o'quvchiga materialni qisqacha shaklda va faqat eng zaruriy ma'lumotlarni ajratib olishga yordam beradi. Masalan, "Qonunlar va formulalar" bo'limida, o'quvchi o'zining konspektida Nyutonning harakat qonunlari, energiyaning saqlanish qonuni yoki kuch va massaning bog'liqligini keltirishi mumkin. Tushunchalarni qisqacha yodlash: Tezkor konspektlar yordamida o'quvchi o'qish jarayonida yodlashga harakat qiladigan eng muhim formulalar va tushunchalarni qisqacha yozib olish mumkin. Masalan, "Qattiq jismda issiqlik o'tkazuvchanligi" mavzusida, o'quvchi formulasini va asosiy tushunchalarni tezda yodlashi kerak bo'ladi. Vaqtini tejash va samaradorlikni oshirish: Tezkor konspektlar yordamida talaba o'qish jarayonida vaqtini tejashga muvaffaq bo'ladi. Ularni tez va samarali tarzda qayta ko'rib chiqish, sinovlarga tayyorlanish va o'qilgan materialni tezda eslab qolishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, imtihonlarga tayyorlanishda muhimdir. Vizual yondashuv: Tezkor konspektlar ba'zida grafiklar, diagrammalar va jadvallarni o'z ichiga olishi mumkin. Fizikada ko'plab jarayonlar va tushunchalar vizual tarzda yaxshiroq tushuntiriladi. Masalan, "Elektr maydonining kuch chiziqlari" yoki "Mexanik harakat" mavzularida diagrammalar yordamida tushuncha va formulalar keltiriladi.

Tayanch konspekt — bu o'quvchilarning ilmiy materialni kengroq va chuqurroq tahlil qilgan holda, barcha asosiy tushunchalar, formulalar va misollarni o'z ichiga olgan batafsil konspektidir. Fizika fani bo'yicha tayanch konspektning maqsadi va ahamiyati quyidagicha:

Fizikaviy jarayonlarni chuqurroq tushunish: Tayanch konspektlar yordamida talabalar fizikaviy jarayonlarni chuqurroq tushunishlari mumkin. Masalan, "Termodynamika" bo'yicha konspektida termodinamik jarayonlar, issiqlik energiyasining ko'chish usullari, entropiya va uning o'zgarishiga oid barcha qonuniyatlar batafsil tahlil qilinadi. Bu o'quvchiga nafaqat formulalarini yodlash, balki ularni amaliyotda qanday qo'llashni tushunishga yordam beradi. Tayanch konspektlar o'quvchilarga fizika qonunlarini nafaqat yodlash, balki ularning qo'llanilishiga oid chuqurroq tahlil qilishga imkon yaratadi. Misol uchun, "Elektr toki" mavzusida o'quvchi Om qonuni, elektrodlar va tok kuchining o'zaro bog'liqligini batafsil ko'rib chiqadi. Bunda nazariy bilimlarni haqiqiy fizikaviy jarayonlar bilan bog'lash mumkin.

Tayanch konspektlar yordamida har bir fizikaviy qonuniyat va formula misollar orqali mustahkamlanadi. Masalan, "Optika" bo'yicha konspektda turli nur sinishlarini ko'rsatadigan misollar keltiriladi. Bu misollar fizikaviy qonunlarni amaliyotda qanday ishlatishni o'rgatadi.

Tayanch konspektlar yordamida o'quvchi fizika fanining nazariy va amaliy jihatlarini yaxshiroq tushunadi. Ular qiyinroq, murakkab mavzularni o'rganishda qo'llaniladi va fizika fanining amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishda yordam beradi va matematik hisob-kitoblar va murakkab masalalar yechimini yozish jarayonida juda foydalidir. Fizikada ko'pincha matematik modellar, tenglamalar va hisob-kitoblar mavjud.

Fizika fani o'quvchilar uchun nafaqat qiyin, balki juda ko'p matematik va amaliy bilimlarni talab etadi. Tezkor va tayanch konspektlar yordamida o'quvchi har bir fizikaviy qonunni o'zaro bog'lab, yaxshiroq o'zlashtiradi. Bu jarayonni samarali tarzda o'rganish o'quvchining ilmiy bilimlarini kengaytiradi.

Tayanch konspektlar nafaqat ilmiy nazariyani, balki amaliyotga qanday qo'llanilishini ko'rsatadi. O'quvchi formulalar, masalalar va misollar yordamida nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadi. Tezkor konspektlar, ayniqsa, imtihonlarga tayyorlanishda foydalidir. Ular yordamida o'quvchi materialni tezda qayta ko'rib chiqishi, zaruriy formulalarni yodlashi va asosiy tushunchalarni qayta eslab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konspekt yozish nafaqat ma'lumotni samarali o'zlashtirish, balki o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish va ta'lim jarayoniga faolroq jalb qilish uchun ham zarur. Bu nuqtai nazardan, o'quvchi psixologiyasi, diqqatni jamlash, ma'lumotni qayta ishlash va eslab qolish jarayonlariga oid nazariyalar bilan tanishish foydali bo'lishi mumkin.

Dastlabki konspektlar: O'quvchilarga yangi mavzu kiritilganda, ular uchun qisqacha asosiy tushunchalarni kiritish.

To'liq konspektlar: O'qituvchi tomonidan to'liq ma'lumotlar, misollar, diagrammalar bilan ta'minlash.

Tuzilgan konspektlar: O'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun o'zlarining xulosalarini va asosiy g'oyalarni yoritgan konspektlarni tuzish.

1. Konspektlarni vizualizatsiya qilish: Konspekt yozishning vizual usullari, masalan, diagrammalar, grafiklar va xaritalardan foydalanish, o'quvchilar uchun materialni o'zlashtirishni yanada osonlashtirishi mumkin. Bu usullar, ayniqsa, fizika kabi murakkab fanlarni o'qitishda samarali bo'lishi mumkin.

2. Konspekt yozishning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi: Internet resurslari, onlayn kurslar va mobil ilovalar yordamida o'quvchilar o'z konspektlarini yaratish va ular ustida ishlashni rivojlantirishi mumkin. Masalan, Google Docs, Evernote kabi onlayn platformalar va boshqa texnologiyalarni kiritish o'quvchilarga o'z konspektlarini yanada samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Konspekt yozishning didaktik usullari:

Interaktiv metodlar: O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol muloqot o'tkazish, konspekt yozish jarayonini interaktiv holga keltirish.

Loyiha asosidagi o'qitish: O'quvchilarga konspektlarni tuzish jarayonida ilmiy ishlarni yozish, amaliy loyihalarni yaratish, va jamoaviy muhokamalar orqali ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatlari yaratish.

Konspekt yozish va o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish: Konspekt yozish nafaqat ma'lumotni qayta yozish, balki o'quvchilarning o'z fikrlarini yaratish, mavzuni tahlil qilish va kritik nuqtai nazar bilan ishlashga yordam beradi. Ushbu elementni maqolaga qo'shish, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va analitik yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

Konspekt yozishning psixologik va pedagogik asoslari o'qitish jarayonining muhim elementlaridan biridir. Bu jarayon nafaqat bilimlarni o'zlashtirishni, balki o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish, diqqatni jamlash, fikrlash va eslab qolish kabi psixologik va kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga ham yordam beradi va uni yozish o'quvchilarga nafaqat ma'lumotni olishni, balki o'z-o'zini tashkil etish va boshqarish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilar o'z konspektlarini yaratishda quyidagi muhim psixologik ko'nikmalarini rivojlantiradilar:

Vaqtni boshqarish: Konspekt yozish jarayonida o'quvchilar ma'lum bir vaqt ichida mavzuni o'zlashtirishga harakat qilishadi, bu esa vaqt ni samarali boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'z-o'zini motivatsiya qilish: O'quvchilar konspekt yozish orqali o'z bilimlarini mustahkamlash va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyalarini oshirishadi.

Konspekt yozishning muhim komponentlaridan biri – bu diqqatni jamlash. Konspekt yozish jarayonida o'quvchilar bir vaqtning o'zida:

- Asosiy ma'lumotlarni ajratib olish,
- Muqobil fikrlarni izlash,
- Mavzuga aloqador qo'shimcha tafsilotlarni qayd etish,
- Ma'lumotni o'zlashtirishni yanada chuqurlashtiradilar.

Bunday faoliyat o'quvchilarni ma'lumotni qayta ishlash jarayoniga faol jalb qiladi. Diqqatni jamlash va mustahkamlash, o'quvchining o'rganish jarayonida o'z qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, konsept yozishda talabalar ma'lumotni o'z ichiga olgan asosiy g'oyalarni ajratib olishni o'rganadilar, bu esa ularga nafaqat eslab qolish, balki materialni uzlusiz tahlil qilish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni eski bilimlar bilan bog'lashga imkon beradi.

Bilimlar bazasini kengaytirish: Konsept yozish jarayonida o'quvchilar yangi bilimlarni eski bilimlari bilan bog'lash orqali o'z bilimlar bazasini kengaytiradilar va o'quvchilarning ma'lumotni eslab qolish va uzoq muddatli xotiraga o'tkazish jarayonini kuchaytiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'ssatadiki, yozma faoliyatda bo'lish o'quvchilarning ma'lumotni qayta ishlash va eslab qolish samaradorligini oshiradi. Ma'lumotlarni yozish orqali:

Xotira mustahkamlanadi: Konsept yozish vaqtida o'quvchi o'zini materialga faol ravishda jalb qiladi, bu esa eslab qolishni osonlashtiradi.

Konsept yozish o'quvchilarga o'qish va o'rganish usullarini yaxshilash va o'zlarini qanday usullar bilan samaraliroq o'qish kerakligini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilar o'zlarining bilimlarini baholash orqali nima bilishlarini va nimani o'rganish kerakligini tushunadilar.

Konsept yozishning pedagogik jihatlari ham juda muhimdir. O'qituvchi konsept yozish jarayonini boshqarishda pedagogik yondashuvlarni qo'llashi kerak. Pedagogik jihatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-- Individual yondashuv: O'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, har bir o'quvchi uchun mos konsept yozish metodlarini ishlab chiqish.

-- Ta'lif jarayonida faol ishtirok: O'quvchilarni faollashtirish, ularga yangi metodlar va yondashuvlar haqida tavsiyalar berish. Masalan, o'qituvchi konsept yozishning turli shakllarini (grafik, matnli, diagrammalar) o'rgatishi mumkin.

Konsept yozishning yana bir muhim jihat – bu o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdir. O'quvchilar yangi g'oyalarni yaratishda va muammolarni yechishda kreativ yondashuvni o'zlashtiradilar. Konsept yozish jarayonida o'quvchilar muammolarni tahlil qilishni va ular uchun innovatsion yechimlar taklif etishni o'rganadilar. Konsept yozish nafaqat ma'lumotni samarali o'zlashtirish, balki o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarish va ta'lif jarayoniga faolroq jalb qilish uchun ham zarur. Bu nuqtayi nazardan, o'quvchi psixologiyasi, diqqatni jamlash, ma'lumotni qayta ishlash va eslab qolish jarayonlariga oid nazariyalar bilan tanishish foydali bo'lishi mumkin. Quyidagi psixologik va pedagogik asoslar konsept yozishning samarali bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar, konsept yozishda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Konsept yozish jarayonida ma'lum vaqt ichida biror mavzuni to'liq tushunish va eslab qolish uchun samarali vaqtini boshqarish zarur. Bu o'quvchiga vaqtini to'g'ri taqsimlashga yordam beradi. O'z-o'zini motivatsiya qilish: Konseptni yozishda o'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun o'zlarini motivatsiya qilishga odatlanadilar, bu esa bilimlarni mustahkamlashda muhim omildir. Diqqatni jamlash va ma'lumotni qayta ishlash jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Konsept yozish orqali o'quvchilar quyidagi ishlarni bajaradilar, yani o'quvchiga muhim tushunchalarni tanlash va ajratish imkonini beradi, bu esa materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. O'quvchi materialni o'zlashtirishda yangi va eski ma'lumotlarni o'zaro bog'lashga yordam beradi. Bu jarayon kognitiv assotsiatsiya deb ataladi, bunda yangi ma'lumotlar mavjud bilimlar bilan birlashtiriladi, bu esa yangi bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar o'z bilimlarini kengaytirib, kognitiv tuzilmalarni rivojlantiradilar, psixologik tadqiqotlarga ko'ra, yozma faoliyatda bo'lish, o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatli xotiraga o'tkazish imkoniyatini oshiradi.

Konsept yozish o'quvchini o'qilgan materialni tizimli ravishda o'rganishga undaydi. Bu, o'z navbatida, o'quvchining o'rganish samaradorligini oshiradi. Fizika fani talabalardan nafaqat matematik hisob-kitoblarni, balki fizikaviy tushunchalarni chuqur tushunishni ham talab qiladi. Bu esa, o'quvchilarga ilmiy materialni samarali tarzda o'zlashtirish uchun konseptlar yozishni zarur qiladi. Konseptlarni yozish nafaqat materialni tizimli ravishda yodlash, balki uni tahlil qilish, mustahkamlash va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

**Xulosa.** Fizika fani bo'yicha konseptlarni yozishning afzalliklari juda ko'p. Ular materialni tizimli ravishda o'rganish, yodlashni osonlashtirish, amaliyotda qo'llashni ta'minlash, ilmiy materialni tahlil qilish va chuqur tushunishni rivojlantirishda yordam beradi. Misollar yordamida fizikaviy qonuniyatlarni amaliyotga qo'llash, o'quvchilarga bilimlarini mustahkamlash va sinovlarga tayyorlanishda samarali bo'ladi. Shunday qilib, konsept yozish talabalarning fizika fanini o'zlashtirishdagi eng muhim vositalardan biri bo'lib qoladi. Tezkor va tayanch konseptlarni yozish ko'nikmasi nafaqat o'qish jarayonida, balki ilmiy tadqiqotlar va akademik faoliyatda ham muhim rol o'ynaydi. Bu ko'nikmalar o'quvchiga o'qish materialini yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi va ularni o'rganish jarayonida muhim fikrlarni eslab qolishga imkon yaratadi. O'quvchilar o'zlar uchun eng qulay va samarali konsept yozish usullarini topish orqali, o'qish jarayonini

yanada osonlashtirishi mumkin.. Tezkor konspektlar o'qish materialining qisqacha va aniq tushunchalarini ajratib ko'rsatishda, tayanch konspektlar esa fizikaviy qonuniyatlarni kengroq tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Har ikki konspekt turi o'quvchining ilmiy faoliyatini samarali olib borishga yordam beradi va fizika fani bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtiradi.

Konspekt yozish psixologik va pedagogik asoslardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarga nafaqat ma'lumotlarni o'zlashtirishda, balki diqqatni jamlash, kreativ fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va ma'lumotlarni uzoq muddatli xotirada saqlashda ham yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarining metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish va o'z o'rganish usullarini takomillashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Fizika fani bo'yicha tezkor va tayanch konspektlarni yozish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarga fizikaviy bilimlarni samarali va tizimli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Tezkor konspektlar asosiy tushunchalarni va formulalarni yodlashda, tayanch konspektlar esa chuqr tushunishga erishishda qo'llaniladi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarga sinovlarda muvaffaqiyatli bo'lish, ilmiy ishlanmalar yaratish va umumiyl o'rganish jarayonini samarali olib borishga yordam beradi. Fizikani o'rganishda konspektlarni yozish — bu faqat bilim olish jarayoni emas, balki materialni mantiqiy va tizimli ravishda tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Tezkor va tayanch konspektlarni yozish ko'nikmasi nafaqat o'qish jarayonini samarali tashkil etishga, balki ilmiy va amaliy faoliyatlarda muvaffaqiyatli natijalar olishga yordam beradi. Fizika fani bo'yicha konspektlarni yozishning maqsadi, asosan, o'quvchilarga o'z bilimlarini tizimli tarzda o'zlashtirish, murakkab fizika qonuniyatlarini tushunish va ularga amaliyotda qo'llanilishini o'rganishdir. Fizika fani bo'yicha konspektlarni yozishning afzalliklari juda ko'p. Ular materialni tizimli ravishda o'rganish, yodlashni osonlashtirish, amaliyotda qo'llashni ta'minlash, ilmiy materialni tahlil qilish va chuqr tushunishni rivojlantirishda yordam beradi. Misollar yordamida fizikaviy qonuniyatlarni amaliyotga qo'llash, o'quvchilarga bilimlarini mustahkamlash va sinovlarga tayyorlanishda samarali bo'ladi. Shunday qilib, konspekt yozish talabalarning fizika fanini o'zlashtirishdagi eng muhim vositalardan biri bo'lib qoladi.

### Adabiyotlar:

1. Abdullayev, F. A. (2018). Fizika fanini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. <https://www.uzedu.uz>
2. G'ulomov, M. M. (2015). Ilmiy izlanishlar va konspekt yozish texnikasi. Toshkent: Science Publ. <https://www.sciencepub.uz>
3. Jabborov, A. S. (2017). Fizika ta'limida konspekt yozish ko'nikmalarini rivojlantirish. Tashkent: Innovatsiya nashriyoti. <https://www.innovatsiya.uz>
4. Khamidov, R. X. (2019). Tezkor va tayanch konspektlar. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti. <https://www.uzedu.uz>
5. Maxmudov, B. T. (2016). Fizika fanida innovatsion o'qitish metodlari. Toshkent: Akademiya nashriyoti. <https://www.academia.edu>
6. Mamatov, R. S. (2020). Ilmiy ishlanmalar va konspekt yozish texnikasi. Samarqand: O'zbekiston Ta'limi nashriyoti. <https://www.samarqand.uz>
7. Shodmonov, A. F. (2021). Ta'lim metodikasida yangi yondashuvlar. Toshkent: Bilim nashriyoti. <https://www.bilim.uz>
8. Tursunov, E. B. (2018). Fizika o'qitish metodikasi: amaliy qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti. <https://www.odpu.uz>
9. Zimerman, D. P., & Wurtele, S. K. (2007). The role of note-taking in learning and recall. In Educational Psychology Review, 19(3), 303–323.
10. Piaget, J. (1973). To Understand is to Invent: The Future of Education. Grossman.
11. Sweller, J., Ayres, P., & Kalyuga, S. (2011). Cognitive load theory. Springer Science & Business Media.
12. Anderson, J. R. (2015). Cognitive psychology and its implications (8th ed.). Worth Publishers.
13. Kuhn, D. (2016). Thinking together and alone. Educational Psychologist, 51(3), 1–13.
14. Brown, P. C., Roediger, H. L., & McDaniel, M. A. (2014). Make it stick: The science of successful learning. Belknap Press.

## JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

### KO'PKURASHCHILARNING JISMONIY SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*G'aniboyev Ixtiyor Davlataliyevich,  
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
O'zbekiston, Chirchiq shahri  
ganiboyev1979@mail.ru*

*Ko'pkurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanterish metodikasi sportchining ko'p qirrali tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan. Ko'pkurashda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilarning kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik va moslashuvchanlik kabi jismoniy sifatlari birgalikda rivojlanterilishi zarur. Ushbu mavzu sportchilarning individual xususiyatlari va ko'pkurash turlarining talablari asosida tuzilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** ko'pkurashchilarning bo'yordorlari, vazn og'irlari, mashg'ulotlar jarayoni, qisqa intervalli takroriy yugurish.

### МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ МНОГОБОРЦЕВ

*Методика развития физических качеств многоборцев направлена на обеспечение многогранной подготовки спортсмена. Для достижения успеха в многоборье необходимо совместное развитие таких физических качеств спортсменов, как сила, скорость, выносливость, ловкость и гибкость. Данная тема включает разработку тренировочных программ, составленных на основе индивидуальных особенностей спортсменов и требований видов многоборья.*

**Ключевые слова:** рост многоборцев, весовые категории, тренировочный процесс, повторный бег с короткими интервалами.

### METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF THE PHYSICAL QUALITY OF MULTI-WRESTLERS

*The methodology for developing the physical qualities of multi-sport athletes is aimed at ensuring the multi-faceted preparation of the athlete. To achieve success in multi-sport, it is necessary to develop such physical qualities of athletes as strength, speed, endurance, agility and flexibility together. This topic includes the development of training programs based on the individual characteristics of athletes and the requirements of the multi-sport types.*

**Keywords:** athletes' height, weight training process, short interval repetition running.

**Dolzarbliyi.** Yurtimiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng hozirgi kungacha davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlanterishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi. Sportchilarimiz Osiyo va Jahon maydonlarida yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Olimpiya o'ynlari dasturidan o'rinni olgan deyarli barcha turlar yurtimizda rivojlanib kelmoqda va shu qatori yengil atletika sport turi ham yuqori darajada rivojlanmoqda. Yengil atletika sport turi ommaviy sport turlaridan biri hisoblanib ushbu sport turi bilan Respublikamizda maktab o'quvchilari, akademik litsey va kollej o'quvchilari, institut va universitetlarning talabalari, harbiy xizmatdagi askarlar va ofitserlar, ko'ngilli sport jamiyatlari ming-minglab kishilar shug'ullanishadi. Bu sport turining bunday ommaviy tus olishi, respublikamiz Prezidenti va hukumatning O'zbekistonda jismoniy tarbiya harakati oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish xalqimizning jismoniy barkamol bo'lib o'sishiga, ularning salomatligini mustahkamlashga, yoshlarni vatan himoyasiga va mehnatga tayyorlashga yordam beradi.

**Tadqiqot maqsadi.** Yillik tayyorgarlik bosqichida ko'pkurashchilarning jismoniy sifatini rivojlanterish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Ko'pkurashchilarda tezkorlik – bu yuqorida ta'kidlab o'tilgandan o'nkurashchini asosiy jismoniy sifatlaridan biridir. 100m va 400m masofalarga yugurishda yaxshi natija ko'rsatish tezkorlikka bog'liqidir. Shu bilan birga, u sakrash turida va uloqtirishda ham amaliy ahamiyatga egadir.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 2

Tezkorlikka tayyorlash yil bo‘yi davom etishi kerak. Tayyorgarlik davrida tezkorlikni rivojlantirishni asosiy vositalardan biri bu har xil holatlardan yugurishlardir bular: startdan turib 30, 40, 50, 60 metr masofalarga yugurish, 20-30 metr masofaga start olishdan yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash va har xil og‘irliliklar bilan mashqlar bajarish hamda trenjerlarda ishslash va hokozolar.

Tezkorlik mashqlari ish rejasiga qishda haftasiga 1-2 marta qo‘yiladi. Mashqlar stadionda 40, 50, 60 metr masofalarga vaqtga yugurishlar bilan, yugura turib 30, 60, 80, 100 metr masofaga tezlanishi yugurishlar, tezlikni pasaytirib yoki kuchaytirib yugurish kabi vositalardan iborat bo‘ladi.

Ko‘pkurashchilarning bo‘ydorlari va vazni og‘irlari mashg‘ulotlar jarayonida qisqa intivalli takroriy yugurishlarni bajarishda qynalishadi. Mashg‘ulotlardan so‘ng tiklanish juda sekin boradi. Shuning uchun tezkorlikka bo‘lgan chidamlilikni tayyorgarlik davrida rivojlantirish ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda yanvar oyida yaxshi kross tayyorgarligidan keyin boshlab noyabr-dekabr oylarida mashg‘ulotlarni 100-400 metr masofalarda bajarish bunda yugurish tempi o‘zib borishi kerak.

Yugurish masofalarini quydagicha:  $100+200+300+400+300+200+100$  metr yoki  $400+300+250+200+150+100$  metrga yugurish mumkin.

Bunda dam olish intivali shunday bo‘lishi kerakki ko‘pkurashchi o‘zini keyingi ishga tayyor holatda xis qilishi kerak. Dam olish intervallarini oddiy yurish yoki sekin yugurish bilan bajarish mumkin. Yuklamalarni meyorlashda yurak kon tomir urishini o‘lchash ham mumkin. Yuklamani to‘g‘ri meyorlashda malakali o‘nkurashchini yugurishni oxirida daqiqasiga 170-180 marta yugurish soni bo‘lishi mumkin dam olishda so‘ng u 120-130 ga tushishi lozim.

Aprel oyini oxirida bo‘laklarni yugurish qisqartirishida yugurish tempi esa yuqori darajaga yaqinlashadi inson uchun  $5-6 \times 150$  metrni  $17,00-17,5$ ,  $3-4 \times 200$  metrni  $23,0-23,5$ ,  $1-3 \times 300$  metrni  $36,0-37,0$ ,  $1-2 \times 400$  metrni  $51,0-52,0$  gacha yugurish kerak. Dam olish vaqt 3-4 daqiqaga o‘zaytiriladi.

O‘nkurash musobaqlari asosan ertalab boshlanib juda kech tugaydi. Musobaqlar 2 kun davomida o‘tkaziladi, shu bois o‘nkurashchilar o‘z kuchlarini 10-12 soatga taqsimlab katta yuklamalarga tayyor turishlari kerak.

Shu sababli lari uzoq vaqt davom etadigan bo‘lishi lozim. Tayyorgarlik davrida chidamlilikni tarbiyalash maqsadida uzoq davomli kross yugurishlar qo‘llaniladi.

Yugurishlar tekis 60 daqiqadan kam bo‘lmasligi va sekin yugurish templaridan iborat bo‘lishi kerak. Agar murabbiyning boshida 2-2,5 km (sekin) chigil yozish uchun yugurilsa, hamda ning yakuniy qismida (1,5-2 km yugurtirish tafsiy qilinadi. Bunda o‘nkurashchilar tayyorlanishi davrida o‘rtacha templar haftasiga 30-3) km yugurishlar.

Bu esa uchun yaxshi asos bo‘lib xizmat qiladi. Sakrash tayyorgarligi. Sakrovchanlikni oshirishda asosiy mashq va vositalar bo‘lib: oyoqda sapchishlar (uchxatlab, beshxatlab va xokazo) va oyoqdan – oyooqqadepsinib sakrashlar, 3-5 qadamda yugurib depsinib sakrash, g‘ovlardan bir oyoqda hamda ikki oyoqda depsinib sakrab o‘tish, balandlikdan bir oyoqda sakrab tushib oyoqdan oyooqqa depsinib sakrashlarni davom ettirib ketish, balandlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri yugurib kelib sakrash, turli og‘irliliklar bilan sapchishlar.

**1-jadval.**

### **Yuqori malakali o‘nkurashchilarining mashg‘ulotini tayyorgarlik hamda musobaqalashish davrlarida qo‘llaniladigan vositalarini va tiklanishlar hajmining taxmini tuzilishi**

Vositalar	Tayyorgarlik davri	Musobaqa davri
<b>Yugurish tayyorgarligi (m)</b>		
- Sprintercha yugurishi (asosiy mashqlar)	2100/1000	1800/800
- Tahroriy yugurish	900	1300
- O‘zgaruvchan yugurish	1900	700
- Sekin yugurish	8000-10000	6000-7000
- G‘ovlar osha yugurish (g‘ovlar soni)	120-140	60-80
<b>Sakrovchingning tayyorgarligi (sakrashlar soni)</b>		
- Balandlikga sakrash	36-42	21-25
- Uzunlikka sakrash	30-36	12-16
- Langar cho‘p bilan	55-73	18-28
<b>Uloqtirish tayyorgarligi (uloqtirishlar soni )</b>		
- yadro itqitish	64-84	33-43
- disk uloqtirish	27-47	40-52
- nayza uloqtirish	63-79	40-52
<b>Yordamchi vositalar</b>		
-shtanga bilan mashqlar (maksimal og‘irlikdan 40-		

100%ni kg -qarshiliklar bilan mashqlar (daqqa) -sport o‘yinlari (daqqa) -gimnastika okrabitika(daqqa) <b>Tinchlanuvchi vositalar (daqqa)</b> -savuna -massaj -elektrostimulyatsiya -suzish	1000-14000 40-80 60-80 4-80 60-120 40-60 14-20 20-40	2800-3700 10-30 20-30 15-25 40-80 20-40 10-16 -
--	---	--

Ko‘pkurashchi mashg‘ulotini mikrosikli – bu bir nechta mashg‘ulotlaridan, ya’ni 4-kundan 14-kungacha bo‘ladi. Ko‘pincha esa 7-kunlik mikrosikl qo‘llaniladi.

Bu davrda turli xil yuklamalar qo‘llaniladi. Mikrosikl kunlarida sportchi organizimiga yaxshigina sharoit yaratib beriladi unda adaptasiya ham bo‘ladi. Adaptasiya 2 toifada bo‘lib ular tezkor va uzoq vaqt davom etadigan bo‘lib, tezkor adaptasiyada sportchi kuchiga bo‘lgan mashqlarni va katta yuklamalarni bajarishda va dam olish jarayoni tizim bo‘yicha olib boriladi mashqlarni bajarishda yurak urish soni pastga tushadi dam olishda esa kuchayadi. Uzoq vaqtli adaptasiya davomi va turg‘un bo‘lib u jarayonida qo‘llaniladigan vositalar optimal va intinsiv bo‘ladi. Mashg‘ulotlar o‘z ichiga kompleks mashqlarni olib mashqlar qo‘llanilganda dam olishi bilan olib boriladi. Mashqlarni bajarishdagi takrorlashlar soni umumiy yuklamasini aniqlab beradi. O‘nkurashlarda yuqori natijalarga erishishni R.I.Kupchinov 1994- yil tomonidan asosiy 3- uslubiy yo‘nalish tavsiya etilgan.

-O‘nkurashning yaxshi natijalar ko‘rsatilmagan turlarida ko‘proq tayyorgarlik ko‘rish.

-Yaxshi natijalar ko‘rsatib kelgan turlarida takomillashtirish.

-Kompleks tayyorgarlik.

- Biz tomonimizdan ushbu 3 yo‘nalish bo‘yicha sportchilarni tayyorlashda tadqiqotlar davomida quydagi sport natijalari aniqlandi.

-Kompleks tayyorgarligi olib borilgan sportchilarda musobaqalarda yuqori natijalarga erishildi.

-O‘nkurashni yaxshi natijalar ko‘rsatilmagan turlarini takomillashtirishda esa yaxshi natijalar bo‘lmadi.

-Yaxshi natijalar ko‘rsatilgan turlarini yanada takomillashtirishda xam yaxshi natijalarga erishilmadi.

-O‘nkurashning barcha turlarini maksimal va submaksimal takomillashtirish sport texnikasini va musobaqada qatnashish malakasini oshirishda yaxshi natijalar ko‘rsatildi.

## 2-jadval.

### Yuqori malakali o‘nkurashchilar mashg‘ulotining taxminiy yillik ish rejasi

Mashqlarni yo‘naltirilishi	Asosiy vositalar	Oylar												Yillik hajm
		XI	XI	I	II	III	IV	V	VI	VI I	VIII	IX	X	
O‘nkurashchini jismoniy tayyorgarligini har tomonlama oshirish	Mahsus va tortuvchi (o‘xhash) mashqlar (soat)	16	10	8	8	4	4	4	4	4	4	4	8	82
O‘nkurash turlari tehnikasini takomillashtirish	Pastki startdan yugurish, Startlar soni	-	60	80	80	80	80	80	60	60	60	60	40	740
	Yugurib kelib uzunlikka sakrash, sakrashlar soni	-	80	10 0	10 0	10 0	80	60	60	60	60	60	60	820
	Balandlikka sakrash, sakrashlar soni	-	60	16 0	16 0	16 0	16 0	12 0	10 0	40	40	40	40	960
	Langar cho‘p bilan sakrash, sakrashlar soni	-	90	90	90	90	10 0	80	50	50	50	50	40	780
	Yadro itqitish, itqitishlar soni	25 0	22 0	16 0	16 0	16 0	16 0	16 0	16 0	16 0	16 0	16 0	22 0	1900
	Disk uloqtirish, uloqtirishlar soni	20 0	12 0	16 0	16 0	16 0	20 0	18 0	12 0	12 0	12 0	12 0	12 0	1900
	Nayza va boshqa jismlarni	20	24	24	24	24	16	16	12	12	120	12	80	1800

	uloqtirish, uloqtirishlar soni	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	
Jismoniy sifatlarni rivojlantirish: tezkorlikni rivojlantirish	Yugura kelib 30-40 m ga tez yugurish, masofa bo‘ylab 60-100 m ga yugurish. km	4,0	5,0	5,0	6,0	5,0	4,0	4,0	14,0	14,0	4,0	4,9	4,0	50
Tezkor chidamlilikni oshirish	150-600 m gacha bo‘lgan bo‘laklarda yugurish. km	-	8,0	10,0	10,0	10,0	8,0	6,0	6,0	4,8	4,8	4,8	40	74,4
Kuchni rivojlantirish	Og‘irliliklar bilan mashq qilish (shtanga, gir) va trenajorlarda. tonna	30	40	50	40	40	30	30	20	20	20	20	-	340
Tezkor kuch tayyorgarligi	Mahsus mashqlar soat	8	8	8	10	10	12	12	10	8	8	4	4	110
Chidamlilikni rivojlantirish	Kross km	50	65	40	30	36	20	16	16	16	16	16	40	367
Chaqqonlikni rivojlantirish	Akrobatika, gimnastika, o‘yinlar soat	8	8	4	4	1	2	2	2	2	2	2	4	42
Iroda va boshqa sifatlarni tarbiyalash	darslari soat	20	24	24	24	40	40	24	10	10	16	16	20	288
Musobaqalashi sh malakasini egallash	O‘nkurash bo‘yicha musobaqalar soni	-	1	1	-	-	-	-	2	2	2	2	-	10
	Alohiba turlar bo‘yicha musobaqa	-	-	1	2	-	-	2	2	1	1	1	22	12

O‘nkurashda turli xil tana tuzulishiga ega bo‘lgan sportchilar yuqori natijalarga erishgan. Germaniyalik o‘nkurash bo‘yicha jahon rekordchisi Yu.Xingzenaning bo‘yi 2 m, og‘irligi 100 kg.ni tashkil qilgan, 2 karra olimpiyada championi (1980 va 1984 yillar) angliyalik D.Tompsonning tana tuzilishi esa aksincha bo‘lib, uning bo‘yi 185sm, og‘irligi esa 84 kg.ni tashkil qilgan. 1972- yilda (AQSH) o‘nkurashchisi D.Bennetni bo‘yi 173sm, vazni 69kg bo‘lib u 8122 ochko to‘plab Olimpiyada o‘yinlarida 4 o‘rinni egallagan.

Shuni aytish joizki, bo‘ydor va jismonan kuchli sportchilar o‘nkurash turlarida yuqori natijalarga erishish imkoniyati ko‘proqdir. Shu bilan birga ularda mehnat qilishda va mashaqatlarga bardoshli, irodali bo‘lish ham talab qilinadi. Jahonning 100 dan ortiq kuchli o‘nkurashchilarining o‘rtacha bo‘yi 187,2 sm vazni esa 84,7 kg.ni tashkil qiladi.

Jismoniy sifatlar (tezkorlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik) o‘nkurashchiga juda zarur va u amaliy axamiyatga egadir. O‘nkurashchi shuni ham nazarda tutishi kerakki u xam funksional ham jismoniy rivojlanishga ega bo‘lishi kerakdir. Har bir jismoniy sifat o‘nkurashni xar bir turini bajarishda o‘z o‘rniga egadir, agar sportchi u yoki bu jismoniy sifatni tarbiyalab boshqasiga e’tibor bermasa u albatta, o‘nkurashni bir turida natijani pasayishiga olib keladi. Shu sababli o‘nkurashchi xar bir jismoniy sifatga alohiba e’tibor berib uni rivojlantirish kerakdir. Misol uchun shtanga bilan mashq bajarib mushaklar kuchini rivojlantirish mumkin va u uloqtirishlarda yaxshi foyda beradi, ammo sakrashlarda va 110 metrga g‘ovlar osha yugurishda hamda 1500 metrga yugurishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan yugurishlar sportchini vaznini kamaytirib yuborsa u uloqtirish turlarida natijalarni pasayishiga olib keladi.

**Xulosa.** O‘nkurash bilan shug‘ullanganda ilk musobaqlarda natijalarni pastligi bu o‘nkurashchi turidan boshqa turga o‘tib ketish kerak degani emas. Yuqori malakali o‘nkurashchilar o‘zlarini ilk musobaqalariga qatnashganida o‘rtacha natijalar bilan boshlashgan. O‘nkurashda ryekordchilarni o‘rtacha yoshi 26 yosh, ko‘philigi sport ustalari esa yuqori natijalarni 28-32 yoshda erishgan. O‘nkurashda shug‘ullanuvchilarning jarayonida har bir sifat rivojlantirilmay qolmasligi kerak. Aks holda u musobaqaning biror bir turida natijani pasayishiga olib keladi. Shu bois ham jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan ham texnikasini tashkil topgan bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar:**

1. G'aniboyev I.D., Xo'jamkeldiyev G'.S. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari (Yengil atletika). O'quv qo'llanma. Ch.: 2019. - 166 b.
2. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To'xtaboyev N.T., Kolobov V.A. va boshqalar. Yakkakurash, koordinatsion va siklik sport turlari “Yengil atletika” // Darslik. ITA-Press nashryoti. T.: 2018. - 376 b.
3. Olimov M.S., Shakirjanova K.T., Rafiyev H.T., To'xtaboyev N.T., Smurigina L.V., Kolobov V.A. va boshqalar. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati // Darslik. ITA-Press nashryoti. T.: 2018. – 432 b.

## AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNI ESHISH HARAKATLARINI NAZORAT QILISH XUSUSIYATLARI

*Mambetnazarov Islambek Muratbayevich,*

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya  
va sport universiteti Nukus filiali ilmiy ishlar,  
fan va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinboasari*

*Ushbu maqolada malakali akademik eshkak eshuvchilarni sonni bukish va yoyish, tos va belni aylanish graduslari orqali texnik o‘zgarishlarni aniqlash, vaqt orqaliqlarida charchash alomatlarini tahlil qilish hamda texnikasidagi o‘zgarishlarni zamonaviy usullar orqali aniqlash xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** sonni bukish va yoyish, tosni aylantirish, belni aylantirish, shiddat, gradus, daraja, texnika o‘zgarishlari, Concept 2, bel va tosning aylanishi, musobaqa faoliyati, eshkak eshish va yurak urish tezligi, kuch ko‘rsatkichlari.

### ОСОБЕННОСТИ КОНТРОЛЯ ДВИЖЕНИЙ АКАДЕМИЧЕСКИХ ГРЕБЦОВ

В этой статье были представлены данные о характеристиках квалифицированных академических гребцов для определения технических изменений посредством сгибания и разгибания бедра, степени вращения таза и поясницы, анализа признаков усталости с течением времени и выявления изменений в технике с использованием современных методов.

**Ключевые слова:** сгибание и разгибание бедра, вращение таза, вращение поясницы, интенсивность, степень, уровень, технические изменения, Концепция 2, вращение поясницы и таза, результаты соревнований, гребля и частота сердечных сокращений, показатели силы.

### PECULIARITIES OF MOVEMENT CONTROL OF ACADEMIC ROWERS

*This article was presented data on the characteristics of qualified academic rowers to determine technical changes through hip flexion and extension, pelvic and lumbar rotation degrees, analyze signs of fatigue over time, and detect changes in technique using modern methods.*

**Keywords:** hip flexion and extension, pelvic rotation, lumbar rotation, intensity, degree, level, technical changes, Concept 2, lumbar and pelvic rotation, competition performance, rowing and heart rate, strength indicators.

**Dolzarbliji.** Bugungi kunda mamlakatimizda sport o‘yinlari, siklik sport turlari va murakkab koordinatsion sport turlarida jamoalarni shakllantirish masalasiga bag‘ishlangan xususan, akademik eshkak eshish sportida sportchilarining yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, ularning texnik tayyorgarligini rivojlantirish va sportchilarining funksional imkoniyatlarini oshirish orqali jamoviy qayiq ekipajlarini shakllantirish haqida bir qator ilmiy uslubiy ishlar qilingan. “Bugungi kunda sportchilarini tayyorlash 30 yil oldingi dasturlar asosida amalga oshirilmoqda” [2;4-5-b]. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy qayiq a’zolarining o‘zaro ta’sirini, ularning eshish siklini bajarishdagi texnik muvofiqligini, qayiqda sportchilarining joylashish ketma-ketligini, ularning antropometrik va funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlari hamda sportchining qayiqdagi joylashuv majburiyatlarini hisobga olmagan holda, ya’ni hozirgi mavjud bo‘lgan an‘anaviy vosita va usullaridan foydalanib tashkil etilishi soha mutaxassislari oldiga bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish talabini qo‘ymoqda.

**Tadqiqlt maqsadi.** Malakali akademik eshkak eshuvchilarni eshish harakatlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqlt vazifalari.** 1. Eshkak eshuvchilarni texnikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish va taxlil qilish. 2. Eshkak eshuvchilarni tos, son va bellarni bukish va yoyish, aylanish graduslarini taxlil qilish.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Tadqiqotimiz davomida adakemik eshkak eshish mashg‘ulotlarida eshish paytida son, toz, boldir harakatlari tahlil qilib borildi. Ushbu tadqiqotda tajribali malakali eshkak eshuvchilar guruvida ergometrda bir soatlik eshkak eshishning eshkak eshish texnikasiga ta’siri o‘rganildi. Ergometrda past intensivlikdagi bu katta hajmli mashg‘ulotlar malakali eshkak eshuvchilar mashg‘ulot olib borildi. Eshkak eshuvchilar mashg‘ulotlar chidamlilikni oshirishga qaratilgan bo‘lsada,

dastlabki qo'llanilgan mashqlar ba'zi sportchilarda charchash ta'sirlari bir soat ichida yaqqol namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu eshkak eshish texnikasining o'zgarishida aks etadi va o'z navbatida, jarohatlanishga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Eshkak eshishning bir soatlik mashg'ulotining boshlanishi va oxiri o'rtasidagi farqlar kuzatildi. Natijalar umurtqa pog'onasining bel qismidan eshkak qismining oxirida ko'proq foydalanilganini ko'rsatdi, bu esa charchoq bilan izohlandi. Ushbu oldingi tadqiqotdan farqli o'laroq, joriy tadqiqotda bir soat davomida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi. Bu qisman tadqiqotda ishtirok etgan eshkak eshuvchilarning boshqa guruhga mansubligi va ularning ergometrdagi bir soatlik mashg'ulotlardan ko'proq xabardorligi hamda tajribasi bilan bog'liq bo'lgani aniqlandi. Malakali eshkak eshuvchilarda kinematika quyi darajadagi eshkak eshuvchilarga qaraganda barqarorroq bo'lgan. Bu esa tajriba va qobiliyatlar tadqiqotlarda kuzatilgan farqlarni tushuntirishi mumkinligini ko'rsatdi. Bunda eshkak eshuvshilarni vaqtida sonni bukish va yozish bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, bir qator o'zgarishlar kuzatildi, jumladan, mashg'ulotning vaqr oraliqlarida sonni bukish va yozishning biroz kamayishi aniqlandi. Bunda bir soatlik mashg'ulotning oxirida oyoqlar taxminan 3 daraja kamroq bukilgani aniqlandi. Bu holat sonning oxirgi yozilishining 3 darajaga oshishi bilan bog'liq bo'lib, eshish paytida harakatlanish fazasiga sarflanadigan vaqtning ko'payishi kuzatilgani bilan izohlandi. Bu esa harakatlanish oxiridagi bosqichning foiz qiymati bilan belgilangan. Tadqiqotimiz davomida vaqt oraliqlarida eshkak eshuvchilarni son va bo'g'implarni bukish va yozishni tahlil qidik (1-jadvalga qarang).

#### 1-jadval.

##### Oltita vaqt nuqtasida son bo'g'imining bukish va yozishidagi o'zgarishlar n=6

Vaqt oralig'i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida sonni bukish va yozish (°)	-28,7 (4,0)	-29,1 (5,9)	-29,0 (7,0)	-28,5 (7,6)	-7,7(8,9)	-25,7 (8,9)
Sonni maksimal bukish va yozish (°)	-29,8 (4,1)	-30,1 (6,0)	-30,1 (7,1)	-29,6 (7,7)	-29,1 (8,9)	-27,0 (8,9)
% shiddat, sonning maksimal bukish va yozish	95,7 (5,4)	95,5 (5,2)	96,2 (4,7)	96,0 (4,6)	95,4 (4,7)	96,0 (4,8)
Eshish oxirida sonni yoyish (°)	14,5 (4,5)	16,0 (4,7)	16,6 (5,7)	17,0 (6,7)	19,7 (7,4)	21,5 (8,1)
Sonning maksimal yoyish (°)	17,7 (2,4)	18,5 (2,3)	19,1 (3,5)	20,0 (4,0)	22,0 (5,3)	23,4 (6,5)
% shiddat, son suyagi maksimal darajada yoyish	22,3 (4,3)	22,3 (4,5)	22,8(4,5)	22,8 (4,5)	23,0 (4,5)	22,8 (3,9)

##### Izoh: Bukish harakatlari manfiy, yozish harakatlari musbat qiymatga ega.

1-jadvalga asosan akademik eshkak eshuvchilarni sonni bukish va yozish harakatlari oltita vaqt oraliqlarida eshish boshida sonni bukish va yozish, sonni maksimal bukish va yozish, sonning maksimal bukish va yozish, Eshish oxirida sonni yoyish, Sonning maksimal yoyish, son suyagi maksimal darajada yoyish harakatlari gradus va foizlardagi ko'rsatkichlari tahlil ilindi. Jumladan eshish boshida sonni bukish va yzish paytida 2-7 daqiqalarda 28,7 gradus kuzatilgan bo'lsa 54-59 daqiqalarda 25,7 gradus ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga sonning maksimal yoyish ham 54-59 daqiqalar oraliqida 23,4 gradus ekanligi kuzatildi. Shiddatli harakatlarni bajarishda esa maksimal darajadagi sonni yoyish 44-49 daqiqalar oralig'ida 23,0 gradusgacha yetdi. Shuningdek, bir soatlik eshkak eshish davomida sonni bukish va yozishda ijobiy ko'rsatkichlar aniqlandi. Biroq, eshkakni suvga tushirish paytida chanoqning oldinga va eshkak tortish yakunida orqaga biroz ko'proq burilishi aniqlandi. Bu son qismida kuzatilgan bukish va yozishdagi o'zgarishlarga hamda avval ta'riflangan eshkak tortish uzunligini saqlab qolishga erishildi. Shu bilan birga akademik eshishning bir soatlik masjg'ulotlarida chanq aylanishiga ham vaqt oraliqlarida harakatlar graduslari tahlil qilindi (2-jadvalga qarang).

#### 2-jadval.

##### 6 ta vaqt nuqtasida chanoq aylanishining o'zgarishlari n=6

Vaqt oralig'i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida aylanish (°)	12.2 (5.7)	11.1 (5.0)	12,0 (5,1)	12.2 (5.0)	13.2 (5.9)	13.1 (5.3)
Eshish oxirida oldingi aylanish (°)	-18,9 (9,8)	-23,7 (9,4)	-24,3 (10,4)	-24,4 (11,4)	-25,2 (11,4)	-26,3 (10,4)
Maksimal oldingi aylanish (°)	14,4 (4,8)	13,7 (4,3)	14,4 (5,2)	14,6 (5,0)	15,5 (5,5)	15,4 (5,5)

Maksimal aylanish bo‘ladigan foizi temp	oldingi sodir harakat	89,0 (15,4)	88,5 (14,1)	88,7 (13,9)	88,5 (13,8)	87,0 (15,2)	88,3 (14,0)
Maksimal aylanish (°)	orqa	-29,2 (10,1)	-32,6 (10,2)	-33,5 (11,4)	-34,2 (11,5)	-34,6 (13,1)	-34,9 (11,3)
Maksimal aylanish foizi	orqaga	30,8 (3,2)	31,2 (3,3)	31,7 (3,5)	32,0 (3,7)	31,4 (3,7)	31,8 (3,0)

*Izoh: chanoqning oldinga aylanishi musbat burchaklar bilan, orqaga aylanishi esa manfiy burchaklar bilan ifodalanadi.*

Akademik eshkak eshuvchilarda eshish texnikasiga o’rgatganda son suyagi bilan bir qatorda chanoq suyagi harakatlari ham muhim hisoblanadi. Bularni inobatga olib oltita vaqt oralig’ida chanoqni eshish boshida, oxirida aylanishi, maksimal aylanishi, aylanishdagi maksimal shiddat foizi, maksimal orqa aylanishi hamda foiz ko’rsatkichlari tahlil qilindi. Unga ko’ra eshkak boshida 12,2 gradus, 44-49 daqiqa oralig’ida esa 13,2 gradusligi aniqlandi. Maksimal aylanish esa 32-37 daqiqalar oralig’ida 32,0 % ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga akademik eshkak eshuvchilarni bel rotatsiyasi (umurtqa pog‘onasining bel qismini bukish va yozish) ga ham e’tibor qaratdik. Umurtqa pog‘onasining bel qismi kinematikasida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Biroq eshkak eshishning bir soatlik mashg’ulot davomida ham o‘zgarishlar aniqlandi. Eshkakni svuga tushirish paytidagi chanoq aylanishida bo‘lgani kabi, vaqt o’tishi bilan bel sohasining ozgina kengayishi kuzatildi. Finishda esa, chanoqni orqaga burish holatida bo‘lgani singari, umurtqa pog‘onasining bel qismi ko‘proq cho‘zilgani tahllilarimiz davomida aniqlandi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

**Olti vaqt nuqtasida bel sohasining aylanishidagi o‘zgarishlar n=6.**

Vaqt oralig‘i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida bukish (°)	33,6 (7,0)	33,9 (6,8)	34,5 (6,7)	34,5 (6,8)	35,8 (7,0)	34,9 (7,2)
Eshish oxirida chozilish (°)	-13,5 (8,0)	-18,1 (5,9)	-18,8 (6,5)	-18,3 (5,8)	-18,7 (5,8)	-20,2 (4,7)
Harakatlanish vaqtida maksimal egilish (°)	35,3 (7,1)	35,8 (7,0)	36,3 (7,0)	36,3 (7,0)	37,6 (7,1)	36,8 (7,5)
maksimal egilish sodir bo‘ladigan harakatning %	92,7 (10,2)	93,2 (10,0)	93,3 (10,1)	93,3 (10,1)	92,4 (11,0)	93,0 (10,4)
Harakatni maksimal uzaytirish (°)	-31,4 (6,3)	-36,0 (5,2)	-37,8 (6,2)	-37,8 (5,0)	-36,5 (5,3)	-36,4 (5,4)
Maksimal kengayish sodir bo‘ladigan harakat tezligi%	31,8 (1,7)	32,2 (1,5)	32,7 (1,6)	32,8 (1,9)	32,2 (3,1)	32,7 (2,9)

*Izoh: bel sohasining egilishi musbat burchaklar bilan, to‘g‘ilanishi esa manfiy burchaklar bilan ko‘rsatilgan.*

Tahillarimizga ko’ra akademik eshkak eshuvchilarni bel-chanoq nisbatlari ko’rsatkichlari ham aniqlandi. Unga ko’ra bir soatlik eshkak eshish davomida bel-chanoq nisbatlarida sezilarli ijobiy farqlar kuzatildi. Soat boshida bel-chanoq nisbati eshish boshida bukish  $3,4 \pm 1,7$  va yakunlashda  $0,8 \pm 0,5$  ni tashkil etdi. 14-19 daqiqalarda, ya’ni B vaqt nuqtasida, o’sish kuzatilib, bukishda  $3,8 \pm 2,0$  gacha yaxshilandi, ammo harakatlarni yakunlashda  $0,84 \pm 0,3$  kabi kichik o‘zgarish yuz berdi. Biroq, bukish nisbati bir soat davomida o‘zgarib, J vaqt nuqtasida (eshkak eshish oralig‘ining 54-59 daqiqalarida)  $3,0 \pm 1,2$  gacha pasaydi. Bu o‘zgarishlar sezilarli bo‘lmasada, son bukilishi va yozilishining kamayishi hamda tos va bel aylanishi va bukilishining biroz ortishi bo‘yicha kuzatilgan qonuniyatlargacha to’liq mos keldi.

Boshqa tadqiqotlarda charchash natijasida vazifalar mexanikasi va kinematikasida shunga o‘xshash o‘zgarishlar qayd etilgan. Chidamlilik va charchoqning past darajasi ilgari eshkak eshuvchilarda qayd etilgan. Biroq, eshkakchilarning tana mushaklariga nisbatan tayyorgarligida o‘zgarishlar ham qayd etilgani kuzatildi. Testlash paytida ma’lumotlarni tanlashning faqat to‘rtta nuqtasidan foydalanildi: biri boshida (1-2 daqiqa), 20 daqiqa, 40 daqiqa va biri oxirida. Aksincha, ushbu tadqiqotda oltita ma’lumot tanlanmasi o‘tkazildi, har 10 daqiqada bittadan, birinchi o‘lchov 2-7 daqiqalarda amalga oshirildi. Bu ba’zi o‘zgarishlarni yozib olish vaqt qisqaroq bo‘lganligi sababli 1-2 daqiqalarda eshkak eshuvchilar hali ham o‘z

texnikasiga moslashayotgan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu vaqt nuqtasi va keyingi tanlanmalar nuqtalari o‘rtasidagi farqlar shundan kelib chiqadi. Bu esa, chigal yozdi mashg‘ulotining yanada mukammalroq o‘tkazish talabini qo‘yadi. Joriy tadqiqotda maksimal kuchi, ehtimol, kamaygan bo‘lsada, quvvat oshgani aniqlandi. Bu texnikadagi nozik o‘zgarishlar va vaqt oralig‘ida bel-chanoq nisbatining astasekin yaxshilanishi bilan bog‘liq bo‘lib, chigil yozdi vositalarini rejalashtirish zarurligini yana bir bor isbotladi. Ilgari bel-chanoq bo‘limining harakati eshish texnikasi va tehnik mahorat uchun muhim ekanligi tahlillarimiz davomida aniqlandi. Biroq, charchash natijasida texnikaning yomonlashishi ta’siridan chigil yozdi mashqi samarasini farqlash uchun uzoqroq vaqt davomida ko‘proq sportchilar guruhi ishtirotkida qo‘sishma tadqiqotlar o‘tkazish zarur. Joriy tadqiqotda oldingi tadqiqotda qo‘llanilgan uch daqiqalik chigil yozdi mashqidan farqli o‘laroq, majburiy besh daqiqalik chigil yozdi mashqlari o‘tkazildi. Bu ham tadqiqotlar o‘rtasidagi farqlarga ta’sir qildi. Ushbu tahlilni o‘tkazish davomida akademik eshkak eshuvchilarni bir satlik mashg‘ulot davomida texnika harakatlardagi buzilishlar sababini aniqlash imkoniga erishildi.

**Xulosa** qilib aytganda, yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar texnikani o‘zgartirmasdan ergometrda uzoq muddatli mashg‘ulot vositalarini bajara olishdi. Bu holat ularning bir necha yil davomidagi sport tayyorgarligi va bunday mashg‘ulotlarga moslashishining natijasi bo‘lishi mumkin. Moslashish davri mavjudligi aniq bo‘lib, shu sababli chigil yozdi mashqlarini 3-5 daqiqadan ko‘proq vaqt davomida bajarish muhimligi tahlilimiz davomida aniqlandi. Ushbu vaqt oraliqlarida texnik hatolarni aniqlash imkoniyatlari oshdi, shu bilan birga shiddatli mashg‘ulotlarda tos, son va bel graduslarini foizlarda o’sish ko‘rsatkichlariga erishildi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali Olimpiya va Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
3. O‘zbekiston Republikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-382-son “Suv sporti turlarini rivojlanirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Колдуэлл Дж. С., Макнейр П. Дж., Уильямс М. (2003) Влияние повторяющихся движений на сгибание поясницы и активность мышц, выпрямляющих позвоночник, у гребцов. // Клиническая биомеханика 18, 704-711
5. Долан П., Адамс МА (1998) Повторяющиеся подъемные задачи утомляют мышцы спины и увеличивают изгибающий момент, действующий на поясничный отдел позвоночника. // Журнал биомеханики 31, 713-721
6. Эванс К., Рефшауге К.М., Адамс Р.Д., Барретт Р. (2008) Кинематика замаха у опытных гольфистов-мужчин после тренировки по паттингу. // Журнал ортопедической и спортивной физиотерапии 38, 425-433.
7. Булл АМ, МакГрегор АН (2000) Измерение движения позвоночника у гребцов: использование электромагнитного устройства. // Клиническая биомеханика 15, 772-776.
8. Матназаров Х.Ю. Эшкак эшиш назарияси ва услубияти. Дарслик. Т.: “O‘zbekkitobsavdonashriyoti” 2020. - 238 б.
9. Корбут В.М., Исраилова Р.Г. Спорт педагогик маҳоратини ошириш (эшкак эшиш). Ўқув қўлланма. Т.: Илмий техника ахбороти-пресс нашриёти, 2018. - 124 б

## QO'L JANGI SPORTCHILARIDA PSIXOLOGIK VA JISMONIY TAYYORLIKNING O'ZARO TA'SIRI

Munirov Nurali Alisherovich,  
Buxoro davlat universiteti  
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasи dotsenti

Ushbu maqolada qo'l jangi sportchilari uchun psixologik va jismoniy tayyorgarlikning o'zaro ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada sportchilarning psixologik va jismoniy salohiyatini rivojlantirish, yuqori intensivlikdagi jismoniy va psixologik zo'riqishlarning sport faoliyatiga ta'siri, va sportchining muvaffaqiyatiga olib keladigan psixologik va jismoniy omillar haqida so'z yuritiladi. Mashg'ulotlar davomida jismoniy mashqlar va psixologik tayyorgarlikning samaralari va ta'siri keltirilgan. Sportchining psixologik xususiyatlari, idrok, tafakkur va irodani rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlikning organizmga ta'siri haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** qo'l janglari, psixologik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, motivatsiya, tezkor qarorlar, intensivlik, idrok, tafakkur, iroda, kurash, mashg'ulot samaralari, psixologik zo'riqishlar, taktik fikrash, stressga qarshi chidamlilik.

### ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ У СПОРТСМЕНОВ ПО РУКОПАШНОМУ БОЮ

В статье анализируется взаимное влияние психологической и физической подготовки у спортсменов в боевых искусствах. Рассматриваются вопросы развития психических и физических качеств спортсмена, влияние высокоинтенсивных физических и психологических нагрузок на спортивную деятельность, а также психологические и физические факторы, определяющие успех спортсмена. Описаны эффекты от физической подготовки и психологической тренировки, а также влияние тренировок на организм. Приводится информация о развитии психологических особенностей, восприятия, мышления и воли, а также об эффективности физической подготовки.

**Ключевые слова:** рукопашный бой, психологическая подготовка, физическая подготовка, мотивация, быстрое принятие решений, интенсивность, восприятие, мышление, воля, бой, эффекты от тренировок, психологические нагрузки, тактическое мышление, устойчивость к стрессу.

### THE INTERACTION OF PSYCHOLOGICAL AND PHYSICAL TRAINING IN HAND-TO-HAND COMBAT ATHLETES

*This article analyzes the interrelationship between psychological and physical preparation in hand-to-hand combat athletes. It discusses the development of psychological and physical qualities, the impact of high-intensity physical and psychological stress on sports performance, and the factors contributing to athletic success. The effects of physical training and psychological preparation are presented, along with the influence of training on the body. Information is provided on the development of psychological traits such as perception, cognition, and willpower, as well as the impact of physical training.*

**Key words:** hand-to-hand combat, psychological preparation, physical preparation, motivation, quick decision-making, intensity, perception, cognition, willpower, combat, training effects, psychological stress, tactical thinking, stress resistance

**Kirish.** Qo'l jangi sportchilari uchun psixologik va jismoniy tayyorgarlikning o'zaro ta'siri haqidagi mavzu, bugungi kunda sportchilarning muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. Qo'l jangi faqat jismoniy kuchni talab qilmaydi, balki yuqori darajadagi psixologik mustahkamlik va tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Sportchilarning muvaffaqiyati, ularning jismoniy imkoniyatlarini psixologik jihatlar bilan uyg'unlashtirishga bog'liqdir. Jismoniy tayyorgarlik, sportchilarning bardoshliligi, tezkorligi va kuchini oshirish bilan birga, psixologik tayyorgarlik, diqqatni jamlash, strategik fikrash va qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Shu sababli, qo'l jangi sportchilari uchun bu ikki jihatning o'zaro bog'liqligi va ahamiyati, sportchilarning professional faoliyatini yaxshilashda asosiy omil bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** A.A. Borisov va D.V. Salkova jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarda, harbiy xizmatchilarning psixofizik tayyorgarligini shakllantirishda eksperimental dasturlarni yaratish va tatbiq etish jarayonlarini o‘rganishgan. Ularning tadqiqotlarda harbiy xizmatchilarning xizmat va jangovar vazifalarni bajarishda zarur bo‘lgan psixologik va jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati, ularning samarali integratsiyasi, shuningdek, harbiy o‘quv jarayonida psixofizik qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar tavsiflangan [2].

V.G. Volkov, R.N. Volodin, V.M. Skudnov, K.V. Pozdnyakovlar tomonidan nashr etilgan "Qo‘l jangi" nomli o‘quv qo‘llanmasida qo‘l jangining harbiy maqsadlarda qanday qo‘llanilishi va uning amaliyotdagи ahamiyati alohida ta’kidlangan. Qo‘l jangi usullarining taktik jihatlari va ularning harbiy tayyorgarlikda qo‘llanilishi masalalariga e’tibor qaratilgan. Ushbu qo‘llanmada, shuningdek, jismoniy tayyorgarlik orqali harbiy xizmatchilarda professional sifatlarni rivojlantirishning qanday amalga oshirilishi va qo‘l jangi orqali shaxsiy sifatlarni shakllantirishning samarali yo‘llari haqida batafsil tavsiyalar berilgan. Mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim masalalar ochib berilgan [3].

A.P.Kupsov va G.S.Tumanyanning "Sportivnaya bor‘ba" (1978) kitobida sport jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa kurash bo‘yicha ta’lim va uslubiyatni o‘rganishga katta hissa qo‘shgan asarlardir. Mazkur ishda sport kurashi bo‘yicha o‘quv metodikasini, texnik va taktik mashqlarni, jismoniy tayyorgarlikning turli jihatlarini batafsil yoritgan. Bu kitobda kurashchilarning tayyorgarlik jarayoni, ularning jangovar salohiyatini oshirish uchun zarur bo‘lgan jismoniy va psixologik mashqlar haqida to‘liq ma’lumot berilgan. Kupsovning asari sport kurashining professional darajasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi va jismoniy tayyorgarlikning samarali integratsiyasi uchun zarur metodikalarni taklif etadi [4].

G.S. Tumanyanning "Shkola masterstva borsov, dzjudistov i sambistov" (2006) kitobida esa kurash, dzudo va sambo bo‘yicha ustalik makkabini yaratishga bag‘ishlangan. Kitobda, kurashchilar va jangovar sportchilar uchun o‘quv mashg‘ulotlarini qanday tashkil etish, ularning professional sifatlarini qanday rivojlantirish, taktik va texnik aspektlarni yaxshilashning muhim yo‘llari haqida keng tavsiyalar berilgan. Tumanyanning asarida sportchi tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash, uning jismoniy kuchi va ruhiy chidamliligin oshirish uchun muhim tavsiyalar mavjud. Shu sababli, ushbu asarlar jismoniy tayyorgarlik va sportning jangovar turlariga oid o‘quv jarayonini takomillashtirish, shuningdek, kurashchilar va jangovar sportchilarni tayyorlash jarayonidagi metodik yondashuvlarni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlarning o‘rganilganlik darajasini yanada boyitadi va ilmiy asoslarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu asarlar, shuningdek, harbiy va huquq-tartibotni saqlovchi tashkilotlarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi bilan alohida ahamiyatga ega [5].

**Muhokama va natijalar.** Qo‘l jangi sport faoliyatiga har qanday kasbiy-amaliy faoliyatning psixologik tuzilmasini tavsiflovchi barcha kategoriylar taalluqlidir: motivatsiya, maqsadlar, vositalar, natija. Shu bilan birga, bu faoliyatning bir qator o‘ziga xos farqlari ham mavjud. Sportchi qo‘l jangi texnikasini o‘rganish va uni takomillashtirish jarayonida o‘zining kuchi orqali vaqt va makonda tanasini boshqarishning o‘ziga xos harakatlar majmuasini ongli ravishda egallaydi. Ushbu faoliyat davomida u zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va hokazo) rivojlantiradi, shu bilan birga, psixik jarayonlar, holatlar va shaxsiy fazilatlarni takomillashtiradi.

Qo‘l jangi sportining o‘ziga xosligi faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. Ushbu sport turida sportchi yuqori darajada maqsadga yo‘naltirilgan, strategik fikrlash va tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shu boisdan, qo‘l jangining psixologik jihatlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ushbu faoliyatning xususiyatlaridan kelib chiqib, unga xos quyidagi o‘ziga xos jihatlarni ajratish mumkin:

1. Boshqa sportchilar bilan muloqot va o‘zini boshqarish zarurati: Qo‘l jangi sportining samarali bajarilishi uchun sportchi o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu, bir tomondan, o‘z raqibiga nisbatan munosabatni to‘g‘ri belgilashni talab qilsa, boshqa tomonidan, jismoniy va psixologik zo‘riqishlar orasida barqarorlikni saqlashni talab qiladi. Shu bilan birga, sportchi jismoniy kuchga ega bo‘lishi kerak, lekin bu kuchni boshqarish va to‘g‘ri joyda va vaqtida qo‘llay olish ham juda muhim.

2. Sport o‘zaro harakat sifatida qo‘l jangining mohiyati: Psixologik jihatdan qo‘l jangi raqib bilan kurashda g‘alabaga intilish sifatida tavsiflanadi. Bu kurashda nafaqat jismoniy kuch, balki ruhiy mustahkamlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va strategik fikrlashni talab qiladi. Raqibning xatti-harakatlarini taxmin qilish va unga qarshi to‘g‘ri choralar ko‘rish ko‘pincha jismoniy imkoniyatlardan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyat keltiradi.

3.Yuqori intensivlik va psixologik zo‘riqishlar: Qo‘l jangiga yuqori intensivlikdagi jismoniy va psixologik zo‘riqishlar xosdir. Sportchi bir vaqtning o‘zida nafaqat jismoniy kuch sarf qiladi, balki uning

ruhiy holati ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir zarba, har bir qaror jismoniy va psixologik kuchlarni talab qiladi. Shu sababli, sportchi yuqori darajadagi diqqat va mas’uliyatni namoyon etishi kerak, chunki har bir harakatda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni aniqlovchi faktorlar bor.

4. Tizimli va oqilona foydalanish: Jismoniy va psixologik zo‘riqishlardan tizimli va oqilona foydalanish natijasida ular odatiy holga aylanadi va organizm hamda psixikaning moslashishi tufayli sport faoliyatining belgilangan vazifalarini hal qilish imkonini beradi. Bu jarayon vaqt o‘tishi bilan sportchining tayyorgarligini yanada yuqori darajaga olib chiqadi. Sportchi bu jarayonda o‘zining psixologik va jismoniy salohiyatini birlashtirib, musobaqlarda yuqori natijalarga erishadi.

Qo‘l jangining psixogrammasini tahlil qilish jarayonida quyidagi talablar aniqlanadi:

Sportchi raqibning niyatlari va harakatlari, sport musobaqasining muhiti va boshqa omillar haqida katta hajmdagi ma'lumotni qabul qilishi kerak. U ushbu ma'lumotni tezkorlik bilan qayta ishlashi, taktik vaziyatni baholashi va ko‘plab texnik-taktik harakatlar ichidan aynan mazkur vaziyatga eng mos keladiganini tanlashi zarur. Bu jarayon sportchining tezkor fikrlash, shuningdek, strategik rejallashtirish va raqibning harakatlariga javob berish qobiliyatiga bog‘liqdir. Sportchi o‘zining barcha jismoniy va ruhiy resurslarini maksimal darajada safarbar qilgan holda raqibiga qarshi kurashadi.

Qo‘l jangida yuqori darajadagi psixologik va jismoniy tayyorgarlik, xotira, diqqat va tafakkur kabi psixik jarayonlarni rivojlantirishi zarur bo‘lgan o‘ziga xos psixologik jihatlar:

Idrok va diqqat: Sportchi raqibning harakatlarini va har bir zarbani tezkor idrok qilib, unga javob berish uchun diqqatini jamlashi zarur. Diqqatning yuqori darajada bo‘lishi va uzoq muddat davomida barqaror bo‘lishi musobaqada g‘alaba qozonish uchun muhim omil hisoblanadi.

Xotira va tafakkur: Sportchi jang davomida bir necha taktika va strategiyalarni eslab qolishi, o‘z strategiyasini o‘zgartirish va raqibining harakatlariga qarshi javob berish uchun tafakkurini ishlatalishi zarur.

Iroda va qat’iyat: Kurashda qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish katta irodaviy kuchlarni talab qiladi. Sportchi o‘z maqsadiga erishish uchun sabr-toqat, qat’iyat va yuqori irodaga ega bo‘lishi kerak.

Qo‘l jangini sport faoliyati turi sifatida tahlil qilish, uning psixologik va jismoniy tomonlarini birlashtirgan holda sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi omillarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Sportchi nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki ruhiy mustahkamlik va strategik tafakkurni rivojlantirishi zarur.

Qo‘l jangining o‘ziga xosligi sababli, idrok, xotira, tafakkur, tasavvur va xayol kabi psixik jarayonlarga hamda diqqatning muayyan xususiyatlariga yuqori talablar qo‘yiladi. Raqibning harakatlarini uzlusiz nazorat qilish zarurati diqqatning intensivligi va barqarorligiga alohida talablarni qo‘yadi.

Qo‘l jangining taktik xarakteri ko‘p jihatdan sportchilarining operativ tafakkurining xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu tafakkur bir vazifadan ikkinchisiga kelib chiqadigan masalalarni hal qilishga qaratilgan bo‘ladi.

Yaxshi rivojlangan xayolsiz qo‘l jangchisini tasavvur qilish qiyin. Bu faqat xayolning qiziqarli taktik yangiliklar yaratish va original mashg‘ulot metodlarini tanlashga yordam berishi bilangina bog‘liq emas. Hozirgi zamonaviy qo‘l jang darajasida, g‘alaba uchun barcha jismoniy va ruhiy kuchlarni safarbar qilish zarur bo‘lgan sharoitda, eng yuqori darajadagi improvizatsiyani rivojlangan xayolga ega jangchi namoyon qilishi mumkin.

Sportchi musobaqalar davomida qaror qabul qilish va uni amalga oshirish katta irodaviy kuchlarni talab qiladi hamda yuqori rivojlangan irodaviy fazilatlarni talab etadi. Taktik niyatlarni amalga oshirish uchun maqsad sari intilish, faoliyat va qat’iyat zarur: yolg‘on harakatlardan hujumga, hujumdan esa himoya va qarshi hujumga tezkor o‘tish qat’iyatlilik va tashabbuskorlikni talab qiladi; raqib uslubiga qarshi kurashish va o‘z uslubini o‘tkazish – faollikni, raqibni hujumga chaqirish va keyinchalik qarshi hujum qilish esa jasoratni talab etadi.

Qo‘l jangchi musobaqalar davomida o‘z yutuqlari va psixik fazilatlarini namoyon qilishida sportning stress omillariga qanchalik bardoshli ekanligi muhim ahamiyatga ega. Kurashning zo‘riqishi va kuchli hissiyotlar sportchining ijobiy xususiyatlarini qanchalik rag‘batlantirishi, shuningdek, psixologik holatlar sport faoliyatiga qanchalik ta’sir qilishi ham natijalarni belgilab beradi.

Sportchilarining jismoniy tayyorgarligi faoliyatni mukammallashtirish tizimi ta’sirida shakllanadi. Mashg‘ulotning qat’iy rejimi, ovqatlanish va uyqu, sportchining faol xarakterdagи mehnati, qulay maishiy sharoitlar, muntazam tibbiy xizmat, shaxsiy va jamoat gigiyenasi qoidalariga rioya qilish, qat’iy belgilangan bo‘sh vaqtning mavjudligi – bularning barchasi sportchining jismoniy mukammallahuvi uchun qulay sharoit yaratadi. Sportchining jangovar faoliyatga jismoniy tayyorgarligini ta’minlashning asosiy, eng tabiiy va samarali vositasi – bu jismoniy tayyorgarlikdir. Aynan turli xarakterdagи jismoniy mashqlarni maqsadli qo‘llash orqali inson organizmiga keng qamrovli va chuqur ta’sir ko‘rsatiladi.

**Funksional, morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlar:** Jismoniy tayyorgarlikning samaralari organizmdagi funksional, morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlarda o‘z ifodasini topadi. Funksional o‘zgarishlar yurak-qon tomir tizimi, nafas olish tizimi va boshqa organ va tizimlarning samaradorligini oshirishga olib keladi. Ushbu tizimlarning takomillashuvi sportchining yurak urish tezligini normal holatga keltirishi, nafas olish quvvatini oshirishi va energiya sarfini optimallashtirishi mumkin. Boshqa tomondan, morfologik o‘zgarishlar organizmdagi mushak tizimi va suyaklar mustahkamlanishiga yordam beradi. To‘qima va hujayra darajasidagi yangilanishlar esa organizmning qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshiradi, bu esa sportchining bardoshli va tezkorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Biokimyoviy o‘zgarishlar kimyoviy energiyaning tezda safarbar qilinishini va uni sportchining harakat faoliyatini ta’minlaydigan mexanik energiyaga aylantirish imkonini beradi.

**Jismoniy mashqlar va ularning ta’siri:** Har qanday mushak faoliyati organizmda moslashuv jarayonlarini keltirib chiqaradi. Jismoniy mashqlar nafaqat mushaklarni kuchaytiradi, balki organizmning umumiy bardoshliligini oshiradi. Sportchining mushak faoliyati davomida egallaydigan belgi va xususiyatlardan, o‘z navbatida, uning jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Yuqori darajadagi tayyorgarlik orqali sportchilar kasbiy faoliyatida yuqori ishslash qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, jismoniy tayyorgarlikning samarali tizimi nafaqat individual, balki jamoaviy sport faoliyatida ham muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Bu esa sportchi uchun yangi jismoniy imkoniyatlarni ochadi.

**Jismoniy tayyorgarlik vositalari va metodlarini tanlash:** Sportchilarning kasbiy faoliyatida muhim bo‘lgan belgi va xususiyatlarni shakllantirish uchun jismoniy tayyorgarlik vositalari va metodlarini to‘g‘ri tanlash juda muhimdir. Jismoniy tayyorgarlikni aniq va samarali tashkil qilish sportchining o‘z faoliyatiga moslashtilgan kompleks mashqlar orqali amalga oshiriladi. Asosiy jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar (masalan, kuch, tezlik, bardoshlilik) sportchining musobaqalardagi faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bilan birga, bunday tayyorgarlik tizimi individual yondashuvni ham taqozo etadi, chunki har bir sportchining biologik va psixologik xususiyatlari boshqacha bo‘lishi mumkin.

**Jismoniy tayyorgarlikning himoya ta’siri:** Jismoniy tayyorgarlikning samaralari faqat sportchining yuksalishi bilan cheklanmaydi, balki uning jismoniy yuklamalarga moslashish va stresslarga qarshi himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Agar sportchi jismoniy yuklamalarga to‘g‘ri va samarali moslashgan bo‘lsa, u har qanday noodatiy sharoitlarda yuqori mahsulorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘rganilgan metodlar yordamida sportchilar organizmlarida maxsus mexanizmlar faollashadi, bu esa stressga qarshi chidamlilikni oshiradi va jismoniy yuklamalarga qarshi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

**Mashg‘ulotning samaralari va ta’siri:** Mashg‘ulot jarayonida organizmda moslashuvchan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar sportchining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi va uning ishslash qobiliyatini kuchaytiradi. Mashg‘ulot davomida eng ko‘zga chiroyli ta’sir ko‘rsatuvchi samaralarga quyidagi effektlar kiradi:

1. **Tejamkorlik effekti:** Bu ta’sir organizmning energetik samaradorligini oshirishga yordam beradi. Yurak va nafas olish tizimining optimallashtirish sportchining to‘g‘ri o‘tkazilgan mashg‘ulotlar orqali uzun muddat davomida yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi.

2. **Antipoksik effekt:** Bu ta’sir organizmning kislorodga bo‘lgan ehtiyojini optimallashtiradi va sportchining to‘qimalarini kislorod bilan samarali ta’minlaydi.

3. **Antistress effekti:** Sportchilarning psixologik holatini mustahkamlash orqali stressni yengish va yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

4. **Genoregulyatorlik effekt:** Sportchilarning genetik imkoniyatlarini faollashtiradigan mexanizmlar orqali ularning mushaklarining rivojlanishini va jismoniy kuchini oshiradi.

5. **Pxicoenergetik effekt:** Bu ta’sir orqali sportchilar nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham ko‘proq chidamlili bo‘ladilar, bu esa musobaqalarda aqliy va jismoniy ish qobiliyatini maksimal darajaga chiqaradi.

Bularning barchasi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va kasbiy faoliyatida ustunliklarni ta’minlaydi, yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi. Jismoniy tayyorgarlikning kompleks yondashuvi, mushaklarning rivojlanishi, organizmning moslashuvchanligi va stressga qarshi chidamliligi sportchining eng yuqori darajada faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi.

**Xulosa.** Qo‘l jangi sportchilari uchun psixologik va jismoniy tayyorgarlikning o‘zaro ta’siri haqidagi tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu ikki jihatning uyg‘unlashuvi sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Jismoniy tayyorgarlik, mushaklarning kuchini va organizmning chidamlilikini oshirish bilan birga, sportchining stressga qarshi chidamlilagini va jismoniy yuklamalarga moslashish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Psixologik tayyorgarlik esa, sportchining qaror qabul qilish tezligini, diqqatni jamlash qobiliyatini va raqibning harakatlariga tezkor javob berish strategiyalarini takomillashtiradi.

Qo‘l jangi sporti yuqori intensivlikdagi jismoniy va psixologik zo‘riqishlarni talab qilgani sababli, sportchi nafaqat jismoniy kuchga, balki ruhiy mustahkamlikka ham ega bo‘lishi lozim. Ushbu sport turi raqib bilan kurashishda nafaqat jismoniy imkoniyatlarni, balki tezkor fikrlash va strategik tafakkurni ham o‘z ichiga oladi. Sportchilar o‘z maqsadlariga erishishda yuqori darajadagi irodaviy kuch, qat’iyat va diqqatni jamlash kabi psixologik fazilatlarni rivojlantirishlari zarur.

Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlikning samarali tizimi sportchining umumiy ishlash qobiliyatini oshiradi va uni musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun tayyorlaydi. Sportchilar uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlikning birgalikda amalga oshirilishi, ularning maksimal darajadagi performans ko‘rsatkichlariga erishishida bevosita ta’sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qo‘l jangi sportida muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish zarurati alohida ahamiyatga ega. Bu ikki jihatning o‘zaro ta’siri sportchilarning yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi va ularning professional faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi “Qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-287-son Qarori.
2. Борисов А. А. Салькова Д. В. Формирование психофизической готовности курсантов военных вузов к выполнению служебных и боевых задач средствами физической подготовки // Военный инженер. 2019. № 7. С. 18.
3. Волков В.Г., Володин Р.Н., Скуднов В.М., Поздняков К.В. Рукопашный бой: учеб. пособие/. – Пенза : Изд-во ПГУ, 2022. – 122 с.
4. Купцов А. П. Спортивная борьба: учебник. М. : Физкультура и спорт, 1978. 403 с.
5. Туманян Г. С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов : учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 592 с.
6. Alisherovich M.N. Theory and methodology of types of wrestling // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 15-3 (118). – С. 54-57.
7. Munirov N. A. Sportda qobiliyat va iqtidorni rivojlantirishda muhim faktorlar //Journal of Innovation in Educational and Social Research. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 20-25.
8. Муниров Н. А. Национальная борьба (Кураш)-одно из средств создания здоровой духовной среды среди молодёжи //Учёный XXI века. – 2019. – Т. 4. – С. 69-70.
9. Муниров Н. А. Роль физической культуры и спорта в развитии учащихся //Проблемы науки. – 2021. – №. 2 (61). – С. 47-49.
10. Муниров Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 110-111.

## JAMOAVIY VA INDIVIDUAL SPORT TURLARI BILAN SHUG’ULLANUVCHI TALABALARING JISMONIY TAYYORGARLIGI DINAMIKASINI TADQIQ ETISH

*Orunbayev Azamat,  
Buxoro davlat universiteti Sport nazariyasi  
va metodikasi kafedrasi mustaqil izlanuvchisi  
azamatorunbayev@gmail.com*

*Tadqiqotning maqsadi jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi shaxslarning kognitiv xulq-atvorli jismoniy faoliyat darajalarini taqqoslashdir. Tadqiqotga 2024 yilda Osiyo Xalqaro Universiteti sirtqi ta’lim talabalari orasida jamoaviy sport turlari bilan shug’ullanuvchi 162 (51,3%) va individual sport bilan shug’ullanuvchi 154 (48,7%) kishi, jami 152 erkak (48,1%) va 164 ayol (51,9%) ishtirok etgan, jami 316 sportchi qatnashgan. Statistikaning tahvilini SPSS 20.0 paket dasturi orqali amalga oshirildi. Ma’lumotlar tahlilida ishtirokchilarning demografik ma’lumotlarini aniqlash uchun chastota tahlili, jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi shaxslarning kognitiv jismoniy faoliyat talqinlari va kichik boyutlarni taqqoslash uchun mustaqil o’zgaruvchilar bilan T-test foydalanilgan. Natijada jamoaviy sporti bilan shug’ullanuvchi talabalarning individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi talabalarga nisbatan yuqori kognitiv jismoniy faoliyat talqiniga ega ekanligi aniqlangan.*

**Kalit so’zlar:** Kognitiv xulq-atvor, jismoniy faoliyat, sport, jismoniy tayyorgarlik, sport mashg’ulotlari, taqqoslash, talabalar, jamoaviy va individual sport turlari

### ИССЛЕДОВАНИЕ ДИНАМИКИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ КОМАНДНЫМИ И ИНДИВИДУАЛЬНЫМИ ВИДАМИ СПОРТА

Цель исследования – сравнение когнитивно-поведенческой физической активности лиц, занимающихся командными и индивидуальными видами спорта. В исследовании приняли участие 316 спортсменов, из которых 162 (51,3%) занимались командными видами спорта, а 154 (48,7%) – индивидуальными. Среди участников 152 мужчины (48,1%) и 164 женщины (51,9%). Исследование проводилось среди студентов заочного обучения Азиатского международного университета в 2024 году. Анализ данных осуществлялся с использованием пакета SPSS 20.0. Для определения демографических характеристик участников использовался анализ частоты, а для сравнения когнитивной физической активности и отдельных компонентов между студентами, занимающимися командными и индивидуальными видами спорта, применялся Т-тест для независимых переменных. В результате было выявлено, что студенты, занимающиеся командными видами спорта, имеют более высокий уровень когнитивной физической активности по сравнению с теми, кто занимается индивидуальными видами спорта.

**Ключевые слова:** когнитивное поведение, физическая активность, спорт, физическая подготовка, спортивные тренировки, сравнение, студенты, командные и индивидуальные виды спорта.

### DYNAMICS OF PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS ENGAGED IN TEAM AND INDIVIDUAL SPORTS

*The purpose of this study is to compare the cognitive behavioral physical activity levels of individuals engaged in team and individual sports. A total of 316 athletes participated in the study, including 162 (51.3%) involved in team sports and 154 (48.7%) in individual sports. Among the participants, there were 152 men (48.1%) and 164 women (51.9%). The research was conducted among part-time students of the Asian International University in 2024. Data analysis was performed using the SPSS 20.0 software package. Frequency analysis was used to determine the demographic characteristics of the participants, and an independent T-test was applied to compare cognitive physical activity and sub-dimensions between individuals engaged in team and individual sports. The results revealed that students participating in team sports exhibited higher cognitive physical activity levels compared to those engaged in individual sports.*

**Keywords:** cognitive behavior, physical activity, sports, physical fitness, sports training, comparison, students, team and individual sports.

**Kirish.** Jismoniy faoliyat insonning mavjudligi bilan boshlanadigan va hayotning davomiyligini ta'minlovchi tushuncha hisoblanadi. Insonning amalga oshirishi mumkin bo'lgan barcha harakatlari jismoniy faoliyat tushunchasi doirasiga kiradi. Ya'ni, skelet tizimining energiya sarfi orqali ishlab chiqarilgan harakatlarning barchasi jismoniy faoliyat mahsuloti sifatida qaralishi mumkin. Jismoniy va aqliy tuzilma o'rtasidagi o'zaro ta'sir tufayli, jismoniy faoliyat orqali inson nafaqat jismonan yaxshi holatda bo'lishi, balki ijobjiy aqliy holatga ega bo'lishi va hayotga optimistik nazar bilan qarash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.[6; 381-390 b.].

Sog'lom hayot kechirish uchun jismoniy faoliyat insonlar hayot tarzi bo'lishi kerak. Mashq qilish va jismoniy faoliyat, jismoniy va aqliy salomatlikni yaxshilashga, hayot sifatini oshirishga va shu bilan birga hayot davomiyligini uzaytirishga yordam beradi. Sog'liq va sog'liqni saqlash istagi insoniyatning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Yoshligida mashq qiladigan va jismoniy faoliyatlarga qatnashadigan insonlarning, kattalar sifatida yanada faollik bilan yashash ehtimoli yuqori ekanligi aniqlangan. [4; 14-18 b.].

Inson tanasi harakat uchun mo'ljallangan. Harakatsiz hayot insonning yaratilish maqsadiga qarshi keladi. Mashq qilish tana organlarining sog'lom o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Biroq, sanoat inqilobi bilan birga sodir bo'lgan texnologik rivojlanish jamiyatni kamroq harakat talab qiladigan davrga olib keldi. Bu davrda jismoniy faoliyat asta-sekin kamayib boradi. Jismoniy faoliyatni kamaytirgan bu texnologik rivojlanish odamlarning hayotlarini osonlashtirgan bo'lsa-da, ularning hayot tarzini o'zgartirgan va statik hayotni qabul qilishlariga sabab bo'lgan. [3; 10-14, 8; 83– 95 b.].

Doimiy sport mashg'ulotlariga qatnashmaslik jismoniy va ruhiy salomatlikka zarar keltiradi. Bugungi kunda eng muhim muammolardan biri bo'lgan yetarli jismoniy faollikning yo'qligi va asta-sekin hayot tarziga aylanib borayotgan harakatsizlik depressiya, semizlik va yurak kasalliklari kabi sog'liq muammollarini keltirib chiqarishga olib kelgan. 1915 yilda o'tkazilgan tadqiqotda jismoniy faollik bilan bog'liq degenerativ kasalliklarning ortib borayotganligi ta'kidlangan. [9; 217-221 b .].

Harakatsizlik, shuningdek, ruhiy salomatlikni yomonlashtirishi va aqliy kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchilar, bolalikdan tortib kattalikgacha bo'lgan davrda sog'lom hayot tarzlarini rivojlantirish va jismoniy faoliyat odatlarini belgilashga yordam beradigan ilmiy ishlarga katta qiziqish ko'rsatmoqdalar. [10; 125-132 b.].

Doimiy jismoniy faollikning tanaga va sog'liqka ta'siri, boshqalarga yordam berish, o'ziga yordam bera olish, intellektual rivojlanish, to'g'ri va noto'g'ri o'rtasidagi munosabatni o'rganish, jasorat, liderlik, umrbod harakatlar va odatlarni rivojlantirish kabi foydalari mavjud. Yaxshilangan hayot sifati, ijobjiy tana tasviri, o'ziga ishonch, stressni boshqarish va jismoniy sog'liq kabi ijobjiy ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Tadqiqotimizning maqsadi jamoaviy va individual sport turlari bilan shug'ullanadigan talabalarning kognitiv xulq-atvor asosidagi jismoniy faoliyat darajalarini solishtirishdir. [11; 58-65 b.].

**Tadqiqot metodlari.** Biz olib borgan tadqiqotlarimiz davomida pedagogik tajriba, pedagogik kuzatuv, mantiq va matematik statistika va boshqa tadqiqot usullari qo'llanilgan.

**Asosiy qism.** talabalar ustida olib borilgan tadqiqotlarni osonlashtirish uchun onlayn anket usuli tanlandi. Tadqiqotga 2024 yilda Osiyo Xalqaro Universiteti hududida jamoaviy sporti bilan shug'ullangan 162 nafar va individual sport turlari bilan shug'ullangan 154 nafar talabalari ishtirot etdi. Shundan, nafar 152 erkak va 164 ayol jami 316 talaba qatnashgan.

Statistik tahlil uchun SPSS 20.0 paket dasturi ishlatilgan. Ma'lumotlarni tahlil qilishda qatnashchilarning demografik ma'lumotlarini aniqlash uchun chastota tahlili, jamoaviy sport turlari va individual sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslarning jismoniy faollik algoritmlari va ularning pastki o'lchamlarini taqqoslash uchun mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha T testi qo'llanildi.

#### 1-jadval.

#### Xususiy oliy ta'lim muassasalarida sporti turlari bilan shug'ullanuvchilar haqida ma'lumot

Jins	n	%
Ayollar	164	51.9
Erkaklar	152	48.1
Sport turi	n	%
Jamoaviy sport turlari	162	51.3
Individual sport turlari	154	48.7

Tadqiqotga qatnashganlarning demografik ma'lumotlarining chastota va foizlar bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda ko'rsatilgan. Shunga ko'ra, qatnashchilarning jinsiga qarab taqsimoti 164 kishi (51,9%) ayollar va 152 kishi (48,1%) erkaklar; sport qilish darajasiga qaraganda esa 162 kishi (51,3%) jamoa sportlari, 154 kishi (48,7%) esa individual sportlar bilan shug'ullanayotganini ko'rishimiz mumkin.

**Xususiy oliy ta’lim muassasalarida Jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi talabalarning kognitiv xulq-atvorga doir natijalarining taqqoslanishi**

Bo‘limlar	Sport turi	n	x	std. sp.	t	p
<b>Sport faoliyatida biror natija kutish</b>	Jamoaviy sport turlari	162	4,53	0,63	2,014	<0,045*
	Individual sport turlari	154	4,29	1,32		
<b>Mashg’ulot davomida o‘zini tartibga solish</b>	Jamoaviy sport turlari	162	3,70	0,85	0,684	0,494
	Individual sport turlari	154	3,62	1,18		
<b>Shaxsiy to‘sinqinliklar</b>	Jamoaviy sport turlari	162	2,68	0,99	6,682	<0,000*
	Individual sport turlari	154	1,92	1,02		
<b>Jami</b>	Jamoaviy sport turlari	162	3,64	0,52	4,008	<0,000*
	Individual sport turlari	154	3,28	0,84		

**Izoh:** n: Har bir sport turida ishtirok etgan respondentlar soni (masalan, jamoaviy sport turlarida 162 nafar).

X: Ma’lumotlarning o’rtacha qiymati (masalan, “Sport faoliyatida biror natija kutish” bo‘yicha o’rtacha baho 4,53).

Std. Sp.: Standart og‘ish – ma’lumotlarning o’rtachadan qanchalik farqlanishini ko‘rsatadi.

t: T-test statistikasi natijasi – ikki guruh o’rtasidagi farqni aniqlash uchun ishlataliladi.

p: P-qiymat – statistik test natijasida aniqlangan farqning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi:

**p<0,05:** Farq statistik jihatdan ahamiyatli (yulduzcha bilan belgilangan “\*”). **p>0,05:** Farq statistik jihatdan ahamiyatli emas.

**Yulduzcha (\*) bilan belgilangan:** p < 0,05 statistik jihatdan ahamiyatli farqni bildiradi.

**Mashg’ulot davomida o‘zini tartibga solish** (p=0,494): Bu bo‘limda ahamiyatli farqlar aniqlanmagan (p>0,05). Bu, jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi ishtirokchilar o’rtasida o‘zini tartibga solish darajasida statistik jihatdan farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Ya’ni, ishtirokchilarning o‘zini boshqarish qobiliyati ikki guruhda ham deyarli teng darajada bo‘lgan.

**Sport faoliyatida biror natija kutish** (p=0,045): Bu bo‘limda statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud (p<0,05). Jamoaviy sport turlari bilan shug’ullanuvchi ishtirokchilar ( $X = 4,53 \pm 0,63$ ), individual sport turlari bilan shug’ullanuvchilarga ( $X = 4,29 \pm 1,32$ ) nisbatan yuqori “natija kutish” darajasiga ega ekanligi aniqlangan. Jamoaviy sportchilarda natija kutish ko‘proq ekanligi, ular o‘z jamoasining muvaffaqiyatiga yoki sportda yaxshi natijalar olishga ko‘proq e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi.

**Shaxsiy to‘sinqinliklar** (p=0,000): Bu bo‘limda ham ahamiyatli farqlar mavjud (p<0,05). Jamoaviy sport turlariga qatnashayotgan ishtirokchilar ( $X = 2,68 \pm 0,99$ ) shaxsiy to‘sinqinliklar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ( $X = 1,92 \pm 1,02$ ) individual sportchilar bilan solishtirganda ko‘proq his qilganlar. Jamoaviy sportchilar, ko‘proq ijtimoiy va jamoaviy muhitda o‘ynaganlari sababli, shaxsiy to‘sinqinliklar yoki xatarlar bilan yuzlashishlari ehtimoli yuqori bo‘lishi mumkin.

**Kognitiv jismoniy faoliyatning umumiyligi** (p=0,000): Jamoaviy sport turlarini tanlagan ishtirokchilarning umumiyligi kognitiv jismoniy faoliyat darajasi ( $X = 3,64 \pm 0,52$ ) individual sport turlari bilan shug’ullanuvchilarga ( $X = 3,28 \pm 0,98$ ) nisbatan yuqori bo‘lgani aniqlangan. Bu natija, jamoaviy sport turlarida qatnashayotganlar o‘zlarining kognitiv jismoniy faoliyatini yaxshiroq rivojlantirayotganini, ya’ni ular o‘zini boshqarish, motivatsiya va strategiyalarni ishlab chiqishda yanada faol ekanligini ko‘rsatadi.

**Xulosa** qilib aytganda, tadqiqotda jamoaviy va individual sport turlari bilan shug’ullanuvchi talabalarning kognitiv xulq-atvor jismoniy faoliyat darajalari taqqoslandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, jamoaviy sport bilan shug’ullanuvchi talabalarning individual sport turlari bilan shug’ullanuvchilarga nisbatan yuqori kognitiv jismoniy faollik tushunchasiga ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, jamoaviy sport bilan shug’ullanuvchilar “Sport faoliyatida biror natija kutish” darajasi bo‘yicha individual sportchilar bilan solishtirilganda sezilarli darajada yuqori natjalarni ko‘rsatdilar. Bu ularning jamoada o‘z yutuqlarini va boshqa ishtirokchilar bilan birlgilikda muvaffaqiyatga erishishga intilishlarini aks ettiradi.

Bundan tashqari, jamoaviy sport bilan shug’ullanuvchilar “Shaxsiy to‘sinqinliklar”ni individual sportchilar bilan solishtirilganda yuqori darajada his qilganliklari aniqlandi. Bu jamoaviy muhitda mavjud bo‘lgan ijtimoiy dinamikalar va tashqi omillarning ta’siridan kelib chiqqan holda yuzaga kelishi mumkin.

Biroq, "Mashg'ulot davomida o'zini tartibga solish" bo'yicha jamoaviy va individual sportchilar orasida sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa har ikkala guruhnning o'zlarini tartibga solish bo'yicha teng darajada qobiliyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda sportdagi muvaffaqiyatni baholashda faqat jismoniy imkoniyatlar emas, balki yuqori darajadagi kognitiv xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Ushbu xususiyatlar har bir sport faoliyatining barcha jihatlarida aks etadi. [12; 32-35 b.]

Natijada, jamoaviy va individual sport turlari bilan shug'ullanuvchi shaxslarning kognitiv xulq-atvor jismoniy faoliyat darajalari taqqoslanib, jamoaviy sportchilar yuqori kognitiv xususiyatlar va jismoniy faollik tushunchasiga ega ekanligi aniqlangan. Kelajakda turli sport turlari va hududlarda takroriy tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi. Ushbu izlanishlar natijasida yangi bilimlar va sport sohasida yanada yaxshi misollar keltirilishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдуллаев М.Ж. Ёш енгил атлетикачиларнинг машғулот самарадорлигини оширишда харакатли ўйинларни қўллаш методикасини такомиллаштириш. п.ф.ф.д.(PhD) диссер... автореферати ,Т.: 2019, 72 бет.
2. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 7-10.
3. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 10-14.
4. Абдуллаев М.Ж. SWOT-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практическ. конф., 2018, С. 14-18.
5. Анисимова М.В. Занимаясь оздоровительной аэробикой, Физическая культура в школе. 2004, №6 29 с.
6. Booth, F. W., Laye, M. J., Lees, S. J., Rector, R. S., & Thyfault, J. P. (2008). Reduced physical activity and risk of chronic disease: the biology behind the consequences. European journal of applied physiology, 102(4), 381-390.
7. Caspersen, C. J., Powell, K. E., & Christenson, G. M. (1985). Physical activity, exercise, and physical fitness: definitions and distinctions for health-related research. Public health reports, 100(2), 126.
8. Connaughton D, Wadey R, Hanton S, Jones G. (2008). The Development and Maintenance of Mental Toughness: Perceptions of Elite performers. Journal of Sport Sciences, 26, 83– 95.
9. Crust L, Swann C. (2011). Comparing Two Measures of Mental Toughness. Personality and Individual Differences, 50, 217-221.
10. Gavarry, O., Bernard, T., Giacomoni, M., Seymat, M., Euzet, J. P., & Falgairette, G. (1997). Continuous heart rate monitoring over 1 week in teenagers aged 11–16 years. European journal of applied physiology and occupational physiology, 77(1), s.125-132.
11. Schembре, S. M., Durand, C. P., Blissmer, B. J., & Greene, G. W. (2015). Development and validation of the cognitive behavioral physical activity questionnaire. American Journal of Health Promotion, 30(1), 58-65.
12. MacAuley, D. A. (1994). History of physical activity, health and medicine. J R Soc Med, 87, s.32-35.

**O’QUV-MASHG’ULOT BOSQICHIDAGI BADIY GIMNASTIKACHILARNI JISMONIY RIVOJLANGANLIK KO’RSATKICHLARI TAHLILI**

*Rahmonova Mohinur Rasuljonovna,  
O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
Farg’ona filiali o’qituvchisi  
ORCID 0009-0000-3886-9746  
mohinurkozieva89@gmail.com*

*Ushbu maqolada o’quv-mashg’ulot bosqichidagi badiy gimnastikachilarni jismoniy rivojlanganlik ko’rsatkichlari tahlili hamda tayyorgarligini rivojlantirishda qo’llaniladigan vosita va uslubiyatlarni optimal turlarini ishlab chiqish bo’yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so’zlar:** qizlar badiy gimnastikaning o’ziga xos vositalari yordamida mashq qilish va funktional takomillashtirish, mamlakatimizda badiy gimnastika bo’yicha sog’lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi.

**АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ГИМНАСТОВ НА ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ**

*В данной статье даны рекомендации по анализу показателей физического развития художественных гимнастов на тренировочном этапе, а также выработка оптимальных видов средств и методик, применяемых при развитии их подготовленности.*

**Ключевые слова:** тренировки и функциональное совершенствование девочек с помощью специфических средств художественной гимнастики, оздоровительные, развивающие занятия по художественной гимнастике в нашей стране.

**ANALYSIS OF INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF RHYTHMIC GYMNASTS AT THE TRAINING AND TRAINING STAGE**

*This article provides recommendations for the analysis of indicators of physical development of rhythmic gymnasts at the training and training stage, as well as the development of optimal types of tools and methodologies used in the development of their training.*

**Keywords:** girls training and functional improvement with the help of specific means of rhythmic gymnastics, wellness, development in rhythmic gymnastics in our country.

**Dolzarbligi.** Jahonda gimnastika sohasidagi yetakchi fundamental nazariyachilarni gimnastika ko’pkurashida yosh badiy gimnastikachilarni jismoniy va texnik tayyorgarlik darajalarini takomillashtirish bo’yicha ko’p sonli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo’lib, ularning natijalari mazkur sohada raqobatni ortishi badiy gimnastikachilarning maxsus harakat tayyorgarligini rivojlantirishda qo’llaniladigan vosita va uslubiyatlarni optimal turlarini ishlab chiqish talab qilinishini ko’rsatadi. So’nggi yillarda harakatlari murakkab bo’lgan koordinasion sport turlari bilan shug’ullanish yoshini keskin o’zgarishi tufayli, badiy gimnastikachilarni tanlash va yo’naltirish o’quv mashg’ulot guruhidagi gimnastikachi qizlarning ko’pkurashning oltita turlari bo’yicha musobaqa dasturiga tayyorlash zaruriyat yuzaga chiqmoqda.

**Tadqiqot maqsadi.** O’quv-mashg’ulot bosqichidagi badiy gimnastikachilarni jismoniy rivojlanganlik ko’rsatkichlari tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:** Badiy gimnastikachilarni dastlabki jismoniy tayyorgarlik natijalarini aniqlash. 2. Olingan natijalar asosida tayyorgarlik darajasini oshiruvchi metodika ishlab chiqish. 3. tadqiqot so’nggida olingan natijalar tahlil qilish.


**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Badiy gimnastika guruhlarini ko’p yillik kuzatishlar bizni 4-5 yoshli bolalar bilan ishlashning haqiqiy imkoniyatlarga ishontirdi. Qizlar badiy gimnastikaning o’ziga xos vositalari yordamida mashq qilish va funktional takomillashtirishga tayyor. Biroq, tor ixtisoslikni joriy etishni boshlash uchun maqbul vaqtini aniqlash juda muhimdir. Dastlabki tayyorgarlik vaqtini qisqartirish ayniqsa noqulay oqibatlarga olib keladi, chunki faqat ko’p qirrali umumiy jismoniy tayyorgarlik asosida keyingi ishlarda barqaror va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish mumkin

**Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari, n=48**

Tr	Ko'rsatkich	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		$\bar{X} - \sigma$	V, %	$\bar{X} - \sigma$	V, %
1	Arqon bilan shpagat sakrash, marta	16,8±4.1	24,40	17,5±3.8	21,71
2	To'pni otib 2 marta aylanib ilib olish, marta	20,7±4.3	20,77	22,2±3.5	15,76
3	Charxpalakda tasma bilan spiral shaklini chizish, marta	14,3±3.2	22,37	15,7±2,6	16,56
4	Halqani otib umbaloqda ilib olish, marta	18,5±4.2	22,70	19,1±3.9	20,41
5	Cho'qmorni otib 2 marta aylanib bir qo'l	28,8±6.0	20,83	30,1±5.1	16,94

Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari quyidagicha taqqoslanadi. Arqon bilan shpagat sakrash mashqida tajriba guruhida o'rtacha 16,8 marta va nazorat guruhida 17,5 martani tashkil etdi. To'pni otib 2 marta aylanib ilib olish nazorat testida tajriba guruhida o'rtacha 20,7 marta va nazorat guruhida 22,2 marta amalga oshirdi. Charxpalakda tasma bilan spiral shaklini chizish mashqida tajriba guruhida 14,3 marta va nazorat guruhida 15,7 marta kuzatildi. Halqani otib umbaloqda ilib olish mashqida tajriba guruhি sportchilari o'rtacha 18,5 marta va nazorat guruhida o'rtacha 19,1 martani tashkil etdi. Cho'qmorni otib 2 marta aylanib bir qo'l yordamida polda ushslash nazorat sinovida tajriba guruhida 28,8 marta va nazorat guruhida o'rtacha 30,1 marta bajarganligi dastlabki tadqiqotlar davomida aniqlandi.


■ Tajriba guruhi ■ Nazorat guruhi



**1-rasm. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarining musobaqa mashqlari bo'yicha natijalari dinamikasi, n=48**

Xulosa o'rnida, tajriba va nazorat guruhlari orasidagi texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari yaqin qiymatlarga ega bo'lib, kichik farqlar mavjud. Bu dastlabki sharoitlarda har ikki guruhning tayyorgarligi teng darajada ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda badiiy gimnastika bo'yicha sog'lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi, ommaviy darajadagi muassasalarining keng tarmog'i mavjud. Bolalar uchun qo'shimcha ta'lim tizimi (3.3-rasm). Sinflar tizimi umumiy ta'lim bo'limlarida, shuningdek, o'smirlarda eng rivojlangan shahar yoshlar klublari. Zamonaviy sharoitda bu qalay ta'lim muassasalari bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, umumiy madaniyatni shakllantirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish imkonini beruvchi o'ziga xos rol o'ynaydi.



### 2-rasm. Ommaviy sport turlari uchun badiiy gymnastikani tashkil etish sxemasi

Ayni paytda faqat farg'ona viloyatida 30 dan ortiq bunday filiallar mayjud bo'lib, ulardan 20 tasi so'nggi 10-12 yil ichida ochilgan (2-rasm). Bu esa ommaviy badiiy gymnastikaning allaqachon yo'lga qo'yilgan yo'nalish sifatida shakllanganidan dalolat beradi, bu yo'nalishda 1500 dan ortiq gymnastikachi 90 ta guruhda shug'ullanadi va ularga 60 dan ortiq murabbiy mashg'ulotlar olib boradi.

Badiiy gymnastika bo'yicha murabbiylar g'oyasi va kasbiy faoliyat holatiga oydinlik kiritish maqsadida Keng qamrovli anketa ishlab chiqildi. O'r ganishga sport turlari bo'yicha badiiy gymnastika kafedralarining 34 nafar murabbiy va o'qituvchilari jalb etildi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha murabbiylar kamida 1 toifali sport malakasiga ega (14%), ko'pchilik sport ustalari (71%). Trenerlarning yoshi 18 yoshdan 60 yoshgacha, o'rtacha ish tajribasi 5-10 yil.

Murabbiylarning 29 nafari (85 foizi) oliy, 4 nafari to'liq bo'limgan oliy ma'lumotli (12 foiz) va bitta murabbiy o'rta (3 foiz) ma'lumotga ega. Ulardan 25 nafar murabbiy ixtisoslashtirilgan jismoniy tarbiya muassasalarini tamomlab, pedagogik malaka oshirdi. 9 nafar murabbiy sport ma'lumotiga ega emas, ular psixolog, huquqshunos, muhandis, davlat xizmatchisi va jurnalistdir.


Aksariyat murabbiylar 4 yosh va undan katta yoshdagagi qizlarni ishga olishadi va respondentlarning atigi 1,75 foizi keyinchalik qizlar o'rtasida ixtisoslashtirilgan tanlov o'tkazadilar. Mutaxassislarning 82,8 foizi uchun qizlarni qat'iy belgilangan yosh oralig'ida ishga olish muhim emas. Ular bolalarni har qanday maktab va maktabgacha yoshdagagi bolalarni, badiiy gymnastika mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlardan qat'i nazar, qabul qilishadi, asosiysi, bolaning o'qish istagi bor.

Talabalarni guruhlarga taqsimlash quyidagi printsip bo'yicha amalga oshirilganligi aniqlandi:- respondentlarning 85,7 foizi dastlabki 2 yil davomida o'qish yili bo'yicha guruhlarni saqlaydi;

- 42,9% - yoshi bo'yicha;

- 25,7% - mutaxassislar sport yutuqlari bo'yicha guruhlarni tuzadilar, guruhlarni sog'lomlashtirish va professsional sportga ajratadi;

- 11,4% - sport toifasiga ega sportchilarga taqsimlaydi.



### 3-rasm. Yagona sport tasnifiga asosan 1-razryad talablarini bajarish

Biz ommaviy sport badiiy gymnastikasi bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarni o'rganib chiqdik va quyidagi ma'lumotlarni oldik (4-rasmga qarang): O'quv yilida sport-ommaviy turdagи badiiy gymnastika

bo'yicha 20 dan ortiq musobaqalar o'tkazilib, ushbu turnirlarda qatnashuvchilar soni 150 nafar gimnastikachidan oshib, 500 nafarga yetadi. Bularga tasniflash musobaqalari kiradi - tasniflash dasturiga qat'iy muvofiq o'tkaziladi. Yagona sport malakasi, musobaqa qoidalari va 1 toifaga qadar topshiriq. Va tasniflanmaslik - soddalashtirilgan qoidalarga ko'ra: 2-4 sinflarda individual championatda to'liq bo'limgan musobaqa dasturi bilan, bu o'z navbatida gimnastikachilarining tayyorgarlik darajasini zaifdan kuchligacha bo'linadi.

O‘zbek xonandaligi uzun tarixga ega bo‘lib, uning rivojlanishi turli davrlarda amalga oshgan. Masalan, maqam musiqasi Xuroson, Mavarounnahr va boshqa o‘zbek mintaqalarida keng tarqalgan va u o‘zbek musiqasining markaziy turlaridan biri sifatida rivojlanib kelgan. Shu bilan birga, mug‘am musiqasi ham xonandalikda katta o‘ringa ega bo‘lib, uning nafaqat musiqa, balki she’riyatga bo‘lgan ta’siri juda kuchli. An'anaviy xonandalik ijrosi o‘ziga xos va murakkab texnikalarga ega. Xonandalar ovozini boshqarish va turli maqomlar, mug‘amlar orqali o‘z ijro uslubini namoyon qiladilar. Ushbu ijro usullarida xonandalar:

Improvisatsiya – Xonanda musiqaning asosiy qismini o‘z ijrosida yangilab, yangi ohanglar va xususiyatlar qo’shadi. Bu xonandalarning ijro texnikasini boyitadi va ularning mahoratini oshiradi.

Ovozning registrlarini boshqarish – Xonandalar ovozining past va yuqori registrlarini birlashtirib, mahoratlif ifoda yaratadilar. Bu usul musiqaning ruhiy va dramatik ta'sirini kuchaytiradi.

Musiqiy va she'riy elementlarni uyg'unlashtirish – Xonanda musiqa va she'rni birlashtirib, musiqaning mazmunini yanada chuqurlashtiradi. An'anaviy xonandalikda she'riyat va musiqaning uyg'unligi juda katta o'rin tutadi.

Bodiy til va mimika – Xonandalikda faqat ovoz emas, balki xonandaning yuz ifodalari, qo'l harakatlari va tananing holati ham muhim rol o'ynaydi.

Bu badiiy elementlar ijroning ta'sirini kuchaytiradi va tinglovchiga yanada chuqurroq hissiyotlar yetkazishga yordam beradi. An'anaviy xonandalik o'zining musiqiy va badiiy fazilatlari bilan faqat san'at sifatida emas, balki xalqning madaniy merosi sifatida ham ahamiyatli. Xonandalik xalqning hissiyotlarini, orzu-istiklarini, umidlarini va o'ziga xos dunyoqarashini ifodalaydi. U nafaqat musiqaning o'zini, balki she'riyat, madaniyat, tarix va ma'naviyatni ham o'z ichiga oladi. Xonandalik xalq musiqasini saqlash, rivojlantirish va avloddan-avlodga o'tkazish uchun juda muhim vosita hisoblanadi. An'anaviy xonandalikning o'ziga xosligi shundaki, u vaqt o'tgan sayin yangilanib, zamon talablariga moslashadi. Biroq, uning asliyati va xalqning ma'naviy qadriyatları doimo saqlanib qoladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Berdieva, D. Sh. (2017). "Musiqa ta'limi va an'anaviy xonandalik." O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlari. Ushbu manba an'anaviy xonandalik va musiqa ta'limining integratsiyasi haqida batafsil ma'lumot beradi. Muallif an'anaviy musiqaning o'rganilishi va uning yosh avlodga ta'sirini keng tahlil qiladi. Asarda an'anaviy xonandalikni o'rgatishning metodikasi va ularni zamonaviy pedagogik uslublar bilan uyg'unlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqola an'anaviy musiqaning ta'lim jarayoniga kiritilishining zaruriyati, shuningdek, shashmaqom va xalq qo'shiqlari kabi janrlarning o'qituvchilar tomonidan o'rgatishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Bu manba tadqiqotimizda an'anaviy xonandalikning musiqa ta'limi tizimidagi o'rni va ahamiyatini tushunishda asosiy ilmiy asos bo'lgan.

Qosimov, I. (2020). "O'zbekiston xalq musiqasi va uning tarixi." Toshkent: Fan. Ushbu asar O'zbekistonning xalq musiqasining rivojlanish tarixini, uning an'anaviy xonandalikdagi o'rmini tahlil qiladi. Muallif, xalq musiqasining ta'lim tizimidagi ahamiyatini va uning yosh avlodga taqdim etilishini chuqur yoritgan. Xususan, xalq musiqasining milliy qadriyatlarni saqlashdagi rolini ta'kidlaydi. Asar, an'anaviy musiqaning o'rgatilishi orqali jamiyatda madaniy-ma'naviy boyliklarning saqlanishi va rivojlanishiga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda an'anaviy musiqaning an'anaviy o'qitish metodlari bilan ta'lim tizimida o'rganilishining muhimligi ko'rsatilgan. Bu manba tadqiqotimizda milliy musiqaning saqlanishi va yosh avlodga tarqatilishiga oid bilimlarni kuchaytiradi.

Sodiqova, M. T. (2018). "Musiqa ta'limi metodikasi." Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. Ushbu metodik qo'llanma musiqa ta'limida yangi pedagogik metodlarni o'rgatishga qaratilgan. Muallif, an'anaviy musiqaning ta'lim tizimiga qo'shilishi va uni zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishning muhimligini tushuntiradi. Asarda an'anaviy xonandalikni o'rgatishda interaktiv texnologiyalarning qo'llanilishi, shuningdek, talabalar bilan musiqiy ijob qilishning samarali metodlari keltirilgan. Ushbu manba, zamonaviy o'qitish metodlari va an'anaviy musiqaning uyg'unlashuvi orqali musiqa ta'limini yaxshilashning mumkin bo'lgan yo'llarini ko'rsatadi. Tadqiqotimizda zamonaviy metodlar va an'anaviy xonandalikni birlashtirishning foydali tomonlari haqida tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abdullayev, R. M. (2019). "Xalq musiqasi va pedagogikaviy yondashuv." Toshkent: "O'zbekiston xalq musiqa akademiyasi". Ushbu asar xalq musiqasining pedagogik yondashuvlarini o'rganadi va an'anaviy xonandalikni o'rgatishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini tushuntiradi. Muallif, an'anaviy musiqaning pedagogik yondashuvlar orqali ta'lim tizimiga kiritilishi zarurligini ta'kidlaydi. Asarda shashmaqomning an'anaviy xonandalikdagi roli, ularni o'rgatishda an'anaviy metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqotda an'anaviy musiqaning ta'lim tizimida saqlanishi va yosh avlodga o'rgatilishi haqida yoritilgan fikrlar tadqiqotda keltirilgan o'quv metodlarini baholashda yordam beradi.

Samatova, T. B. (2015). "O'qitish metodlari va musiqa ta'limining innovatsion usullari." Toshkent: Science Publishing. Ushbu asar musiqa ta'limining innovatsion usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif an'anaviy musiqaning zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashuvi va yangi texnologiyalar yordamida an'anaviy musiqani o'rgatishning samaradorligini ta'kidlaydi. Kitobda interaktiv darslar, multimedia vositalari va musiqiy ilovalar orqali an'anaviy musiqaning o'rgatilishining samaradorligi ko'rsatilgan. Tadqiqotda, innovatsion o'qitish usullarining an'anaviy musiqani o'rgatishda qanday qo'llanilishini o'rganishda bu manba muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili, an'anaviy musiqaning ta'lim tizimida o'rganilishi va yosh avlodga o'rgatilishining zaruriyatini ochib beradi. Har bir asarda an'anaviy xonandalikning ta'lim tizimida o'rganilishining pedagogik, madaniy va ma'naviy ahamiyati yoritilgan. Bu manbalar, an'anaviy musiqaning pedagogik metodlar bilan uyg'unlashuvi va zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'limda samarali o'rganilishi masalalarini chuqur tushunishga yordam beradi.

**Ushbu tadqiqotning obyekti** — musiqa ta'limida an'anaviy xonandalikning o'rni va ahamiyati. Tadqiqot an'anaviy xonandalikning musiqa ta'limi jarayonidagi integratsiyasini, uning ta'lim sifatiga, yoshlarning musiqiy mahoratini rivojlantirishga ta'sirini va milliy musiqaning saqlanishi hamda yosh avlodga o'rgatishdagi ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqot obyekti sifatida, shuningdek, an'anaviy musiqaning ta'limda qo'llanilishi, ustoz-shogird an'anasi, innovatsion o'qitish metodlari va zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatish jarayonidagi yutuqlar ham ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan:

1. **Tahlil metodlari** – Musiqa ta'limida an'anaviy xonandalikning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, mavjud adabiyotlarni, ilmiy ishlanmalarni va tegishli hujjatlarni o'rganish orqali tadqiqotning nazariy asoslarini yaratish.

2. **Kuzatuv metodlari** – Musiqa ta'limi jarayonlarida an'anaviy xonandalikning qo'llanilishini bevosita kuzatish. Ta'lim muassasalarida shashmaqom va xalq qo'shiqlari kabi an'anaviy janrlarni o'rgatish usullarini tahlil qilish.

3. **Eksperiment metodlari** – An'anaviy xonandalikni o'rgatish jarayonida talabalar va o'qituvchilar bilan tajribalar o'tkazish, musiqa ta'limi sifatini oshirishda an'anaviy xonandalikni integratsiyalashning samaradorligini baholash.

4. **So'rov va intervyyu metodlari** – O'qituvchilar, talabalar va musiqa ta'limi bo'yicha mutaxassislar bilan so'rovlari va intervyyular o'tkazish, an'anaviy musiqaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida ularning fikrlarini toplash.

5. **Soliq va statistika metodlari** – O'quvchilar va o'qituvchilarning an'anaviy xonandalik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tahlil qilish, statistik ma'lumotlar orqali o'qitish metodlarining samaradorligini baholash.

6. **Komparativ metod** – An'anaviy xonandalikni o'rgatish metodlarini boshqa musiqiy janrlar yoki zamonaviy o'qitish metodlari bilan taqqoslash, ularning farqlarini va o'xshashliklarini aniqlash.

Bu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslarini yaratishda va an'anaviy xonandalikning musiqa ta'limi tizimidagi o'rmini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### Olingan natijalar va ularning tahlili.

Tadqiqot davomida olgan natijalar quyidagicha bo'ldi:

1. **An'anaviy xonandalikning musiqa ta'limidagi ahamiyati:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy xonandalik musiqa ta'limi tizimida yoshlarning musiqiy mahoratini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Shashmaqom, xalq qo'shiqlari va boshqa an'anaviy janrlar o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'u, musiqani tushunish va ijro etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. An'anaviy musiqaning o'rgatilishi nafaqat musiqiy bilimlarni oshiradi, balki yoshlarning milliy madaniyatga bo'lgan hurmatini va uning qiymatini anglashlarini ta'minlaydi.

2. **Innovatsion o'qitish metodlari va an'anaviy musiqaning integratsiyasi:** Tadqiqotda an'anaviy xonandalikni zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirishning samaradorligi tahlil qilindi. An'anaviy musiqaning o'rgatilishida zamonaviy texnologiyalar, multimedya vositalari va interaktiv o'qitish usullari qo'llanilishi o'quvchilarning qiziqishini oshirgan. Interaktiv darslar, video va audio materiallar yordamida an'anaviy musiqaning o'rgatilishi talabalar uchun qiziqarli va samarali bo'lgan.

3. **Ustoz-shogird an'anasi:** Tadqiqotda ustoz-shogird an'anasi an'anaviy xonandalikni o'rgatishda muhim omil sifatida ko'rinish, u yosh avlodni o'rgatishda an'anaviy metodlarning ahamiyatini oshiradi. O'qituvchilarning tajribasi va shogirdlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqoti musiqa ta'limida an'anaviy xonandalikni muvaffaqiyatli o'rgatishning asosiy elementlaridan biridir. Ustozlar o'z tajribalari bilan talabalarni ilhomlantirib, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

4. **Milliy musiqaning saqlanishi va yoshlar orasida tarqatilishi:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy xonandalikni o'rgatish orqali milliy musiqaning saqlanishi va yoshlar orasida tarqatilishi muhim ahamiyatga ega. An'anaviy xonandalikni o'rganish orqali o'quvchilar o'z xalqining musiqiy an'alarini chuqurroq anglab yetishadi va o'zligini tanib olishadi. Shuningdek, yoshlarning milliy musiqaga bo'lgan qiziqishi ortadi va bu musiqaning jahon miqyosida tanilishi uchun zamin yaratadi.

5. **An'anaviy musiqaning jahon miqyosida tanilishi:** Tadqiqot davomida shuningdek, an'anaviy musiqaning xalqaro maydonda kengroq tanilishiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonning xalqaro maydonda an'anaviy musiqasini targ'ib qilish va uning jahon miqyosida tanilishiga doir amalga oshirilgan

tadbirlar natijasida, an'anaviy xonandalikni o'rgatish va uni jahon musiqiy madaniyatida o'z o'rnini topish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Olingan natijalar va an'anaviy xonandalikni musiqa ta'limga kiritishning nafaqat musiqiy bilimlarni oshirishda, balki milliy madaniyatni saqlashda ham muhimligini ko'rsatadi. Zamonaqiy pedagogik metodlar va texnologiyalarning an'anaviy musiqani o'rgatishda qo'llanilishi o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi va ta'limga samaradorligini oshirdi. Ustoz-shogird an'anasiga o'qitish jarayonida an'anaviy musiqaning chuqurroq o'rgatilishiga imkon yaratdi. Bundan tashqari, an'anaviy musiqaning o'rgatilishi yosh avlodni milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini oshirib, ularning madaniy kimligini shakllantiradi. Tadqiqotning natijalari, an'anaviy xonandalikning musiqa ta'limgidagi o'rni va ahamiyatining yanada kengayishini talab qilayotganini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning natijalari va olingan tahlillar.** An'anaviy xonandalikning musiqa ta'limgidagi o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam berdi. An'anaviy musiqaning, xususan, shashmaqom, xalq qo'shiqlari va boshqa milliy janrlarning ta'limga kiritilishi, yoshlarning musiqiy mahoratini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat musiqiy bilimlarni oshirish, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Milliy musiqaning saqlanishi va yoshlardan orasida tarqatilishi Tadqiqotda shuni aniqlash mumkinki, an'anaviy xonandalikni o'rgatish orqali yosh avlodning milliy musiqaga bo'lgan qiziqishi va hurmati ortadi. Bu, o'z navbatida, milliy musiqaning saqlanishi va uning jahon miqyosida tanilishiga imkon yaratadi. An'anaviy musiqaning o'rganilishi, o'quvchilarga o'z xalqining madaniy boyliklarini chuqurroq tushunishga va ularga bo'lgan mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda musiqaning estetik va ma'naviy qadriyatlarni anglash rivojlanadi.

Innovatsion o'qitish metodlari va an'anaviy musiqaning uyg'unlashuvni. Yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarning qo'llanilishi an'anaviy musiqaning o'rganilish jarayonini samarali qiladi. Tadqiqotda an'anaviy xonandalikni zamonaqiy pedagogik usullar bilan uyg'unlashtirishning zarurligi ko'rsatildi. Interaktiv texnologiyalar, multimedya vositalari va audio-vizual materiallar yordamida musiqaning o'rgatilishi talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali bo'ldi. Bu metodlar an'anaviy musiqaning o'rganilish jarayonini yanada jondorlantiradi va o'quvchilarda musiqiy ko'nigmalarini shakllantiradi.

Ustoz-shogird an'anasiga va an'anaviy musiqaning ta'limga tizimida o'rni Ustoz-shogird an'anasiga, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi bevosita muloqot va tajriba almashish, an'anaviy musiqaning o'rgatilishida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda an'anaviy musiqaning o'rgatilishida ustozning roli katta ekanligi ko'rsatildi. Ustozlar o'z tajribalari va mahoratlari bilan talabalarni ilhomlantirib, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. An'anaviy xonandalikni o'rgatish jarayonida ustozlar o'z bilim va ko'nigmalarini an'anaviy metodlar yordamida yetkazishda o'zlariga xos usullarni qo'llaydi. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning musiqiy salohiyatini shakllantirishda samarali bo'ladi.

Ta'limga tizimida an'anaviy musiqaning integratsiyasi va uni rivojlantirish Tadqiqotda, an'anaviy xonandalikning ta'limga tizimida yanada chuqurroq integratsiyasini ta'minlash zarurligi ko'rsatilgan. Bu uchun, o'qituvchilarning metodik tayyorligini yaxshilash, yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash, shuningdek, an'anaviy musiqaning turli janrlarini o'rgatish uchun maxsus kurslar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Xalq musiqasining, shashmaqom va boshqa an'anaviy janrlarning o'rgatilishi yoshlardan orasida milliy musiqaga bo'lgan qiziqishni oshiradi va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot an'anaviy xonandalikning musiqa ta'limga tizimidagi ahamiyatini, uning yoshlarning musiqiy mahoratini rivojlantirishdagi rolini va milliy musiqaning saqlanishidagi o'rmini chuqur yoritdi. An'anaviy musiqaning ta'limga tizimida qo'llanilishi orqali nafaqat musiqiy bilimlar, balki o'quvchilarda milliy qadriyatlarni va madaniyatga bo'lgan hurmat kuchayadi. Zamonaqiy pedagogik usullar va texnologiyalar yordamida an'anaviy xonandalikning o'rganilishiga yanada samarali yondashish mumkin. Shu sababli, an'anaviy musiqaning ta'limga tizimiga integratsiyasi davom ettirilishi va uning rivojlanishi milliy madaniyatni saqlash va yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

### Adabiyotlar:

- Гулев С. Н. Музыка и её воздействие на психическую деятельность человека // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 89-92.
- Гулев С. Н. Современное преподавание музыки. Подходы и инновации //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 22-24.
- Гулев С. Н. Структура формирования отношений, особенности воздействия чувства, в области музыкального образования //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 651-655.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 2

---

4. Gulov S. N. Senior Lecturer of the Department Music Education of Bukhara State University // European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 198-202.
5. Gulov S. N. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). – 2022.
6. Узбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Узбекистон Республикаси Халк таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тутрисида” Фармони <https://lex.uz/docs/4312785>
7. Mannopov, S. (2004). Uzbek folk music culture.(Study guide) Tashkent. New Age Generation.

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA XALQ MUSIQASINING O'RNI

*Qo'shayev Ilhom Axtamovich,*

Buxoro davlat pedagogika instituti musiqa va tasviriy san'at kafedrasi o'qituvchisi  
kushaev.1968@gmail.com

*Maqolada xalq dostonlarining tarixi, turlari, shakl va mazmuni, qadimiy va zamonaviy doston maktablari, ularning repertuari, ijro an'analari va uslublari, atoqli ijodkorlari va ijrochilar, doston nomalarida she'r, ohang va cholg'u jo'rnavozligining uyg'unligi, ularni respublika va Xalqaro miqyosda targ'ib qilish (festival va tanlovlari) kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, doston san'ati beqiyos ma'naviy xazina sifatida yuksak pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligi, uning yorqin namunalarini yig'ib, tasniflab, ilmiy asosda o'rganib o'quvchi yoshlar ongiga singdirish o'z xalqiga, vataniga, milliy musiqiy an'analariga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kash etishi asoslangan.*

*Kalit so'zlar: maqom san'ati, doston san'ti, baxshi, shoir baxshi, xalfalar san'ti, jirov, doston noma (qo'shiq'lari, do'mbira, dutor, qo'biz, tor va boshqa jo'rnavoz cholg'u asboblari, ochiq ovozda doston kuylash (xorazm an'analar), yopiq (bo'g'iz) ovozda kuylash (Qashqadaryo va Surxodaryo (an'analar), doston festivali, doston maktablari, doston san'ati pedagogikasi, dostonchilikda ustoz-shogird ta'limi an'analar, doston san'ati targ'iboti.*

## РОЛЬ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

*В статье рассматриваются, такие вопросы, как история, виды, форма и содержание народных эпосов, древние и современные эпические школы, их репертуар, традиции и стили исполнения, выдающиеся создатели и исполнители, гармония стихов, мелодики и инструментального сопровождения в былинах, их продвижение на национальном и международном уровнях (фестивали и конкурсы). Стоит также отметить, что искусство эпоса, как несравненное духовное сокровище, имеет высокий педагогический потенциал. Собирая, систематизируя и научно изучая его яркие образцы, можно привить учащимся чувство принадлежности к своему народу, Родине, национальным музыкальным традициям. В основе лежит важность воспитания в духе безграничного уважения.*

**Ключевые слова:** искусство макома, искусство дастана, бахши, поэт бахши, искусство халфаса, жиরов, дастан нома ( песни), домбра, дутар, кобыз, тор и другие инструменты, музыкальные инструменты, открытое пение дастана (Хорезмские традиции), закрытые (Кашкадарьинская и Сурхандарьинская (традиции), праздники дастана, школы дастана, педагогика искусства дастана, традиции обучения наставников и учеников эпическому творчеству, пропаганда искусства эпоса.

## THE PLACE OF FOLK MUSIC IN MUSICAL CULTURE LESSONS

*The article considers the history, types, form and content of folk epics, ancient and modern epic schools, their repertoire, performance traditions and styles, outstanding creators and performers, the harmony of poetry, melody and instrumental accompaniment in epics, their promotion at the republican and international levels (festivals and competitions). It is also based on the fact that the art of epics, as an incomparable spiritual treasure, has high pedagogical potential, and collecting, classifying, studying and instilling its bright examples in the minds of young students on a scientific basis is of great importance in educating them in the spirit of unlimited respect for their people, homeland, and national musical traditions.*

**Keywords:** art of maqom, art of dastan, bakhshi, poet bakhshi, art of khalfalar, jirov, dastan noma (songs), dombira, dutar, qobiz, tor and other stringed instruments, open-voice dastan singing (Khorezm traditions), closed-voice (Kashkadarya and Surkhandaryya (traditions), dastan festival, dastan schools, pedagogy of dastan art, traditions of teacher-student education in dastan writing, promotion of dastan art.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng madaniyat va san'at sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilib, xalqimizning boy ma'naviy merosini tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur qonun va qarorlar zamirida xalq musiqasi nafaqat badiiy va estetik qadriyat sifatida, balki milliy o'zlikni anglatuvchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, musiqa madaniyati darslari

doirasida xalq musiqasining o‘rni o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, bu orqali yosh avlodda milliy iftixor va o‘zlikni anglash tuyg‘usi shakllanadi.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy sohalarda tub ijobjiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ma’naviy tiklanish, yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, milliy ma’naviy, madaniy merosimiz durdonalari bilan tanitirish jarayonlari yuksak darajadagi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirish asosida qurilmoqda. Milliy ma’naviy, madaniy jumladan musiqiy merosdan foydalanish, ularga yuklatilgan pedagogik, ma’naviy – axloqiy tarbiya vazifalari nuqtai nazaridan o‘rganish muhim ilmiy-pedagogik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mustabid tuzum davrida ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga o‘z milliy musiqiy merosmiz asosida ta’lim-tarbiya berishga to‘sinqinlik qilib, uning o‘rniga rus va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari musiqasidan keng foydalanish tavsiya etilgan edi. Musiqa fani darsliklari ham asosan markazdan yuborilgan andozalar asosida tuzilib, ayrim o‘zbek kompozitorlari qo‘shiqlarini kiritish bilan cheklangan edi.

Mustaqilligimizning 30 yilligini nishonlash arafasida turgan Respublikamizda ko‘pgina ijobjiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda musiqa ta’limi va tarbiyasida ham keskin islohotlar amalga oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlab, oliv musiqiy ta’limgacha barcha bosqichlardagi ta’lim dasturlari, DTS lari, darsliklar va o‘quv adabiyotlari milliy musiqamiz asosida tuzildi.

Barcha o‘quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to‘laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo‘shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatları, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o‘z aksini topdi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo‘lib etishlarida o‘ziga xos va takrorlanmas manbaa bo‘lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o‘zbek musiqa ta’lim-tarbiyasi ustoz va shogird an’analari misolida takomillaшиб borgan.

Davlat ta’lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilar (sozanda, xonandalar), katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslari o‘rgatishni me’yorlashtiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Maqola doirasida foydalanilgan adabiyotlar xalq musiqasining ahamiyatini, uning milliy ta’lim-tarbiya tizimidagi rolini chuqur yoritib bergen. Xususan, O‘zbekiston xalq musiqasining tarixiy rivoji, uning pedagogik vazifalari va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlari o‘rganildi: Rasulov A. "O‘zbekiston xalq musiqasi tarixi" – Ushbu asarda xalq musiqasining kelib chiqishi, janr xususiyatlari va ijtimoiy hayotdagi o‘rni batafsil tahlil qilingan. Rasulovning tadqiqoti asosida dars jarayonlarida xalq musiqasi elementlarini qo’llash orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish imkoniyati mavjudligi asoslanadi. Karimova S. "Milliy tarbiya va musiqa" – Muallif milliy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga e’tibor qaratib, uning yoshlar ma’naviy kamolotidagi o‘rmini ko‘rsatgan. Karimovaning fikrlari darslar jarayonida xalq musiqasining pedagogik vosita sifatidagi ahamiyatini tasdiqlash uchun ishlatildi. Saidov B. "O‘zbekiston musiqa madaniyati: kecha va bugun" – Ushbu manbada milliy musiqaning rivojlanish bosqichlari va uning zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga integratsiyasi tahlil qilingan. Mazkur ish musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasini qo’llash usullarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

Usmonova G. "Xalq musiqasining badiiy-estetik ahamiyati" – Asarda xalq musiqasining inson badiiy didini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Usmonovaning tadqiqoti dars jarayonlarida xalq musiqasini o‘quvchilar estetik tarbiyasini rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida qo’llashning dolzarbligini isbotlab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va qonunlari – Jumladan, PQ-3404-sonli qaror va 2018-yil 26-martdagi madaniy merosga oid qarorlar xalq musiqasini tiklash va targ‘ib qilish bo‘yicha muhim chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu hujjatlar darslarda xalq musiqasini qo’llashning normativ-huquqiy asoslarini ta’minkaydi.

Mazkur adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq musiqasining o‘quv jarayonidagi o‘rni nafaqat milliy qadriyatlarni mustahkamlashda, balki yosh avlodni ma’naviy va estetik jihatdan rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalardan olingan nazariy va amaliy bilimlar tadqiqotning asosiy maqsadini yoritishda muhim rol o‘ynaydi.

**Tadqiqot obyekti.** Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti sifatida musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o‘rni va uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ta’sirini o‘rganish belgilangan. Xususan, xalq musiqasining ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati, uning milliy o‘zlikni shakllantirishga qo‘sigan hissasi tadqiqot mavzusining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan:

Tahlil metodi – xalq musiqasining pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini o‘rganish maqsadida ilmiy manbalar, qonun hujjatlari va qarorlar tahlil qilindi.

Taqoslash metodi – xalq musiqasining turli ta’lim tizimlaridagi o’rni solishtirilib, ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov metodi – musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasini qo’llash natijalari amaliyotda sinovdan o’tkazildi.

Statistik metod – tadqiqot natijalarini umumlashtirishda va xulosalar chiqarishda statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot natijasida musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasini qo’llash quyidagi ijobiy samara bergani aniqlandi:

Yoshlarning milliy o’zlikni anglash darajasi oshdi. Tadqiqot davomida o’tkazilgan so’rovlar shuni ko’rsatdiki, xalq musiqasi bilan tanish bo’lgan o’quvchilar milliy qadriyatlarga ko’proq hurmat bilan qaraydi va ularni targ’ib qilishga intiladi. Tahlil shuni ko’rsatdiki, xalq musiqasi orqali tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligi 25% ga oshgan.

Musiqi bilim va ijrochilik ko’nikmalari shakllandi. Xalq musiqasini amaliyotda o’rgangan o’quvchilar musiqa asboblarini chalish va qo’shiq aytishda sezilarli darajada yuqori natijalarga erishdi. Sinov darslari davomida xalq musiqasi elementlarini qo’llagan guruhdagi o’quvchilar 80% holatda yuqori ijrochilik mahoratini namoyish etgan.

Jamoaviy ishslash ko’nikmalari rivojlandi. Xalq musiqasi elementlarini darslarda qo’llash o’quvchilar orasida jamoaviy hamkorlikni rivojlantirgan. Ayniqsa, ansambl ijrochiligi orqali o’quvchilar bir-birlariga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo’lishni o’rganishgan.

Estetik va badiiy did shakllandi. Xalq musiqasi orqali o’quvchilarda musiqiy asarlarni tahlil qilish va ularning estetik qiymatini anglash ko’nikmalari shakllangan.

Ushbu natijalar tahlili shuni ko’rsatdiki, xalq musiqasini musiqa madaniyati darslariga tatbiq etish nafaqat o’quvchilarning ma’naviy va badiiy rivojlanishiga, balki ularning shaxsiy va jamoaviy ko’nikmalarini shakllantirishga ham sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Musiqa ta’limidan davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o’qituvchilarning musiqiy va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta’limining mazmuni yosh avlodning milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga etkazishni nazarda tutadi. Bunda o’quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o’rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatları: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo’lib qo’shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o’quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san’atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san’atiga qiziquvchi o’quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart – sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyyotlarini qondirish musiqa ta’lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi. Ta’lim mazmunida hududiy vohalarning san’ati va madaniyati, u erdag'i mahalliy xalq an’analari o’z ifodasini topmog’i lozim.

“Musiqa san’ati va madaniyati” o’quv fanining mazmuniga bo’lgan talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang’ich musiqa savodi, musiqiy asarlар ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o’zbek cholg’u asboblarini bilishni, mashhur o’zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o’zlashtirishni nazarda tutadi. Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o’quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg’ulotlar vositasida bajariladi.

- 1.Musiqa tinglash
- 2.Jamoa bo’lib kuylash
- 3.Musiqa savodi.
- 4.Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi. Asarlarni kuylash, tinglash faoliyatları vositasida o’rganish bilan bir qatorda ritmik cholg’uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatları bilan har tomonlama o’rganish va o’zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O’zbek xalq musiqasi, o’zbek bastakorlari va kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo’lib kuylash faoliyati o’quvchilarning musiqiy qobiliyati xamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo’lib kuylash jarayonida o’quvchi o’z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlar ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo’rnavorzlik qilishga intiladi.

O’zbek xalq qo’shiqlari, o’zbek bastakorlari va kompozitorlari qo’shiqlari, jaxon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo’shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg‘uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo‘lmashin, berilgan mavzudagi asar o‘rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o‘rganishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur‘at), alteratsiya belgilari, dinamik belgililar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beradi.

Musiqa tinglash yakkanavozlik va jo‘rnavozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O‘zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash.

Milliy an'anaviy musiqiy merosimizning nisbatan murakkabroq qatlamini og‘zaki an'anadagi kasbiy (ustozona) musiqa janrlari tashkil etadi. Kasbiy musiqa janrlari ijro bezaklari, tuzilishi, nufuzi, hajmi rivojlanganligi, baland avjlari va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalq kuy va qo‘shiqlari (folklor)dan farq qiladi.

An'anaviy kasbiy musiqiy meros namunaliga xos nola va qochirimlar, doston ijrosidagi yopiq bo‘g‘iz ovozda kuylash kabi musiqiy bezaklar ijrosini meyoriga etkazib kuylash uchun zo‘r ustozona mahorat va kasbiy tajriba ham zarur.

Mahalliy musiqiy uslublarni tilshunoslikdagi mahalliy “Sheva”lar tushunchalari bilan qiyoslash mumkin. Barcha mavjud “Musiqi shevalar”ning o‘xshash sifatlari o‘z navbatida “umumiy musiqiy uslub” singari yig‘ma tushunchani yuzaga keltiradi. Milliy mahalliy musiqiy uslublar o‘zlariga xos betakror xususiyatlari bo‘yicha asosan to‘rtta mahalliy musiqiy uslubga ajratilgan bo‘lib, ular o‘zbek musiqashunosligi fanida nisbatan atroflicha o‘rganilgan. Ular muayyan xudud nomi bilan ya’ni, Toshkent-farg‘ona, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mahalliy uslublari deb yuritiladi.

Barcha mahalliy uslublarda ko‘pgina kuy va qo‘shiqlar, musiqiy folklor namunalari bir-biriga o‘xshaydi. Shuning bilan birga ularning o‘ziga xos takrorlanmaydigan musiqiy janrlari ham mavjud. Masalan, Toshkent-Farg‘ona uslubiga xos katta ashula va yovvoyi maqom namunalari boshqa xududlarda uchramaydi. Buxoro-Samarqand mahalliy musiqiy uslubiga xos sozandachilik san’ati, “Buxorcha” (ayol sozandalar ijrosi) va “Mavrigi (erkak ijrochilar san’ti), Xorazmda tor yoki dutor, bo‘lomon yoki qo‘schnay, g‘ijjak va doiradan tashkil topgan kichik cholg‘uchilar dastasi jo‘rligida doston ijro etish, xalfalarning garmon va doirada o‘zlariga jo‘r bo‘lib, asosan doston qo‘shiqlari va boshqa qo‘shiqlarni kuylab raqsga tushishlari, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqiy uslubiga xos do‘mbirada o‘ziga jo‘r bo‘lib sun’iy yopiq (bo‘g‘iz) ovoz bilan dostonlar ijro etish san’ati ma’lum mahalliy uslub doirasida shakllangan janrlardir.

**Xulosa.** Musiqiy madaniyat o‘zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o‘zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o‘zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham ketgani yo‘q. U xalq ijodining yuksak namunalari, kuy tuzilishi, folklor ijrochiligi, mazmunan rivojlangan cholg‘u va ashula asarları, murakkab ijrochilik turkum atalmish maqom musiqasi hamda dostonlar ijrochiliginı oz ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida ozlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo’shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o‘ringa ega.

XIX asr oxirlariga kelib o‘zbek musiqiy madaniyatida o‘zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o‘lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog‘liqidir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o‘rganmoq shartdir. Chunki ba‘zi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirini kuzatsak, ikkinchi tomonдан, o‘ziga xos rivojlanish davri bo‘lganligini ham e’tirof etish kerak. Chunki olkamizda milliy musiqa san’atimizni ilmiy ravishda o‘rganish, nota yozuvining kirib kelishi, folklor va etnografiya sohasidagi rivojlanishga sezilarli ta’sir etdi. Bu borada V. A. Uspenskiy, N. N. Mironov, Ye.Ye. Romanovskaya singari musiqashunos va etnograf olimlarning mehnatlarini aytib o‘tish zarur bo‘ladi. Ilyos Akbarov, Mutual Burxonov,

Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodikov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg’alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortepiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning har tomonlama serqirra rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. Natijada, o‘zbek xalq musiqalari, qo‘shiqlari, maqomlari joy olgan 20 jiddan ortiq kitoblar dunyo yuzini ko‘rdi.

An'anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, odamiylikka, mehr-oqibatga, chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda Yangi Ozbekiston farzandlarining musiqiy ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo‘lib qolaveradi.

Mazkur maqolada musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o’rnini va uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadi, xalq musiqasini ta’lim jarayoniga tatbiq etish orqali o’quvchilarning milliy qadriyatlarga bo’lgan hurmatini oshirish, ma’naviy kamolotga erishish va estetik didini shakllantirish imkoniyati mavjud. Xalq musiqasi o’quvchilararning shaxsiy va ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilib, ularni jamoaviy ishlashga, ijodkorlik va ijrochilik mahoratini oshirishga rag’batlantiradi. Tadqiqot davomida xalq musiqasini o’quv jarayonlariga kiritish orqali pedagogik jarayonlarning samaradorligini oshirish mumkinligi tasdiqlandi. Shuningdek, xalq musiqasini darslarda keng qo’llash orqali yosh avlodning milliy o’zlikni anglash va ajdodlar madaniy merosiga hurmat bilan qarash ko’nikmalarini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishiladi. Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ilgari surilgan fikr va takliflar musiqa madaniyati fanining mazmunini boyitish va ta’lim jarayonida milliy musiqiy merosni keng targ’ib qilishga qaratilgan samarali yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-soni “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o’tkazish to’g’risida”gi Qarori.
2. Akhtamovich K. I. the content of education aimed at methodological improvement of the study of traditional musical heritage // Academicia Globe:Inderscience Research2022–T.3№.01–C.13-15.
3. Кушаев И. А. Педагогико-методические условия изучения традиционного музыкального наследия в образовании //Science and Education. 2022. Т. 3. - № 1. - С. 893-898.
4. Кушаев.И.А. Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» // Academy научно-методический журнал ноябрь-2020, стр. 59-62.
5. Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» // Academy научно-методический журнал №3(66), 2021.
6. Kushayev IA.«Musical pedagogical fundamentals of doston art>> ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
7. Qo’shayev.I.A. “Baxshichilik festivallarining musiqiy ta’limdagi o’rnii” Муғаллим ҳәм үзликсиз билимләндирүү // Илимий-методикалық журнал 2023 5/3 сан Нөкис noyabr B.233-238.
8. Kushayev I.A. ”Роль эпоса в узбекском народном творчестве.” // Miasto przyszlosci kielce Volume 2, Issue 5, May 2024B 1311-1314.
9. Kushayev I.A. “Узбекские национальные музыкальные традиции.” // International conference on multidisciplinary science VOL-2. ISSUE-6 Iyun 2024 B.59-63.
- 10.Kushayev I.A. “O’zbek xalq musiqa ijodining keyingi yillardagi taraqqiyot yo’llari.” // “Yangi O’zbekistonda tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Volume 2, Issue 5, May 2024B.184-187.
- 11.Kushayev I.A. “O’rta osiyo xalqlarining musiqa ijodi.” // “XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar” 2-tom, 5-son respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Volume 2, Issue 5, May 2024B.498-503.
- 12.KushayevI.A.“Milliy sozlarda ijrochilik uslubi haqida” // International journal of scientific researchers Vol. 5 No. 1 (2024)B.584-590.
- 13.KushayevI.A.“O’rta asrlarda musiqa tarbiyasini o’rganishning pedagogic imkoniyatlari” // International journal of scientific researchers, Vol. 5 No. 1 (2024)B.578-583.

BOLALARINI SAXNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING  
AHAMIYATI

*Yakubova Gulnoz Madrimbayevna,  
Urganch davlat pedagogika instituti  
“Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi  
yagulnoz422@gmail.com*

*Maqolada saxnalashtirish orqali oliy ilmiy muassasalari talabalarining badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ko‘rib chiqiladi. Teatrda ko‘p narsani o‘rganish mumkin. Teatrda tarbiya vositalarining manbasini topadigan pedagogik amaliyotlar maxsus tizim - teatr pedagogikasida birlashtirilgan. Va bugun u ta’lim oldida turgan ko‘plab muammolarga javob beradi. Teatr pedagogikasi (badiiy pedagogikaning bir qismi sifatida) jonli muloqot uchun ochiq ijodiy muhit yaratishni taklif qiladi. Teatr pedagogikasi tamoyillari, mazmuni va mohiyati haqida bayon qilingan. Badiiy ta’lim tizimi insonparvarlik va madaniy asosda ta’lim hamda teatr pedagogikasi usullari bilan tanishishni o‘z ichiga oladi.*

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, badiiy ta’lim, badiiy madaniyat, ta’lim jarayoni, ta’lim usullari, innovatsion texnologiya, teatr pedagogika, ijodkorlik, qobiliyat, shaxs.

**ВАЖНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ ДЕЙСТВИЮ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*В статье рассматриваются педагогические условия развития художественно-творческих способностей студентов высших научных учреждений посредством постановки. В театре можно многому научиться. Педагогические практики, находящие в театре источник воспитательных средств, объединяются в особую систему – театральную педагогику. И сегодня оно отвечает на многие проблемы, стоящие перед образованием. Театральная педагогика (как часть художественной педагогики) предлагает создать открытую творческую среду для живого общения. Описаны принципы, содержание и сущность театральной педагогики. Система художественного образования включает обучение на гуманитарной и культурной основе, а также ознакомление с методами театральной педагогики.*

**Ключевые слова:** педагогика, художественное образование, художественная культура, образовательный процесс, методы обучения, инновационные технологии, театральная педагогика, творчество, способности, личность.

**BASIC PRINCIPLES, CONTENT AND ESSENCE OF THEATER PEDAGOGY**

*The article deals with the pedagogical conditions for the development of artistic and creative abilities of students of higher scientific institutions through staging. One can learn a lot of things in the theatre. Pedagogical practices that find in the theatre a source of educational means are united in a special system - theatre pedagogy. And today it answers many problems facing education. Theatre pedagogy (as part of artistic pedagogy) proposes to create an open creative environment for live communication. The principles, content and essence of theatre pedagogy are described. The system of art education includes training on a humanitarian and cultural basis, as well as familiarisation with the methods of theatre pedagogy.*

**Key words:** pedagogy, artistic education, artistic culture, educational process, educational methods, innovative technology, theater pedagogy, creativity, ability, personality.

**Kirish.** Teatr pedagogikasi (badiiy pedagogikaning bir qismi sifatida) jonli muloqot uchun ochiq ijodiy muhit yaratishni taklif qiladi. Ushbu badiiy va ijodiy muhitda suhbat har qanday mavzuda (fandan dingacha) bo‘lishi mumkin, ammo uning maqsadi har doim dunyoning yaxlit rasmini shakllantirish, talaba-yoshlarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Teatr pedagogikasi tamoyillari haqida tadqiqot davomida fransiya tajribasidan quyidagi 3 ta tamoyilni shakllantirdim. Bu teatr pedagogikasi tamoyillari quydagi lardan iborat:

1. **Voqealar tamoyili-shuni** anglatadiki, mashg‘ulotlar davomida harakat ishtirokchilari uchun dunyoni o‘zgartiradigan narsa sodir bo‘lishi kerak. Siz uchun voqealar sodir bo‘lishidan oldin siz biroz boshqacha edingiz, biroz boshqacha fikrdasiz, boshqacha harakat qildingiz. Voqealarni boshdan kechirish orqali inson rivojlanadi.

2. **Yashash tamoyili** hodisaning tashqi sharoitlarni qabul qilish natijasi bo‘lishi mumkin emasligini belgilaydi. Bu faqat shaxsiy tajriba, kashfiyat natijasi bo‘lishi mumkin. Teatr pedagogikasi bo‘yicha ta’lim shaxsiy ijodiy faoliyat hududiga aylanadi. O‘quv jarayonida ijodiy erkinlik asta-sekin taklif qilingan holatlar, bartaraf etilishi kerak bo‘lgan muammollar va qiyinchiliklar orqali cheklanishi mumkin, lekin taqiqlar orqali emas. Agar ushbu tamoyilga rioya qilinsa, shaxsan muhim kashfiyotlar natijasi bo‘ladi.

3. **Improvizatsiya tamoyili**-teatr pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatidir. Yaxshi aktyor fikrlashdan oldin harakat qilishi kerak. O‘z-o‘zidan - bu bolaga o‘z imkoniyatlarini ochib berishga imkon beradigan, lekin ko‘pincha an‘anaviy ta’lim tizimi tomonidan “bo‘g‘ib qo‘yilgan” fazilatlardir.

**Teatr pedagogikasi** - bu ta’lim tizimiga teatr san’ati orqali qarashdir. Va uning qadr-qimmati shundaki, u darsdan tashqariga chiqadi. Teatr pedagogikasi tamoyillarining maqsadi: darsda qilayotgan ishingiz talaba-yoshlarga tegishli bo‘lishi, ularga shaxsan tegishi kerak. Agar talabalar biron bir mavzuga o‘quv dasturining bir qismi sifatida emas, balki hayot haqidagi suhbat sifatida qarasa, u darsdan tashqarida kitob o‘qiydi, filmlar tomosha qiladi va teatrga boradi.

#### Teatr pedagogikasi ta’limga qanday yordam beradi?

Teatr olamidagi bu atamalar ta’limini qiziqarli va insonparvar qilishga yordam beradi. Boshqalar buni qanday qilishini o‘qish va tinglash orqali harakat qilishni o‘rganadigan aktyorni tasavvur qilish qiyin. Aktyor o‘zini-o‘zi ijro etish orqali o‘rganadi. Teatrning bu xususiyati, uni barcha o‘qituvchilar yaxshi ko‘rishlari kerak, ya’ni o‘qituvchi mahorat bilan dars olib borishi va xar bir talabani diqqatini jalb qilishi lozim.

Bundan tashqari, rejissyorlar uzoq vaqtadan beri payqashgan: talabalar aktyorlik asoslarini o‘rganganda, ular sahnadan tashqari hayotda foydali bo‘lgan ko‘p narsalarni o‘rganadilar. Ular psixologik to‘siqlarni yengib o‘tadilar, dunyoni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi, san’atning badiiy obrazlarini idrok etishni o‘rganadi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu sababli ta’limda murakkab pedagogik muammolarni hal qilish uchun aktyorlarni tayyorlash uchun ishlab chiqilgan vositalardan foydalanish kerak.

Teatrda tarbiya vositalarining manbasini topadigan pedagogik amaliyotlar maxsus tizim - teatr pedagogikasida birlashtirilgan. Va bugun u ta’lim oldida turgan ko‘plab muammolarga javob beradi.

Teatr pedagogikasi, albatta, o‘yinga asoslangan. Teatr pedagogikasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, biz tasvirlar bilan o‘ynashni nazarda tutamiz.

Keling, oddiy misol bilan tushuntiramiz. “**Teg**” o‘yini bor - bu o‘z-o‘zidan teatr pedagogikasi bilan hech qanday aloqasi yo‘q, lekin biz uni teatrlashtirilgan o‘yinga, masalan, “**sehrli tayoqchalar**” o‘yiniga aylantirishimiz mumkin. Qanaqasiga? Juda oddiy. Har birining qo‘lida xayoliy sehrli tayoqcha bor. U bilan odamga tegib, uni boshqasiga aylantirishi mumkin. Misol uchun talaba-yoshlar aytilgan qahramon qiyofasiga kirib ro‘l ijro etishadi. Ijro etilgan obraz qoniqtirsa ishtiokchi yutadi va o‘yin davom etadi, qoniqtirmasa o‘yindan chiqib ketadi.

Teatr pedagogikasi darsni bolalarning bepul o‘yin qonunlariga ko‘ra emas, balki san’at qonunlariga ko‘ra tashkil qiladi. Axir, o‘yin, psixologlarning fikriga ko‘ra, fazoviy-vaqtinchalik chegaralarga ega bo‘limgan samarasiz va yo‘naltirilmagan faoliyatdir. Teatr o‘yinlari - bu boshqa masala. Bu aniq makon-vaqt chegaralariga ega bo‘lgan yakuniy ijodiy mahsulotni yaratishga qaratilgan ongli ijodiy jarayondir. Har bir dars natijasida sinf – ijodiy jamoa badiiy obrazda mustahkamlangan juda aniq natijaga erishadi.

Biz yuqorida keltirgan misolda “Qadimgi Misr piramidalari” loyihalari ko‘rgazmasi yaratilmoqda. Bir xil muvaffaqiyat bilan dars o‘zgaruvchan galaktikalar raqsi, “hasharotlar hayotidan” avtobiografik hikoyalar to‘plami, po‘lat quyish zavodining shovqinli orkestrining chiqishi va boshqalar bilan yakunlanishi mumkin.

Yuqoridagi tamoyillar ushbu texnikani “teatr pedagogikasi” deb atashga imkon beradi: bu o‘yin harakati, rolli o‘yinlar, jamoaviy ijod jarayonida, san’at qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan holda yaxlit tasvirni yaratish. San’atning barcha turlari.

Har bir davr teatr pedagogikasiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Bolalar yozuvchilaridan biri har bir bolaning qalbining tubida kumush qo‘ng‘iroqlar yashiringan. Biz ularni topishimiz, ularga tegishimiz kerak, shunda ular mehribon va quvnoq qo‘ng‘iroq‘i jiringlaydi, shunda bolaning dunyosi quvnoq va yorqin bo‘ladi.

Har bir o‘qituvchi talaba-yoshlar hayotini mazmunli, qiziqarli va ijodiy qilishni xohlaydi. Biz hammamiz bolalarni estetik tarbiyalash va badiiy-ijodiy rivojlantirishning yangi usullarini topishga intilamiz, talaba-yoshlarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llarini qidiramiz.

**Adabiyotlar tahlili.** Teatr- bu san’atning sintetik ko‘rinishidir. Volter ham bejiz aytmagan: “Teatr shunday o‘rgatadiki, hech qanday qalin kitob o‘rgata olmaydi”.

Ta’lim va tarbiya jarayonida teatr pedagogikasi elementlaridan foydalanib, biz bolani adabiyot, musiqa, tasviriy san’at va boshqa san’at turlari olamiga singdiramiz. Talaba-yoshlar katta va kichik ijtimoiy

guruqlar bilan samarali munosabatlarni o‘rganadi, ijodkorlik kompetensiyalariga ega bo‘ladi. Biz ta’lim va tarbiyaning eng muhim muammolaridan biri – badiiy-ijodiy qobiliyat va kompetensiyalarni rivojlantirishni amalga oshiramiz.

Shuning uchun biz ishonch bilan aytishimiz mumkinki, teatr pedagogikasi talaba-yoshlarning har tomonlama rivojlangan shaxsini shakllantirishning ajoyib vositasidir.

**Teatr pedagogikasi nima? Teatr pedagogikasi** - o‘yin yoki sahna harakati orqali ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsiy rivojlanish usuli bo‘lib, unda individual rivojlanish tanlov erkinligidan mas’uliyat orqali o‘zini namoyon qilish quvonchiga qadar amalga oshiriladi.

Teatr san’atining asosiy tili - harakat, asosiy o‘ziga xos xususiyatlari - dialog va o‘yin. Bu xususiyatlar teatr san’atini talaba-yoshlarga juda yaqin qiladi, chunki muloqotdagi o‘yin talabalar uchun juda tabiiy, ular o‘zlarini xotirjam va qulay his qilishadi.

Teatr pedagogikasining elementlari darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham qo‘llanilishi mumkin: guruqlar, tanlovlar, tadbirlar, bayramlar va darslarda teatrlashtirilgan o‘yinlardan foydalangan holda, darsning turli bosqichlarida sahna ko‘rinishlari va boshqalar.

Bayramlar va darsdan tashqari mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rayotganda, kichik aktyorlar nutq faoliyatining turli turlarini o‘zlashtiradilar: tinglash, gapirish va boshqalar. Ular turli xil malakalarni egallaydilar. Bular quyidagilar:

**Ijtimoiy kompetentsiya** hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy normalar va qoidalarga muvofiq harakat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Buning uchun asarga tayyorgarlik jarayonida bolalarni ham ijobjiy, ham salbiy obrazlarni o‘ynashga, eng muhimi, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilishga o‘rgatadi. Guruh mashg‘ulotlariga qatnashish jarayonida ushbu kompetentsiyani amalga oshirish shaxslararo munosabatlar madaniyatini, bag‘rikeng xulq-atvorni va axloqiy fazilatlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

**Fuqarolik kompetensiyasi** jamiyat, ona vatan haqida bilim va g‘oyalarga ega bo‘lishga va gimnaziya ekologik ta’lim yo‘nalishini egallaganligini hisobga olgan holda, odamlar va tabiatning o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini qulay darajada ochib berishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Teatrdagi spektakl qahramonlari bilan hamkorlik qilib, bolalar xulq-atvor qoidalarini, do‘stlashish, muloqot qilish va do‘stlashish qobiliyatini o‘zlashtiradilar. Bolalar sog‘lom turmush tarzining tarkibiy qismi bo‘lgan axloqiy xulq-atvorni shakllantiradigan muhim qobiliyat va ko‘nikmalarini birlashtiradi.

Lekin, eng muhimi, bolalar bilan muloqot darslarga to‘g‘ri keladi. U erda muloqot, badiiy-ijodiy qobiliyatlarini va tili eng ko‘p shakllanadi. Va shuning uchun men ishonch bilan ayta olamanki, teatr pedagogikasi elementlari har bir darsda mavjud bo‘lishi mumkin.

Talaba-yoshlar badiiy tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda talaba-yoshlarni o‘rganish mavzusiga hissiy qiziqishlariga yo‘naltirish kerak. Men talaba-yoshlarga taklif qiladigan teatrlashtirilgan mashqlarning usullari, shakllari va mazmuni bir vaqtning o‘zida uchta maqsadni amalga oshiradi: ular bolalarni o‘zlariga xos bo‘lgan o‘yin elementiga botiradilar, dars doirasini tekislaydilar. O‘ylaymanki, har bir o‘qituvchi badiiy qahramonlar, ularni ta’limdagи xatti-harakatlar qoidalari bilan tanishtiradigan, sehrli so‘zlar haqida gapiradigan qo‘g‘irchoqlardan foydalananadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlar, dramatizatsiya topshiriq mazmunini vizual tushunishga yordam beradi, dialogik nutqni rivojlantiradi, g‘ayriiddiy teatrlashtirilgan jismoniy tarbiya daqiqalarini o‘tkazishga yordam beradi.

Teatr pedagogikasi metodlaridan foydalanganda talaba-yoshlarda quyidagi holatlar kuzatiladi:

\*Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

\* Diqqat, fikrlesh, xotira, mustaqillikni rivojlantiradi.

\* Talaba-yoshlar bilimini kengaytiradi.

\* Ularning tilini keskinlashtiradi.

\*G‘olib ijod muhitini uyg‘otadi.

\* Talaba-yoshlarda badiiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

\*Bolalar o‘zini namoyon qilish va o‘zini kashf qilish uchun noyob imkoniyatga ega bo‘ladilar.

**Xulosa va takliflar.** Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ta’limdagи teatrning turli shakllari xorijiy pedagogikada ancha keng tarqalgan va rivojlangan. So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida teatr pedagogikadan foydalanish uzlusiz har tomonlama rivojlanish g‘oyasi bilan bog‘liq. Ushbu kontseptsiya o‘quv jarayonining maqsadi nafaqat fan bilimlarini egallah, balki, birinchi navbatda, o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish, yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, psixologik farovonlik darajasini oshirish, badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish va o‘zlashtirish hisoblanadi. O‘quv jarayoniga kiritilgan turli xil teatr amaliyotlari belgilangan muammolarni kompleks hal qilish uchun sharoit yaratadi. Shunday qilib, xorijiy pedagogikada teatr uzoq vaqtidan beri ma’lum bir o‘quv fanlari bilan cheklanib qolmay, balki rivojlanish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning ko‘p vektorli vositasi sifatida

qo'llaniladi. Aynan shu narsa chet elda mavjud bo'lgan teatr amaliyotining turlari va shakllarining xilmashilligini belgilaydi, ularda bolalar va o'smirlar o'zlarini, o'rganilayotgan o'quv materialini, atrofdagi ijtimoiy voqelik va siyosiy muammolarni ijodiy qayta ko'rib chiqadilar.

Rus maktablari amaliyotida teatr kamroq talabga ega, chunki pedagogik muhitda uning funktsiyalari ta'lismi va madaniyat bilan tanishish bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, maktab teatri spektakllarining syujeti, rollarni taqsimlash va umumiy dizaynni tanlash huquqi o'qituvchiga yo'naltirilgan. Bu pozitsiya ta'limga teatrning pedagogik va rivojlanish salohiyatini sezilarli darajada kengaytiradi, uni reproduktiv ta'lismi texnologiyasiga oshiradi. Shunday qilib, bizning ta'lismi tizimimizda teatr amaliyotidan foydalanish yondashuvularini ko'rib chiqishni va ta'lismi jarayoniga integratsiya qilishni talab qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Lykova I. A. Didaktik o'yinlar va tadbirlar. Badiiy va kognitiv faoliyatning integratsiyasi. - M., 2009.55-b.
2. Lykova I. A. Bolalar badiiy ijodida eksperiment. - M., 2003. 63-b.
3. Quchqorova N.M. “Maktabgacha ta'lismi tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga o'yin orqali tarbiya berish” o'quv uslubiy qo'llanma.-Toshkent,2022 y.-74b.
4. Rodina, N. N. Bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda maktabgacha ta'limga o'rni / N. N. Rodina. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // Maktabgacha pedagogika savollari. - 2018 yil - No 7 (17). - S. 13-17. — URL: <https://moluch.ru/th/1/archive/109/3763/> (kirish sanasi: 21.12.2022).
5. Abduraximova D.A. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdaggi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d.(DSc).-T.:2020.-74 b.

**BO’LAJAK TEXNOLOYIYA FANI O’QITUVCHILARINING DIZAYNERLIK  
FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ODAM  
GAVDASINI NISBATLARGA AJRATISH METODLARI**

*Quliyeva Shahnoza Halimovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Texnologik ta’lim kafedrasи dotsenti  
Satvoldiyeva Malaxatxon A’zamjanovna,  
Buxoro shahar 21-umumta’lim maktabи  
texnologiya fani o’qituvchisi,  
sotvoldiyeva1980@gmail.com*

*Maqolada bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishda odam gavdasini nisbatlarga ajratish, kostyum proporsiyasida nisbatlarining mutanosibligini aniqlash metodlarini o’rgatish istiqbollari berilgan. Inson gavdasining tabiiy mutanosibligiga yaqin bo’lgan nisbatlar o’lchamlarni nisbatlar orqali aniqlash usullari, yoshga doir gavda tuzilishi nisbatlar, to’lalik bo’yicha ayollar qomati turlarini topish usullari, ayollar tana tuzilishini turlarga ajratish mutanosibliklari keltirilga. Kostyum proporsiyasi qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli. Nisbat — ikki nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobiy taassuroti ularni bir - biriga mosliklari keltirilgan.*

**Kalit so’zlar:** nisbat, mutanosiblik, antropologik, dolixomor, brachimorf, mezomorf, loyihalash.

**МЕТОДЫ ПРОПОРЦИОНИРОВАНИЯ ТЕЛА ЧЕЛОВЕКА ПРИ РАЗВИТИИ  
ДИЗАЙНЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ**

*В статье приводятся перспективы обучения будущих учителей технологии приёмам деления человеческого тела на пропорции и определения пропорциональности пропорций костюма в развитии конструкторских навыков. Пропорции, приближенные к естественным пропорциям человеческого тела, способы определения размеров через пропорции, возрастные соотношения строения тела, способы нахождения типов женского тела по полноте, пропорции деления женского строения тела на типы. Костюм является конструктивной формой одежды для разных возрастных групп профессиональных девушек. Отношение – это равенство двух отношений. Положительное впечатление от двух сравниваемых величин производит их совместимость друг с другом.*

**Ключевые слова:** соотношение, пропорция, антропологический, долигоморф, брахиморф,mezomorf, конструкция.

**METHODS OF PROPORTIONING THE HUMAN BODY IN THE DEVELOPMENT OF  
DESIGN ACTIVITIES OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

*The article presents the prospects for teaching future technology teachers the methods of dividing the human body into proportions and determining the proportionality of the proportions of a suit in the development of design skills. Proportions close to the natural proportions of the human body, methods for determining sizes through proportions, age relationships of body structure, methods for finding female body types by fullness, proportions for dividing the female body structure into types. A suit is a constructive form of clothing for different age groups of professional girls. A ratio is the equality of two ratios. A positive impression of two comparative values is produced by their compatibility with each other.*


**Key words:** ratio, proportion, anthropological, doligomorph, brachymorph, mesomorph, construction.

**Kirish.** Har qanday davrlarda ham kostyum san’at asari bo’lgan, chunki inson o’zining estetik didiga va tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan o’zgarib turuvchi murakkab san’at asar va o’ziga xos kompozitsiyaga egadir. Inson gavdasining tabiiy mutanosibligiga yaqin bo’lgan nisbatlar o’lchamlarni nisbatlar orqali aniqlash usullari, yoshga doir gavda tuzilishi nisbatlar, to’lalik bo’yicha ayollar qomati turlarini topish usullari, ayollar tana tuzilishini turlarga ajratish mutanosibliklari liboslar kompozitsiyasi ustida ishlash davomida kompozitsiya loyihalash odam gavdasining kostyum nisbatiga mutanosibligi vositalaridan foydalanib, asosiy g’oyani va ijod mazmunini ochib berishda foydalanadilar.

Nisbat - lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “proportio” proporsionallik, qismlarning tekisligi, qismlarning bir-biriga ma’lum nisbati. Bir nechta paralell chiziqlar mutanosibligining tengligidir.

“Nisbat- bu san’at asari qismlaring o‘lchamlari, shuningdek har bir qismning butun asar bilan tabiiy munosabati”.

Odam gavdasi nisbatini aniq topishda avvalo ko‘zining o‘tkirligi, ko‘z orqali o‘lchash (chamalash)




**1-rasm. Yoshga doir gavda tuzilishi**

qobiliyatiga bog‘liq. Ko‘z bilan o‘lchash qobiliyati naturadan (aslidan) sistemali ravishda rasm chizish mobaynida asta-sekin rivojlanadi. Odam gavdasini chizish murakkabroq hisoblanadi. Bunday masalani yechishga — gavdalar guruhi nisbatini topishga to‘g‘ri keladi. Bu holda gavda qismlari va kattaliklarini ko‘z bilan chandalab taqqoslash usuli ishlatiladi. O‘lchov birligi sifatida shu guruhdan biron yoshga doir gavda tuzilishi talanadi.

Proportsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo‘yiladigan funktional talablarga bog‘liq. Bunga asosan fiziologik va gigiyenik funksiyalar kiradi. Fiziologik va gigiyenik funksiya kiyimni tinchlik va harakat holatida qulayligini bildiradi hamda kiyim ostidagi mikroiqlim sharoitining qulayligini aniqlaydi Shuning uchun hamma vaqtida ham odam gavdasida fiziologik va gigiyenik funksiyalarsiz, gavda tuzilishini bir xilda tuzilgan deb bo‘lmaydi. Buning uchun alohida qandaydir yangicha nisbat yaratish mumkin emas. Antropolog olim V.V.Bunak (Víktor Valériánovich Bunák-Rus Anatomik, Antropolog olim) odamning gavda tuzilishini bir necha turlarga bo‘lib ko‘rsatadi. Lekin 3 ta tur asosiy hisoblanadi, ya’ni ko‘krakdor tur (unchalik semiz emas, muskullari ozgina qorin tortishgan, bukchaygan), muskullari rivojlangan tur (teridagi yog‘ qatlami o‘rtacha, muskullari o‘rtacha yoki juda rivojlangan, orqasi tekis) va qorindor tur (semiz, muskullari o‘rtacha yoki kam rivojlangan, qorni dum-dumaloq bo‘lib chiqib turadi, bukchaygan yoki oddiygina).

Nisbat tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga - uning bo‘yi, to‘laligi, qomatning rasoligi va yoshiga ham bog‘liqidir. Kiyimning shakli har xil bo‘linishlarga ega bo‘lishi mumkin, buni odam tanasi shakliga, material strukturasiga va tikuv buyumining texnologiyasiga, kiyimning vazifasiga va unga qo‘yiladigan talablarga bog‘liqligi bilan tushuntirish mumkin.

Gavdanning to‘lalik holatini aniqlamasdan odamga kiyim tavsiya etilmaydi.



**2-rasm. To‘lalik bo‘vicha nisbat**


2-rasm. Odam gavdasida to‘lalik darajasi 3 qismga bo‘linadi.

Kiyimni loyihalash uchun mutanosiblikning katta ahamiyati bor.

M u t a n o s i b l i k deganda, tananing turli qismlari o‘lchamining bo‘y (rost) ga nisbati tushuniladi, bu nisbat foizlar bilan ifodalanadi. V.V.Bunak katta yoshdagи erkaklar va ayollar o‘rtasida ko‘p uchraydigan tana mutanosibliklarini uchta asosiy turga bo‘ladi:


D o l i x o m o r f t u r – bu tipga mansub kishilarining oyoglari uzun, tanasi qisqa va ixcham bo‘ladi, b r a x i m o r f

tur – bu tipga mansub kishilarning oyoqlari nisbatan qisqa, tanasi uzun va serbar bo‘ladi, m ye z o m o r f tur – oraliq tur bo‘lib oyoqlar va tana bir xil hisoblanadi.



**3-rasm. Old va orqa tomondan gavda tuzilishini nisbatga ajratish**

mutanosib nisbatlar; qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli. Nisbat — ikki nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobjiy taassuroti ularni bir - biriga mosligini bildiradi. Solishtirma miqdorlarning bir-biriga qonuniy mosligini ta'minlaydigan nisbatlar bor. Ular oddiy va irratsional turlarga bo‘linadi. Oddiy nisbatlar—bu butun sonlarning nisbati. Irratsional nisbatlar— bu kasr sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar razmerlarini, kiyim qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatida asoslangan. Konstruktiv chiziqlarning gorizontal sathi odam figurasining nisbati bilan uzviy bog‘langan. Bolalar figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyok va bosh uzunliklarining nisbati yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir yosh guruhiga mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O’smirlar kostyumiga kelganda, uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash. O’smirning shakllangan figurasi kiyimda har xil (lekin uning yoshiga monand) konstruktiv chiziqlar va murakkablashgan bichimlar qo‘lashga ruxsat beradi.



**4-rasm. Qiz bolalarni yoshga doir mutanosiblik nisbatlari**

Oddiy nisbatlar—bu butun sonlarning nisbati. Irratsional nisbatlar— bu kasr sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar razmerlarini, kiyim qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatiga asoslangan.

Konstruktiv chiziqlarning gorizontal sathi odam figurasining nisbati bilan uzviy bog‘langan. Bolalar figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyoq va bosh uzunliklarining nisbati yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir yosh guruhiga mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O’smirlar kostyumiga kelganda, uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash. O’smirning

Harakat kengligi dinamikasi bo‘yicha nisbatga ajratishda umumiy uzunlik, ya’ni bo‘yi bel aylanasi hamda bo‘ksaning aylana nisbati juda katta ahamiyatga ega.

Odam gavdasining murakkab shakliga mos kiyim loyihalash uni tavsiflaydigan a’zolarining anatomik tuzilishi hamda tashqi shakliga xos xususiyatlari, aholining tanasiga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik qonuniyatlarini va razmerli standartlar tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarda asoslangan. Liboslar dizayneri har doimo go‘zallikka intilib yashaydi. Shunday ekan qad-qomatiga mos libosni yaratish uchun avvalo inson gavdasidagi nisbatlarini to‘g‘ri taqsimlay bilishi kerak. Tik turgan modelni yaratish uchun asosiy 9 chiziqdi nisbatdan foydalaniлади 3-rasm. Odam anatomiyasida tuzilishi jihatdan gavdani tasvirlash va unga mos kiyimni tanlash maqsadga muvofiqdir..

Qizlar gavdasining tuzilishidagi o‘zaro

mutanosib nisbatlar; qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli. Nisbat — ikki

nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobjiy taassuroti ularni bir - biriga mosligini bildiradi.

Solishtirma miqdorlarning bir-biriga qonuniy mosligini ta’minlaydigan nisbatlar bor. Ular oddiy va

irratsional turlarga bo‘linadi. Oddiy nisbatlar—bu butun sonlarning nisbati. Irratsional nisbatlar— bu kasr

sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar razmerlarini, kiyim

qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatida asoslangan.

Konstruktiv chiziqlarning gorizontal sathi odam figurasining nisbati bilan uzviy bog‘langan. Bolalar

figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyok va bosh uzunliklarining nisbati

yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir yosh guruhiga

mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O’smirlar kostyumiga kelganda,

uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash. O’smirning

shakllangan figurasi kiyimda har xil (lekin uning yoshiga monand) konstruktiv chiziqlar va

murakkablashgan bichimlar qo‘lashga ruxsat beradi.

Qizlar gavdasining tuzilishidagi o‘zaro

mutanosib nisbatlar; qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli. Nisbat — ikki

nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobjiy taassuroti ularni bir - biriga mosligini bildiradi.

Solishtirma miqdorlarning bir-biriga qonuniy mosligini ta’minlaydigan nisbatlar bor. Ular oddiy va

irratsional turlarga bo‘linadi. Oddiy nisbatlar—bu butun sonlarning nisbati. Irratsional nisbatlar— bu kasr

sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar razmerlarini, kiyim

qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatida asoslangan.

Konstruktiv chiziqlarning gorizontal sathi odam figurasining nisbati bilan uzviy bog‘langan. Bolalar

figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyok va bosh uzunliklarining nisbati

yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir yosh guruhiga

mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O’smirlar kostyumiga kelganda,

uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash. O’smirning

shakllangan figurasi kiyimda har xil (lekin uning yoshiga monand) konstruktiv chiziqlar va

murakkablashgan bichimlar qo‘lashga ruxsat beradi.

Qizlar gavdasining tuzilishidagi o‘zaro

mutanosib nisbatlar; qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli. Nisbat — ikki

nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobjiy taassuroti ularni bir - biriga mosligini bildiradi.

Solishtirma miqdorlarning bir-biriga qonuniy mosligini ta’minlaydigan nisbatlar bor. Ular oddiy va

irratsional turlarga bo‘linadi. Oddiy nisbatlar—bu butun sonlarning nisbati. Irratsional nisbatlar— bu kasr

sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar razmerlarini, kiyim

qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatida asoslangan.

Konstruktiv chiziqlarning gorizontal sathi odam figurasining nisbati bilan uzviy bog‘langan. Bolalar

figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyok va bosh uzunliklarining nisbati

yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir yosh guruhiga

mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O’smirlar kostyumiga kelganda,

uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash. O’smirning

shakllangan figurasi kiyimda har xil (lekin uning yoshiga monand) konstruktiv chiziqlar va murakkablashgan bichimlar qo’llashga ruxsat beradi.

Ayol va erkaklar gavdasida oddiy nisbatlardan tortib, irratsional nisbatlarga asoslanib o’lchamlarning aniqlanish usullari gorizontal va vertikal chiziqlar bilan aniqlanadi. Nisbatlar asosan kichik o’lchamlarni katta o’lchamga bo’lish orqali aniqlanadi. Gavdaning xar bir qismining o’ziga xos o’lchamlari mavjud. Erkaklar ayollarga nisbatan ko’krak va yelka kengli bilan ajralib turadi. Erkaklar muskul tuzilishi allalrga nisbatan katta va hajmdor bo’ladi. Shuning o’lchamlardagi taqoslanish xolati bir munkha farq qiladi.


Bugungi kunga qadar “ideal inson qomati”ni aniqlash uchun o’ngga yaqin turli hil usul va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ularning barchasi mavjud bo’lib, har bir odam o’ziga xos alohida gavda tuzilishiga egadir. Hatto egizaklar gavdasida ham bir-biriga o’xshamas sifatlar mavjud.

Ammo liboslar dizayneri uchun chizmalarini chizishga mos bo’lgan inson gavdasi nisbatlari hisoblashning eng ko ‘p tarqalgan usullarini ko’rib o’tamiz.

Inson gavdasini nisbatlarini aniqlashda sakkiz qismga bo’lingan:

1. Bosh
2. Yuqori ko’krak qafasi
3. Pastki ko’krak qafasi
4. Tos suyak
5. Yuqori oyoq
6. Pastki oyoq
7. Tizza
8. Tovan va panja


Ushbu bo’linish bilan liboslar dizaneri odam gavdasini nisbatlarga bo’lib, chizishi ancha osonlashadi.



**5- rasm. Odam tanasining proportsiyasi alohida o’lchamlarda ko’rinishi**

Chizmalar orqali bexato liboslar uchun o’lchamlarini olish mumkin.

Ko’chada erkak va ayolni uchratganda, kimdir ularning nisbati bir xil degan xulosaga kelishi dargumon. Ayollar ko’pincha erkaklarni gavdasiga qaraganda pastroq, bellari ingichkaror, boshi kengroq




**.6-rasm. Ayollar gavdasining egri chiziq ostida ko’rinishi**

tana egrи chizig‘i nozik bo‘ladi.

Ideal ayol figurasinging eng keng qismi 2 bosh, belning kengligi bosh bilan bir xil. Ayollarda nipel chizig‘i erkaklarnikiga qaraganda bir oz pastroqdir, bu turli jinsdagi odamlarda ko‘krak aylanasi farqlariga bog‘liq. Ayollarda kindik har doim beldan past bo‘ladi, lekin erkaklarda u pastroq yoki hatto bel chizig‘ida bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ayollarning oyoqlari biroz uzunroq, ayniqsa to‘piqdan pastki qismi ingichka uzun bo‘ladi 5-rasm.

To‘lalik darajasiga qarab bir xil tana turi uchun erkaklar va ayollar o‘rtasida farqlar juda katta bo‘ladi. 6-rasmida inson tanasini turli qismlarini o‘zaro xos tana turiga mos ravishda aylantiradi. Teri osti yog‘ miqdoriga qarab ayollar va erkaklar tanasining o‘zgarishi yaqqol ko‘rinadi.



**7-rasm. Erkak va ayollar tanasi nisbati.**

nisbatlar ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. Kostyumning majoziy ifodaliligi va odamning tashqi ko‘rinishi uning alohida qismlari va inson qiyofasi o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq.

Bunday holda, bosh kiyim yoki soch turmagining shakli va hajmini, tovonning shakli va balandligini, zargarlik buyumlarining soni va tabiatini, shuningdek, kostyumning rang sxemasini hisobga olish kerak. Ushbu komponentlarning barchasi nisbatlari tabiatga ta’sir qiladi. Nisbatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Tenglik nisbati - bu kostyum qismlari bir biriga teng bo‘lganda (bir xillik printsipi); bunday bo‘linish tinch va statik uyg‘unligiga aytildi;

2. Tengsizlik nisbati - bu kostyumning qismlari bir-biriga teng bo‘lmaganda (xilma-xillik printsipi); bunday bo‘linish harakat va dinamika tuyg‘usini anglatadi. Tengsizliklar kichik bo‘lish yoki kontrast tamoyiliga asoslangan bo‘lishi mumkin;

Oltin nisbat (tengsizlik nisbatlarining bir turi nisbati quyidagi nisbatlar bilan ifodalanadi: 3:5 (5:3), 5:8 (8:5), 8:13 (18:8) va boshqalar. Ushbu munosabatlarning har birida ikkita sonning yig‘indisi bir butunni hosil qiladi, bu katta son bilan bog‘liq, chunki katta raqam kichikroqdir.

Kiyimning uzunligi va bel chizig‘ining xolati modata’siriga juda moyil, ammo qanday nisbatlar moda bo‘lishidan qat’iy nazar, oltin nisbat qoidasiga muvofiq qurilgan nisbatlar eng uyg‘undir.

Inson figurasinging tuzilishi ham oltin nisbat tamoiliga asoslanadi, chunki bu nisbat figuraning tabiiy bo‘linishini bel chizig‘i bilan ikkita teng bo‘lmagan qismga 3:5 ifodalaydi.

Kostyumning ko‘rkam obrazini yaratishda kiyim shakli va nisbatlar asosiy rol o‘ynaydi. Muayyan davrlarda go‘zallik tushunchasiga nima kiritilganiga qarab, tegishli nisbatlarga ega bo‘lgan kostyumning o‘ziga xos shakkllari paydo bo‘lgan.

Turli yo‘llar bilan tabiatdagi, san’atdagi monandlikni izlagan qadimgi rassomlar, arxitektorlar, dizayner, olimlarning tadqiqotlarida, chizmalarida, hisoblashlarida «oltin kesim» tushunchasini uchratamiz; bu tushuncha matematik yo‘lda 3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo sonlar nisbati tarzida ifoda etiladi. Bunda kichik qism katta qismga xuddi katta qism butun qismga nisbati kabi bo‘ladi. «Oltin kesim» nisbatlari eng yaxshi arxitektura asarlarida takrorlanadi, jonli tabiatda ko‘p marta uchraydi — ya’ni qonuniy, doimiy hisoblanadi. Odam figurasi orasida ham mana shu nisbatlar (alohida qismlar nisbati) takrorlangani eng proporsional hisoblanadi. Kostyumda ham xuddi shunday. Kostyumda tabiiy nisbatlar ham, ataylab buzilgan nisbatlar ham ishlatish mumkin. Ataylab buzilgan nisbatlar orqali yangicha fason va modda

Oltin nisbatlar qadimgi misrliklar tomonidan aniqlab chiqilgan nisbatadir. Oltin kesim yoki ilohiy nisbat dizaynnig eng sirli qoidasi bo‘lib, ko‘p bahs munozaralarga sabab bo‘lgan. Nisbatlar — bu kostyum qismlarining o‘lchamlariga binoan bir-biriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlaridir. Kiyimning bo‘yiga nisbatan uzunligi, ko‘krak qismi bilan yubkasining kengligi, yenglarining uzun va kaltaligi, yoqasining modelga mosligi, bosh kiyimining mavsumiligi kostyum kiyilganda qad-qomatni ko‘rib idrok etishga, uning o‘lchamlari monandligini fikran baholashga ta’sir ko‘rsatadi. Kostyumda

yaratilishi mumkin. Bu yerda turli variantlarni batafsil ko‘rib chiqishning iloji yo‘q, chunki buning uchun kompozitsiya qonunlarini jiddiy o‘rganish kerak. Tabiiy nisbatlarlar, odatda, har qanday figura uchun «foydali» ekanini yodda saqlash kerak; ayni vaqtida kiydirib ko‘rish vaqtida biron chiziqni sal nari-beri surib, «izlab ko‘rib» (masalan, bel chizig‘ini ozroq ko‘tarish yoki tushirish, yelkalarni toraytirish yoki kengaytirish, ko‘ylak, yeng uzunligini, yoqa, cho‘ntaklar, belbog‘ o‘lchamini sal o‘zgartirish mumkin) gavda tuzilishi kamchiliklarini «tuzatish» mumkin. Xuddi shu yerda, nisbatlar haqida gapirilayotganda,

Inson gavdasining tabiiy nisbatlarlariga yaqin bo‘lgan nisbatlar eng chiroqli, mukammal, «to‘g‘ri» ko‘rinadi. Ma‘lumki, boshning uzunligi kishi bo‘yining uzunligiga 8 qismida joylashadi, bel chizigi esa tanani taxminan 3:5 nisbatda ikkiga bo‘ladi.

Belning xolatini aniqlash juda oson. Buning uchun beldan yergacha bo‘lgan masofa o‘lchanadi. Bel inson tanasidagi eng ingichka xipcham joy hisoblanadi. Bel eng tor nuqta ham deb ataladi. Bel o‘lchash qoidalariaga qaralganda ayollarda kindikdan bir necha santimetr yuqorida joylashadi.

Misol uchun inson o‘z belini masofasini o‘zi o‘lchamoqchi bo‘lsa devorga suyangan holda, bel chizig‘ini belgilab, yuzaga keladigan masofani santimentr bilan o‘lhashi kerak.

Bel chizig‘i mutanosib hisoblanadi, agar u inson gavdasini oltin nisbatga mutanosib ravishda ajratsa, ya’ni yuqoridan 3/8 yoki poldan 5/8 nisbat deb olinadi. Masalan balandligi 170sm bo‘lganda bel, poldan 106sm masofada ekani hisoblaymiz, ya’ni 170smni 8 bo‘lib 5 ko‘paytiriladi. Shunda  $170/8*5 = 106,25$  natijani yaxlitlab 106 sm deb olamiz. Shunday ekan balandlik poldan bel chizig‘ini hisoblash shu tarzda bo‘ladi.


Olingen o‘lcham natijasida 2 sm dan ortiq bo‘lsa, ya’ni bel ideal raqamda bir oz pastroqda joylashgan bo‘lsa, unda bunday bellar past deb hisoblanadi. Olingen o‘lcham kattaroq bo‘lsa, ya’ni 2 sm ortiqroq bo‘lgan o‘lchamdagи bellar ideal o‘lchamdagи baland joylashgan bo‘lsa, bunday bellar yuqori bellar deb hisoblanadi. Bel xolati proporsional baland yoki pastligi aniqlanib topilganidan so‘ng, talangan model bo‘yicha kostyum va yubkaning uzunlik nisbatlarni belgilash mumkin. Lekin past bo‘lsa kostyuming uzunligini hisobga olish zarur. Buning uchun yelkadan tizzagacha masofa belgilanadi. Bu o‘lchov kiyimning talangan uzunligi hisoblanadi.

Kiyimning tepe qismi, ya’ni kostyumi yoki yubkasini uzunligini belgilash kerak. Nisbatlarga qarab gavdamizda 3/8 kay biri 5/8 nisbatligini aniqlashi kerak.


Nisbat o‘lchamlarida bel balandroq chiqsa tanlangan model bo‘yicha kostyum kaltaroq yubkasini uzunroq qilish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagicha belgilanadi.  $5/8$  yubka, kostyum  $3/8$ . Bu quyidagi formula asosida belgilanadi 5.2-rasm.  $X/8*5$  yubkaning ko‘rinadigan qismi uchun kostyum uzunligi  $X/8*3$  formulasi orqali aniqlanadi. Bu yerda -X- yelkadan tizzagacha bo‘lgan o‘lchamdagи masofa.

Kichik o‘lchamda chiqqan bellar uchun qomatini chiroqli ko‘rsatishga harakat qilish lozim. Bunday belli kichik ayollar uchun kostyum qismi  $3/8$  nisbatda yubkasi esa  $5/8$  nisbat bilan hisoblanadi. Kichik bellarni hisoblash uchun formula quyidagicha:- kostyum uzunligini aniqlash  $X/8*3$ , u yubka o‘lchami uchun uzunlikni aniqlash  $X/8*5$ .


Oltin nisbat nazariyasidan foydalanib, tanlangan kostyumlarni bel uzunligiga taqqoslab olish mumkin.



**8-rasm. Inson tanasining tabiiy nisbatlarsi**



**9-rasm. Nisbat o‘lchamlari bel balandligiga nisbat**



Gotika uslubidagi uzunligi yergacha bo‘lgan kiyimlar nisbatlari, yelka kengli, yubka uzunligi 1:6, 1:7 nisbatlarga asoslanib xarakterlanadi. Uyg‘onish davriga kelib, “Oltin kesim” nisbatlari kiyim kengligi yelka kengligi hamda yubka kengligi nisbatlari deyarli bitta teng yig‘indi bilan xarakterlidir.

Klassik uslubida -ya’niy tortilib turuvchi nisbat oldinda uzun yubka bilan 1:6 beldan 1:7 (shlef) gacha uzunlik bilan bog‘liq.

Amper uslubi nisbatlarni yanada mo‘tadil qiladi, chunki etaklar pastki qismidan kengayadi va etakning yig‘ilishi pastki qismda paydo bo‘ladi. Kostyuming mutanosib dizayni XX-asrda juda murakkablashdib yubkalar kaltaytirilib, oyoqlarning muhim qismi ko‘rinib qoldi. Moddaning shakllanishi va o‘zgarishi asosan oyoqlarning ochiq qismi o‘rtasida mutanosib munosabatlarni o‘zgartirishga asoslandi.

**Xulosa.** Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishda odam gavdasini nisbatlarga ajratish, kostyum proporsiyasida nisbatlarining mutanosibligini aniqlash metodlarini o‘rgatish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchi dizaynerlarlarda lohialashgacha bo‘lgan jarayonlar, o‘ziga xos metodlarda qo‘llash orqali mutanosibliklarni aniqlash kostyum proporsiyasiga nisbatan mutanosiblikni asoslashni o‘rgatishdan iborat. Zero, shunday ekan, yosh avlodni mukammal qobiliyatli, yetuk mutaxassis, bilimi mustahkam, dizaynerlik faoliyati rivojlangan, kelajakda poydevor bo‘la oladigan o‘qituvchi dizaynerlarni yetishtirish maqsadga muvofiqdir.

#### 10-rasm Nisbat o‘lchamlari

mutanosiblikni asoslashni o‘rgatishdan iborat. Zero, shunday ekan, yosh avlodni mukammal qobiliyatli, yetuk mutaxassis, bilimi mustahkam, dizaynerlik faoliyati rivojlangan, kelajakda poydevor bo‘la oladigan o‘qituvchi dizaynerlarni yetishtirish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sон “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston mustaqilligining 30-yilligiga bag’ishlangan nutqi.
3. K Shakhnoza, K Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. // International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
4. Muslimov N.A., Quliyeva Sh.H. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 54 b.
5. Quliyeva Sh., Uzoqov O., Xolmatova K. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda texnologik ta’limning dolzarbigini ta’minalash - pedagogik ta’sir // Jamiyat va innovatsiyalar 2 (6), 222-2.
6. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
7. Bekmuratova I.A. “Texnikaviy ijod va dizayn. Fan va texnologiya. T.: -2006 yil.

## INKLYUZIV TA'LIM

### FIZIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INKLYUZIV TA'LIMDAN FOYDALANISH

*Aminov Ajon Axtamovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Razzokova Moxinur Bahodir qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Fizika ta'lism yo'naliishi bu yondashuvni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalar uchun kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv o'qituvchi sifatida faoliyat yuritadigan talabalarini inklyuziv jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lism, kasbiy kompitentlik, ijtimoiy kompitentlik, diversifikatsiya, texnologik vositalar, virtual lalabaratoriya, innovatsion yondashuv, pedagogik mahorat.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «ОБУЧЕНИЕ ФИЗИКЕ»

*Применение данного подхода в направлении обучения физике повышает эффективность учебного процесса и играет важную роль в развитии профессиональной компетентности студентов. Этот подход способствует подготовке студентов, которые будут работать в качестве преподавателей, в соответствии с требованиями инклюзивного общества.*

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, профессиональная компетентность, социальная компетентность, диверсификация, технологические средства, виртуальная лаборатория, инновационный подход, педагогическое мастерство.

### UTILIZING INCLUSIVE EDUCATION TO ENHANCE THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF PHYSICS EDUCATION STUDENTS

*The application of this approach in the field of physics education enhances the effectiveness of the learning process and plays a significant role in developing students' professional competence. This approach helps prepare students, who will work as teachers, to meet the requirements of an inclusive society.*

**Keywords:** inclusive education, professional competence, social competence, diversification, technological tools, virtual laboratory, innovative approach, pedagogical skills.

**Kirish.** Inklyuziv ta'lism - barcha talabalarning, jumladan, alohida ehtiyojga ega (nogironligi bor yoki o'ziga xos qobiliyatlarga ega) shaxslarning bilim olish jarayoniga teng huquqli kirish imkoniyatini ta'minlaydigan ta'lism shaklidir. Fizika ta'lism yo'naliishi inklyuziv ta'limga joriy etilishi talabalar uchun kasbiy kompetentlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda talabalar o'rtaida teng imkoniyatlarni yaratadi, balki kelajakda inklyuziv jamiyatga mos mutaxassislarni shakllantirishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Fizika ta'lism yo'naliishi talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda inklyuziv ta'limga foydalishda uning quyidagi ahamiyatli qismlarini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

**Kasbiy kompetentlikni shakllantirish**

- Inklyuziv ta'lif sharoitida talabalar nafaqat fizika fani bo'yicha bilimlarni oshiradi, balki alohida ehtiyojga ega shaxslar bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.
- Bu yondashuv kelajakda ijtimoiy mas'uliyatlari o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Ko'nikmalarini boyitish**

- Inklyuziv ta'lif jarayonida talabalar o'quv jarayonini boshqarish, moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash va shaxsiy ehtiyojlarni inobatga olishni o'rganadilar.
- Talabalar texnologiyalardan foydalanish orqali bilim berish jarayonini diversifikatsiya qilishni o'rganadilar.

**Ijtimoiy kompetentlikni oshirish**

- Inklyuziv muhitda talabalar empatiya, o'zaro hurmat va muomala madaniyatini rivojlantiradi.
- Jamoaviy ishlash va har xil ehtiyojlarga ega shaxslar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

**1-rasm. Inklyuziv ta'limning ahamiyati**

*Kasbiy kompetentlikni shakllantirish* – bu nafaqat nazariy bilimlarni o'rganish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, muammolarni hal qilish va innovatsion echimlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu jarayonni to'g'ri tashkil etish orqali talabalar nafaqat o'z sohasida yuqori malakali mutaxassisiga aylanishadi, balki zamonaviy texnologiyalar va bozor talablari bilan hamnafas bo'ladilar.

Inklyuziv ta'lif, teng imkoniyatlar va inklyuziya tamoyillari asosida tashkil etiladigan ta'lif jarayonidir. Fizika ta'lif yo'nalişida bu yondashuvning joriy etilishi nafaqat akademik bilimlarni oshirishga xizmat qiladi, balki talabalarni alohida ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlashga psixologik va metodik jihatdan tayyorlaydi. Bu sharoitda talabalar alohida ehtiyojlarni inobatga olib, ta'lif jarayonini boshqarishni va turli shaxslar bilan muloqot qilishni o'rganadilar.

**Fizika fanida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning afzalliklari**

**Bilimlarni diversifikasiya qilish:**

Talabalar turli yondashuvlar orqali fizik hodisalarini tushuntirish va o'rgatishni o'rganadi.

Amaliy tajribalar va loyihibarlar alohida ehtiyojga ega o'quvchilar uchun moslashtiriladi.

**Texnologik vositalarni qo'llash:**

Inklyuziv ta'limda maxsus dasturiy ta'minotlar, virtual laboratoriylar va interaktiv resurslardan foydalanish kengayadi.

Talabalar zamonaviy vositalarni qo'llash orqali ta'lif jarayonini boyitishni o'rganadi.

**Ko'nikmalarini rivojlantirish:**

Inklyuziv muhitda o'qitish jarayonida talabalar liderlik, muloqot va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ular o'quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashgan holda ijodiy va samarali yondashuvlarni ishlab chiqadi.

**Psixologik tayyorgarlikni oshirish:**

Talabalar inklyuziv muhitda ishlashda zarur bo'lgan sabr, bag'rikenglik va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Alovida ehtiyojga ega shaxslarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan empatiya ko'rsatish qobiliyati kuchayadi.

**Inklyuziv ta'limni qo'llashning natijalari**

**Kasbiy kompetentlikni oshirish:**

Talabalar o'z sohasida yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishadi va alohida ehtiyojga ega o'quvchilar bilan ishlashga tayyor bo'ladi.

**Zamonaviy ta'lif usullarini o'zlashtirish:**

Inklyuziv ta'lif texnologiyalari va innovatsion yondashuvlarni ta'lif jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatini beradi.

**Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash:**

Talabalar jamiyatda inklyuzivlikni targ'ib qilish va alohida ehtiyojga ega shaxslarning ta'lif olish imkoniyatlarini oshirishda faol ishtirok etadilar.

**Ko'nikmalarini boyitish** shaxsning professional va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim jarayondir. Bu nafaqat kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi, balki yangi bilimlarni egallash va ularni

amaliyatga tatabiq etishda moslashuvchanlikni oshiradi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni va turli metodik yondashuvlar yordamida ko‘nikmalarni boyitish jarayoni samarali va natijador bo‘ladi.

Inklyuziv ta’limning talabalar rivojlanishiga ta’siri

**Pedagogik mahoratni oshirish:**

Turli ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishslash tajribasi talabalarni yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Ular darslarni boshqarish va turli o‘quvchilar uchun samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

**Innovatsion va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish:**

Har bir o‘quvchining ehtiyojlarini qondirish uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadilar.

Bu ularga yangi texnologiyalar va interaktiv usullarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi.

**Ijtimoiy javobgarlikni kuchaytirish:**

Talabalar alohida ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun qulay o‘quv muhitini yaratishga intiladilar.

Bu esa ularda empatiya, sabr-toqat va ijtimoiy mas’uliyat hissini oshiradi.

**Jamoaviy ishslash qobiliyatini rivojlantirish:**

Inklyuziv ta’lim talabalarni jamoada ishslashga va o‘zaro yordamni rag‘batlantirishga o‘rgatadi.

Talabalar turli fikr va nuqtai nazarlarni qabul qilishni o‘rganib, yanada samarali muloqot qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

**Ijtimoiy kompetentlikni oshirish** shaxsning muloqot qilish, jamoada ishslash va ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish shaxsiy va kasbiy hayotda muvaffaqiyatli bo‘lish, hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatdagi rolini samarali bajarishga yordam beradi. Ijtimoiy kompetentlikni oshirish uchun treninglar, amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv faoliyatlarni qo‘llash tavsya etiladi.

Empatiya, o‘zaro hurmat va muomala madaniyati inklyuziv ta’limning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lib, ular shaxsning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyati va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun muhimdir.

Inklyuziv muhit talabalarni empatiya, o‘zaro hurmat va muomala madaniyatini rivojlantirishga undaydi. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat o‘quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham ularga ijtimoiy muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi. Inklyuziv ta’lim sharoitida rivojlangan ijtimoiy qobiliyatlar talabalarning jamiyatda tenglik va bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan muhit yaratishiga zamin hozirlaydi.

Fizika darslarida inklyuziv ta’limdan foydalanish deganda, o‘quvchilar orasidagi individual farqlarni hisobga olib, har bir o‘quvchi uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish tushuniladi. Bu yondashuv nogironligi yoki maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni umumta’lim jarayonlariga faol jalb qilishni ta’minlaydi.

Quyida fizika darslarida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi:

1. O‘quv dasturini moslashtirish;

Fizika tushunchalarini o‘quvchilarning imkoniyatlariga moslashtirish orqali har bir o‘quvchi fizika fanini tushunib, undan amaliyotda foydalanishni o‘zlashtira oladi.

2. Texnologiyalardan foydalanish;

Fizika ta’limida inklyuziv yondashuvni ta’minalash uchun texnologiyalardan foydalanish juda samarali bo‘lib, o‘quvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi.

Texnologiyalardan foydalanish nafaqat inklyuziv ta’lim uchun zarur, balki fizika fanini zamонави, qiziqarli va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashgan tarzda o‘qitishda ajralmas vositadir.

3. Individual yondashuv;

Fizika ta’limida individual yondashuv har bir o‘quvchining qobiliyatları, ehtiyojları va imkoniyatlarını hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish, bilimlarini chuqurlashtirish va o‘ziga ishonchini oshirishga yordam beradi.

4. Guruhlarda ishslash;

5. Multisensor yondashuv;

6. Psixologik qo‘llab-quvvatlash;

7. O‘qituvchilarning tayyorgarligi.

Inklyuziv ta’lim yondashuvi fizika darslarini nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham boyitadi. Bu nafaqat o‘quvchilarning bilim olishlariga, balki jamiyatda bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Fizikani o‘qitishda inklyuziv ta’lim nafaqat o‘quvchilarni fan bilan tanishtiradi, balki ular orasida hamjihatlik, o‘zaro hurmat va birgalikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv orqali har bir o‘quvchi teng ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lib, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi va jamiyatga foydali bo‘lishi uchun sharoit yaratiladi.

Fizika fanining ko‘plab mavzulari inklyuziv ta’limni samarali qo‘llash uchun mos keladi. Quyida inklyuziv ta’lim yondashivi orqali o‘rgatish uchun eng maqbul mavzular va ularni tashkil qilish usullari keltirilgan:

Texnologiya.

**Mavzular:** Harakat turlari (to‘g‘ri chiziqli, egri chiziqli, aylana bo‘ylab harakat), Nyuton qonunlari, ish, energiya va quvvat.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Oddiy tajribalar:** Kundalik hayotdagi misollardan foydalanish (masalan, avtobus to‘xtaganda ichidagi odamlarning harakati).

**Vizual resurslar:** Harakat diagrammalari, animatsiyalar va PhET simulyatsiyalar orqali tushuntirish.

**Amaliy ishlar:** O‘quvchilar imkoniyatlariga mos tarzda harakatni kuzatish yoki oddiy eksperimentlarni tashkil etish.

Termodynamika.

**Mavzular:** Issiqlik uzatish turlari (konduksiya, konveksiya, nurlanish), gazlarning xususiyatlari, issiqlik va ish.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Sensorli o‘quv materiallari:** Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun harorat o‘zgarishlarini his qilishga imkon beruvchi materiallardan foydalanish.

**Simulyatsiyalar:** Issiqlik almashinuvni jarayonlarini virtual laboratoriyalarda ko‘rsatish.

**Oddiy tajribalar:** Issiqlik uzatishni ko‘rsatadigan qulay tajribalar (masalan, turli materiallar orqali issiqlik o‘tishini sinash).

Elektromagnetizm.

**Mavzular:** Elektr zanjiri, elektromagnit induksiya, tokning ta’siri.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Interaktiv dasturlar:** Elektr zanjiri simulyatsiyalari (masalan, Tinkercad orqali virtual zanjir qurish).

**Ko‘rgazmali tajribalar:** Nogiron o‘quvchilar uchun ovozli yoki yorug‘lik signalidan foydalanib, elektr zanjirlarini ko‘rsatish.

**Guruhi ishlari:** Har xil qobiliyatlarga ega o‘quvchilarni birlashtirib, jamoaviy zanjirlar qurishni tashkil qilish.

Optika.

**Mavzular:** Yorug‘likning sinishi va qaytishi, linzalar va ularning xususiyatlari, ranglar va spektr.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Maxsus vositalar:** Ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun ovozli tushuntirishlar va katta diagrammalardan foydalanish.

**Amaliy mashg‘ulotlar:** Yorug‘likning sinishi va qaytishini ko‘rsatish uchun oddiy materiallardan (masalan, suv va oynadan) foydalanish.

**Multimediali resurslar:** Ranglar va spektrni tushuntirish uchun animatsion videolar.

Akustika.

**Mavzular:** Tovush to‘lqinlari, tovushning fizik xususiyatlari, tovushni uzatish va qabul qilish.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Sensorli tajribalar:** Eshitish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun tovushning tebranishlarini his qilishga imkon beruvchi vositalar.

**Ovozli vositalar:** Ovozni har xil tezliklarda eshitish imkonini beradigan texnologiyalar.

**Praktik tajribalar:** Kundalik hayotda tovushning o‘zgarishini kuzatish (masalan, gitara torlarining tebranishi).

Astrofizika va kosmologiya.

**Mavzular:** Quyosh tizimi va uning tuzilishi, gravitatsiya qonunlari, qorong‘u materiya va yulduzlarning evolyutsiyasi.

*Inklyuziv ta’lim usullari:*

**Virtual ekskursiyalar:** Virtual reallik (VR) texnologiyalari orqali koinot bo‘ylab sayohat qilish.

**Animatsiyalar:** Gravitatsiya ta’sirini va Quyosh tizimi harakatini ko‘rsatadigan video materiallar.

**Moslashtirilgan jadvallar:** Maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun koinotga oid katta hajmdagi va oddiylashtirilgan jadvallar.

Atom va yadroviy fizika.

**Mavzular:** Atomning tuzilishi, radioaktivlik va yadroviy energiya, kvant mexanikasi asoslari.

**Inklyuziv ta’lim usullari:**

**Ko‘rgazmali vositalar:** Atomning tuzilishini ko‘rsatadigan 3D modellar.

**Qiziqarli misollar:** Radioaktivlik va yadroviy energiya haqida kundalik hayotdagi ilovalar.

**Interaktiv darslar:** Har bir o‘quvchining imkoniyatiga mos masalalar va topshiriqlarni taqdim etish.

**Xulosa.** Fizikaning deyarli barcha bo‘limlari inklyuziv ta’lim uchun mos bo‘lib, har bir mavzuni o‘quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarga moslashtirib o‘qitish orqali yanada samarali ta’lim jarayoni tashkil qilish mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ular orasida teng imkoniyatlarni ta’minlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-fevraldaggi PQ-74-sон “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”ги Qarori.
2. Karimova G. "Inklyuziv ta’lim tizimida STEM yondashuvni joriy qilish", // Pedagogika ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2022.
3. Rahimov N., Mirzayeva Z. "Fizika fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar", Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2023.
4. Islomov A. "Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarga moslashtirilgan fizika darslarini tashkil qilish", // O‘zbekiston Respublikasi Pedagogika instituti ilmiy nashri, 2021.
5. UNESCO. "Inclusive Education: The Way of the Future", UNESCO Education Series, 2009.
6. World Bank. "Inclusive Education in STEM: Policies and Practices", 2018.
7. PhET Interactive Simulations (Kolorado universiteti) – "Inclusive and Accessible Simulations for Physics Education" (<https://phet.colorado.edu>).
8. PhET Simulations. "Physics Simulations for Inclusive Education", Kolorado Universiteti tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim resurslari.
9. Khan Academy. "Physics Lessons for Diverse Learners", Khan Academy ta’lim platformasi (<https://www.khanacademy.org>).
10. A. Aminov Theoretical aspects in the formation of pedagogical ..., 2024
11. A. Aminov Академические исследования в современной науке, 2024
12. Tinkercad. "Accessible Circuit Design for Physics Education", Autodesk tomonidan taqdim etilgan interaktiv muhit.
13. Vygotskiy L. S. "Pedagogik psixologiya", Moskva, 1991. (Maxsus ehtiyojli bolalarning rivojlanish psixologiyasi va ta’limdagi o‘rni haqida).
14. Gardner H. "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences", 1983. (Har xil intellekt turlarini hisobga olib o‘qitishning ahamiyati).
15. Aljon Aminov, “Innovatsion Ta’lim Texnologiyalaridan Foydalanib Bo‘lajak Fizika O‘qituvchilarining Kasbiy Kompetentligini Rivojlantirish Metodikasi”, // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2024

## IJTIMOIY HAMKORLIK MUHITIDA INKLIZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK-TASHKILIY ASOSLARI

*Abdukadirov Isroiljon Abdupattoyevich,  
Oliy va professional ta’lim muassasalari moddiy texnik bazasini  
mustahkamlash markazi bo’lim boshlig‘i  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Mazkur maqolada inklyuziv ta’limni tashkil etishda ijtimoiy hamkorlikning metodologik va tashkiliy asoslari tahlil qilinadi. Ijtimoiy hamkorlik ta’lim muassasalari, oilalar, davlat va nodavlat tashkilotlari o’rtasida inklyuziyani qo’llab-quvvatlashga qaratilgan hamkorlik modelining asosiy mexanizmlari va usullari ko’rib chiqiladi. Shuningdek, inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun metodik yondashuvlar va tashkil etish shakllari ilmiy-ijodiy yondashuv orqali aniqlangan.*

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, ijtimoiy hamkorlik, metodologik asoslar, tashkiliy mexanizmlar, ta’lim siyosati, oilaviy hamkorlik, nodavlat tashkilotlar.

### МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

*В данной статье анализируются методологические и организационные основы социального сотрудничества в организации инклюзивного образования. Рассмотрены основные механизмы и методы модели сотрудничества, направленной на поддержку инклюзивности социального сотрудничества образовательных учреждений, семей, государственных и негосударственных организаций. Также на основе научно-творческого подхода были определены методические подходы и формы организации повышения эффективности инклюзивного образования.*

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, социальное сотрудничество, методические основы, организационные механизмы, образовательная политика, семейное сотрудничество, неправительственные организации.

### METHODOLOGICAL AND ORGANIZATIONAL PRINCIPLES OF ORGANIZING INCLUSIVE EDUCATION IN AN ENVIRONMENT OF SOCIAL COOPERATION

*This article analyzes the methodological and organizational foundations of social cooperation in the organization of inclusive education. The main mechanisms and methods of the social cooperation model aimed at supporting inclusion between educational institutions, families, state and non-governmental organizations are considered. Also, methodological approaches and organizational forms to increase the effectiveness of inclusive education are identified through a scientific and creative approach.*

**Keywords:** inclusive education, social cooperation, methodological foundations, organizational mechanisms, educational policy, family cooperation, non-governmental organizations.

**Kirish.** Hozirgi ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv har bir o‘quvchiga sifatli ta’lim olish imkonini yaratishga yo’naltirilgan. Bu, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar, ehtiyojmand oilalardan chiqqan o‘quvchilar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etishda ijtimoiy hamkorlik muhitini yaratish va metodologik-tashkiliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonining barcha subyektlari: ota-onalar, pedagoglar, davlat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va jamiyatning boshqa vakillari birgalikda ish olib borgan taqdirda, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli joriy etish mumkin. Ushbu maqolada aynan shu hamkorlikni ta’minlashning metodologik va tashkiliy asoslari keng tahlil etiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro va milliy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy hamkorlik inklyuziv ta’limni tashkil etishda asosiy omillardan biri sifatida ko‘riladi. Xalqaro tajribalar: UNESCO (2015) hisobotlarida ta’kidlanganidek, ijtimoiy hamkorlik orqali inklyuziv ta’limni joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur hisoblanadi. Metodologik asoslar: L. S. Vygotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasasi” nazariyasi ta’lim jarayonida ijtimoiy o‘zaro ta’sirning o‘rnini va ahamiyatini yoritadi. Unga ko‘ra, bolalarning rivojlanishi hamkorlik muhiti orqali jadallahashi. Milliy yondashuvlar: O‘zbekistonlik olimlar A. Jo‘rayev va M. To‘rayevlar ta’lim muassasalari va oilalar o’rtasida

ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tishgan.

**Metodologik asoslar.** Inklyuziv ta’limni tashkil etishning metodologik asoslari quyidagilar:

**1. Pedagogik-psixologik yondashuv** –har bir o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash jarayonidir. Bu yondashuv inklyuziv ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi, chunki har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va imkoniyatlari o‘rganiladi va shunga muvofiq pedagogik faoliyat rejalashtiriladi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

**1. Individual yondashuv:** Har bir o‘quvchining psixologik, intellektual va ijtimoiy ehtiyojlari alohida tahlil qilinadi va o‘quv rejasi shu asosda tuziladi.

**2. Shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash:**

- O‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab maqsadlar qo‘yish;
- Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mos sharoit yaratish;
- Psixologik yordam va maslahat berish orqali ruhiy barqarorlikni ta’minalash.

**3. Moslashuvchan ta’lim muhitini yaratish:** Ta’lim jarayonini o‘quvchilarning turli xususiyatlariga moslashtirish orqali ularning samarali ishtirokini ta’minalash. Bunda maxsus metodikalar va didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**4. Pedagogik va psixologik hamkorlik:**

- O‘qituvchilar va psixologlar hamkorligida o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish;
- Oilalar bilan muloqot qilish orqali bolalarning ehtiyojlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash.

#### 1-jadval.

#### Yondashuvning amaliy qo‘llanilishi

Bosqich	Faoliyat mazmuni
Diagnostika	O‘quvchining ehtiyojlarini va qobiliyatlarini aniqlash
Moslashtirish	O‘quv rejasi va dars metodlarini individuallashtirish
Kuzatuv va monitoring	O‘quvchining rivojlanishini nazorat qilish
Qo‘llab-quvvatlash	Psixologik va pedagogik yordam ko‘rsatish

Bu yondashuv natijasida har bir o‘quvchi o‘zini jamiyatning faol a’zosi sifatida his qiladi, ta’lim jarayoniga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishida muayyan yutuqlarga erishadi. Pedagogik-psixologik yondashuv inklyuziv ta’limning samarali amalga oshishida asosiy tayanch metodlardan biri sifatida tan olinadi.

2. Hamkorlik pedagogikasi – bu o‘qituvchi, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuvda har bir ishtirokchi ta’lim jarayonining faol a’zosi bo‘lib, o‘zaro muloqot va hamkorlik asosida o‘quvchilarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga hissa qo‘sadi. Bu pedagogik model ayniqsa inklyuziv ta’limda samarador bo‘lib, barcha bolalarning teng ishtiroti va muvaffaqiyatini ta’minalashni maqsad qiladi. Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari

**1. Ishonch va hurmat tamoyili:**

- Ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan tomonlar (o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar) o‘zaro hurmat va ishonch muhitida faoliyat yuritishi kerak.

- Har bir tomonning fikri tinglanadi va e’tiborga olinadi.

**2. Faol muloqot:**

- O‘qituvchilar ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lib, bolalarning ta’limdagi qiyinchiliklari va yutuqlarini muhokama qiladi.
- O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda, ta’lim strategiyalari moslashtiriladi.

**3. Ota-onalar ishtiroti:**

- Ota-onalar ta’lim jarayoniga jalb qilinadi, ularga bolalarning ehtiyojlarini tushunish va qo‘llab-quvvatlash borasida maslahat beriladi.

- Uy sharoitida bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar taqdim etiladi.

**4. Jamoaviy mas’uliyat:**

- O‘qituvchi, ota-onalar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro mas’uliyat tizimi shakllantiriladi. Har bir tomon bolalarning rivojlanishida o‘zining aniq vazifalarini bajaradi.

**5. Teng sheriklik**

- O‘quvchilar ham ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lib, o‘z fikrlarini bildirish va loyihalarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Hamkorlik pedagogikasining amaliy jihatlari**

Bosqich	Mazmuni
<b>Tashkiliy bosqich</b>	Ota-onalar, o'qituvchilar va o'quvchilarni birlashtirish, maqsadni aniqlash.
<b>Muloqot bosqichi</b>	Doimiy uchrashuvlar, muloqot, maslahat va tahlillar tashkil etish.
<b>Amaliy hamkorlik</b>	Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida o'quv loyihalari va tadbirlarni tashkil qilish.
<b>Monitoring va tahlil</b>	Ta'lif natijalarini kuzatish, takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

**Hamkorlik pedagogikasining samaradorligi:** ushbu pedagogik yondashuv quyidagi natijalarni ta'minlaydi:

- **O'quvchilar** o'zlarini qo'llab-quvvatlangan his qiladilar va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatildi.

- **Ota-onalar** o'z farzandlari ta'lif jarayonida faol ishtirok etib, ularning ehtiyojlarini tushunadilar.

- **O'qituvchilar** o'quv jarayonida samarali metodlarni qo'llash orqali ta'lif sifati va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga erishadilar.

**Hamkorlik samaradorligini ko'rsatuvchi jadval**

Hamkorlik faoliyati	O'quvchilar ishtiroki (%)	Ta'lif samaradorligi (%)
Ota-onalar bilan muntazam maslahatlar	85	80
Jamoaviy loyiha va tadbirlar	82	78
Uy vazifalari bo'yicha hamkorlik	88	82
Psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlari	90	85

Hamkorlik pedagogikasi inklyuziv ta'linda o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida ishonch va sheriklik munosabatlarni rivojlantirish orqali ta'lif samaradorligini oshiradi. Bunday muhitda har bir o'quvchi o'zining imkoniyatlarini to'liq namoyon qila oladi va shaxsiy rivojlanishga erishadi. Bu metod nafaqat ta'lif jarayonini samarali tashkil etish, balki o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini ham qo'llab-quvvatlaydi.

2. **O'zaro ta'sir va inklyuziv muloqot** – ta'lif jarayonida jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida samarali muloqot yo'nalishlarini tashkil etish.

3. **Davlat va nodavlat tashkilotlarning ko'magi** – inklyuziyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha resurslar, moliyaviy va metodik yordam.

**Tashkiliy mexanizmlar.** Inklyuziv ta'limi joriy etish uchun quyidagi tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur:

1. **Oila va ta'lif muassasalari hamkorligi:**

- Oilalarga pedagogik va psixologik ko'mak berish;
- Bolaning shaxsiy rivojlanishini kuzatish va rejalashtirish.

2. **Davlat organlari bilan hamkorlik:**

- Maxsus ta'lif muassasalarini modernizatsiya qilish;
- Imkoniyati cheklangan bolalar uchun mos shart-sharoitlar yaratish.

3. **Nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik:**

- Ijtimoiy loyihalarni joriy etish;
- Maxsus trening va dasturlarni tashkil etish.

**Ijtimoiy hamkorlik darajasi va inklyuziv ta'lif samaradorligi**

Hamkorlik yo'nalishlari	Amalga oshirish ko'rsatkichi (%)	Ta'lif samaradorligi (%)
Oila va ta'lif muassasalari	88	84
Nodavlat tashkilotlar	80	78
Davlat organlari va mahalliy hokimiyat	75	73

**Muhokama va tahlillar.** Yuqoridagi tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ta’lim muassasalari va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi (84%). Bu esa oilaviy muhitning bolaning rivojlanishidagi ta’sirini ko‘rsatadi. Nodavlat tashkilotlar orqali ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash ham muhim o‘rin tutib, amaliy yordam va maxsus dasturlar samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Ijtimoiy hamkorlik muhiti inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli joriy etishning asosiy omilidir. Metodologik yondashuvlar va tashkiliy mexanizmlar asosida hamkorlik tizimi shakllantirilsa, imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi samarali bo‘ladi. Oilalar, ta’lim muassasalari va nodavlat tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish inklyuziyaning to‘liq amalga oshishiga yordam beradi.

**Adabiyotlar:**

1. UNESCO (2009). Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. Paris: UNESCO.
2. Dyson, A., & Farrell, C. (2001). Inclusion and Collaboration in Education. London: Routledge.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. To‘raqulov, M., & Yuldasheva, S. (2020). "O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim va uning rivojlanish istiqbollari." Pedagogika va Psixologiya Jurnali, 14, 56-60.

## TA’LIM MENEJMENTI

### MAKTABGACHA TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI VA TARAQQIYOT STRATEGIYALARI

*Ostonov Zafar Zamonovich,  
Buxor davlat pedagogika institutे Harbiy ta’lim fakulteti  
uslubiy tayyorlarlik sikl o’qituvchisi*

*Maktabgacha ta’limni rivojlantirish, har bir davlatning ta’lim tizimining muhim qismi bo’lib, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Xalqaro tajribalar tahlili va taraqqiyot strategiyalari, maktabgacha ta’limni samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, maktabgacha ta’limni rivojlantirishda qo’llaniladigan xalqaro tajribalar va strategiyalar haqida so’z yuritiladi.*

*Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, bolalar, xalqaro tajribalar, strategiyalar, davlat, ta’lim jarayoni.*

### АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА РАЗРАБОТКИ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Развитие дошкольного образования является важной частью системы образования каждой страны и является основным фундаментом будущих успехов детей. Анализ международного опыта и стратегии развития важны в эффективной организации и развитии дошкольного образования. В этой статье мы рассмотрим международный опыт и стратегии, используемые в развитии дошкольного образования.*

***Ключевые слова:** дошкольное образование, дети, международный опыт, стратегии, государство, образовательный процесс.*

### ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATION AND DEVELOPMENT STRATEGIES

*The development of preschool education is an important part of the education system of every country and is the main foundation for the future success of children. The analysis of international experiences and development strategies are important in the effective organization and development of preschool education. In this article, we will consider international experiences and strategies used in the development of preschool education.*

***Key words:** preschool education, children, international experiences, strategies, state, educational process.*

**Kirish.** Maktabgacha ta’lim tizimi uzlusiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Ko‘p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrida olar ekan. Demak, bolalarning sog‘lom va bilimli, yetuk kadr bo‘lib voyaga yetishida maktabgacha ta’lim va tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini isloq qilish borasida bir qancha me‘yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi. Davlatimizdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish qamrovi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko‘rsatkich 2016-yilda 27,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib 60 foizga yetdi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolda o‘z mevasini berishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev - Ayni paytda islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bog‘cha ta’limining barcha bo‘g‘inlarini izchil isloq qilmoqdamiz - degan edilar.

Songi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mifikta ta’limi haqida jumladan shunday degan edi: “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot – mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q”[1].

Olib borilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda ko‘plab umumta’lim maktablari qayta rekonstruksiya qilindi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik

texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv -uslubiy materiallarini keng joriy qilish, maktablarga xorijiy davlatlardan mutaxassislarini keng jalb qilish, maktab o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish keng yo‘lga qo‘yilgan.

**Asosiy qism.** Maktabgacha ta’lim, bolalarning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr, bolalarning ijtimoiy, emotsiyal va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim, bolalarga ta’lim olishga tayyorgarlik ko‘rish, o‘z-o‘zini anglash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi, bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning rivojlanishini ta’minlashdir. Bu davrda bolalar o‘zlarini ifoda etish, o‘z fikrlarini bildirish va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘rganadilar. O‘yin orqali ta’lim olish, bolalarning qiziqishini oshiradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yinlar, bolalarga yangi narsalarni o‘rganish, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuvni qo‘llash ham muhimdir. Har bir bola, uning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab, ta’lim olish huquqiga ega. Maktabgacha ta’lim muassasalarini, nogiron bolalar va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar va resurslar taqdim etishi kerak. Bu, bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlaydi va ularning to’liq rivojlanishiga yordam beradi.[2]

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish, mamlakatning ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim, bolalarning ijtimoiy, emosional va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va tashabbuslar, ta’lim sifatini oshirish va bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan muhit yaratishga qaratilgan. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qator strategik dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturlar, maktabgacha ta’lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash, o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan. O‘zbekiston hukumati, maktabgacha ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonda yangi binolar qurish, mavjud muassasalarini ta’mirlash va zamonaviy o‘quv materiallari bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarining malakasi va tayyorgarligi O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni takomillashtirilmoqda. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etilib, ularning pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu, o‘qituvchilarining bolalar bilan samarali ishlashiga va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Ota-onalar va jamiyatning maktabgacha ta’lim jarayonidagi ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ota-onalar uchun ta’lim jarayoniga jalb etish va ularning bolalari bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ota-onalar va ta’lim muassasalarini o‘rtasidagi hamkorlik, bolalarning ta’lim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Ota-onalar, bolalarining ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumot va resurslar bilan ta’minlanmoqda. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash ham muhimdir. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali bolalarning qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga erishilmoqda. O‘zbekistonda, o‘yinlar va interaktiv dasturlar orqali bolalarning o‘rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘lishi uchun yangi usullar ishlab chiqilmoqda. Maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuvni qo‘llash ham muhimdir. O‘zbekistonda barcha bolalarning, jumladan, nogiron bolalarning ta’lim olish huquqlari ta’minlanmoqda. Maxsus ta’lim dasturlari va resurslar ishlab chiqilib, har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bu, bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash va ularning to’liq rivojlanishiga yordam beradi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish, davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘qituvchilarining malakasi, ota-onalar va jamiyatning ishtiroki, innovatsion texnologiyalar va inklyuziv yondashuv, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi. O‘zbekiston, o‘zining ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda, maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonda xalqaro tajribalarini o‘zlashtirish va yangi yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bolalarning ta’lim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.[5]

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lmish maktabgacha, umumiy o‘rtalari va maktabdan tashqari ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quv va tarbiya jarayonlarining o‘zaro mustahkam aloqasi va uzlusizligini ta’minlash, o‘quv va tarbiya jarayoniga xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmular va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, tarbiyalanuvchilarini umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhidagi tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik

g’oyalarini yoshlidan yanada chuqur singdirish hamda yot g’oyalarga qarshi immunitetini shakllantirish hamda iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralab olish va ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, yoshlarning umumita’lim fanlari bo’yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlardan va musobaqalarda munosib ishtirokini ta’minalashga doir maqsadli faoliyat kelajakda yuksak natijalarni beradi.

Pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko’nikmalarini oshirish va baholash, obro’sini mustahkamlash, ularning moddiy va ma’naviy rag’batlantirilishi, shuningdek, ijtimoiy muhofaza qilinishini tashkil etish! maktabgacha, umumiyo’tta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlari sektorini yanada qo’llab-quvvatlash, uning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda maktabgacha, umumiyo’tta va maktabdan tashqari ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish sohalardagi davlat xizmatlarini kengaytirish, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillarini amalga oshirish, mazkur yo’nalishda faoliyat yuritayotgan ta’lim tashkilotlar tomonidan sifatli ta’lim berilishini nazorati qatiylashtirilishi munosib natijalarni yuzaga keltirib chiqarishida poydevor yaratadi.

Ko’plab rivojlangan mamlakatlar, maktabgacha ta’limni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida ko’radilar. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari, ta’lim tizimi bolalarning ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan. Bu mamlakatlarda ta’lim jarayoni o’yin va faoliyat orqali amalga oshiriladi, bu esa bolalarning ijodkorligini va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv, bolalarning ijtimoiy va emosional ko’nikmalarini shakllantirishda ham muhim rol o’ynaydi. Xalqaro tajribalar shuni ko’rsatadiki, maktabgacha ta’limda o’qituvchilarning malakasi va tayyorgarligi juda muhimdir. Yaponiyada, masalan, o’qituvchilarni tayyorlash jarayoni juda qat’iy va uzoq muddatli bo’lib, bu ularning professional rivojlanishiga va bolalar bilan samarali ishlashiga imkon beradi. O’qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish kurslari va seminarlar orqali qo’llab-quvvatlash, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’limda ota-onalar va jamiyatning ishtiroki ham juda muhimdir. Ko’plab mamlakatlarda, ota-onalar ta’lim jarayoniga faol jalb etiladi. Misol uchun, Avstraliyada ota-onalar uchun maxsus dasturlar va treninglar tashkil etiladi, bu esa ularning bolalari bilan muloqot qilish va ta’lim jarayonida yordam berish imkoniyatlarini oshiradi. Ota-onalar va ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlik, bolalarning ta’lim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo’llash ham muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali bolalarning qiziqishini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga erishilmoqda. Masalan, Finlyandiyada raqamli o’yinlar va interaktiv dasturlar orqali bolalarning o’rganish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo’ladi. Maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuvni qo’llash ham muhimdir. Ko’plab mamlakatlarda, barcha bolalarning, jumladan, nogiron bolalarning ta’lim olish huquqlari ta’milanadi. Bu borada, maxsus ta’lim dasturlari va resurslar ishlab chiqiladi, bu esa har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.[4]

Yaponiya, Italiya va Xitoy davlatida bolalar asosan 3 yoshdan bog’chaga qabul qilinadi. Faqatgina juda majbur bo’lgan oilalar farzandlarini bolalarga qarash markazlariga berishlari mumkin. Masalan, Yaponiyada bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqagan emas, chunki bunday yoshda bolani yasliga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo’lishi kerak. Shuningdek bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun - eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-onasi ish joyidan ma’lumotnomasi va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a’zosi yo’qligi haqidagi hujjatlar taqdim etilishi kerak bo’ladi.

Mamlakatimizda esa bolalar bog’chaga bir yoshdan qabul qilinadi. Farzandi uch yoshga to’limgan onalarga mehnat qonunchiligidagi imtiyozlar belgilangan. Davlatimiz maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov masalasini oshirish hamda maktabgacha tayyorlovni to’liq amalga oshirish maqsadida yangi tahrirdagi qonun hujjatlariga tegishli normalar kiritildi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi - Ta’lim to’g’risidagi qonunga muvofiq maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo’lgan bolalarni boshlang’ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Endilikda respublikamizdagagi 6 yoshdan-7 yoshgacha bo’lgan barcha ta’lim olishga layoqati bo’lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 1 yillik maktabgacha tayyorlov guruhida boshlang’ich sinflarga tayyorlanadi va ularga sertifikat beriladi.

Maktabgacha ta’lim, bolalarning kelajagi uchun muhim poydevor yaratadi. Bu davrda bolalar o’zlarini ifoda etish, o’zaro munosabatlarni rivojlantirish va ta’lim olishga tayyorgarlik ko’rish ko’nikmalarini o’rganadilar. O’qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning ishtiroki, maktabgacha ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Maktabgacha ta’limni rivojlantirish, bolalarning kelajakdagisi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos yaratadi va ularning hayot yo’lida muvaffaqiyatlari bo’lishlariga yordam beradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganar ekanmiz, har bir davlat o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlariga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bu xosliklar qaysidir jihatdan o‘sha mamlakatlarning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga ham xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga hattoki tarixning ham o‘zi guvohdir. Masalan, yaponlardagi bolalar bog‘chalarida ta’lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o‘qishdan tashqari bolalarga qo‘sish aytiladi, sport musobaqlari o‘tkazilib, muntazam sayrlarga chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o‘tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo‘sish aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo‘sishchi qo‘llanilmaydi, musobaqa o‘tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g‘oliblikka erishiladi, mutlaqo yakka g‘olib bo‘lmaydi. Bu yapon jamiyatini modernizatsiya qilishda qo‘lni qo‘lga berishga yo‘naltiradi. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun yapon sidqi dildan xizmat qiladi. Dunyo bozorini egallagan Xitoy ham bu natijaga ta’limni isloh qiltish bilan erishdi. Xitoy xalqi butun dunyoga o‘zining mehnatsevarligi bilan mashhur. Ikkinchi jahon urishidan so‘ng qisqa muddat ichida Xitoy mahsulotlari dunyo bozorini to‘ldirganligi buning yaqqol isbotidir. Xitoyliklar juda ham intizomli va sportsevar xalq. Albatta, farzand tarbiyasida ham bu o‘z aksini topgan. Agarda Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-onas mas‘ul bo‘lsa, Xitoyda bu narsa davlat zimmasidadir. Uch oydan boshlab chaqaloq bog‘chaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytilish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o‘rgatila boshlanadi. Bog‘chalarda tarbiya bilan birqalikda jismoniy rivojlanishga katta e‘tibor beriladi. Bolaning qiziqishlari inobatga olinib, uning iqtidorini namoyish qilishga harakat qilinadi. Boshlang‘ich sinfdanoq intizomli bo‘lish, injiqlik qilmaslik va yaxshi o‘qish talab etiladi. Itoatkorlik va «men»ni yuzaga chiqarmaslik xitoy tarbiyasining asosidir. Xitoylik bolalarda bolaligidanoq uchta asosiy fazilat: mehnat qobiliyati, intizom va kattalarga hurmat shakllantiriladi. Ularga yoshligidanoq, nima bo‘lishidan qat‘i nazar, ular eng yaxshi bo‘lishi kerakligi o‘rgatiladi. Ehtimol shuning uchun xitoyliklar fan, madaniyat va san‘atning barcha sohalarda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqdalar. Buyuk Britaniyadagi maktabgacha ta’lim o‘quv rejasida nafaqat umumiy ta’lim jarayoniga urg‘u beriladi, balki boladagi o‘qish va hisoblash kabi ko‘nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 4-5 yoshdagagi bolalar rivojlanishning olti yo‘nalishidagi aniq ko‘nikma va bilimlari belgilandi: shaxsiyatlik; ijtimoiy-emotsional; kommunikativ; xabardorlik; matematik; jismonan; ijodiy. Maktabgacha yoshdagagi bolalar ko‘p o‘ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchali yuqoriki, o‘yin uchun vaqt qolmaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish, maktabgacha ta’limning o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmularini takomillashtirish, ularning umumiy o‘rtalim dasturlari bilan uzviyligini ta’minalash davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minalash maktabgacha ta’limni rivojlanishda xalqaro tajribalar va taraqqiyot strategiyalari, bolalarning ta’lim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. O‘qituvchilarining malakasi, ota-onalar va jamiyatning ishtiroki, innovatsion texnologiyalar va inklyuziv yondashuv, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlanishda muhim omillar hisoblanadi. Har bir mamlakat, o‘zining ijtimoiy va madaniy kontekstiga mos ravishda, ushbu tajribalarni o‘zlashtirib, maktabgacha ta’limni yanada rivojlanishish imkoniyatiga ega.

Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning - bir yilni ko‘zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko‘zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko‘zlasangiz farzand tarbiyalang degan hikmatidan bugungi kunda zamonaviy davlatlarning deyarli barchasi samarali foydalanmoqda. Shu nuqtai-nazardan, bizning mamlakat ham unib-o‘sib kelayotgan barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga katta e‘tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo‘lsa, xorijiy davlatning ilg‘or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsad-uchinchli Renesans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa albatta bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya esa ana shu avlodni ta’limning birinchi bo‘g‘inidan savodli va tarbiyali bo‘lishini ta’minalashga xizmat qilishi kerak.

### Adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>

2. Kagan, S. L., & Kagan, M. (2010). "The Early Childhood Education Handbook." New York: Routledge.
3. Sylva, K., Melhuish, E., Sammons, P., Siraj-Blatchford, I., & Taggart, B. (2011). "Effective Pre-school, Primary and Secondary Education 3-16 Project (EPPSE 3-16)". London: Department for Education.
4. Холиков, И. Р. (2023). Бўлажак офицерларда педагогик компетенцияларнинг шаклланиши. // Наука и технологии, 1(2).
5. Холиков, И. (2023). Harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarida pedagogik kompetensiyani takomillashtirishga zamonaviy yondashuvlar. // Центр научных публикаций (buxdu.uz), 43(43).
6. Xoliqov, I. (2022). The Concept of Military Pedagogical Competence and its Formation in Military Faculty Students. // Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali, 2(2).
7. Parmonov B.E. (2018) Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. // Science and Education Scientific Journal. 339-351-betlar.
8. Mamajonov I.G., Mamatov R.(2017) Germaniya davlati ta'lim tizimi. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №6.

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA’LIM IMIDJINI  
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

*Yo‘ldosheva Gulhayyo Valiqulovna,  
Navoiy davlat universiteti,  
Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar  
tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida oliy ta’lim muassasalarining imidjini takomillashtirishning pedagogik tizimi ko’rib chiqiladi. Oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo’llash orqali ta’lim sifatini oshirish va muassasa imidjini yaxshilashga xizmat qiladigan samarali pedagogik tizimni ishlab chiqishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, imidj, ta’lim sifati, brend strategiyasi, digital texnologiyalar, masofaviy ta’lim, ta’lim sifati.

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИМИДЖА ВЫСШЕГО  
ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА**

*В данной статье рассматривается педагогическая система улучшения имиджа высшего учебного заведения, основанная на инновационном подходе. Речь идёт о разработке эффективной педагогической системы, служащей повышению качества образования и улучшению имиджа учебного заведения путём применения инновационных подходов в системе высшего образования.*

**Ключевые слова:** инновации, имидж, качество образования, стратегия бренда, цифровые технологии, дистанционное образование, качество образования.

**THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF IMPROVING THE IMAGE OF HIGHER EDUCATION  
BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH**

*This article examines the pedagogical system of improving the image of higher education institutions based on an innovative approach. It is to develop an effective pedagogical system that serves to increase the quality of education and improve the image of the institution by applying innovative approaches in the higher education system.*

**Key words:** innovation, image, quality of education, brand strategy, digital technologies, distance education, quality of education.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda oliy ta’lim tizimining roli tobora ortib bormoqda. Global lashuv, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va axborot oqimining tezligi ta’lim muassasalarini yangi sharoitlarga moslashishga majbur qilmoqda. Ushbu sharoitlarda oliy ta’lim muassasalarining ijobjiy imidjini shakllantirish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Oliy ta’lim imidji, nafaqat muassasaning ichki tuzilishi va ta’lim sifatiga, balki uning xalqaro maydondagi obro’siga ham ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, zamonaviy oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonlarini takomillashtirish, talabalar va o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish hamda o‘quv muassasasining ijobjiy imidjini shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvlar oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning ijodiy va ilmiy salohiyatini oshirish, hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali imidjini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsiyalarni pedagogik tizimga joriy etish, oliy ta’limning zamonaviy talablariga javob beradigan samarali ta’lim tizimini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqola innovatsion yondashuv asosida oliy ta’lim imidjini takomillashtirishning pedagogik tizimini o‘rganishga qaratilgan. Unda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning malakasini oshirish, va innovatsion o‘quv dasturlarini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Maqsad — innovatsiyalarni qo’llash orqali oliy ta’lim muassasalari imidjini yaxshilash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik tizimni ishlab chiqishdir.

Innovatsion yondashuv asosida oliy ta’lim imidjini takomillashtirishning pedagogik tizimi mavzusi oliy ta’lim muassasalarining imidjini yaxshilashda innovatsion usullarni qo’llashga qaratilgan. Bu

yondashuvda ta’lim jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalar orqali takomillashtirishga e’tibor qaratiladi. Quyida mazkur tizimning asosiy yo‘nalishlari va bosqichlari keltirilgan:

1. Imidjni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar

- Digital texnologiyalarni joriy etish: Onlayn ta’lim platformalari, virtual laboratoriylar va masofaviy ta’lim xizmatlaridan foydalanish.

- Markazlashtirilgan axborot tizimlari: Universitet veb-saytlari, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar orqali talabalar va o‘qituvchilarga tezkor axborot yetkazish.

- Innovatsion o‘quv dasturlari: Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol metodlar va loyihami o‘qitish usullaridan foydalanish.

2. Pedagogik jarayonlarni takomillashtirish

- O‘qituvchilarning malakasini oshirish: Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun muntaзам seminarlar va treninglar tashkil etish.

- O‘quv jarayonini moslashuvchan qilish: Talabalar individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, individual o‘quv dasturlari yaratish.

- Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish: Ilmiy ishlasmalar va tadqiqot loyihamariga talabalar va o‘qituvchilarni jalb qilish.

3. Oliy ta’lim muassasasining brendini yaratish

- Brend strategiyasi ishlab chiqish: Universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish va xalqaro miqyosda tan olinishi uchun PR tadbirlar o‘tkazish.

- Hamkorlik va aloqalarni rivojlantirish: Mahalliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalari, sanoat korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

- Menehat bozori bilan aloqalarni mustahkamlash: Bitiruvchilarning ish bilan ta’milnashini osonlashtirish uchun karyera markazlarini rivojlantirish.

4. Talabalar va o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish

- Tanlovlar va grant dasturlari: Innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish uchun grantlar, stipendiyalar va tanlovlar tashkil etish.

- Startap loyihamarini qo‘llab-quvvatlash: Talabalar va yosh tadqiqotchilarning startap loyihamarini moliyaviy va metodologik qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasalarining imidjini yaxshilashga, ularning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga va ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda oliy ta’lim muassasalarining ijobiy imidjini shakllantirish va uni yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali ta’lim muassasalarining nufuzi oshirilmoxda. Ushbu jarayonlarda innovatsion yondashuvlarning roli beqiyos bo‘lib, u pedagogik tizimni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishda asosiy omil hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etish, o‘quv dasturlarini yangilash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta’milnashga qaratilgan. Bu esa, o‘z navbatida, muassasalar imidjining yaxshilanishiga, milliy va xalqaro miqyosda tan olinishi va e’tirof etilishiga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tizimi har bir jamiatning intellektual, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalari o‘zining ta’lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali raqobatbardoshligini ta’milnashga intilmoqda. Bu jarayonda oliy ta’lim muassasasining imidji muhim rol o‘ynaydi. Imidj, ta’lim muassasasining ichki va tashqi auditoriya oldida obro‘sni va nufuzini belgilovchi omillardan biri bo‘lib, talabalarning ushbu muassasaga bo‘lgan qiziqishi va ishonchini shakllantiradi.

Innovatsion yondashuvlar ta’lim tizimining turli jabhalarida, jumladan, o‘qituv metodlari, boshqaruv usullari, va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashda o‘z aksini topadi. Bu yondashuvlar ta’lim jarayonlarini zamonaviy talablarga moslashtirish, sifatni oshirish va ta’lim oluvchilarni global bozor sharoitlariga tayyorlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar oliy ta’lim muassasalarining brendini rivojlantirish va ularni xalqaro maydonda tanitishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qator muhim farmonlar qabul qilingan. Jumladan, 2022-yil 6-iyulda PQ-307-son “2022–2026-yillardagi O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida oliy ta’lim muassasalari huzurida ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalarini joriy etish va ta'lif sifatini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilangan.


Ushbu farmonlar oliy ta'lif tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ta'lif sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjatlar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotning metodologiyasi oliy ta'lif muassasalarining imidjini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalarini chuqur o'rghanishga qaratilgan. Ushbu metodologik yondashuvlar orqali innovatsion yondashuvlarning oliy ta'lif tizimida ta'sirini o'rghanish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish, ta'lif sifatini oshirish va muassasaning ijobjiy imidjini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Adabiyotlar tahlili oliy ta'lif muassasalarining imidjini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarning o'rni va ahamiyatini tushunishda muhim o'r'in tutadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lif jarayoniga ta'siri bo'yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar o'rGANildi. Ushbu manbalar zamонавиy ta'lifda interaktiv metodlar, masofaviy ta'lif, raqamli o'quv platformalari kabi yondashuvlarning o'rGANilganligi va ularning samaradorligini yoritadi. Raqamli texnologiyalarning oliy ta'lif jarayoniga joriy etilishi va bu texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayonlarini qanday takomillashtirish mumkinligi haqida tadqiqotlar tahlil qilindi. Oliy ta'lif muassasalarining imidji va brendini shakllantirish haqida yozilgan asarlar o'rGANildi. Ushbu adabiyotlar ta'lif muassasalarining brendni rivojlantirish orqali xalqaro miqyosda qanday tan olinishi mumkinligini tushuntiradi. Talabalar va jamoatchilik orasida oliy ta'lif muassasasining obro'si va nufuzi haqida ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu tadqiqotlar imidjini shakllantirishda marketing strategiyalarining ahamiyatini ochib beradi. Qosimov, S. K. (2020). “Ta'lifda innovatsion yondashuvlar” asarida ta'lif tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ularning samaradorligi va pedagogik jarayonga ta'siri haqida batafsil ma'lumot berilgan. Abdullayeva, N. O. (2020). Oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish”. Ushbu asarda Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish orqali ta'lif muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Adabiyotlar tahlili** natijasida, oliy ta'lif muassasalarida innovatsion yondashuvlarning imidjiga ta'siri, ta'lif jarayonlarining samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi o'rni aniqlangan. Ushbu tahlil tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Tadqiqot natijalari oliy ta'lif muassasalarining imidjini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda oliy ta'lif muassasalarida joriy etilgan innovatsion yondashuvlar (raqamli ta'lif platformalari, interaktiv o'quv usullari, masofaviy ta'lif va boshqalar) ta'lif jarayonlarining samaradorligini oshirganligi aniqlandi. (1-rasm). Talabalarning o'zlashtirish darajasi oshgani, o'qitish jarayonlari yanada interaktiv va talabalarga moslashuvchan bo'lgani kuzatildi. Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi ta'lif sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

So'rovnomalari va intervyular natijalari ko'rsatishicha, talabalar va o'qituvchilar innovatsion yondashuvlardan qoniqish bildirgan va ularning o'quv jarayonlariga qo'shgan hissasini ijobjiy baholagan. Innovatsion yondashuvlar nafaqat ta'lif sifatini oshirishga, balki o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqish va ishtirokni kuchaytirishga ham yordam beradi. Bu esa ta'lif jarayonining interaktiv va motivatsiyaga boy bo'lishini ta'minlaydi.



1-rasm.

**Xulosa.** Oliy ta’lim muassasalarining imidjini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishi ta’lim sifatini oshirib, muassasalarining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida innovatsion usullarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi va bu muassasalar imidjining ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Innovatsion yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishda va muassasa imidjini yaxshilashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.
- Ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanishi oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini kuchaytiradi va xalqaro maydonda tan olinishiga olib keladi.
- Raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim ta’lim jarayonining uzlusizligini ta’minlaydi va talabalarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

### **Tavsiyalar.**

- Oliy ta’lim muassasalari innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni yanada kengroq joriy etish orqali o‘z faoliyatlarini takomillashtirishi lozim.
- Ta’lim jarayonlarini doimiy modernizatsiya qilish va sifatni oshirish orqali muassasalar o‘z imidjini yanada mustahkamlashi zarur.
- Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali muassasalarning ilmiy yutuqlari ko‘paytirilishi kerak.

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarining imidjini shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlab, oliy ta’lim muassasalarining kelajakdagи rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagи PQ-307-sон "2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida"gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sон "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida"gi Farmoni.
3. Gulbent T. Innovatsion pedagogika. Tashkent: Academy of Sciences of Uzbekistan Press. // Pedagogik tizimda innovatsiyalarni tatbiq etish va ta’lim sifatini oshirish haqida. (2021).
4. Shamionov F. Oliy ta’lim tizimida innovatsion metodlar. Tashkent: Oliy ta’lim akademiyasi. // Innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalarning oliy ta’lim tizimidagi ahamiyati haqida. (2020).
5. Jabbarov I. Ta’limning raqamli texnologiyalari. Tashkent: UzScience. // Raqamli texnologiyalarning oliy ta’limda qo’llanishi va imidj yaratishda roli. (2018)
6. Bekmuratova N. Oliy ta’limda innovatsiyalar va imidj. // Journal of Education, 34(2), 123-130. — Oliy ta’lim muassasalarida imidj va innovatsiyalarni integratsiyalash. (2021).

## TA’LIM INTEGRATSIYALASHUVIDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

*Rajabova Kimyoxon Farmonovna,  
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Maqolada xalqaro baholash dasturlarining ta’slim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari, ulardan foydalanishda jahon ta’limi bilan integratsiyalash, ta’lim jarayonida pirls xalqaro baholash dasturi topshiriqlariga asoslangan o‘quv va sinov topshiriqlari orqali o‘quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishni takomillashtirish muammolari haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** xalqaro baholash dasturlari, jahon ta’limi, integratsiya, PIRLS xalqaro baholash dasturi, sinov topshiriqlar, kompetensiya, ta’lim sifati.

### ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ PIRLS В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ

*В статье рассматриваются возможности международных оценочных программ в повышении качества обучения, проблемы интеграции их использования с мировым образованием, совершенствования развития компетентности учащихся посредством учебных и тестовых заданий, основанных на заданиях международной оценочной программы PIRLS в образовательном процессе.*

**Ключевые слова:** программы международной оценки, мировое образование, интеграция, программа международной оценки PIRLS, тестирование задания, компетентность, качество образования.

### POSSIBILITIES OF USING THE PEARLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN EDUCATIONAL INTEGRATION

*The article will talk about the possibilities of international assessment programs in improving the quality of establishment, integration with world education in their use, the problems of improving the development of student competence through training and testing assignments based on pirls International Assessment Program assignments in the educational process.*

**Keywords:** international assessment programs, world education, integration, PIRLS International Assessment Program, Test assignments, competence, quality of Education.

**Kirish.** Dunyoda ta’limning yuqori sifat darajasini aniqlash va baholashga asoslangan bir qancha xalqaro dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, aynan, PIRLS (Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro dastur)dan rivojlangan davlatlar ta’lim sifatini oshirishda samarali foydalaniib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida O‘zbekiston Raspublikasining 2030-yilga kelib xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo‘yilgan.

PIRLS xalqaro baholash dasturiga «tekshirish vositasi» yoki «nazarat uslubi» deb emas, balki «ta’lim tizimini takomillashtirish uchun imkoniyat»[1] deb qarash maqsadga muvofiqdir. Farmonga asosan xalq ta’limi tizimining strategik maqsadlari rejalshtirilgan bo‘lib, ular:

-umumta’lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatlari ta’lim olish imkoniyatini yaratish;

-inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish belgilangan.


**Asosiy qism.** Prezidentimiz farmonlari bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi»ning uchinchi bobida «...xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro dasturlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PIRLS boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish» qat’iy maqsad qilib qo‘yilgan.

**PIRLS** - matnni o‘qish va tushunish sifatini xalqaro o‘rganish dasturi bo‘lib, dunyoning turli mamlakatlaridagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilari tomonidan matnni o‘qish va tushunishni, shuningdek, milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi [2].

**PIRLSni o‘rganish maqsadi** dunyoning turli mamlakatlari to‘rtinchisinf o‘quvchilari tomonidan matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarida o‘qish savodxonligi o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotning xalqaro lug‘atiga ko‘ra, «o‘quvchi savodxonligi» – bu insonning hayotda o‘zini to‘liq namoyon qilishi va o‘z maqsadlariga erishish uchun bo‘lgan turli yozma tillarni tushunishi va mantiqiy ravishda anglash qobiliyatidir[2].

PIRLS xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o‘ringa ega bo‘lib, mazkur tadqiqotlar doirasida turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarini o‘qish sifati va o‘qilgan matnni tushunish darajasi o‘rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborlik, aynan o‘qishning to‘rtinchisi yilda o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta’limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Finlandiya davlati PIRLS tadqiqotlarining uch siklda ishtirok etib, ketma -ket kuchli o‘nlikdan (2011-yilda 2-o‘rin; 2016-yilda 5-o‘rinni; 2021-yilda 9-o‘rin) o‘rin olganligi ushbu davlatning asosiy o‘quv dasturida belgilangan yetti kompetensiya [3] sohalari barcha fanlarda qo‘llanilishi bilan izohlandi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Finlandiya davlatining “Milliy savodxonlik strategiyasi” 7 ta kompetensiya sohalari**

Finlandiya ta’limida o‘quvchilar ta’limi va tarbiyasidagi o‘zgarishlar sezilsa, faqat o‘quvchi shaxsi bilan emas, balki uning ota-onasi yoki vasiylikka olganlar bilan qo‘srimcha mashg‘ulotlar olib boriladi. Natijada, o‘quvchilarda hamkorlik; fikr bildirish; o‘ziga ishonch; o‘zaro ta’sir va o‘zini namoyon qilish; o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish kabi shaxsiy hamda fikrlash va o‘rganishni tahlil qilish, madaniy va kundalik hayotni boshqarish; axborot va kommunikasiya texnologiyalarini tushunish; tadbirkorlik ko‘nikmasiga egalik; hayotda faol bo‘lish, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish va barqaror kelajakni qurish kabi hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi. Bu esa, jamiyat taraqqiyotida o‘ziga xos imkoniyatlarni yaratishga sabab bo‘ladi. Jumladan,

-savodxonlik ko‘nikmalarini barcha sohalarda keng targ‘ib qilish amaliyotini rivojlantirishga;

-har bir fuqaroning hayoti davomida uzluksiz ravishda o‘z savodxonligini oshirib borish va mustahkamlash uchun imkoniyat yaratishga;

-ommaviy o‘qish madaniyatini rag‘batlantirishga erishiladi.

Xalqaro ekspertlarning tavsiyasiga ko‘ra, 2021-yilda o‘tkazilgan PIRLS xalqaro tadqiqotlarining O‘zbekistonda o‘tishi bo‘yicha donor qilib Rossiya davlati belgilandi va bunda 2 ta dastur asosida ish olib borildi (2-rasmga qarang).

## O‘zbekistonga donor bo‘lgan Rossiya davlatining ta’lim dasturlari

READ – 1 dasturida O‘zbekiston respublikasi vakillari Moskva shahriga borib, Rossiya davlatining xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha olib borilgan ishlari bilan tanishdi (2021-yilning 17-23-fevral kunlari)

READ -2 dasturi asosida rossiyalik tadqiqot o‘tkazish ekspertlari tomonidan Toshkent va Samarqand shahrida Milliy dastur o‘qituvchilar bilan amaliy seminarlar o‘tkazildi

### 2-rasm. O‘zbekistonga donor bo‘lgan Rossiya davlatining ta’lim dasturlari

Rossiya davlati dasturlari asosida ta’limdagi faktorlarning holati to‘g‘risida ma’lumot to‘plash uchun ularga tadqiqot natijalarini sharhlashga imkon beradigan PIRLS vositalari: o‘quvchi; o‘qituvchi; ota-onalar hamda maktab ma’muriyati uchun so‘rovnomalardan foydalanib, muammolar aniqlandi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval.**

#### PIRLS so‘rovnomalari asosida aniqlangan muammolar

	Muammolarga keltiradigan omillar	Yuzaga keladigan muammolar
1	O‘qishni o‘rganishni boshlashdan qo‘rqish	Noto‘g‘ri o‘rganish sababli bolalarning o‘qishga qiziqishi susayadi.
2	Noto‘g‘ri o‘qitish usuli	Bolalar matnni noto‘g‘ri tushunishni boshlaydi.
3	O‘qishi rivojlangan o‘quvchilarga individual yondashuvning yo‘qligi	O‘qishga qiziqish dinamikasining buzilishiga olib keladi.
4	Ko‘pgina takroriy, bir xil ma’nodagi savollar	O‘qish idrokinining susayishi va matnni tahlil qilmaslikka olib keladi.
5	Boshlang‘ich ta’limda badiiy matnlarni ko‘proq o‘qitish	Boshqa turdagи matnlarni o‘qiganida tushunmaslikka sabab bo‘ladi.
6	Ta’lim olishni boshlashda o‘g‘il bolalarga kam e’tibor berish	Qiz bolalarning boshlang‘ich ta’limda etakchilik qilishi, o‘g‘il bolalarda bilim olish qiziqishlarining susayishi

Mazkur muammolarni bartaraf etishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili va o‘qish savodxonligini o‘rgatishda «PIRLS» darslari va to‘garaklari natijasida: o‘qish tezligini nazorat qilishga nisbatan matnni o‘qib tushunishni nazorat qilishga e’tibor kuchaydi; o‘qish savodxonligi funksional savodxonlikning integral komponenti sifatida tan olinadi; matematik, lingvistik, tarixiy, tabiiy fanlarga oid matnlarni, lug‘atlar va ma’lumotnomalardagi matnlarni o‘qishni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi; bolani yashash makoninigina emas Global va ekologik muammolarni o‘rganib bartaraf etish bo‘yicha fikrlashiga imkoniyat yaratildi. Ta’lim integratsiyalashuvi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik darajasi aniqlashga yordam beruvchi milliy topshiriqlar tizimi yaratildi. kognitivlik murakkabligi jihatidan to‘rtta daraja bo‘yicha belgilanib, oddiydan murakkabga qarab borish tizimida shakllantirildi. O‘quvchining o‘qish savodxonligini aniqlash uchun unga zamon talablariga mos, dolzarb matn berildi. Shu tarzda turli nazariy qoidalardan uzoqlashgan hamda hayotiy kompetensiyani qamrab oluvchi topshiriqlar bazasi yaratilib borildi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval.**

#### PIRLS tadqiqotlari asosida 4- sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning savodxonlik darajasini baholash mezonlari

O‘rganiladigan adabiy tushunchalar tizimi	4-sinfda o‘rganiladigan adabiy tushunchalar mazmuni
Asarning tarkibiy qismlari haqida ma’lumot	Asardagi voqealarning rivojlanib borishini kuzatish
Asar kompozitsiyasi haqida ma’lumot	Voqealarning sabab-natija bog‘lanishini aniqlash
Asar tili ustida ishslash	Nasriy va she’riy matndagi jonlantirish, o‘xshatish, iboraga xos xususiyatlarni kuzatish.
She’r tuzilishi haqida ma’lumot	She’riy nutqda obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj haqida tushuncha hosil qilish.
Adabiy janrlar haqida ma’lumot.	Sarlavha, obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g‘oyaga xos xususiyatlarni farqlash.

Berilgan maqsadlar tizimi va baholash mezonlarida o‘quvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish uquvi va asar bilan tanishish jarayonida hosil bo‘lgan ruhiy kayfiyati hisobga olinishiga e’tibor qaratildi. Adabiy tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilarning ichki hissiy kechinmalariga ta’sir etuvchi topshiriqlar tayyorlandi. Jumladan, she’r, qo’shiq, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, hikoya, rivoyat, masal, latifa, qofiya, misra, band, doston, sarlavha, obraz, jonlantirish, o‘xshatish, ibora, peyzaj, dialog, g‘oya kabi 4-sinfagi adabiy tushunchalar yuzasidan hayotiy ko‘nikmalar shakllantirildi.

Tadqiqotda O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvida:

- 1) milliy dasturga asoslanish;
- 2) ajodolar merosidan foydalanish;
- 3) o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- 4) amaliy mashg‘ulotlarga alohida chuqur e’tibor qaratish;
- 5) o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratlarini oshirib borish;
- 6) ota-onalar bilan doimiy mustahkam hamkorlikni o‘rnatish;
- 7) zamonaviy ta’lim yondashuvlariga asoslanish;
- 8) kasbiy faoliyatga yo‘naltirish;
- 9) sog‘lom muhit va sog‘lom raqobatni ta’minalash;
- 10) mustaqil hamda tanqidiy fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar bazasini yaratish kabilar e’tiborga olindi.

Ushbu jarayonda asosiy e’tibor ta’lim tizimini tashkil etishdagi uzviylik va uzlusizlik tamoyiliga qaratilgan bo‘lib, bunda yuqorida ta’kidlangan mezonlar: o‘quvchining mustaqil xulosa qila olish, qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish, matn yoki mavzuning mohiyatini tushunish, ifodalay olish, aytib berish hamda matn yoki mavzuga oid tasavvurga ega bo‘lish kabilarda o‘z ifodasini topishi aniqlanib, “Integrativ yondashuv asosida PIRLS tadqiqotlaridan foydalanish mazmunini takomillashtirish modeli” tavsiya etildi.

PIRLS dasturi bo‘yicha O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga erishishni ta’minlovchi mexanizmni takomillashtirishga yo‘naltirilgan modelda belgilangan monitoring maqsadlari asosida “matn mezonlar”i, “matnlarni o‘qish qobiliyatlarini aniqlash” hamda “baholash mezonlari”ning o‘zaro bir-biri bilan uzviyligi va aloqadorligi ko‘zga tashlandi. Tadqiqotda o‘qish savodxonligini tavsiflashda o‘qishning ikkita asosiy maqsadi aniqlandi:

- badiiy adabiyotni o‘qishda estetik tajriba va dunyo bilimlarini olish maqsadida o‘qish;
- axborot olish va undan foydalanish maqsadida o‘qish.

**1-bosqichda:** adabiy va axborotli matn mavzusi, mazmuni, hajmi, tili nuqtayi nazaridan tanlab olindi;

**2-bosqichda:** matnni o‘qish va tushunish qobiliyatini aniqlashda ularning aniq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni topa olish, matndan xulosa chiqara olish, matnning mazmunini, til xususiyatlarini, tuzilishini tahlil qilish va baholash tamoyillari asosida o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini baholashni ta’minlaydigan metod belgilandi;

**3-bosqichda:** o‘quvchilarning kreativ fikrlash, muammolarni ko‘ra olish, voqealarni tahlil qila olish, og‘zaki va yozma nutqning ravonligi, anishi hayotiy ma’lumotlarga tayana olish, tanqidiy yondasha olish, hayotiy ma’lumotlarga tayana olish, matnni ilmiy-badiiy tahlil qila olish, ekologik-estetik bilimlarni namoyish etish, axborotlar asosida tajriba orttirish va yangi g‘oyalalar yaratish, tahlil qilish; fanlar bilan integratsiyalay olish, taqdimot qila olish ko‘nikmalarini baholash asosida o‘quvchilarning savodxonlik darajalari aniqlandi.

### **3-rasm. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish bosqichlari**

Milliy ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuviga asoslangan PIRLS dasturi bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholashga amaliy yordam beruvchi ta’lim modeli yuqoridagi talablarni ta’minalash uchun xizmat qilib, monitoring maqsadlari natijasini kafolatladi.

O‘zbekiston ta’limining jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturini qo‘llash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim modelining jarayonni amalga oshirish mexanizmi adabiy va axborotli matnga qo‘yilgan talablar, matnni o‘qish va tushunish qobiliyatini aniqlash va baholash mezonlari bir biri bilan uzviy ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirildi (4-rasmga qarang).

**Xulosa.** Milliy ta’lim dasturimiz bilan jahon ta’limining integratsiyalashuvi jarayonlarini tahlil qilish va solishtirish maqsadida boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining bilimlarini baholashda darsliklarda berilgan: adabiy matnlar: Anvar Obidjonning “Mahallamiz jarchisi” she’ri, “Quvnoq ferma”, “Quyosh - quvvat manbai” va ilmiy matnlar: "Samarqand - tarix belgisi", "Antarktida", "Yo‘l qoidasi - umr foydasi”lardan foydalandik.

Natijada, o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash, maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o‘tish muhim vosita ekanligi aniqlandi. Qolaversa, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, yetarli tajriba to‘plash, o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta’lim sifatini oshirishga erishilishi isbotlandi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘qish savodxonligida quyidagi masalalar bo‘yicha e’tibor bilan ishslash lozim hisoblanadi:

- eng kuchli o‘quvchilarning oldinga borishiga yordam berish – kelajakda iqtidorini namoyon etishi uchun zamin bo‘ladi;
- o‘g‘il bolalarga yordam berish kerak chunki ularning natijalari qizlar natijalariga nisbatdan pastroq bo‘ladi.

Mavzuga oid tavsiyalar:

1. Ta’limda izchillik va tizimlilik tamoyili asosida jahon ta’limi bilan integratsiyalashuvi orqali xalqaro baholash dasturlarini qo‘llashda: nazariy bilimlarni mustahkamlash; o‘quv dasturi asosida o‘rgанидigan adabiy tushunchalarni sinflar kesimi bo‘yicha rejalashtirish; kitobxonlik ko‘nikma-malakalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga zamin yaratish kerak.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshrishda PIRLSda qo‘llanilgan materiallarni o‘рганиш asosida rivojlantirishga erishishda mакtab va maktabdan tashqari kutubxona, televiedeniye, muzeylar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, mavjud tabiat qo‘riqxonalarida sayohatlar uyushtirishga oid rejalar ishlab chiqish hamda ta’lim muassasasining “Kitob bizni birlashtiradi” kabi loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

3. Ta’lim muassasalar reytingini o‘рганишда ularning ixtisoslashuvi, joylashuvi kabi omillarni hisobga olishga, ta’lim sifati nafaqat o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlariga, balki oila, atrof-muhit va shart-sharoitga ham bog‘liqligiga e’tibor qaratish hamda xalqaro tadqiqotlar natijasida past ko‘rsatkichli maktablarni jazolash emas, aksincha, keyinchalik ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishga yordam beradigan tahliliy ma’lumotlar olinishida ko‘makchi sifatida qaralishishi zarur.

4. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni badiiy hamda axborot beruvchi matnlarni o‘qib tushunish va mazmun-mohiyatini idrok qilishga tayyorlash ta’lim jarayonining har bir bosqichida ularning intellektual salohiyati, ruhiyati, intilishlari va qiziqishlarini hisobga olish lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Raespublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi № PF-5712-sон «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni// Qонун hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 -y., 06/19/5712/3034- son.
2. Rajabova K.F. Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda jahon ta’limi bilan integratsiyalash - ta’lim sifatini oshirish omili // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Бухоро, 2022. №7. – Б.174-177.
3. Rajabova K.F. O‘zbekiston ta’limining Finlyandiya ta’limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash imkoniyatlari/“Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Бухоро, 2023/№2/ – Б. 244-251 bet.
4. Rajabova K.F, PIRLS-2021 tadqiqoti natijalari. O‘zbekiston o‘quvchilari xalqaro tadqiqotlarda faol qatnashdi «Pedagogik akmekologiya» xalqaro ilmiy-metodik jurnal. Бухоро, №2 (4), 2023-yil,-Б. 11-16- bet.
5. Rajabova K.F, Na’lim integratsiyalashuvida PIRLS xalqaro baholash dasturidan foydalanish imkoniyatlari //Pedagogik mahorat - Бухоро, 2025. №2. – Б.156-159.

## ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

### OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o‘g‘li,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi katta o‘qituvchisi  
lutfullanurmaxmatov@gmail.com*

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida qo‘llaniladigan masofaviy ta’lim texnologiyasining xususiyatlariga bag‘ishlangan. Masofaviy ta’lim texnologiyasining asosiy afzalliklari, o‘qituvchi va talabaning interfaol rejimda axborot va ta’limga o‘zaro ta’siri, ta’lim faoliyati samaradorligiga erishishda individual ta’limning roli ko‘rsatilgan. Masofaviy ta’limning an‘anaviy yondashuvi bilan solishtirganda, ushbu texnologiyadan foydalanishning afzalliklari tahlili berilgan. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish jarayonini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Masofaviy ta’lim texnologiyalarining dolzarbliji, ularning afzalliklari va qo‘llash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimini samarali boshqarish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Hamda, masofaviy ta’lim va uni oliy ta’lim muassassalarida o‘qitishda virtual ta’limni boshqarish tizimlari bo‘yicha fikrlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** masofaviy ta’lim, oliy ta’lim, virtual ta’lim, texnologiyalar, mexanizmlar, innovatsiya, axborot texnologiyalari.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Статья посвящена особенностям технологии дистанционного обучения, применяемой в системе высшего образования. Показаны основные преимущества технологии дистанционного обучения, взаимодействие преподавателя и студента в интерактивном режиме по вопросам информации и обучения, роль индивидуального обучения в достижении эффективности образовательной деятельности. Дан анализ преимуществ использования данной технологии по сравнению с традиционным подходом к дистанционному обучению. В частности, изучались вопросы совершенствования процесса использования дистанционных образовательных технологий в высших учебных заведениях. Подчёркивается актуальность технологий дистанционного обучения, их преимущества и механизмы применения. Разработаны также предложения и рекомендации по эффективному управлению системой дистанционного образования. Также рассматриваются идеи дистанционного обучения и систем управления виртуальным обучением для их внедрения в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** дистанционное обучение, высшее образование, технологии, механизмы, инновации, информационные технологии.

### IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR USING DISTANCE LEARNING TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

This article is devoted to the characteristics of distance learning technology used in the higher education system. The main advantages of distance learning technology, the interaction of the teacher and student in an interactive mode on information and education, the role of individual learning in achieving the effectiveness of educational activities are shown. An analysis of the advantages of using this technology in comparison with the traditional approach to distance learning is given. In particular, the issues of improving the process of using distance learning technologies in higher educational institutions are studied. The relevance of distance learning technologies, their advantages and application mechanisms are highlighted. Also, proposals and recommendations for effective management of the distance learning system are developed. Also, ideas on distance learning and virtual learning management systems in its implementation in higher educational institutions are highlighted.

**Key words:** distance learning, higher education, technologies, mechanisms, innovation, information technologies.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Masofaviy ta’lim nafaqat geografik cheklowlarni yengib o’tishga yordam beradi, balki talabalar va pedagoglar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini ham yaratadi. Bundan tashqari, Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim – bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim olishning yangi shakli bo’lib, o’quv jarayonlarini masofadan boshqarish va tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu ta’lim shakli an’anaviy ta’limdan farq qilib, o’quvchilar va o’qituvchilarni vaqt va makon jihatidan mustaqil qiladi.

Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limning joriy etilishini yanada takomillashtirish zarurati paydo bo’lmoqda. Ushbu maqolada masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy muammolari va yechimlari, shuningdek, ularni joriy qilish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Masofaviy o’qitish masofaviy ta’lim kompleksidagi jarayondir. Masofaviy o’qitishning va masofaviy ta’limning o’ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjudligidir. Dunyoda ko’pgina universitetlarda va o’quv markazlarida masofaviy ta’lim mavjud. Kerakli manzilni Internetdan topish mumkin. Manzilga kirib bu o’qish talabasi bo’lish uchun maxsus shaklni to’ldirish zarur. Odadta avval kursning va o’qish tartibi tavsifi bilan tanishib chiqish mumkin. Keyin shakldagi satrlarni to’ldirib, kredit kartochka raqamini kiritish zarur. Kursga kirish tartiblarii turlicha bo’ladi, bu mutaxxassilikka bog’liq.

O’qish tartibi esa asosan quyidagicha: o’qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. Talaba ko’rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajaradi va o’qituvchiga yuboradi. O’qituvchi uni tekshirib, javobni talabaga qaytaradi. Zarur holda ko’rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o’rganib chiqiladi. Muzokara asosan elektron pochta orqali amalgalashiriladi. Telefon tarmog’idan ham ba’zan foydalaniladi. Bosma o’quv materiallari pochta orqali yuboriladi. O’qish jarayonida talaba darsliklardan, elektron kutubxonalaridan, elektron forumlardan, videokonferensiyalardan foydalanadi. Bunda o’qish individual shaklda olib boriladi va o’qituvchi o’quvchining qobiliyati va xususiyatlarini hisobga olgan holda o’qitadi. Bu individuallik talabada qiziqish uyg’otadi va uni o’qishda aktivlikka rag’batlanadir.

Masofaviy ta’lim - masofaviy o’qitishga asoslangan ta’lim. Masofaviy o’qitish – o’zaro ma’lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o’quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o’qitish usullariga asoslangan talaba va o’qituvchi o’rtasidagi munosabat. Masofaviy o’qitish tizimi – masofaviy o’qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o’qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o’qitish tizimi o’zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Masofaviy ta’lim turlari quyidagicha: Ma’ruza - har qanday muammo, metod, mavzu va boshqalar bo’yicha materialni og’zaki bayon qilish. Masofaviy o’qitish tizimidagi ma’ruza darsi talaba mustaqil ravishda o’rganishi kerak bo’lgan kerakli o’quv materiallari bilan (bosma yoki elektron) sahifalar to’plamidir. Ma’ruza ko’pincha audio yoki videofayl shaklida taqdim etiladi. Ikkala holatda ham talaba va o’qituvchi o’rtasida jonli aloqa mavjud emas. Biroq, audio, videokonferensiylarda “jonli” ma’ruza tashkil qilinadi. Ko’pincha multimediya ma’ruzalarining har bir qismi oxirida unda ko’rsatilgan material asosida savol beriladi. Ma’ruzaning keyingi qismiga shu savollarga to’g’ri javob berish orqaligina o’tiladi. Seminar - bu nazariya majburiy ravishda amaliyatga asoslangan o’qitish shakli. asofadan o’qitish bo’yicha seminarlar asinxron va sinxron tarzda o’tkazilishi mumkin. Ular elektron munozaralardir (Internet-forumlar). Muhokamadan oldin tayyorgarlik bosqichi darhol boshlanadi. Darslar boshlanishidan bir hafta oldin talabalar seminar uchun topshiriq va o’qituvchidan o’qish uchun adabiyotlar ro’yxatini oladilar. Asinxron seminarning afzalligi shundaki, talaba suhbating rivojlanish tarixini o’rganayotganda istalgan vaqtida munozaraga qo’shilishi mumkin. Biroq, masofadan o’qitish bo’yicha seminarlarni onlayn rejimida o’tkazish samaraliroq. Buning uchun barcha seminar ishtiroychilari bir vaqtning o’zida onlayn bo’lishi kerak.

Seminarlar veb-konferensiylar shaklida ham o’tkazilishi mumkin. Bunday mashg’ulotlar an’anaviy yuzma-yuz mashg’ulotlardan deyarli farq qilmaydi, chunki ishtiroychilar bir-birlarini kompyuterlarining monitorlarida ko’rishadi. Mustaqil ish - bu talabalar tomonidan o’qituvchining bevosita ishtiroykisiz, lekin buning uchun maxsus belgilangan vaqtida uning ko’rsatmasi bilan o’qish shakli. Masofaviy o’qitish bilan ushbu o’quv shaklidan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Talabalar nafaqat adabiyotlar bilan, balki o’quv dasturlari, testlar, ma’lumot bazalari bilan ham mustaqil ishlashadilar ma’ruzalarni mustaqil ravishda o’rganadilar, seminarlarga va amaliy ishlarga tayyorlanadilar. Talabalarni metodik materiallar bilan yetarli darajada jihozlash sharoitida mustaqil ishlarning ulushi butun semestr yukining uchdan ikki qismini tashkil qilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishlari -

talabalarning ilmiy farazlarni sinash, qonuniyatlarni aniqlash, yangi bilimlarni egallash va mavjudlarini kengaytirish maqsadida tadqiqotlar o’tkazishdan iborat ish. O’quv konsultatsiya - bu odatda o’qituvchi va talabalar o’rtasida suhbat shaklida otkaziladigan individual yoki guruh mashg’ulotlari. Bunday darslarning maqsadi o’quvchilar bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishdir.

Masofaviy ta’limning har qanday shakli bilimlarni nazorat qilishni o’z zimmasiga oladi. Asosan, bu testlar yordamida amalga oshiriladi, chunki bu usul talabaning ta’lim muassasasida bo’lishini talab qilmaydi va test topshiriqlarini to‘g’ri tuzish bilan dastur talabalarining haqiqiy bilimlarini aks ettiradi.

Masofaviy o’qitishning kontseptual asoslari: Masofaviy o’qitish tizimi uzuksiz ta’lim tizimida kunduzgi, sirtqi, eksternat o’qitish tizimlari qatorida ko’rilishi kerak. Pedagogikaning asosiy tamoyillarini o’zida aks ettiradigan shaxsiy yo’naltirilgan yondoshuv dunyo pedagogik jamoalari tomonidan zamonaviy ta’lim tizimlarining barcha shakllari uchun tan olingan. O’qitish markazida o’qitish jarayoni emas, talabaning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatidan kelib chiqadigan bilish faoliyati, o’rganish turadi. O’qituvchining faoliyati talabalarning mahsuliyligi faoliyatining tashkil etilishiga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Binobarin, ta’lim tizimining asosiy maqsadi shaxsnинг intellektual va ma’naviy rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, axborotlar bilan ishlashni o’rgatishdir.

Masofaviy o’qitishdagi shaxiy yo’naltirilgan yondoshuv Internet taqdim etayotgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda o’quv jarayonining ta’lim darajasini sezilarli oshiradi. Masofaviy o’qitish jarayonini shunday pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimki, talabalarning quyidagi imkoniyatlari shakllansin:

aniq ilmiy yoki amaliy muammolarni yechishga tadbiq eta oladigan zaruriy fundamental bilimlarni olish;

bilish faoliyati jarayonida kelib chiqqan muammolarni do’stlar bilan hal etish;  
qo’ylgan masalalarni yechish uchun zarur bo’lgan qo’shimcha axborot manbalari bilan ishlash;  
barcha mavjud muammolarni bartaraf etish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo’llash;

Internet texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil kuzatishlar olib borish;

o’z bilim darajalarni, erishilgan yutuqlarini baholash imkoniga ega bo’lish, o’z faoliyatini to‘g’rilay olish.

Zamonaviy kompyuter didaktik dasturlari (elektron darsliklar, kompyuter topshiriqnomalari, o’quv qo’llanmalar, gipermatnli axborot-ma’lumot tizimlari, arxivlar, kataloglar, ma’lumotnomalar, entsiklopediyalar, sinovchi va shakllantiruvchi trenajor dasturlar) bilimlarning ko’p sohalari kesishuvidan kelib chiqqan multimedya- texnologiyalari asosida yaratiladi. Rangli kompyuter animatsiyalaridan, yuqori ishlanadi. Sifatli grafika, videokator, sxemali, formulali, spravochnik (yordamchi prezentsiyalaridan) dan foydalanish – o’rganilayotgan kursni dinamik tasvirlarning ketma-ket yoki armoqlangan zanjiri tarzida namoyish etish imkonini beradi. Multimediya – tizimlar didaktik materialni uzatishni yuqori darajada qulay va ko’rgazmali bo’lishini ta’minlaydi, bu o’rganishga qiziqishni orttirish va bilimlardagi boshliqlarni to’ldirishga xizmat qiladi.

Masofaviy o’qitishning pedagogik texnologiyalari– tanlangan o’qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta’limning o’quv-tarbiyaviy jarayonini ta’minlovchi o’qitish metodi va uslublar majmuasidir.

Masofaviy ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun texnik va metodologik tayyorgarlik, shuningdek, pedagoglarning zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini oshirish zarur.

Masofaviy o’qitish — bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar —

Elektron pochta, Internet, video konferentsiya, audio, video ma’lumotlar va multimedia o’quv qo’llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o’qitish, o’rgatish usulidir. Masalan masofadan biror yangi mavzu yoki predmet bo’yicha ma’lumotlarni viloyatlardagi ixtiyoriy o’quv yurtlariga uzatish mumkin. Agar joylarda bu sohada mutaxassis bo’lmasa masofadan o’qitish yagona usuldir.

Masofaviy ta’limda talabandan doimiy faoliyat — interaktiv o’qitish talab etiladi. Bu esa mutaxassisning bilimi va qibiliyatini sifat xarakteristikasini oshiradi.

Masofaviy o’qitishning texnologiya elementlari hatto yuz yillardan beri ko’rib kelinadi. Bunga Rossiya tajribasidan misol qilib general A.M.Shanyavskiy nomidagi Moskva Xalq Universiteti, Naxotka shaxridagi Morexodnaya maktablarini olish mumkin. Bu yerda V. P. Chernov 1987 yili masofaviy o’qitishni joriy etgan. Ma’lumki dunyoda ilmiy izlanishlar bo’yicha axborotlar doim o’sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda.

O’zbekistonda masofaviy ta’lim:

O’zbekistonda masofaviy ta’lim sohasi rivojlanish bosqichida bo’lib, qator oliy ta’lim muassasalari ushbu shaklda darslarni yo’lga qo’yan. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’lim tezkor joriy etilib, platformalar (masalan, ZOOM, Google Meet, Moodle) orqali o’qitish ommalashdi. Hukumat tomonidan

masofaviy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha alohida e’tibor qaratilib, normativ-huquqiy bazalar va texnologik infratuzilma takomillashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Oliy ta’lim tashkilotlarda masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tasdiqlansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabaning turar joyidan qat’i nazar, unga ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish;

masofaviy ta’lim shakli joriy etish mumkin bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilash;

masofaviy ta’lim bo‘yicha qabul parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalarida Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan kelishilgan holda bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlilik (idora), moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida tegishli oliy ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarda nodavlat oliy ta’lim tashkiloti muassisi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlash hamda ta’lim jarayonini to‘lov-kontrakt asosida amalga oshirish;

masofaviy ta’limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalangan holda tashkil etish;

masofaviy ta’limda bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:50 nisbatda belgilash;

masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘quv jarayonini davlat ta’lim standarti, kasbiy standartlar va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv rejalarini hamda o‘quv dasturlari asosida amalga oshirish;

masofaviy ta’limga talabalarini qabul qilish va o‘quv jarayonini tashkil qilish tartibini belgilash, shuningdek, masofaviy ta’lim sifati monitoringini tashkil etish.

a) 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab qolgan davlat va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlariga ruxsat beriladi, faoliyati mazkur qaror qabul qilingunga qadar qonunchilik hujjatlari asosida tashkil etilgan oliy ta’lim tashkilotlari bundan mustasno;

b) masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha kadrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi mavjud bo‘lgan oliy ta’lim tashkilotlarida yo‘lga qo‘yiladi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishlari bundan mustasno;

v) masofaviy ta’lim shakli asosida kadrlar tayyorlashda bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga qabul parametrlari 300 nafar talabandan, bir magistratura mutaxassisligiga 30 nafar talabandan ortiq bo‘lmasligi lozim. Bunda:

mazkur talab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishlariga nisbatan tatbiq etilmaydi; talabalar sonini aniqlashda xorijiy davlat fuqarosi bo‘lgan talabalar hisobga olinmaydi;

g) masofaviy ta’lim shakli joriy etilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga Masofaviy ta’limni tashkil etish va rivojlantirish markazini (keyingi o‘rninda — Markaz) tashkil etish huquqi beriladi.[1]

Masofaviy ta’lim sifati monitoringi

Ta’lim tashkilotlaridagi masofaviy ta’lim bo‘yicha o‘quv jarayoni Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

O‘quv jarayonini monitoring qilishni masofadan turib amalga oshirish maqsadida oliy ta’lim tashkilotining masofaviy ta’limni boshqarish bo‘yicha dasturiy ta’minot — LMS platformasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimiga hamda Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ta’lim muassasalari, pedagog xodimlar, ta’lim oluvchilar va boshqa axborotlar to‘g‘risida yagona ma’lumotlar bazasi axborot tizimiga integratsiya qilinishi majburiy hisoblanadi.

O‘quv jarayonining monitoringi dars mashg‘ulotlari va nazorat tadbiralarini kuzatish va tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, fokus-guruuhlar tashkil etish, intervyu olish, natijalarni baholash va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Monitoring natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklar oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi yoki Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining taqdimnomasi asosida bartaraf etilishi majburiy hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U quyidagi afzalliklarga ega:

1. Geografik chegaralarsiz ta’lim: Dunyodagi istalgan hududdan ta’lim olish imkonini beradi.
2. Vaqtini tejash: Talabalar o‘z vaqtini mustaqil rejalashtirish imkoniyatiga ega.
3. Resurslarning keng imkoniyatlari: Masofaviy ta’lim resurslari (elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, vebinarlar)dan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Masofaviy ta’limda zamонавиу texnologiyalar (masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams) muhim o‘rin tutadi. Ushbu vositalar o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini boshqarish, talabalarning bilimlarini baholash va ularning faolligini kuzatish imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim jarayonini takomillashtirishda quyidagi muammolar mavjud:

1. Texnik infratuzilma yetishmovchiligi: Ayrim hududlarda internet tarmog‘ining sifati pastligi.
2. Pedagoglar va talabalar tayyorlarligi: Masofaviy ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi.
3. Motivatsiya yetishmovchiligi: Masofaviy ta’limga bo‘lgan qiziqishning pastligi va talabalarning sust faolligi.

**Natija va tahlil.** Agar ma’lumotlarimizdan foydalangan holda „Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusi bo‘yicha SWOT tahlil quyidagicha bo‘lishi mumkin:

S (Strengths) – Kuchli tomonlar

1. Moslashuvchanlik: Talabalar joylashgan joyidan qat’i nazar ta’lim olish imkoniyati.
2. Resurslarning keng doirasi: O‘qituvchilar va talabalar global ta’lim resurslariga ulanish imkoniga ega.
3. Tejamkorlik: Infra-strukturaviy xarajatlarni kamaytirish (binolar, transport).
4. Innovatsion yondashuv: Zamонавиу texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.
5. Kattaroq auditoriya: Bir vaqtning o‘zida ko‘plab talabalarni qamrab olish imkoniyati.
6. Axborot resurslariga keng kirish: Elektron platformalar orqali ko‘plab darsliklar, ma’ruza materiallari va interaktiv vositalardan foydalanish mumkin.
7. Mustaqil ta’lim olish imkoniyati: Talaba o‘ziga qulay bo‘lgan jadvalda bilim olishi va ko‘nikmalarni rivojlantirishi mumkin.
8. Globallik: Dunyoning istalgan nuqtasidagi o‘quvchilarni birlashtirishi va xalqaro darajadagi kurslarni o‘rganish imkonini beradi.

W (Weaknesses) – Zaif tomonlar

1. Texnik infratuzilma yetishmovchiligi: Internet sifati va qamrovi cheklangan joylarda ta’lim sifati pasayadi.
2. O‘qituvchilarning yetarli malaka darajasi: Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tajriba yetarli emas.
3. Talabalar ishtiropi: Masofaviy ta’limda talabalar motivatsiyasining pasayishi va qatnashuvning kamligi.
4. Nazorat qilish qiyinchiliklari: Talabalarning bilimini ob’ektiv baholash mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.
5. Shaxsiy aloqaning cheklanganligi: O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi bevosita muloqotning yo‘qligi.
6. Interaktivlikning cheklanganligi: O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi jonli muloqot va amaliy mashg‘ulotlarning yetishmasligi o‘quv jarayonini qiyinlashtirishi mumkin.
7. Baholashning murakkabligi: Talabaning bilimini adolatli baholash uchun qo‘srimcha choralar talab etiladi.

O (Opportunities) – Imkoniyatlari

1. Global hamkorlik: Xalqaro ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish va tajriba almashish.
2. Yangi texnologiyalarni joriy qilish: Sun’iy intellekt, virtual haqiqat, va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati.
3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim: Har bir talabaning ehtiyojlariga mos dasturlarni ishlab chiqish.
4. Ish bozoriga moslashuvchanlik: Bozor talablariga mos dasturlarni masofaviy ta’lim orqali tez joriy etish.
5. Mamlakat miqyosida raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish: Ta’limga umumiyl kirish imkoniyatini oshirish.

T (Threats) – Tahdidlar

1. Kiberxavfsizlik muammolari: Ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi va platformalarning xakerlar hujumiga uchrashi.

2. Raqobat: Xalqaro masofaviy ta’lim platformalari bilan ichki bozorda raqobatlashish.
3. Ijtimoiy tengsizlik: Texnologik imkoniyatlarning barcha talabalarga teng taqsimlanmaganligi
4. Texnologiyalarga qaramlik: Texnik nosozliklar ta’lim jarayoniga jiddiy ta’sir qilishi.
5. An’anaviy ta’lim bilan kelishmovchilik: Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limning samaradorligini pasaytirishi mumkinligi haqidagi xavotirlar.[8; c. 28-31]

Ushbu SWOT tahsil asosida strategik reja ishlab chiqib, zaif tomonlarni kuchli tomonlarga aylantirish, imkoniyatlardan maksimal foydalanish va tahdidlarning oldini olish yo‘nalishida ishlarni tashkil qilish mumkin.

Texnik infratuzilmani rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish.

O‘qituvchilar uchun masofaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha maxsus trening va seminarlarni tashkil etish.

Talabalar o‘rtasida masofaviy ta’limning afzalliklarini targ‘ib qilish va motivatsiyani oshirish.

Kelajakda masofaviy ta’lim texnologiyalari oly ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishda asosiy vositalardan biriga aylanadi. Sun‘iy intellekt va big data texnologiyalarining integratsiyasi masofaviy ta’limni yanada shaxsiyashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari amaliy mashg‘ulotlarni yanada interaktiv tarzda tashkil qilish imkonini beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish oly ta’lim muassasalari uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda texnologik infratuzilmani rivojlantirish, pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Takomillashtirilgan masofaviy ta’lim tizimi mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga katta hissa qo‘sadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // Вестник науки и образования 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.
3. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad // Academy. № 6(57), 2020. С9.
4. Исмоилова М.Н., Имомова Ш.М. Интерполяция функции // Вестник науки и образования 2020. № 3 (81). Часть 3. С.5-
5. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Работа с криптовалютой // Universum: технические науки. №10(91), 2021. С. 18-21.
6. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Роль кейс-метода на уроках математического моделирования // Вестник науки и образования, 2022. № 4 (129). Часть 2. С.76.
7. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Роль социальных сетей в образовании // Universum: технические науки. №10(103), 2022. С. 30-32.
8. Бердиева С.М., Имомова Ш.М. Использование инновационных технологий на уроках информатики // Наука, техника и образование. 2018. № 10 (51). С. 28-31.

## TALABALARING KASBIY RIVOJLANISHIDA TEATR PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI

Nurova Rohila Ismoil qizi,  
Profı University Navoiy filiali o‘qituvchisi, O‘zbekiston

*Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasasining talabalar kasbiy rivojlanishidagi ahamiyati hamda bu jarayonni samarali tashkil etishda teatr pedagogikasining o‘rni haqida bayon etiladi. Shuningdek, teatr pedagogikasi qanday tashkil etilishi, uning talaba kasbiy rivojlanishidagi ijobiylari keng ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** talaba, kasb, kasbiy tayyorgarlik, talabalarning kasbiy rivojlanishi, teatr pedagogikasi, teatr pedagogikasining asosiy tushunchalari, “o‘qituvchi” va “aktyor” rollari, teatr pedagogikasini amalga oshirish tartibi.

### ЗНАЧЕНИЕ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ СТУДЕНТОВ

*В данной статье описывается значение высшего учебного заведения в профессиональном развитии студентов и роль театральной педагогики в эффективной организации этого процесса. Также широко раскрываются способы организации театральной педагогики, её положительные стороны в профессиональном развитии студентов.*

**Ключевые слова:** студент, профессия, профессиональная подготовка, профессиональное развитие студентов, театральная педагогика, основные понятия театральной педагогики, роли «учителя» и «актёра», методика театральной педагогики.

### THE IMPORTANCE OF THEATER PEDAGOGY IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

*This article describes the importance of a higher education institution in the professional development of students and the role of theater pedagogy in the effective organization of this process. The ways of organizing theater pedagogy and its positive aspects in the professional development of students are also widely revealed.*

**Key words:** student, profession, professional training, professional development of students, theater pedagogy, basic concepts of theater pedagogy, the roles of “teacher” and “actor”, methods of theater pedagogy.

**Kirish.** Jahon ta’lim tizimida maktab ta’lim tizimini yaxlit uzlusiz ta’limning muhim bo‘g‘ini sifatida yanada takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, turli ijodiy ishlarni tashkil etgan holda o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga mos kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro miqyosda pedagoglarning kasbiy faoliyatini tashkil etishga doir umumkasbiy kompetensiya darajasini rivojlantirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish ustuvorlik kasb etib, uzlusiz ta’lim tizimini takomillashtirish, talaba-yoshlarning kasbiy kompetensiyasini tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o‘quvchilar faolligini ta’minalash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minalashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘zini-o‘zi va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar toplash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minalash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o‘quvchilar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini

ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan pedagogni kompetentli deyishimiz mumkin.

Demak, ta’lim muassasalarini pedagoglarining o‘z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo‘naltirilgan vazifalarini amalga oshirish jarayoni bo‘lib, pedagogik jarayonlarda ko‘zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo‘nalishidagi subyekt (o‘qituvchi-o‘quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish orqali subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlar davomida zaruriy pedagogik ko‘nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi va ma’naviyati oshadi.

**Asosiy qism.** Kasb (lot. professio; profiteer so‘zidan olingan bo‘lib) “o‘z ishimni e’lon qilaman” degan ma’noni beradi. Inson mehnat faoliyatining bir turi bo‘lib, odatda uning mavjud bo‘lish manbai sanaladi, ya’ni bu mehnat uchun odam daromad oladi[2].

Jamiyatimiz uchinchi ming yillikka qadam qo‘ya turib ishlab chiqarishning texnologik murakkablashuvi mutaxassislarining malaka darajasidan tezroq o‘sishi kabi muammo bilan to‘qnash keldi. Kasbiy tayyorgarlik sifatini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlarining kiritilishi, shakllanayotgan mehnat bozori talablari va jamiyatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni hisobga olish o‘rganuvchilarning kasbiy muvofiqlik darajalariga yondashuvda prinsipial yangi mazmun talab etadi[2].

M.T.Mihridinovaning fikricha kasb tanlash bu jiddiy va mas’uliyatli ishdir. O‘z hayot yo‘lini jiddiy suratda belgilab olish – oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi[2].

N.A.Muslimov kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishda pedagogik tizim va faoliyat yurituvchi muhitning o‘zaro ta’sirlashuv mexanizmini yaratish, pedagogik faoliyatda namoyon bo‘lishiga ko‘ra bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy, kasbiy shakllanganlik darajasini belgilab beruvchi individuallikning motivatsion, intellektual, hissiy, irodaviy, amaliy ko‘nikma va o‘z-o‘zini boshqarish sifatlari kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash jarayonining pedagogik shart-sharoitlari hamda vositalarini aniqlashning asosiy mezonlari, madaniy-genetik jarayon mahsuli sifatida o‘qituvchi rahbarligidagi auditoriya mashg‘ulotlarida, mustaqil ta’lim olishga, pedagogik va texnik-texnologik muammoli-vaziyatli topshiriqlarga tayangan holda tayyorlanishga, individual sifatlar, shuningdek, tayanch kompetentlikni tarkib toptirishga qaratilgan kasb ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash modelini ishlab chiqqan va bakalavrilar tayyorlash sifatini nazorat qilish mexanizmi sifatida kasb ta’limi o‘qituvchilariga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar, kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish uchun ishlab chiqilgan elektron multimediali o‘quv-metodik vositalar to‘plami asosida o‘rganilayotgan soha bo‘yicha masofali ta’lim texnologiyasi yaratish[3] kabi g‘oyalarni ilgari surgan.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar jamiyatimiz kelajak taraqqiyotining asosi – talaba shaxsi bilan ish olib boradi. Talaba ta’lim markazining subyekti hisoblanadi. Talabaning ichki kuchlariga, salohiyatiga, ehtiyojlariga murojaat qilinmasa pedagogik jarayon samarali bo‘lmaydi.

Talaba oliy ta’lim muassasasiga kirishdan oldin kasb tanlaydi va bu bo‘lg‘usi professional sifatida subyekt pozitsiyasini aniqlab beradi: yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish) va mavjud imkoniyatlar orasida, yangi tizimlar munosabati bilan shunga o‘xhash munosabatlarning mifik tabda odatlanib qolning stereotiplari orasida ziddiyat kelib chiqadi. Kasbiy tayyorgarlik yo‘lining o‘zi talaba roli pozitsiyasining juda tez o‘zgarishini talab qiladi: o‘qishning boshida u maktab talabasi bo‘lishi kerak emas, uning oxirida esa – talaba bo‘lishi kerak emas. Bularning hammasi talabalarning jadal ijtimoiy ulg‘ayishini va kasbiy - shaxsiy jihatdan rivojlanishini talab qiladi.

Olimlarning fikricha, pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyati uning boshqaruvchanligi meto faoliyatligidan iboratdir, ya’ni pedagog o‘z faoliyatini talaba faoliyatiga qarab qurishi lozim bo‘ladi. Ko‘pchilik kasb egalari o‘z faoliyatlarini malakali darajada tashkil etish bo‘lsa, oliy ta’lim pedagoglar uchun talabalarning o‘quv faoliyatini tashkillashtirishidan iborat. Shuning uchun xalqda shunday fikr yuradi “yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib beradi, yaxshi o‘qituvchi esa uni topishga ko‘maklashadi”.

Oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi talabaga nafaqat bilim beradi, balki unga kelgusidagi kasbiy faoliyatini tashkil etish sir asrorlarini o‘zining olib borayotgan pedagogik mahoratida namoyon etadi, o‘rgatadi.

Shu nuqtai nazardan o‘qituvchining pedagogik pozitsiyasi, qadriyatlarini muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosida talabani qadr-qimmatli shaxsi sifatida qabul qilish, unga faol munosabatda bo‘lish, «subyekt-subyekt» munosabatlarni, ya’ni o‘qitish jarayonida, ijodiy faoliyatda hamkorlik qilish, unga ta’lim markazining asosi deb qarash lozim. Bunday sharoitlarda pedagog va talabaning hamkorlikdagi faoliyati qaratilgan «obyekt» sifatida o‘rganuvchilar emas, balki, professional faoliyatni o‘zlashtirish hisoblanadi.

Shunday qilib, pedagogik faoliyatning mohiyati «shaxsni obyektdan subyektga aylantirish» dan iborat. Shu nuqtai nazardan V.A.Slastenin va A.I.Mishenkoning pedagogik faoliyatning haqiqiy obyekti pedagogik jarayondan yulib olingen talaba emas, balki, «o‘zaro bog‘langan o‘quv-tarbiyaviy vazifalar tizimidan iborat bo‘lgan pedagogik jarayon bo‘lib, unda tarbiyalanuvchi bevosita ishtirok etadi va uning asosiy komponentalaridan biri sifatida faoliyat ko‘rsatadi»[2].

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbi aniq – ya’ni, pedagog, o‘qituvchi, murabbiy, tarbiyachi sifatida faoliyat olib borishadi. Biroq, talaba bo‘lajak kasbiga tayyor kadr bo‘lishida unga turli yondashuvlar asosida ta’sir etish oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining asosiy maqsadi bo‘lishi lozimdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash yo‘llarini izlab topish, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirishning shakl, metodlarini ishlab chiqish muhim va dolzarblik ahamiyat kasb etadi.

**Muhokama va natijalar.** Talabalarning kasbiy rivojlanishida, ya’ni ularda bo‘g‘usi kasbiy faoliyatiga doir bilim, ko‘nikmalarning tarkib topishiga asoslangan yondashuv – bu teatr pedagogikasidir.

Teatr pedagogikasi – bu improvizatsiya o‘yinlari va haqiqiy samarali harakatlar qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, ishtirokchilar uchun qiziqarli sharoitlarda, o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi ijodiy ishlarida, atrofdagi dunyo hodisalarini immersiv va obrazlarda yashash orqali anglash va inson, uning roli to‘g‘risida yaxlit g‘oyalari to‘plamini berish usulidir.

Teatr pedagogikasi – sahna san’atini o‘rgatish mahorati bo‘lib, bunda talabalarni badiiy shaklda o‘qitish va ilhomlantirish uchun qo‘llaniladigan tamoyil va usullarni o‘z ichiga oladi. Bu turli xil o‘qitish uslublarini tushunish va qo‘llash, ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirish, talabalarda teatrga bo‘lgan ishtyoqni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Teatr pedagogikasi barcha yosh toifalaridagi ta’lim oluvchilarga erta bolalikdan to yetuklik yoshigacha foydali bo‘lishi mumkin. Erta bolalik davridagi ta’limda u til ko‘nikmalarini, ijodkorlikni va ijtimoiy muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang‘ich va o‘rta ta’limda u muloqot ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlashni va empatiyani yaxshilaydi. Oliy ta’limda teatr pedagogikasidan murakkab mavzularni o‘rganish va muhokamani rivojlantirish uchun foydalanish mumkin. Hatto kattalar ham shaxsiy rivojlanish yoki jamoaning shakllanishi uchun teatr mashqlaridan foydalanishlari mumkin.

Bugungi tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda teatr pedagogikasi samarali muloqot hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega, san’atni chuqur anglaydigan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Teatr pedagogikasi turli kasb va sohalarda katta ahamiyatga ega. Ta’limda u o‘qituvchilarini o‘z-o‘zini ifoda etish, empatiya va ishonchini taqdim etishi orqali talabalarni ta’limga jalb qiladi.

Teatr pedagogikasi oliy ta’lim muassasalarida pedagog-trenerlarga talabalarning boshlang‘ich aktyorlik, rejissyorlik va dizaynerlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarda notiqlik ko‘nikmalarini, jamoada ishslash va muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Teatr pedagogikasi turli xil tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi usullarning sintezi bo‘lib, inson shaxsining ochiq va ko‘pincha yashirin ijodiy qobiliyatlarini faollashtirishni optimal darajada ta’minlaydi. Teatr pedagogikasida san’at va psixologiya uyg‘unlashtiriladi hamda barkamol, intellektual va axloqiy jihatdan komil shaxsni shakllantirishni ta’minlaydigan boy pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi va takomillashtiradi.

Teatr pedagogikasi oliy ta’lim muassasalarining auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarida teatr va ta’limiy muhitni yaratish bilan tavsiplanadi. Ba’zi olimlar, psixologlar va pedagoglar teatr san’atini talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi psixologik emas, balki pedagogik ta’sirning ko‘p bo‘g‘inli shakli sifatida ishonch bilan tan oladilar.

Teatr pedagogikasida asosiy tushunchalar – bu **ijod, san’at, teatr**.

Ijodkorlik – bu yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratishga olib keladigan faoliyat.

San’at – badiiy tasvirlarda voqelikni ijodiy aks ettirish; malaka, mahorat, masalani bilish; odamlarning dunyonи badiiy idrok etishi va o‘rganishiga qaratilgan ma’naviy va amaliy faoliyat sohasidir.

Teatr – dramatik harakatlar orqali hayotning badiiy ko‘rinishidir. Odamlarning orzu-havaslarini, fikrlarini, his-tuyg‘ularini, davrning mohiyatini, voqealarini, tarixiy o‘lchovlarini aks ettiruvchi san’at.

Oliy ta’lim muassasasida ikkita asosiy xarakter mavjud bo‘lib, bular: “o‘qituvchi” va “talaba”, “ta’lim beruvchi” va “ta’lim oluvchi”, “yetuk inson” va “tajribasiz mutaxassis”.

“O‘qituvchi” kasbi “aktyor” va “rejissor” kasblari bilan juda ko‘p umumiyliliklarga ega. O‘qituvchilik va aktyorlik kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati “ommaviylik” dir. O‘qituvchilar aktyor yoki rejissyorlar kabi, tinglovchining his-tuyg‘ulari, xotirasasi, fikrlari va irodasiga murojaat qilib, tomoshabinlar – talabalarning hissii sohasi va ongiga ta’sir qiladi.

Aktyor sifatida o‘zining ishonarliligi, ta’sir etishi hamda artistligi bilan o‘qituvchi faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlay oladi.

Rejissyor aktyorlar uchun kuchli hissiy va irodaviy ta’sir ko‘rsatgani kabi, pedagog talabalarga shunday ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday rejissyor bo‘lg‘usi spektaklning dramaturgik mantig‘ini qurgani kabi, pedagoglar ham ta’lim jarayonining mantig‘ini qurishga majburdir.

A.S.Makarenkoning fikricha, o‘qituvchi “Bu yerga kel” iborasini intonatsion ravishda takrorlamasdan 25 xil talaffuz qila olsagina sinf xonasiga kirishi mumkin. Bu uchun, bo‘lajak o‘qituvchilarda mimika, pantomimika, ovozni boshqara olish qobiliyatini hamda aktyorlik va rejissyorlik fazilatlarini rivojlantirish lozim.

Teatr pedagogikasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan axloqiy hamda ilmiy haqiqatlarni assimilyatsiya qilish imkonini beradi.

Teatr pedagogikasi har bir shaxsning mas’uliyatini hamda mustaqilligini oshiradi; estetik didini, tahlil qilishni va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, shaxsning o‘z-o‘zini ifoda etishni, individual qobiliyatlarini namoyon etish imkon beradi.

Tadqiqotimiz davomida biz teatr pedagogikasi yordamida oliv ta’lim muassasasi talabalarining subyektivligini shakllantirishning quyidagi imkoniyatlarini aniqladik: **qadriyatga yo‘nalganlik, ijodiy mazmundorlik, kommunikativlik va faoliyatga yo‘nalganlik.**

Qadriyatga yo‘nalganlik – jamiyat me’yorlari va an’analariiga mos keladigan axloqiy fazilatlar va munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Har bir oliv ta’lim muassasasi o‘z an’analari va me’yorlariiga ega bo‘ladi.

Bo‘lg‘usi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bir qator muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, talabalarning ijtimoiy tajribasini, ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini hamda ularning individualligini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

Teatr pedagogikasi talabalarga ko‘plab imtiyozlar beradi. Teatr pedagogikasi talabalarda fikr va hissuyg‘ularini ifoda etishga undash orqali ijodkorlik, o‘ziga ishonch va o‘zini hurmat qilishni rivojlantiradi.

Talabalar teatrlashtirilgan spektakllarni yaratish va sahnalashtirish uchun birgalikda ishlashlari natijasida jamoaviy ish va hamkorlikni targ‘ib qiladi.

Teatr pedagogikasi oliy ta’lim muassasalarida turli strategiyalar orqali auditoriyaga kiritiladi. O‘qituvchilar talabalarни faol ta’lim olishga jalb qilish maqsadida mashqlar, improvizatsiya hamda rolli o‘yinlar kabi dramatik tadbirlarni tashkil etishlari mumkin. Bunda o‘zida qisqa pyesa, ssenariy yoki monologlarni aks ettiruvchi guruh loyihalari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar adabiyot, tarix yoki ijtimoiy masalalarni o‘qitishni yaxshilash uchun drama usullaridan foydalanishlari mumkin[6].

Teatr pedagogikasi drama yoki sahma san’atidan tashqari turli mavzularda ham qo‘llanilishi mumkin. U adabiyotni o‘rgatish, ijro yoki talqin orqali hikoyalarni jonlantirish uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, tarix darslarida tarixiy voqealarni qayta tiklash yoki turli nuqtai nazarlarni o‘rganish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, u ijtimoiy tadqiqotlarda rolli o‘yinlar yoki forum teatri orqali ijtimoiy muammolarni tushunish uchun ishlatilishi mumkin.

Notiqlik mahoratini oshirishda teatr pedagogikasi juda samarali. Teatr faoliyati bilan shug‘ullanish orqali talabalar tomoshabinlar oldida chiqish qilishda o‘z-o‘ziga ishonchni rivojlantiradilar.

Ular o‘z ovozlarini loyihalashni, tana tilidan samarali foydalanishni va o‘z fikrlarini aniq ifodalashni o‘rganadilar. Improvizatsiya va rol o‘ynash orqali ular ishonchli tarzda yo‘l-yo‘lakay o‘ylashni va kutilmagan vaziyatlarga javob berishni o‘rganadilar, bu esa samarali ommaviy nutq uchun muhim ko‘nikmalardir.

Teatr pedagogikasini amalga oshirish ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bulardan biri – teatr faoliyati uchun cheklangan vaqt yoki resurslar bo‘lishi mumkin.

Yana bir muammo, aktyorlik faoliyatida talabalarning rol ijro etishida o‘zlarini qulay his qila olmasligi hamda qarshiliklar ko‘rsatishi bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, logistika bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘lishi mumkin, masalan, bo‘s sh joy chekllovlar yoki rejalashtirishdagi ziddiyatlar. Biroq, puxta rejalashtirish, ijodkorlik va ochiq muloqot bilan talabalar uchun foydali teatr tajribasini yaratish uchun bu qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Teatr pedagogikasi inklyuziv ta’lim uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin. U turli xil o‘rganish uslublari, qobiliyatlar va qiziqishlariga mos keladigan bir qator tadbirlarni taklif qiladi. Bu turli kuchli va iste’dodlarga ega bo‘lgan talabalarga o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, teatr pedagogikasi oliy ta’lim muassasasining auditoriya hamda auditoriyadan tashqari vaqtarda talabalarining har tomonlama kasbiy rivojlanishida o‘z samarasdini beradigan texnologiya sanaladi. Teatr pedagogikasidan rejali, maqsadli hamda samarali foydalanishda pedagoglarning ijodiy faolligi hamda talabalarining to‘liq qamrab olinishi muhimlik kasb etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-sod “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Mihridinova M.T. Kasb ta’limi metodikasi. ma’ruzalar matni, T.: - 2010.
3. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ... diss. – T.: 2007, 349 б.
4. Санаева С.Б. Маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш–талаба-ёшларда касбий ривожланишнинг асоси. // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 17-21.
5. <https://go.mail.ru/search?fr=ps&q=vikipedia&gp=843075>
6. <https://rolecatcher.com/ru/skills/knowledge/arts-and-humanities/arts/theatre-pedagogy/>

**TALABALARDA NOTIQLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA INTERFAOL TA’LIM METODIKASIDAN  
FOYDALANISHNING SAMARADORLIK DARAJASI**

*Qirboyeva Norgul Tuymurod qizi,  
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Mazkur maqola orqali talabalarda, bo’lajak pedagog kadrlarda notiqlik kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqishda interfaol ta’lim metodlarining o’rniga e’tibor qaratilgan va u orqali talabalarda notiqlik kompetensiyalarini shakllantirishda pedagog kadrlarni o’z fan doirasida tashqari boshqa bilimlarni ham mujassamlashtirishga e’tibor berilgan. Maqolada notiqlik kompetensiyasi shakllantirishda bir qancha ussullardan foydalananilgan.*

**Kalit sozlar:** notiqlik, nutq, kompetensiya, texnika, texnologiya model, prognoztik.

**УРОВЕНЬ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНОЙ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ МЕТОДИКИ ПРИ РАЗРАБОТКЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ  
РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ**

*В данной статье основное внимание уделяется роли интерактивных методов обучения в разработке технологии формирования ораторской компетенции у студентов и будущих педагогических кадров, посредством которой педагогические кадры в формировании ораторских компетенций у студентов концентрируют и другие знания в рамках своей дисциплины. В статье использованы несколько методов формирования ораторской компетенции.*

**Ключевые слова:** ораторское искусство, речь, компетентность, техника, технологическая модель, прогностика.

**THE LEVEL OF EFFICIENCY OF USING INTERACTIVE EDUCATIONAL  
METHODOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR FORMING SPEAKING  
COMPETENCE IN STUDENTS**

*This article focuses on the role of interactive teaching methods in the development of technology for the formation of oratorical competence in students and future teaching staff, through which teaching staff in the formation of oratorical competence in students concentrates other knowledge within their discipline. The article uses several methods of forming oratorical competence.*

**Keywords:** oratory, speech, competence, technique, technology model, prognostic.

**Kirish.** Notiqlik san’ati og‘zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta’sirli yetkazish malakasini egallashdir. Notiqlik san’ati murakkab san’at bo‘lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Kishilik jamiyatining biror bir jabhasi yo‘qki, unda notiqlik san’ati yoki uning elementlari qatnashmagan bo‘lsa. Masalan: biror bir rahbamning o’z xodimlariga qarata so‘zlagan nutqida ham, o‘qituvchining o‘quvchilariga beradigan sabog‘ida ham, xullas, hamma - hamma yerda notiqlik san’ati o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan. Notiqlik san’atining ijtimoiy mavqeyi shu qadar keng va sertarmoqki, uni har bir sohada me’yori, mazmuni va shakli, o‘ziga xosligi, ta’sir kuchi va tomonlari jihatidan alohida - alohida ko‘rib chiqish uchun ma’lum bir vaqt, imkoniyat talab qilinadi

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyatining o‘ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko‘rinishi sifatida alohida abamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala so‘zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlami o‘z ichiga oladi, ular orqali voqelikka aylanadi, ta’sir qilish quvvatiga ega bo‘ladi. Demak, nutq madaniyati nutq bilan, nutq faoliyati bilan bevosita bog‘liq skan, til nima, nutq nima degan savollaming kelib chiqishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni murakkab hamda ko‘p qirralidir. Bu jarayonning muvaffaqiyatlari va samarali natijasi ta’lim jarayonining qonun-qoidalari, ya’ni ta’limga qo‘yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishga bog‘liq. Ta’lim prinsiplari o‘quv-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar, ta’limni tashkil etish va boshqarishda rioxal qiladigan qoidalari sifatida amal qiladi[1]. Shu ma’noda, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar o‘quvchilarni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarini asoslashga, yangi fikr, yangi so‘zlar kashf etish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida zamонавиy o‘qitish uslublari – interfaol usullar, innovatsion

texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Interfaol ta’lim – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariiga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi.[2]

**Asosiy qism.** Muloqotning ijtimoiy-psixologik nazariyasi va pedagogik tajribalarini o‘rganish pedagogik ta’sir etishda ikki metod:



Notiqlik kompetensiyasini shakllantirishda ilmiy metodlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Eksperimental tadqiqot:** O‘quvchilarning notiqlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli usullarni sinab ko‘rish va ularning samaradorligini o‘lchash.
2. **So‘rovnomalar:** Talabalarning fikrlarini va tajribalarini o‘rganish uchun so‘rovnomalar o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish
3. **Analiz va sintez:** O‘quvchilarga muayyan mavzuda materiallarni tahlil qilish va o‘z fikrlarini ishlab chiqish imkonini berish.
4. **Loyihalash:** Talabalar guruhlarda loyiha tayyorlash orqali o‘z fikrlarini ifodalash va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
5. **Amaliy tadqiqotlar:** Mavzular bo‘yicha tadqiqotlar olib borish va natijalarni taqdim etish orqali mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini oshirish.
6. **Nazariy tahlil:** O‘quvchilarga notiqlik nazariyasi va uning asoslari haqida ma’lumot berish va ularni amaliyotga tadbiq etish.

Shu o‘rinda biz pedagogning kasbiy muloqotdagi vazifalariga e’tibor qaratsak. Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi — texnologiyani o’zlashtirish bo‘lib, unda o‘qituvchi iliq munosabatlarni qo’llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo’ladi. Darsda tashabbusni qo’llga olish usullari quyidagilardan iborat:

- sind bilan aloqani yo’llga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish;
- tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga tezlik bilan o’ta olish; sindning ijtimoiy-psixologik yakdilligini, «biz» hissini shakllantirish;
- vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo’llash;
- butun sind jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;
- latofat, samimiylilik, sofkillikni o‘zida shakllantira olish, darsda namoyon qila taqilangan pedagogik talablami kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish; mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko’z bilan ta’sir qilish (noverbal muloqot) ni faol qo’llash;[5]

Bu metodlardan qay o‘rinda foydalanish pedagogning qobiliyatiga bog’liq.

Notiqlik kompetensiyalarini shakllantirishimizda treninglarni o‘rni ham yuqori.

Notiqlik kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha trening mashg’ulotini quyidagi bosqichlar asosida tashkil etishingiz mumkin:

Mashg’ulot mavzusi: Notiqlik san’ati va o‘zini ifoda etish

1. Kirish (10 daqiqa)

Maqsad va maqsadlar: Notiqlik kompetensiyasining ahamiyati va treningdan kutgan natijalar.

Ishtirokchilar bilan tanishuv: Har bir ishtirokchi o‘zini tanishtiradi va notiqlikdagi tajribasini aytadi.

2. Teoretik qism (20 daqiqa)

Notiqliknинг asosiy prinsiplari: Ovoz, talaffuz, intonatsiya va muloqot usullari.

Odamlarning diqqatini jalb etish: Qiziqarli misollar va hikoyalar.

3. Amaliy mashg'ulotlar (40 daqiqa)

Guruhlarga bo'lish: Har bir guruhga berilgan mavzu bo'yicha mini-prezentatsiya tayyorlash.

Prezentatsiya tayyorlash: Guruhlar o'z mavzularini muhokama qilib, 5 daqiqalik prezentatsiya tayyorlaydi. Prezentatsiyalar: Guruhlar o'z prezentatsiyalarini taqdim etadi.

4. Fikr-mulohaza (15 daqiqa)

O'zaro baholash: Har bir guruh boshqa guruhlarning taqdimotlari haqida fikr bildirish.

Qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar: Ishtirokchilar o'z tajribalarini baham ko'rishadi.

5. Yakuniy qism (15 daqiqa)

Savol-javob: Ishtirokchilardan savollar olish.

Kelib chiqish va xulosa: Treningdan olingan asosiy saboqlar va kelajakdagi rejalashtirish.

Qo'shimcha takliflar: Videolar va misollar: Mashg'ulot davomida mashhur notiqlarning chiqishlarini ko'rsatish.

**Notiqlik kompetensiyasini shakllantirishda interfaol metodlar juda foydali. Quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.**

**1. Rol o'ynash: Talabalar turli vaziyatlarda rol o'ynash orqali notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.**

**2. Muzokaralar: Guruhlarda muayyan mavzu bo'yicha muzokara qilish, fikr almashish va muloqot qilish ko'nikmalarini oshiradi.**

**3. Taqdimotlar: Talabalar o'z fikrlarini taqdimot shaklida taqdim etish orqali notiqlik ko'nikmalarini sinab ko'rishlari mumkin.**

**4. Savol-javob sessiyalari:**  
Savol-javob sessiyalari o'tkazish, tez fikr yuritish va javob berish qobiliyatini rivojlantiradi.

**5. Guruqli muhokama:**  
Kichik guruhlarda muhokama o'tkazish, fikr almashish va eshitish ko'nikmalarini oshiradi.

**6. Fikrlarni ifodalash:**  
Talabalarga o'z fikrlarini qisqa vaqt ichida ifodalashni o'rgatish, bu esa ularning tez fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

Qiziqarli o'yinlar: Notiqliknini rivojlantiruvchi o'yinlar qo'shish.

Biz bunday trening mashg'ulotlari orqali talabalarimizda notiqlik san'atiga qiziqishni, o'quvchilari oldida qanday so'zlar so'zlash kerak ekanligi va o'quvchilarga yetkazish kerak bo'lgan ma'lumotni oson usullarini o'rganishlari mumkin. Eng muhimmi esa trening mashg'ulotlari orqali o'zlarida barcha ijobjiy hislatlarni shakllantirishlari mumkin.

Talabalarda notiqlik kompetensiyasini shakllantirishda biz eng sermahsul usullaridan biri insert usulidan foydalanishimiz mumkin. Bu usul orqali biz talabalarda nafaqat notiqlik balki, ko'plab qobiliyatlarni rivojlanishiga turtki bo'la olamiz.

Insert usuli

Mustaqil o'qib o'rganish uchun Deyl Karneginning “Muomala sirlari” asari o'qib o'rganish beriladi . Uni o'qib chiqib quydagi jadval to'ldiriladi

F.I	V	+	-	?

Bu yerda

**V** men bilgan narsa

**+** yangi ma'lumot

**-** Men bilgan narsaga zid

**?** meni o'ylantirdi, bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 2

Biz yuqorida aytib o’tilgan metodlarni qo’llashimizdan avval talabalarda quydagи so’rovnomanı o’tkazsak biz kutgan natijadan ham yuqori natijaga erishamiz.

### Anketa

Sizning kelajakdagi faoliyattingizda notiqlik san’atining ahamiyati qay o’rinda hisoblaysiz?  
Berilgan izohlarning qaysi biri sizga mos kelsa shu kataknинг yonidagi bo’sh qatorga guruhingiz va ismingizni yozing.

	kuchli xohish bilan o’rganaman
	ish faoliyatimda zarur bo’lgani uchun o’rganaman
	qiziqishim bo’lgani uchun o’rganaman
	o’z kasbimni yetuk mutaxasisi erishimda o’rnini borligi uchun o’rganaman
	o’z fanim chuqur bilaman shuning uchun o’rganishni xoxlamayman
	o’rganish istagim bor ammo , mahoratni tahlil qilish va ma’lumotlarni tizimlastirish yetishmaydi

**Xulosa.** Hozirgi kunda pedagoglarning vazifasi ta’lim jarayoni tashkil etishda keng qamrovli usullardan foydalanish. Shu nuqtayi nazardan talabalarda bu usullarni takomillashtirishda eng avvalo notiqlik mahoratini va ilmiy usullardan foydalana olishi usullarini o’rgatishdir.

### Adabiyotlar:

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (garslik). — T.: Fan va texnologiya, 2008. – B. 215.
2. Ibragimova G. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish: ped. fanlari f.d.(PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2017. – B. 11.
3. Shodiyeva Q. “Nutq o’stirish uslubiyoti”, - Toshkent , O’qituvchi 2008.
4. Bekmirzayev N. “Notiqlik san’ati asoslari”, - Toshkent, Yangi nashr 2008.
5. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. Toshkent-2006.59-bet.

**O‘QUVCHILARNING MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI  
SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING O‘RNI**

*Rasulova Rayxon Baxritdinovna,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek  
adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)*

*Ushbu maqola o‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion texnologiya va interfaol metodlardan foydalanish usullari va tartiblari, interfaol metod turlaridan unumli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga doir masalani yoritishga bag‘ishlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** matn yaratish, matn tahlili, kreativlik, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik qobiliyati innovatsion texnologiya, interfaol metod, adabiyot, metod, pedagogik texnologiyalar, zamon talabi, noan’anaviy dars.

**РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ У СТУДЕНТОВ  
КОМПЕТЕНЦИЙ СОЗДАНИЯ ТЕКСТОВ**

*Данная статья посвящена выяснению вопроса о методах и процедурах использования инновационных технологий и интерактивных методов в формировании у студентов компетентности текстотворчества, а также формирования навыка эффективного использования интерактивных методов.*

**Ключевые слова:** создание текста, анализ текста, креативность, логическое мышление, творческие способности, инновационная технология, интерактивный метод, литература, метод, педагогические технологии, требование времени, нетрадиционный урок.

**THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FORMING STUDENTS' TEXT  
CREATION COMPETENCIES**

*This article is devoted to clarifying the issue of methods and procedures for using innovative technologies and interactive methods in developing students' competence in text creation, as well as developing the skill of effective use of interactive methods.*

**Keywords:** text creation, text analysis, creativity, logical thinking, creative abilities, innovative technology, interactive method, literature, method, pedagogical technologies, requirement of the time, non-traditional lesson.

**Kirish.** Dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida o‘quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini tizimli rivojlantirish, kasbga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularni muloqot qila olish faoliyatiga samarali tayyorlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, ona tili va adabiyot fanlariga o‘quvchilarining kommunikativ kompetentligining yuqori darajasini ta’minlaydigan yondashuvlar, texnologiyalar va interfaol usullarni takomillashtirishga urg‘u berilmoqda. Albatta, bunday yondashuvlarning samarasi muloqot madaniyatining rivojlanganligida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda innovatsion texnologiya va interfaol metodlardan foydalanish usullari va tartiblari, interfaol metod turlaridan unumli foydalanish ularning yozma va og‘zaki nutqlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka olib keladi. Til va adabiyot ta’limi mazmunining o‘zbek tilshunos va adabiyotshunoslari tomonidan matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan mutaxassislar nuqtayi nazaridan intensiv suratda yangilanishi va tubdan qayta ishlab chiqilishi o‘zbek tili o‘qitish metodikasining pedagogikadagi eng yangi yo‘nalish - o‘qish savodxonligini oshirish va kitobxonlikni yanada takomillashtirish tizimiga o‘tishini yengillashtirdi. Umumta’lim muktablarida kompetensiyaviy ta’limi mazmuni, mohiyati, amaliy asoslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Anglash, bilish, amaliy qo‘llash, tanish va notanish vaziyatlarda muammolar yechimini topa olish uchun zarur bo‘lgan til hodisalari, nutqiy vaziyat va imkoniyat, matn yaratishga yo‘naltiruvchi manba, mustaqil topshirqlarning izchil tizimini dars jarayoniga tatbiq etish.

2. Nutqiy faoliyatni innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda izchil, bosqichma - bosqich shakllantirish, o‘quvchi ongida muntazam suratda yangilanib boruvchi, doimiy harakatdagi og‘zaki

va yozma nutq ko‘nikmalarini hosil qilish va rivojlantirib borish (o‘qish savodxonligini oshirish va til hodisalarini o‘rganish jarayonida).

3. O‘quvchini turli vaziyatga mos ravishda mustaqil va ijodiy fikrashga, fikrni, ixcham, ravon, to‘g‘ri va o‘rinli ifodalashga, o‘zaro tanqidni to‘g‘ri qabul qilish, madaniy muloqot sirlarini egallab borish kompetensiyalarini o‘zlashtirishga odatlantirish.

4. Berilgan bir mavzuda mustaqil matn yaratish, uni tahrir va qiyosiy tahlil qilish, jamoa oldida mustaqil ma’ruza qilish, notiqlik sirlarini egallah, o‘z fikrini himoya qilish, xulosasini dalillar yordamida isbot qilishga o‘rganish ( aqliy hujum, debatlar, ijodiy yozma ish uchun ajratilgan maxsus soatlarda) v. h.

Pedagoglarning eng dolzarb vazifalaridan umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishni innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etilishini ta’minlash, o‘quvchida mavjud bo‘lgan lug‘at zahirasi, nutqiyl intellektual qobiliyatni aniqlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, egallangan bilimlarni mustahkamlashga o‘qish savodxonliklarni oshirish orqali mustaqil matn yaratishning texnologiyasini ishlab chiqish, shu tizim asosida o‘quvchining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Demak, jahon baholash talablari asosida o‘qitishning bosh maqsadi o‘quvchi mustaqil fikrashi, ijodiy fikr mahsulini yozma, og‘zaki shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish ekan, til va adabiyotni o‘qitish fani oldida o‘z yechimini kutib turgan navbatdagi dolzarb vazifa o‘quvchilarda fanga oid tayanch va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdir.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

*“Noqobil o‘qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo‘yadi, yaxshisi esa uni topishga o‘rgatadi”.*

### A.F.Disterveg-nemis pedagogi

Bugungi kun o‘qituvchisining asosiy maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta’limtarbiya berish, mustaqil fikrashga o‘rgatish, bilim va hayotiy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o‘tilgan mashg‘ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Yoshlarni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruvida tarbiyalashda, ularning ma’naviy kamolotini, estetik didini yuksaltirishda, ayniqsa, adabiy ta’limning o‘rni beqiyos. Shu jihatdan, uzlusiz ta’lim tizimidagi adabiyot darslarida ijodkor hayoti va ijodini keng qamrovda o‘rganish, ijod namunalarini tahlil qilish orqali ham matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish samaradorligiga erishiladi. Ammo, bu jarayonda o‘qituvchidan nafaqat yuksak ilmiy salohiyat, balki pedagogik mahorat ham talab etiladi. Umumiyo‘ta ta’limning davlat ta’lim standartlari(DTS)ga ko‘ra, o‘quvchilarga adabiyot fani bo‘yicha quyidagi kompetensiya va malaka talablari qo‘yiladi:

-badiiy tasvir vositalari haqida matnga tayanilgan holda mustaqil fikr yuritish va tahlil qila olish;

-o‘qigan asaridan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish;

-o‘rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos bo‘lgan xislatlarni anglab, ularga munosabat bildira olish;

-adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qo‘llay olish;

-adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to‘g‘ri baho bera olish kabilardir.

Ushbu kompetensiyalarini rivojlantirish uchun, avvalo, matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Ammo, o‘quvchilarda bu sifatlarni shakllantirish uchun bugungi kun o‘qituvchisida ilmiy salohiyat bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy AKT(axborot-kommunikatsiya vositalari)ni qo‘llay olish malakalari ham bo‘lishi kerak. Olimlarning aniqlashicha, insondagi bilimlarning hosil bo‘lishida undagi 5 ta sezgi a’zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

Ko‘rish a’zosi orqali – 80-85%

Eshitish a’zosi – 9-13%

Hid bilish a’zosi orqali – 2,5-3,5%

Teri sezgisi orqali – 1,5-3%

Ta’m bilish a’zosi orqali – 1-2%

Jami – 100% gacha.

Turli sezgi organlari ishtirokida o‘zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o‘tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi:

O‘qilganlar – 10%

Eshitilganlar – 20%

Ko‘rilganlar – 30%

Ko‘rilgan va eshitilganlar – 50%

Gapirilganlar – 80%

Gapirilgan va amalda bajarilganlar – 90% [4,177-178].

Demak, ko‘rish sezgisi orqali qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati yuqoriqoq ekan. Bu esa o‘z navbatida, mashg‘otlar jarayonida ko‘proq ko‘rsatmalilik prinsipiga amal qilishimizni nazarda tutadi. Buyuk chek pedagogi Y.A.Komenskiy ko‘rsatmalilikni o‘qitishning “oltin qoidasi” deb uqtiradi.

**Natijalar.** O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida “**Ma’lumotlar ombori**” metodidan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga slaydlar orqali yoki A4 format qog‘ozda quyidagi jadval taqdim etiladi. Bu texnologiya o‘quvchilardan diqqat-e’tiborni talab etadi va ularning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi hamda ularning yaratiladigan matnlarida aniqlk va to‘g‘rilikka erishishlarida s.amarali kichadi.

Ma’lumotlar Ombori		
Ma’lumotlar	To‘g‘ri True	Noto‘g‘ri False
Muhammad Yusuf 1999-yilda O‘zbekiston xalq shoiri unvoni bilan mukofotlangan.		✓
Ilk she’rlar to‘plami 1985-yilda “Tanish teraklar” nomi bilan chop etilgan.	✓	
Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qaroriga binoan Toshkent shahrida Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi ochildi.		✓
1989-yilda “Iltijo” she’riy to‘plami uchun unga Respublika Yoshlar mukofoti berilgan.		✓
Muhammad Yusufning “Ko‘hna quduq” dostonida qadimiy Buxoro tarixi aks etgan.	✓	

Adabiyot darsliklaridagi ijodkorlarning ijodini o‘rgatishda ham ko‘rsatmalilik prinsipiga amal qilish o‘quvchilar tomonidan bilimlarni tez va oson o‘zlashtirilishiga hamda uzoq vaqt xotirasida muhrulanishiga xizmat qiladi. Keyingi darslarda matnlar bilan ishlaganda yoki ijodiy jarayonlarda ijobiy ta’sir qiladi. Masalan, “**Suratlar galereyasi**” metodidan foydalanilganda o‘quvchilarga suratlar taqdim etiladi. Bu suratlar zamirida shoir she’rlarining nomi yashiringan bo‘lishi kerak. Shuningdek, she’rlarining nomlari ham mana shu ramziy obrazlardan kelib chiqadi. O‘quvchilarga rasmlar tarqatiladi. O‘quvchilar mana shu tariqa suratlar yoniga shoir she’rlarining nomlarini yozib chiqishadi.

Bundan tashqari, tabiat tasvirlari bilan bog‘liq rasmlar bilan ishlash jarayonida suratlardagi har bir tabiat mo‘jizasi haqida o‘quvchilarga ilmiy bilimlar ham berib borish tavsiya etiladi.

Ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ana shunday omillardan biri, pedagogning nutqiy mahoratidir. G‘arb donishmandlaridan biri R.Emirsonning ta’kidlashicha: “Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi”. Demak, birinchi navbatda, nutq ishontirish san‘atidir. O‘quvchilar bilan muloqotda bo‘layotgan o‘qituvchi ishonarli gapirishi, nutqi dalillangan, puxta asoslangan bo‘lishi lozim va, albatta, mana shunday sifatlarni o‘quvchilarda ham rivojlantirish talab etiladi. Adabiyot fanining ham oldiga qo‘yilgan asosiy maqsadlaridan biri – bu o‘quvchilarda nutqiy savodxonlik, nutqiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi. Bunday sifatlarga esa, matnlar bilan ishslash, asarlar mutolaasi, ularning tahlili orqali erishiladi.

Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda shoirlarning she’rlarini badiiy tahlilga tortish jarayoni ham yaxshi natijalar beradi. Buning uchun “**Sirli nuqtalar**” metodidan foydalaniladi. Bu jarayonda o‘quvchilarga so‘zları tushirib qoldirilgan she’riy bandlar taqdim etiladi. Ammo, so‘zları tushirib qoldirishda o‘quvchini tafakkur qilishga undovchi so‘zları tanlash tavsiya etiladi. O‘quvchilar nuqtalar o‘rnidagi tushirib qoldirilgan so‘zni topib, she’riy parchani ifodali o‘qishadi. She’rning mazmunini tahlil qilib, unda qo‘llangan she’riy san‘atlarni topishga harakat qilishadi. Bunday tahlil jarayoni o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Nechun...

**Tuprog‘i jannatdek qilguvchi g‘amza,  
Men o’sha yam-yashil vodiyydan maysa.  
Ming jonim sadag‘a bitta jilmaysa,  
Nechun qulluq qilmay ..... men.** (Andijonga)

Dars jarayonida shoirlarning qo‘sishqqa aylangan she’rlarini tahlilga tortish esa mashg‘ulotni yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi va o‘quvchilarni faollikka undaydi. Buni amalga oshirish uchun “**Qo‘shiqlar qanotida**” metodidan foydalanish mumkin. Bu jarayonda audio-vizual vositalardan foydalaniadi. Elektron ekran namoyish etiladi, unda raqamlar aks etgan bo‘lib, bu raqamlar ostiga shoirning xonandalar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlari o‘rnataladi. O‘quvchilar raqamlardan birini tanlashadi va ana shu raqam ostidagi qo‘sish ularga eshittiriladi. O‘quvchilar qo‘shiqning nomini topishadi va qo‘shiqning g‘oyasini oolib berishadi. Bu metodni amalga oshirishda o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda jamoa bo‘lib ishslash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, musiqa insonda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Zero, faylasuf Arastu ta’kidlab o‘tganidek: “*Musiqa ko‘ngilga axloqan muayyan ta’sir ko‘rsatuvchi quvvatga ega*”dir. Qo‘shiqlarni tanlashda ham turli mavzularda hamda zamonaviy estrada yo‘nalishida bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim.

**Xulosa.** O‘quv jarayonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Mashg‘ulotlar turlarining an’naviy ko‘rinishlari bilan bir qatorda noan’naviy shakllaridan ham keng foydalanish ta’lim oluvchilarning sezilarli darajada rivojlanishiga olib boradi. Olib boriladigan har bir dars o‘quvchilarning yanada olg‘a intilishi uchun motivatsiya bo‘lib xizmat qilishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi zimmasiga sinfda erkin muloqot muhitini yaratish hamda dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish vazifalari yuklatiladi. Yuqorida keltirilgan metod va texnologiyalar ro‘yxati shular bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Til va adabiyot sohasidagi interaktiv imkoniyatlar juda ko‘p va matn yaratish jarayonida ulardan foydalanish o‘quvchilar uchun ham qiziqarli, ham samarali bo‘lishiga yordam beradi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning hayotda o‘z o‘rnini topishlarida, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishlariga zamin yaratadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Omonov H., Xattabov M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016. – 200b.
2. Расулова Р.Б. Она тили фанини ўқитишида иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш ва уларнинг нутқ маданиятларини оширишда замонавий педагогик технологияларидан фойдаланиш // Та’lim, fan va innovatsiya 2020/2-son.-37b.
3. Rasulova R.B. Umumta’lim maktab o‘quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasisining ahamiyati (7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi) // Mug‘allim ham uzlusiz bilimlendirio’. Ilmiy-metodikaliq jurnal № 6/1 2021. B. 8-12.

**OLIY TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIM VOSITASI SIFATIDA SMART  
TEXNOLOGIYASINING IMKONIYATLARI VA AHAMIYATINI TAHLIL QILISH**

*Xo'janazarov Zayniddin Rashidovich,  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti  
xujanazarov83@gmail.com*

*Oliy ta’limda zamonaviy ta’lim vositasi sifatida SMART texnologiyasini joriy etish ta’lim jarayonini interaktiv, individual yondashuvga asoslangan va moslashuvchan qilib tashkil etish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt, tahliliy tizimlar, virtual reallik va SMART o‘quv platformalari talabalarning o‘zlashtirish darajasini kuzatish, bilimlarni baholash va ularga moslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini taklif qilishga yordam beradi. Shuningdek, SMART texnologiyalar orqali talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, masofaviy va onlayn o‘quv jarayonlarini amalgalashirish osonlashadi.*

**Kalit so‘zlar:** oliy ta’lim, SMART texnologiyalar, interaktiv ta’lim, masofaviy o‘qitish, sun’iy intellekt, global tendensiyalar.

**АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ И ЗНАЧЕНИЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ В ВЫСШЕМ  
ОБРАЗОВАНИИ КАК СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СРЕДСТВА**

*Внедрение смарт-технологий как современного образовательного средства в высшей школе позволяет организовать учебный процесс интерактивно, на основе индивидуального подхода и гибко. Эти технологии, включая искусственный интеллект, аналитику, виртуальную реальность и интеллектуальные платформы обучения, помогают учащимся контролировать своё обучение, оценивать свои знания и предлагают персонализированное обучение, а также будут способствовать укреплению связи между учителями, процессом дистанционного и онлайн-обучения.*

**Ключевые слова:** высшее образование, SMART-технологии, интерактивное образование, дистанционное образование, искусственный интеллект, мировые тенденции.

**ANALYSIS OF THE POSSIBILITIES AND IMPORTANCE OF SMART TECHNOLOGY AS  
A MODERN EDUCATIONAL TOOL IN HIGHER EDUCATION**

*The introduction of smart technologies as a modern educational tool in higher education allows organizing the educational process interactively, based on an individual approach and flexibly. These technologies, including artificial intelligence, analytics, virtual reality and intelligent learning platforms, help students control their learning, assess their knowledge and offer personalized learning, and will also contribute to strengthen the connection between teachers, distance and online learning processes.*

**Keywords:** higher education, SMART technologies, interactive education, distance education, artificial intelligence, global trends.

**Kirish.** SMART texnologiyasi ta’lim tajribasi va natijalarini yaxshilaydigan innovatsion vositalarni taqdim etish orqali oliy ta’limda inqilob qildi. To’ldirilgan reallik, virtual reallik, sun’iy intellekt va biometrik tizimlar kabi texnologiyalarning integratsiyasi universitetlarni SMART kampuslarga aylantirib, talabalarning, shu jumladan nogironligi bo‘lgan talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan immersiv, interfaol va moslashtirilgan o‘quv muhitini yaratdi [1]. O‘zbekistonda oliy ta’limda SMART texnologiyasidan foydalanish tahlil qilinib, ularning ta’lim va boshqaruv sifatini oshirish imkoniyatlari ochib berildi [2]. Xuddi shunday, Ukrainada SMART ta’limni joriy etish global tendensiyalarga mos keladi va ta’lim xizmatlari sifatini boshqarish muammolarini hal qiladi [3].

SMART texnologiyasi, masalan, veb-seminarlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron ta’lim tizimlari bilan qo‘llab-quvvatlanadigan xorijiy tillarni o‘qitishning kognitiv-kommunikativ yondashuvi o‘quvchilarning motivatsiyasi va kognitiv faolligini oshirishi, shu orqali o‘quv jarayonini takomillashtirishi ko‘rsatilgan. SMART ta’lim konsepsiysi raqamli jamiyatda professional muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga, kompetentsiyalarni uzlusiz rivojlantirish orqali raqobatbardosh mutaxassislarni yaratishga qaratilgan. Oliy ta’limda SMART qurilmalar talabalarning faoliyi va o‘qitish samaradorligini, ayniqsa, muayyan kasbiy sohalarda yaxshilanishi aniqlangan. SMART texnologiyasining ta’lim jarayoniga ijobjiy ta’siri o‘qituvchilarning raqamli ta’lim muhitiga moslashishi va ishlashida ham

namoyon bo‘ladi, bu esa umumiy pedagogik samaradorlikni oshiradi [6]. Talabalarning SMART texnologiyasiga munosabati odatda ijobjiy: ko‘pchilik bu vositalardan kundalik hayotda foydalanadi va ularni o‘z ta’lim jarayonlariga qo‘sishga tayyorligini bildiradi, bu esa ta’limni yanada inklyuziv, shaxsiylashtirilgan va samarali qiladi [7]. Zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, masofaviy va yuzma-yuz ta’limni birlashtirishni osonlashtiradi, ammo aniq o‘quv dasturlari uchun eng mos texnologiyalarni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, oliy ta’limga SMART texnologiyasini joriy etish nafaqat o‘quv tajribasini oshiribgina qolmay, balki talabalarni texnologik taraqqiyot asosida shakllanadigan kelajakka tayyorlaydi, yanada bog‘langan, SMART va barqaror ta’lim hamjamiyatlarini yaratishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** Tahlillar asosida oliy ta’limda zamonaviy ta’lim vositasi sifatida SMART texnologiyaning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

Ta’lim jarayonlarining evolyutsiyasiga SMART texnologiyasining joriy etilishi sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, ular nafaqat ta’lim tajribasini oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarni texnologik yutuqlar hukmron bo‘lgan kelajakka tayyorlaydilar. Kengaytirilgan reallik (AR), virtual haqiqat (VR), sun’iy intellekt (AI) va biometrik tizimlarning integratsiyasi talabalarning, shu jumladan nogironligi bo‘lgan talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan immersiv, interaktiv va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitlarini yaratish orqali oliy ta’limda inqilob qildi. shu bilan ta’lim inklyuziyasida yangi standartlar belgilandi [8]. Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) va hamkorlik vositalari o‘qitish chegaralarini yanada kengaytirdi, jismoniy makondan tashqari aloqalarni ta’minladi va sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili orqali shaxsiylashtirilgan ta’limni osonlashtirdi, bu esa real vaqt rejimida fikr-mulohaza yuritish va individual ehtiyojlarga moslashirilgan ta’limni ta’minlaydi [4]. Shaxsiy kompyuterlardan sun’iy intellektgacha bo‘lgan ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) tarixiy evolyutsiyasi ularning o‘qitish va o‘qitish jarayonida asosiy rolini ta’kidlaydi [5]. Xususan, ta’limni yanada samarali va samaraliroq qilish uchun shaxsiylashtirilgan ta’lim yondashuvlariga bo‘lgan ehtiyojni hal qiladi [6]. SMART ta’limga o‘tish, shuningdek, an’anaviy sinf tizimlaridan talabaning asosiy rolini va o‘qituvchi uchun yangi rollarni ishlab chiqishni ta’kidlaydigan ko‘proq moslashuvchan, o‘quvchilarga yo‘naltirilgan paradigmalarga o‘tishni o‘z ichiga oladi. COVID-19 pandemiyasi masofaviy ta’limni qabul qilishni va o‘rganish oqimini saqlab qolish va talabalar faolligini oshirish uchun blokcheyn, XR, MOOC va o‘yinlashtirish kabi texnologiyalardan foydalanadigan yangi dasturlarni ishlab chiqishni tezlashtirdi. Ta’lim kelajagi ta’lim tajribasini dinamik, moslashuvchan, interaktiv va inklyuziv qilish uchun texnologiya va pedagogikaning uzluksiz integratsiyasida, shu bilan sifatlari ta’lim olish imkoniyatini demokratlashtirish va talabalarning turli ehtiyojlarini qondirishda yotadi [9] [10].

#### O‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi. Talabalar tomonidan ijobjiy idrok.

Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, SMART texnologiyasi integratsiyasidan sezilarli foya keltiradi. Ushbu texnologiyalar tezkor raqamli transformatsiya sharoitida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsion vositalar va o‘qitish usullarini taqdim etish orqali o‘qituvchilarning ta’lim samaradorligini oshiradi [11]. Raqamli texnologiyalarni o‘qituvchilar va talabalar tomonidan ijobjiy qabul qilish o‘qituvchilar ushbu vositalarni o‘z kasbiy faoliyatida samarali boshqarishi va foydalanishi uchun doimiy trening va qo‘llab-quvvatlash muhimligini ta’kidlaydi.

#### Avtomatlashtirish va jarayonlarni boshqarish tizimlarining ta’lim yo‘nalishlarini hisobga olgan holda oliy ta’limda SMART texnologiyasining imkoniyatlari

Imkoniyatlar	Tavsif	Misollar	Kutilgan natijalar
Ta’lim jarayonlarining evolyutsiyasi. Texnologik kelajakka tayyorgarlik	Ta’lim jarayonlari va avtomatlashtirish tizimlariga intellektual texnologiyalarning (AR, VR, AI, biometrika) joriy etilishi ta’lim tajribasini kengaytiradi, o‘quvchilarni texnologik jihatdan ilg‘or kelajakka tayyorlaydi, inklyuzivlik va ta’limni shaxsiylashtirishni yaxshilaydi.	Ta’limni boshqarish tizimlari (LMS), SCADA tizimlari, AI va shaxsiylashtirilgan ta’lim va ta’lim jarayonini boshqarish uchun ma’lumotlar tahlili.	Ta’limni qamrab olish uchun yangi standartlarni belgilash, o‘rganishni yanada jozibador va samarali qilish va umrbod ko‘nikmalarni rivojlantirish.
O‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi. Talabalar tomonidan ijobjiy idrok	SMART texnologiyasi va avtomatlashtirish tizimlari o‘qitish samaradorligini oshiradi, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga hissa	Raqamli texnologiyalarni sinflarga integratsiya qilish, binolarni boshqarish tizimlaridan	Ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning hissiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash, asosiy kompetentsiyalarni va

Imkoniyatlar	Tavsif	Misollar	Kutilgan natijalar
	qo'shadi, ko'proq interaktiv ta'limni yaratadi va talabalar ushbu texnologiyalarni ijobjiy qabul qiladilar.	(BMS) foydalanish, loyiha asoslangan ta'lim, raqamli savodxonlikni oshirish.	media ko'nikmalarini rivojlantirish.
Aralashtirilgan ta'lim integratsiyasi	SMART texnologiyasi va avtomatlashtirish tizimlari masofaviy va yuzma-yuz formatlarni birlashtirgan holda aralash ta'limni osonlashtiradi, ta'lim jarayonlarining moslashuvchanligi va moslashuvchanligini oshiradi.	Texnologiya integratsiyasi modellari (TIM), kirishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish, aralash ta'limning moslashuvchanligi, inklyuziv ta'lim uchun AKTdan foydalanish.	Ta'lim natijalarini yaxshilash, raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuvi, ta'limdan teng foydalanish.
SMART kampuslarni yaratish	Ilg'or texnologiyalar (AR, VR, AI, biometrika) va jarayonlarni boshqarish tizimlari integratsiyasi SMART kampuslarni yaratadi, ta'lim muhitini yaxshilaydi, inklyuzivlikni oshiradi va talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradi.	Strategik yo'l xaritasini yaratish, SMART taxtalar va gadgetlardan foydalanish, sensor ma'lumotlari va qulaylik algoritmlarini birlashtirish, energiyani boshqarish tizimlari.	Ta'limni boshqarishni optimallashtirish, ta'lim xizmatlarini yaxshilash, barcha talabalar uchun inklyuzivlik va foydalanish imkoniyati.

**Xulosa.** Oliy ta'limda SMART texnologiyasini joriy etish zamонавиy ta'lim jarayonini yanada interaktiv, individual yondashuvga asoslangan va raqamli muhitda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. SMART texnologiyasi, jumladan, sun'iy intellekt, tahliliy tizimlar va virtual reallik orqali talabalar bilimini real vaqtida kuzatish, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Bu texnologiyalar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqani mustahkamlab, kunuzgi,sirtqi va masofaviy ta'lim va onlayn o'qitishni samarali tashkil etishga ko'mak beradi. Shuningdek, ular ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Biroq, texnik infratuzilma yetishmasligi, o'qituvchilarining texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalar, moliyaviy chekllovlar kabi muammolar ushbu texnologiyalardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shunday qilib, oliy ta'limda SMART texnologiyasini keng qo'llash uchun texnik baza va malakali kadrlarni rivojlantirish muhimdir. SMART texnologiyasi, to'g'ri joriy etilganda, ta'limning sifatini oshirish va uni zamонавиy talablar darajasiga ko'tarishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, SMART texnologiyasi oliy ta'limni yangicha bosqichga olib chiqish, ta'lim sifatini oshirish va talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishda ulkan ahamiyatga ega. To'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, bu texnologiyalar o'quv jarayonining sifatini tubdan yaxshilab, zamонавиy talabalar ehtiyojiga mos ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi. SMART texnologiyasining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun ta'lim tizimini innovatsion yondashuv va strategiyalar asosida rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

- Surattana Adipat., Rattanavadi Chotikapanich. (2024). SMART universitetlarga o'tish bilan oliy ta'limni rivojlantirish: texnologiyaga e'tibor. // Shanlax xalqaro ta'lim jurnali, doi:10.34293/education.v12i3.7635
- Gulchexra Qodirova., Saida Djuraeva., Narmin Aliyeva., Maprat Rasuleva. (2024). O'zbekiston va xorijiy mamlakatlар ta'lim tizimlari o'rtasida oliy ta'lim muassasalarida SMART texnologiyasidan foydalanishning qiyosiy tahlili. // Xalqaro Pedagogika jurnali, doi: 10.37547/ijp/volume04issue06-04
- Aleksandr Chernenko. (2024). Oliy ta'limda SMART ta'lim texnologiyalari: Ukrainada qo'llash imkoniyatlari va istiqbollari. doi:10.36074/logos-02.02.2024.072

4. Kitibayeva A., Sarjanova G., Bobesh R. (2023). Universitet ichki ekotizimida SMART texnologiyalarni joriy etish. Xabarşy - Abaj atyndaǵy Almaty universiteti.Pedagogika ǵylymdary seriâsy, doi:10.51889/2959-5762.2023.78.2.009
5. Dora Levterova-Gadjalova., Kirilka Tagareva., Vaniya Sivakova. (2024). O‘quvchilarining ta’limda SMART texnologiyalarga munosabati. // Pedagogika, doi: 10.53656/ped2024-4.01
6. Svitlana Romanyuk., Larisa Maftin., Liubomyra Iliichuk., Marina Vasilik., Lyubov Tarangul. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. // Revista Amazonia Investiga, doi: 10.34069/ai/2023.68.08.21
7. Khujjiyev M.Y., Alimov A.A., Khujanazarov Z.R., Khojiev A.K., & In E.O.C.V.A. (2020). Improving The Quality Of Teaching The Special Subjects. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(11).
8. Ibragimov U.M., & Xo‘Janazarov Z.R. (2021). Bo ‘lajak muhandis-kadrlarni masofaviy o ‘qitish natijalarini “SMART” texnologiyasi yordamida baholash. // Science and Education, 2(2), 370-375.
9. Хўжаназаров З.Р., & Султонова М.И. (2017). Технология компьютерной обработки учетных задач на малом предприятии (Doctoral dissertation, Тернопіль: ТНЕУ).

**AMALIY MASHG‘ULOTLARНИ INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANIB VR  
AMALIY MUHIT ASOSIDA O‘QITISH**

*Jo‘rayev Olim Ismoilovich,  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “AKT” kafedrasi assistenti*

*Maqolada amaliy mashg‘ulotlarni pedagogik metodlardan foydalanib VR amaliy muhit asosida o‘qitish jarayoni tahlil qilingan. Dizayn fikrlash, vaziyatlar tahlili, loyihalash va hamkorlikda o‘qitish metodlari haqida so‘z yuritiladi. Tahlil natijalari yuzasidan tavsiya va xulosalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** dizayn fikrlash, vaziyatlar tahlili, loyihalash, hamkorlikda o‘qitish, interaktiv, virtual reallik, vizual, masofaviy o‘qitish, innovatsion texnologiya.

**ОБУЧЕНИЕ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ НА ОСНОВЕ VR ПРАКТИЧЕСКОЙ СРЕДЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ**

*В статье анализируется процесс обучения практическим занятиям на основе VR-практической среды с использованием педагогических методов. Речь идет о методах дизайнера мышления, ситуационного анализа, проектирования и совместного обучения. По результатам анализа даны рекомендации и выводы.*

**Ключевые слова:** дизайн-мышление, ситуационный анализ, дизайн, совместное обучение, интерактивный, виртуальная реальность, визуальное, дистанционное обучение, инновационные технологии.

**INTERACTIVE INSTRUCTION THAT IS USED PRACTICALLY INSTRUCTION USING A VR-BASED PRACTICAL SETTING**

*The article analyzes the process of teaching practical training using pedagogical methods based on the VR practical environment. Design thinking, situational analysis, design, and cooperative learning methods are discussed. Recommendations and conclusions are given based on the results of the analysis.*

**Key words:** design thinking, situation analysis, design, collaborative learning, interactive, virtual reality, visual, distance learning, innovative technology.

**Kirish.** Bugungi kunda talabalar uchun internetda juda ko‘p axborot resurslari mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynamoqda. Elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar bazalari, ochiq dars platformalari va interaktiv o‘quv vositalari bilim olish jarayonini ancha qulaylashtirmoqda. Biroq bu manbalardan samarali foydalanish uchun talabalar nafaqat ma’lumot izlash, balki uni tahlil qilish, ishonchlilagini tekshirish va to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Afsuski, bu jarayon ko‘pincha murakkab bo‘lib, o‘qituvchining yo‘nalishsiz talabalar ba’zan noto‘g‘ri yoki noaniq axborotlardan foydalanib qo‘yishi mumkin.


Shu sababli, axborotni tanlash, chuqur tahlil qilish va uni amaliy qo‘llash bo‘yicha talabalar uchun metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari bu borada yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, talabalarni tanqidiy fikrlashga, ilmiy izlanish metodlarini o‘rganishga va texnologiyalardan ongli ravishda foydalanishga o‘rgatishi zarur. Faqatgina shu yo‘l bilan talabalar internetdagи cheksiz axborot oqimidan to‘g‘ri foydalanib, o‘z bilimlarini mustahkamlash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin[5,6].

**Materiallar va usullar.** O‘qituvchi va talabalar faoliyatiga, ularning mustaqillik darajasiga, faolligiga qaratilgan ta’lim metodlarining ko‘plab tasniflari mavjud. Uzatish manbasi va axborotni idrok etish xususiyatiga ko‘ra amaliyatda eng keng qo‘llaniladigan o‘qitish metodlarini uch guruhga ajratish mumkin, 1-rasmga qarang ular og‘zaki, vizual-ko‘rgazmali va amaliy metodlar [1,3].

Mutaxasislik fanlarini, shu jumladan, “Kompyuter tizimlari va tarmoqlari” fanini VR texnologiyalari asosida o‘qitishni tashkil etish metodlari sifatida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilgan va ularning mustaqil va ijodiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan, tadqiqotli, muammoli, evristik, interfaol metodlar belgilab berildi.

Bugungi kunda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish o‘rganilayotgan ma’lumotlarni tinglovchi talabalarga samarali yetkazish, ularning o‘quv va kognitiv faolligiga erishish, o‘qishga bo‘lgan


motivatsiyasini oshirish vositalaridan biri hisoblanadi. Quyida biz amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir nechta interfaol metodlarni ko‘rib chiqamiz:



### 1-rasm.

- interfaol darslarning eng keng tarqalgan shakli kichik guruhlarda ishlashdir [2,4]. Bu shakl “KTT” fanidan amaliy mashg‘ulotlar paytida qo‘llaniladi. Keyingi amaliy ish va muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan nazariy materialni muhokama qilgandan so‘ng, talabalarga topshiriqlar to‘plami yoki amaliy ishning mazmuni ko‘rsatilgan ma'lumot beriladi. Topshiriqlar qobiliyatli talabalar tomonidan 10-15 daqiqa davomida amaliy ish doirasidagi vazifalarни bajarish uchun mo‘ljallangan. Bunday holda, vazifalarни murakkablik darajasini oshirish tartibida joylashtirish tavsiya etiladi. Topshiriqlarni bajargan talabalar birinchi navbatda ishni bajarmagan talabalarga yordam beradilar, guruhlar birgalikda topshiriqlarni bajaradi.

**Natijalar va munozaralar.** Dizayn fikrlash - bu chiziqli bo'limgan, iterativ jarayon bo'lib, jamoalar foydalanuvchilarni tushunish, taxminlarga qarshi chiqish, muammolarni qayta aniqlash va prototip va sinov uchun innovatsion yechimlarni yaratish uchun foydalanadilar.



### 2-rasm. Dizayn fikrlash metodi bosqichlari

Bu metod - dizaynerning vositalari va yondashuvlaridan foydalangan holda murakkab muammolarni hal qilishga qaratilgan metodologiya bo'lib, Ushbu metodologiya insonga, uning ehtiyojlari va tajribasiga qaratilgan, hamda innovatsion yechimlarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan. Uning qo'llanilishi ko'plab

sohalarda, jumladan, ta'lim, biznes, xizmat ko'rsatish arxitektura, sog'liqni saqlash va avtomobilsozliklarni o'z ichiga oladi.

Dizayn fikrlash bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri muammo yoki vazifaning o'ziga xos tomonlarini hal qilish uchun mo'ljallangan. Dizayn fikrlash bosqichlari, odatda, ijodiy va tizimli muammolarni hal qilishni qo'llab-quvvatlaydigan ketma-ket jarayonga ajratiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dizaynni o'ylash jarayoni ko'pincha iterativ sikl bo'lib, sinov va amalgal oshirilgandan so'ng, qo'shimcha yaxshilanishlar yoki o'zgartirishlar uchun oldingi bosqichlarga qaytish mumkin. Bu moslashuvchanlikni ta'minlaydi va eng yaxshi yechimlarni yaratishga yordam beradi.

**Vaziyatlar tahlili** yoki *aniq vaziyatlar metodi* (faol muammoli-vaziyatlari tahlil metodi) muayyan masalalarni yoki vaziyatlarni yechishni o'rgatish yo'li bilan ta'lim berishga asoslanadi. Pedagogika lug'atida *vaziyatlar tahlili metodi* biznes ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan, materialni o'zlashtirish darajasini oshiradigan va ishchanlik o'yinining va aqliy hujumming elementi sifatida foydalaniladigan metod sifatida ta'riflangan. Vaziyatlar tahlilining asosiy maqsadi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga, to'g'ri strategik va tezkor qarorlar qabul qilishga o'rgatishdan iborat. Vaziyatlar tahlili metodining asosida muayyan holatda kelib chiqadigan vaziyatni tahlil qilishga va amaliy yechimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan guruhning hamkorlikdagi ishi yotadi. Keys tahlilining natijasi – taklif qilingan algoritmlarni baholash va eng yaxshisini qo'yilgan muammo asosida tanlashdan iborat.

Ushbu metodni qo'llashda ma'lum qoidalar bo'yicha muayyan, odatda, real hayotda ro'y bergan vaziyatning modeli ishlab chiqiladi; ta'lim oluvchilar olishlari kerak bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar kompleksi aks ettiriladi. Bunda o'qituvchi boshlovchi rolida, savollarni chiqaruvchi, javoblarni hisobga oluvchi, munozarani qo'llab-quvvatlovchi, ya'ni hamijodkorlik jarayoni dispetcheri rolida bo'ladi.

Vaziyatlar tahlili metodining afzalligi faqat bilimlar olish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish emas, ta'lim oluvchilarning qadriyatlar tizimini, ularning kasbiy nuqtayi nazarlarini, hayotiy qadriyatlarini, o'ziga xos kasbiy olamni his qilish va dunyonи o'zgartirish faoliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Vaziyatlar tahlili metodi nazariy bilimlarni va amaliy vazifalarni hal etishda qo'llash imkonini beruvchi vositadir. U mustaqil fikrlash, tinglash va alternativ nuqtayi nazarni hisobga olish, o'z fikrini dalillar bilan aytish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod yordamida ta'lim oluvchilar tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini namoyon qilish, hamda takomillashtirish, jamoada ishlashni o'rganish, qo'yilgan muammoning eng ratsional yechimini topish imkoniyatlariga ega bo'ladir.

Sifatli keysiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- yaratish maqsadi aniq qo'yiladi;
- tegishlicha qiyinlik darajasiga ega bo'ladi;
- juda tez eskirmaydi, dolzarbligini saqlaydi;
- tipik vaziyatlarni namoyon qiladi;
- tahliliy tafakkurni rivojlantiradi;
- bahslarni keltirib chiqaradi;
- bir nechta yechimga ega bo'ladi[9,13].

Masofaviy o'qitishda vaziyat (keys) muammolarning muhokamasi tashkil etiladigan maxsus veb-sahifada joylashtiriladi. Keyin kelib chiqqan muammolarni muhokama qilish uchun qanday bilimlar talab qilinishini va bu bilimlarni qayerdan olish mumkinligi aniqlanadi (saytlarning yoki boshqa axborot manbalarining manzillari ko'rsatiladi). Bunday aniq vaziyatlarga, aniq taqdirlarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan munozaralar u yoki bu tushunchani chuqurroq his qilish imkonini beradi.

**Loyihalash metodi.** Bu ta'lim oluvchilarning turli g'oyalariga doir rejalshtirish ishlarini bajarish bo'yicha mustaqil ishlash qobiliyatini ko'rsatishiga, o'zining o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishga yo'l ochib beradigan o'qitish jarayoni nazarda tutadi[5,13].

Loyihalash metodi muammoni hal etish yo'llarining ketma-ket, bosqichma-bosqich, tushungan holda hamda aniq dalillarga tayanib, qo'yilgan maqsad sari dadil qadamlar bilan borish demakdir. Natijada yaxlit umumlashtirilgan aniq maqsadga erishiladi. Loyihalash usulida olingan nazariy bilimlar, kuzatish ma'lumotlari, aniq bir mahsulotni yaratishda qo'l keladigan ishlarni, ularni taqdimot va diskussiyalar orqali himoya qilish, bunda aqliy hujum hamda rolli va ishga oid o'yinlardan ham samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Internet tarmog'i orqali bajariladigan loyiha ishlarida ta'lim oluvchilar o'z sheriklarini ko'rmasliklari mumkin. Lekin kichik guruhlarni tuzishda ayrim ta'lim oluvchilarning oldindan tarmoq orqali muloqot qilish orqali tanish bo'lib qolganliklarini hisobga olish kerak bo'ladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zaro elektron

pochta, chat, forum kabi aloqa vositalari yordamida muloqotda bo‘ladilar. Ma’lumotlar yig‘ilib borishi bilan loyiha boshqaruvchisi muammoni umumiylar tarzda muhokama qilish jarayonini tashkil etadi. Buning uchun tegishli aloqa vositalari ochiladi, diskussiya o’tkaziladi yoki “op-Ipe” rejimida davra suhbatni tashkil etiladi[7].

Loyihalash metodi asosida ta’lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish, mustaqil ravishda o‘z bilimini rivojlantirish va turli xil elektron darsliklar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, multimediali ilovalar va boshqa elektron ta’lim resurslari bilan ishlashda tanqidiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

**Hamkorlikda o‘qitish.** Hamkorlikda o‘qitish pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan bo‘lib, bu texnologiyalar ijodkor shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitni yaratish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[9,13].

“Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘qituvchi-talaba, talaba-talaba juftlikda ishlash, o‘qituvchi-kichik guruh, o‘qituvchi-katta guruh va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi” [5,7].

Hamkorlikda o‘qitish – bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilar guruhi, individual ta’lim oluvchi hamda butun auditoriya bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilish bilan birlashtirish, ta’lim oluvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir[10,11].

“Hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega.

1. Talabalar birlashtirishda umumiylar topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruh ishi orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.
2. Talabalar 2-5 a’zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birlashtirishda ishlashadi.
3. Talabalar o‘rganish faoliyatini amalga oshirishi yoki umumiylar vazifalarning yechimini topishga erishish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan va ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.
4. Talabalar ijodiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiylar vazifalarning yechimini topishga erishishga yoki o‘rganish faoliyatini bo‘yicha ishlarni tashkil etish, ta’lim oluvchilarning bir-birlariga ko‘maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.
5. Talabalar o‘z ishlari natijasida yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta’lim olishga, shaxsan mas’uliyatli va javobgardirlar” [4,8].

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo‘lib, u an’anaviy pedagogikadan quyidagicha farq qiladi:

An’anaviy ta’limda o‘qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, ta’lim oluvchi esa obyekti deb qaraladi. Hamkorlik pedagogikasida esa ta’lim oluvchi o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda talaba va o‘qituvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashgan holda, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo‘ladi. Ular ham ijodkor, ham ishtiroychi va o‘zaro hamkor bo‘ladilar.

Hamkorlik pedagogikasi ta’lim oluvchining ta’lim-tarbiya olish motivatsiyalarini rivojlantirib borish orqali hamda o‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda pedagogik metodlardan foydalanib, VR texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish samarali natijalar berishi mumkin. Shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar bilimini mustahkamlash va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yondashuv nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, interaktiv muhitda bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. VR texnologiyalaridan foydalanish nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, murakkab tushunchalarni vizualizatsiya qilish va real hayotga yaqin tajribalarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

### Adabiyotlar:

1. Jo‘rayev, O. I. (2022). Ta’lim jarayonida multimediali o‘qitish vositalardan foydalanish tamoyillari. // Scientific aspects and trends in the field of scientific research, 1(4), 93-100.
2. Jo‘rayev O., Ismoilova M.. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati. // Current approaches and new research in modern sciences, 2023,2(11),141-144.

3. Jo‘rayev O., Axmatova Sh. Biologiya fanini o‘qitishda raqamli o‘quv materialidan foydalanish davr talabi. // Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2023, 2(12), 55-60.
4. Jo‘rayev O. I., Amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘nikmalarini vr texnologiyalar asosida rivojlantirish // “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 12 UO‘K 811.512.133.
5. Jo‘rayev O. I., Amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. // “Development of science” ilmiy elektron jurnal. 2024, 1-son, 451-457 b.
6. Jo‘rayev O. I., Vr laboratoriyalarni ishlab chiqish dasturlari. “Raqamli transformarsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini yechish usullari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro:2024, 373-376 b.
7. Jo‘rayev O. I., Virtual reallikning rivojlanish tendensiyalari. “Raqamli transformarsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini yechish usullari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro:2024, 282-285 b.
8. Jo‘rayev O. I., Ta’lim jarayonida vr texnologiyalarini qo‘llash orqali samaradorlikka erishish. “Raqamli transformarsiya sharoitida muhandislik sohasi muammolarini yechish usullari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro:2024, 376-379 b.
9. Jo‘rayev O. I., VR texnologiyalar asosida amaliy topshiriqlarni bajarish. “Mexanika muammolarini yechishda innovatsion yechimlari va istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024, 886-889 b.
- 10.Jo‘rayev O. I., VR texnologiyalarni ta’limga qo‘llashning istiqbollari. “Zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun fan va texnologiyalar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Buxoro:2024, 542-544 b.
11. Jo‘rayev O. I., Raqamli texnologiyalar davr talabi. “Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sunniy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro:2023, 291-294 b.
12. Jo‘rayev O. I., Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati. “Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat va sun“iy intellekt uchun dasturiy vositalar, axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro:2023, 284-287 b.
13. Томилин С. А., Евдошкина Ю. А., Пирожков Р. В. Реализация интерактивных форм обучения при проведении лабораторных занятий по фундаментальным техническим дисциплинам // В мире научных открытий. – 2013. – № 11.1(47). – С. 110–127.

## RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM

### AXBOROT HIMOYASI VA UNING TURLARI

*Mirzayev Tolibjon To’raqul o’g’li,*

*Buxoro viloyat hokimining raqamlashtirish bo’yicha maslahatchisi*

*Jamiyatning jadal sur’atlarda axborotlashtirilishi sababli axborot xavfsizligi muammosi nihoyatda dolzarb va doimo shunday bo’lib qoladi. Axborot xavfsizligini ta’minlash muntazam va kompleks xarakterga ega ko’p qirrali faoliyatni amalgaga oshirishni ko’zda tutadi. Ushbu maqolada axborot xavfsizligi himoyasi va uning turlari haqida ma’lumot berilgan.*

**Kalit so’zlar:** axborot, axborot xavfsizligi, axborot himoyasi, axborot tizimi, huquqiy himoyalash, tashkiliy himoya, konfedensial ma’lumot, kodlash, shifrlash.

### ЗАЩИТА ИНФОРМАЦИИ И ЕЁ ВИДЫ

В связи со стремительной информатизацией общества проблема информационной безопасности чрезвычайно актуальна и всегда будет оставаться таковой. Обеспечение информационной безопасности предполагает реализацию многогранных мероприятий, носящих системный и комплексный характер. В данной статье представлена информация о защите информации и её типах.

**Ключевые слова:** информация, информационная безопасность, защита информации, информационная система, правовая защита, организационная защита, конфиденциальная информация, кодирование, шифрование.

### INFORMATION PROTECTION AND ITS TYPES

*Due to the rapid informatization of society, the problem of information security is extremely relevant and will always remain so. Ensuring information security involves the implementation of multifaceted measures that are systemic and comprehensive. This article provides information on information protection and its types.*

**Keywords:** information, information security, information protection, information system, legal protection, organizational protection, confidential information, coding, encryption.

**Kirish.** Kompyuter texnikasi va axborot tizimlarining iqtisodda, boshqarishda, aloqada, ilmiy tadqiqotlarda, ta’limda, xizmat ko’rsatish sohasida, tijorat, moliya va inson faoliyatining boshqa sohalarida qo’llanilishining rivoji axborotlashtirish va umuman, jamiyat rivojini belgilovchi yo’nalish hisoblanadi. Kompyuter texnikasining qo’llanishi evaziga erishiluvchi samara axborot ishlanishi ko’laming oshishi bilan ortib boradi. Ushbu texnikaning qo’llanish sohalari va ko’lami uning ishlashining ishonchiligi va barqarorligi muammolari bilan bir qatorda unda aylanuvchi axborot xavfsizligini ta’minlash muammosini tug’diradi.

Axborot xavfsizligi tushinchasini yoritiadigan quyidagi atama va tushunchlardan foydalanamiz:

**Axborot** – bu manbalar va shakllardan qat’iy nazar, shaxslar, obyektlar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to’g’risidagi ma’lumot;

**Axborot xavfsizligi tushinchasi** – bunda ma’lumotning himoyalanganligi tushiniladi, ya’ni ma’lumot qayerda bo’lishidan qat’iy nazar (server, kompyuter, noutbuk, fleshka, disklar va hokazo), uning yo’qolishdan, o’zgarishdan, tasodifiy va

qasddan bo’ladigan ta’sirlardan saqlanganlik holati;

**Axborotlashtirish obyekti** – turli darajadagi va maqsaddagi axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari, axborotga ishlov berishning texnik vositalari, ushbu vositalar o’rnatalgan va foydalaniladigan xonalar.

**Axborot konfidensialligi** – axborot bilan ruxsatsiz tanishishning yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko’chirishning) oldi olingan holat;

**Axborot ishonchiligi** – axborotning to’g’ri qabul qilinish xususiyati;

**Axborot tizimi** – axborotni to’plash, saqlash, izlash, qayta ishslash va undan foydalanish imkonini beradigan axborot resurslarining, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarining tashkiliy jihatdan tartiblashtirilgan jamlanmasi.

Axborot xavfsizligi tushinchasining paydo bo’lishi va uning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak axborot inqilobi XX asrning 40- yillari oxirida elektron hisoblash mashinalarining yaratilishi bilan boshlanadi, o’sha vaqtidan boshlab axborot texnologiyalarining rivojlanish davri boshlangan. Ushbu jarayonning bosqichma-bosqich qay darajada rivojlanib borganligini mavjud ma'lumotlardan tuzilgan davriy kalendardan bilib olsa bo’ladi:

- 1816-yil – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (axborotni jismoniy himoya qilishdan texnik vositalarni yaratishgacha bo’lgan harakat) qo’llash bosqichi;
- (keyingi bosqich) 1935-yil – axborot xavfsizligining texnik usullarini (radar va gidroakustik vositalardan foydalanish) yaratish bosqichi;
- 1946-yil – elektron hisoblash mashinalari yordamida axborot xavfsizligi muammolarini hal qilish bosqichi;
- 1965- yil – axborot xavfsizligining texnik vositalarini (mahalliy axborot tarmoqlarini yaratish bilan bog’liq) rivojlantirish bosqichi;
- 1973- yil – axborot xavfsizligini rivojlantirishda yuqori texnologiyali muammolarni hal qiluvchi ultra-mobil aloqa mexanizmlaridan foydalanish bosqichi;
- 1985- yil – global axborot tarmoqlari va kosmik ishlanmalarning rivojlanish bosqichi (ushbu bosqich xalqaro hamkorlik homiyligida insoniyat muammolarini hal etish uchun global axborot xavfsizligi tizimini shakllantirishni taqozo etadi).

**Metodlar.** *Axborotni himoyalash tizimi* - Axborotning zaif tomonlarini kamaytiruvchi va axborotga ruxsat etilmagan kirishga, uning chiqib ketishiga va yo’qolishiga to’sqinlik qiluvchi tashkiliy, texnik, dasturiy, texnologik va boshqa vosita, usul va choralarning kompleksi.

Axborotni himoyalashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- axborotning kelishuvsiz chiqib ketishi, o’gurlanishi, yo’qotilishi, o’zgartirilishi, soxtalashtirilishini oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizliligiga bo’lgan xavf – xatarning oldini olish;
- axborotni yo’q qilish, o’zgartirish, soxtalashtirish, nusxa ko’chirish, to’siqlash bo'yicha ruxsat etilmagan harakatlarning oldini olish;
- hujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta’minlovchi, axborot zaxirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning ko’rinishlarining oldini olish;
- axborot tizimida mavjud bo’lgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiyligini va konfidentsialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutusion huquqlarini himoyalash;
- davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;
- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta’minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo’llashda sub’ektlarning huquqlarini ta’minalash.

Axborot himoyasi turlari ikki asosiy belgiga ko’ra tasniflanadi:

Birinchi guruhga quyidagi asosiy yo’nalishlar kiritilishi mumkin: davlat sirlarini himoya qilish, davlatlararo maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish, tadbirkorlik sirlarini himoya qilish, xizmat sirlarini himoya qilish, mutaxassislik sirlarini himoya qilish va xususiy ma'lumotlarni himoya qilish.

Ikkinci guruhga quyidagi asosiy yo’nalishlar kiradi: axborotlarni huquqiy himoyalash, axborotlarni tashkiliy himoyalash, axborotlarni muhandislik-texnik himoyalash.

Huquqiy himoyalash - bu huquqiy asosda axborot himoyasini ta’minlovchi maxsus qonunlar, boshqa me’yoriy hujjatlar, qoidalar, jarayonlar va tadbirlar.

Tashkiliy himoya - bu bajaruvchilarga yetkazilishi mumkin bo’lgan ixtiyoriy zararni bartaraf etuvchi yoki yengillashtiruvchi, bajaruvchilarning me’yoriy-huquqiy asosdagisi o’zaro muomalasi va ishlab chiqarish faoliyatini qat’iy belgilash.

Muhandislik-texnik himoya - bu faoliyatga yetkaziluvchi zararlarga qarshilik qiluvchi turli texnik vositalardan foydalanishdir.

**Natijalar va munozara.** *Axborot himoyasi vositalarini va usullarini tasniflash.*

Axborotni muhofaza qilishda foydalaniluvchi asosiy usullar quyidagilar hisoblanadi: yashirish, ranjirlash, noto’g’ri ma'lumot berish, bo'laklash, sug’urta qilish, hisobga olish, kodlash va shifrlash.

Yashirish - axborotni muhofaza qilish usuli sifatida amaliyotda ma'lumotlarni himoyalashning asosiy tashkiliy usullaridan biri hisoblanadi, maxfiy ma'lumotlarga ruxsat etilgan shaxslar sonini chegaralaydi. Yashirish axborotlarni himoya qilishda juda keng qo'llaniluvchi usullardan biri hisoblanadi. Ranjirlash

axborot himoya usuli sifatida, birinchidan, maxfiy ma'lumotlarni maxfiylik darajasi bo'yicha taqsimlaydi, va ikkinchidan himoyalangan axborotga ruxsatni chegaralaydi.

Noto'g'ri ma'lumot berish - axborot himoya usullaridan biri bo'lib, biror ob'yeqt haqidagi haqiqiy ma'lumot o'rniغا atayin yolg'on ma'lumot tarqatishni anglatadi.

Axborotni bo'laklash usuli axborotni bo'laklarga bo'lib, uning biror qismi orqali to'liq ma'lumot olib bo'lmaslikni anglatadi. Bu usul harbiy texnika va qurollanish vositalarini ishlab chiqarishda, shuningdek, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Sug'urta qilish - axborotni muhofaza qilish usuli sifatida endigina tan olinmoqda. Uning ma'nosi axborot egasi huquqlari va manfaatlarini yoki axborot vositalarini an'anaviy tahdidlar va axborot xavfsizligi tahididlaridan himoya qilishni bildiradi. Ushbu usul tijorat sirlarini saqlashda ko'proq qo'llanilishi ehtimoli mavjud.

Axborotni sug'urta qilishda u dastlab, auditorlik tekshiruvidan o'tishi va xulosaga ega bo'lishi talab etiladi. Axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli axborotni muhofaza qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Aynan inson, u korxona yoki tashkilot xodimi, maxfiy ma'lumotlardan voqif bo'lib, o'z xotirasida ko'plab ma'lumotlarni jamlaydi va ba'zi hollarda axborot chiqib ketishi manbaiga aylanishi mumkin hamda uning aybi bilan o'zgalar ushbu axborotga noqonuniy ega bo'ladilar.

Axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli quyidagilarni nazarda tutadi:

Xodimni tarbiyalash, u bilan ma'lum sifatlarni, qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus ishlarni olib borish (vatanparvarliq axborotni muhofaza qilish uning shaxsan o'zi uchun ham qanday ahamiyat kasb etishini tushuntirish);

Xodimni axborotni muhofaza qilish qoidalari va usullariga o'rgatish, konfedensial axborot tashuvchilar bilan amaliy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Hisobga olish axborotni muhofaza qilishning muhim usullaridan biri bo'lib, konfedensial ma'lumotlar tashuvchilarning hamda undan foydalanuvchilarning ixtiyoriy vaqtida qayerda joylashganligi haqida ma'lumot olishimkonini beradi. Ushbu usulsiz himoya muammosini hal etish juda qiyin.

Sir saqlanuvchi axborotlarni hisobga olish tamoyillari:

Himoyalanuvchi axborotlarni tashuvchilarning barchasini ro'yxatga olish majburiyligi;

Muayyan axborot tashuvchini ro'yxatga olish bir marta bo'lishligini (takrorlanmasligini) ta'minlash;

Ro'yxatda konfedensial ma'lumot tashuvchining ayni vaqtida qaysi manzildaligini ko'rsatish;

Har bir himoyalangan axborot tashuvchining saqlanishiga yagona javobgarlik va hisobda ushbu axborotni ishlatgan foydalanuvchi haqida ma'lumotni aks ettirish.

Kodlash - himoyalanuvchi axborotni raqibdan yashirish maqsadida, axborotni kanal orqali uzatish jarayonida o'zgalar tomonidan tutib olinishi xavfi mavjud o'lganda, uni kodlash usuli yordamida ochiq matnni shartli axborotga aylantirish usulidir. Kodlash uchun odatda belgilar to'plami (belgilar, raqamlar va boshqalar), shuningdek axborotni tushunarsiz belgilar to'plami ko'rinishiga aylantirish imkonini beruvchi ma'lum qoidalar tizimi foydalilanadi. Bu axborotni o'qish uchun esa uni yana o'z holiga keltirish, ya'ni kodni ochish (kalit) kerak bo'ladi. Axborotni kodlash texnik vositalar yordamida yoki qo'lda amalga oshirilishi mumkin.

Shifrlash - axborotni muhofaza qilish usuli bo'lib, ko'pincha axborotlarni radioqurilmalar vositasida uzatishda, raqib tomonidan tutib olish xavfi bo'lganda qo'llaniladi. Axborotni shifrlash, uni o'zgalar tomonidan tutib olinganda ham kalitsiz ma'nosini tushunib bo'lmaydigan holatga o'tkazishni anglatadi.

Axborotni muhofaza qilish vositalari - bu axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etish uchun foydalaniluvchi muhandislik-texnik elektron, elektron, optik va boshqa qurilma vositalar to'plamidir.

Axborotni muhofaza qilishning kadr va resurs ta'minoti. Davlat sirlarini tashkil etuvchi axborotni muhofaza qilishni tashkil etuvchi kadrlar tayyorlash tizimiga quyidagilar kiradi:

- Tashkilot va bo'linma rahbarlari.
- Axborotni muhofaza qilish bo'yicha maxsus komissiyalar.
- Yagona xavfsizlik xizmati tarkibiga kiruvchi ixtisoslashgan bo'linmalar.

**Xulosa va tavsiyalar.** Boshqa sohalar kabi axborotni muhofaza qilish sohasi ham kadrlar tayyorlashdan tashqari moddiy, iqtisodiy va axborot resurslari bilan ta'minlanishi kerak. Moddiy resurslar axborotni muhofaza qilishda maxsus ahamiyatga ega. Unga maxsus ajratilgan bino, maxsus qurilmalar, qabul qilingan me'yorlar asosida attestatsiya qilingan kompyuter va orgtexnika, apparat vositalari, dastur vositalari, axborotni muhofaza qilish vositalari va boshqalar.

Axborot xavfsizligini ta'minlashda biz, birinchi navbatda, nimani, nimadan va qanday himoya qilishimiz kerakligini aniqlab olishimiz, shundan so'nggina axborot xavfsizligini ta'minlash usullari va himoya qilish vositalarini to'g'ri tanlash va ulardan to'g'ri qo'llashimiz kerak bo'ladi.

**Adabiyotlar:**

1. S.K. Ganiyev, M.M. Karimov, K.A. Tashev. Axborot xavfsizligi. -T.: «Fan va texnologiya», 2017, 372 bet.
2. Партика Т. Л., Попов И. И. Информационная безопасность: Учебное пособие. – М., 2002.
3. Imamova Shafoat Mahmudovna. A simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// International journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
4. Imomova Shafoat Mahmudovna. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar// Educational Research in Universal Sciences. Volume 2, special issue 14, 2023, C.1075-1081
5. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers // Naturalista campano Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.
6. Семененко В.А. Информационная безопасность: Учебное пособие. – М., 2008.
7. Imomova Shafoat. Blockchain va uning axborot xavfsizligiga ta'siri//Pedagogik mahorat. Maxsus son (2021 yil, derkabr),2021, C.88-90.
8. Имомова Ш.М. Использование электронной цифровой подписи // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. 2018. № 4.C.62.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI VA  
XAVFSIZLIK CHORALARINING ILMY TAHLILI

Baxtiyorova Durdona Ixtiyorovna,  
Buxoro Innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti o‘qituvchisi  
ixtiyorovnadurdona@gmail.com

Maqolada zamonaviy texnologiyalar davrining eng yirik innovatsion yutuqlaridan biri sifatida baholangan sun’iy intellektning insoniyat hayotiga ko‘rsatgan ta’siri har tomonlama tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning inqilobiy yangiliklari va turli sohalarda yaratgan qulayliklari ta’kidlanar ekan, uning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga, shaxsiy hayotga va xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jihatlari ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt bilan bog‘liq xavf-xatarlarning oldini olish, ularning ehtimoliy oqibatlarini kamaytirish va ulardan himoyalanish strategiyalari o‘rganilgan. Shuningdek, sun’iy intellektdan samarali va xavfsiz foydalanish bo‘yicha ilg‘or amaliyotlar va siyosiy-huquqiy choralar taklif etiladi. Maqolada sun’iy intellektning ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va xavfsizlik sohalaridagi roli, shuningdek, inson huquqlari va axloqiy masalalarga oid muammolarni hal etishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Sun’iy intellektning global rivojlanishga ijobiy va salbiy ta’siri haqida ma’lumotlar berilib, turli mamlakatlar tajribasiga asoslangan tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt (AI), innovatsion texnologiyalar, ijtimoiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamli transformatsiya.

**НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ И МЕР  
БЕЗОПАСНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

В данной статье всесторонне анализируется влияние искусственного интеллекта, оцениваемого как одно из крупнейших инновационных достижений современной эпохи технологий, на жизнь человечества. Подчёркиваются революционные новшества искусственного интеллекта и его преимущества в различных сферах, а также рассматриваются аспекты, которые могут оказывать негативное воздействие на социально-политические отношения, личную жизнь и безопасность. В ходе исследования изучаются стратегии предотвращения рисков, связанных с искусственным интеллектом, минимизации их возможных последствий и защиты от них. Также в статье предлагаются передовые практики и политico-правовые меры для эффективного и безопасного использования искусственного интеллекта. В статье анализируется роль искусственного интеллекта в образовании, здравоохранении, экономике и безопасности, а также рассматриваются возможности решения проблем, связанных с правами человека и этическими вопросами. Приводятся данные о положительном и отрицательном влиянии искусственного интеллекта на глобальное развитие и рекомендации, основанные на опыте различных стран.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект (AI), инновационные технологии, социальная безопасность, информационная безопасность, цифровая трансформация.

**SCIENTIFIC ANALYSIS OF INNOVATION OPPORTUNITIES AND SECURITY  
MEASURES OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

The article comprehensively analyzes the impact of artificial intelligence on human life, which is considered one of the greatest innovative achievements of the era of modern technologies. While highlighting the revolutionary innovations and conveniences created by artificial intelligence in various fields, aspects of it that can have a negative impact on social and political relations, personal life and security are also considered. During the study, strategies for preventing risks related to artificial intelligence, reducing their possible consequences and protecting against them were studied. Also, best practices and political and legal measures for effective and safe use of artificial intelligence are proposed. The article analyzes the role of artificial intelligence in the fields of education, health, economy and security, as well as its potential in solving problems related to human rights and ethical issues. Information about the positive and negative effects of artificial intelligence on global development is given, and recommendations based on the experience of different countries are given.

**Keywords:** artificial intelligence (AI), innovative technologies, social security, information security, digital transformation.

**Kirish.** Bugungi texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektdan samarali foydalanish imkoniyatlarini o’rganish va ularni amaliyatga tatbiq etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy hayotning barcha jabhalariga kirib kelmoqda va uning ta’siri sanoat, tibbiyot, ta’lim, transport va boshqa sohalarda sezilarli darajada oshmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektning salbiy oqibatlari va xavfsizlikka tahdid soluvchi omillari ham bugun global miqyosda muhokamalarga sabab bo’lmoqda.

Sun’iy intellektdan foydalanishning innovatsion imkoniyatlari, uning inson hayotiga ta’siri va bu texnologiyadan foydalanish jarayonida xavfsizlikni ta’minalashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Jumladan, SI yordamida ish samaradorligini oshirish, insonlarning kundalik hayotini yengillashtirish va iqtisodiy o’sishga hissa qo’shish masalalari yoritiladi. Shuningdek, texnologiyadan noto‘g’ri foydalanishning oldini olish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish, axloqiy masalalar va sun’iy intellektning jamiyatga salbiy ta’sirlarini minimallashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ham o’rganiladi.

Maqola quyidagi tadqiqot savollariga javob berishga qaratilgan:

1. Sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy innovatsion imkoniyatlari nimalardan iborat?

2. Sun’iy intellektni qo’llashda xavfsizlikni ta’minalash uchun qanday strategik chora-tadbirlar talab qilinadi?

3. Sun’iy intellektning iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini boshqarish uchun qanday yondashuvlar samarali hisoblanadi?

Sun’iy intellektdan foydalanish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar orqали yuqorida berilgan savollarga javob topishga qaratilgan bo‘lib, mavzuga oid dolzarb masalalar bo‘yicha ilmiy muhokama yuritilgan bundan tashqari ko‘plab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlardan namunalar va tadqiqot natijalari keltirilgan. Bugungi texnologiyalar davri innovatsiyasining asosiy tarkibiy qismi sun’iy intellekt (SI) bo‘lib, u ko‘plab sohalarda tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun’iy intellektning rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, tibbiyotda aniq tashxis qo‘yish va muolajalarini takomillashtirish, ta’lim tizimida shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, transport va logistika sohalarida samaradorlikni oshirish kabi yirik o‘zgarishlarga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo’shib, yangi ish o‘rinlarini yaratish va tadbirkorlik sohasida innovatsion echimlarni joriy etish imkonini bermoqda. Biroq, ushbu texnologiyaning rivojlanishi bilan birga xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minalash va axloqiy masalalar kabi dolzarb muammolar ham yuzaga kelmoqda. Global miqyosda sun’iy intellektning jamiyatga ijobiy ta’sirini oshirish va salbiy oqibatlarini minimallashtirish masalasi davlatlar, tashkilotlar va olimlar orasida muhim muhokama mavzusiga aylangan. SI texnologiyalari nafaqat iqtisodiy va texnik sohalarida, balki ijtimoiy hayotning har bir jabhasida ham chuqur iz qoldirmoqda.

**Metodlar.** Sun’iy intellektga asoslangan zamonaviy dunyoning eng xavfli jihat shundaki, u «G’olib chiqqan inson hamma narsani oladi» tamoyiliga asoslangan. Bu esa ijtimoiy va siyosiy keskinlik va xalqaro nizolarni yanada kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Xalqaro maydonda esa neft va boshqa yoqilg‘i resurslariga bo‘lgan kurash singari ma’lumotlar bazasi va unga egalik qilish uchun raqobat brogan sari yildan yilga ortib, kengayib bormoqda. Sun’iy intellekt sohasida o’tgan asrning o‘rtalaridan boshlab tadqiqot ishlari boshlangan. Ingliz matematigi va kriptografi Alan Tyuring (1952-1954) mazkur yo‘nalishda ilk tadqiqot muallifi hisoblanadi. Sun’iy intellekt atamasi 1956-yilga kelib paydo bo‘ldi. Shu yilning yozida AQSHning Dartmut universitetida sun’iy tafakkur masalalari bo‘yicha anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda Klod Shannon (Bell Laboratories), Nataniel Rochester (IBM), Gerbert Saymon (Karnegi universiteti, Trenchard Mur (Prinston universiteti), Jon Makkarti (Dartmut universiteti), Marvin Minski (Garvard universiteti) kabi olimlar ishtirot etgan[2]. XX asrning 80-yillari sun’iy intellekt-kashfiyot deya e’tirof etila boshlandi. Tadqiqotlarning huquqiy asosini qonunlar, statistik ma’lumotlar, farmon va strategiyalar shu sohadagi ilmiy-tadqiqotlar tashkil qiladi. Sun’iy intellektni huquqiy tartibga solishda ilmiy-tadqiqotning statistik, eksperimental metodlari qo‘llanilgan.

**Natijalar.** Sun’iy intellektning xavfli jihatlari ham bordir. Bularning eng xavflisi odamlarning ishsiz qolib ketishidir. Buning asosiy sababi shuki, sun’iy intellekt inson qilishi mumkin bo‘lgan ko‘p vazifalarni bajara boshladi va bu odamlarning ish o‘rinlarini yo‘qotishga olib kelmoqda. Jahon iqtisodiy forumining

kelajak ish o‘rinlari haqidagi hisobotiga ko‘ra, keyingi besh yilda hozir mavjud ish o‘rinlarining 23 foizi o‘zgarishga uchraydi: 69 mln ish o‘rini yaratilishi, 83 mln ish o‘rni esa yo‘q bo‘lib ketishi ketishi kutilyapti. Bu global miqyosda ish o‘rinlarining 14 mlni, ya’ni 2foizi yo‘q bo‘lib ketishi mumkinligini anglatadi. Masalan, sun’iy intellekt namunasi bo‘lgan ChatGPT AQSHda 4,8 mln ish o‘rmini egallashi prognoz qilinmoqda. Qisqaradigan ish o‘rinlari, kasblarning yo‘qolib ketishiga sun’iy intellekt sabab bo‘lmoqda. Chunki sun’iy intellekt ishchilar, xodimlar bajaradigan ish o‘rinlari va vazifalarini qila boshlagach, inson mehnatiga hojat qolmasligini ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellektning salbiy tomonlari hamma narsada bor. Sun’iy intellekt orqali fake(soxta) xabarlar tarqalib ketmoqda va bu xabarlarni to‘g‘riligini tekshirish lozimligi o‘rtaga chiqdi. Sun’iy intellektning xavfli jihatlari:

1. Shaxsiy ma’lumotlar va maxfiylik tahididlari: Sun’iy intellekt tizimlari katta hajmdagi shaxsiy va maxfiy ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Agar bu ma’lumotlar noto‘g‘ri boshqarilsa yoki kiberhujumlarga uchrasa, insonlarning shaxsiy hayoti buzilishi mumkin. Ayniqsa, moliya, tibbiyot va ijtimoiy tarmoqlarda bunday holatlar xavfli bo‘lib, ularning salbiy oqibatlari keng ko‘lamda namoyon bo‘lishi ehtimoli bor.

2. Adolatsizlik va diskriminatsiyaga olib kelish ehtimoli: Sun’iy intellekt tizimlari noto‘g‘ri yoki tarafkash ma’lumotlar bilan o‘qitilganda, noto‘g‘ri xulosalar chiqarishi mumkin. Bu esa, masalan, ishga qabul qilish yoki kredit berish jarayonida jinsiy, irqiy yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatanadolatsizlikka olib keladi. Bunday noxolislik jamiyatda ishonchszilikni kuchaytiradi.

3. Harbiy texnologiyalarning xavfi: Sun’iy intellekt asosida ishlovchi avtonom qurollar, jumladan, “killer robotlar” kabi harbiy texnologiyalar global xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Ularning noto‘g‘ri boshqarilishi yoki noqonuniy ishlatalishi harbiy nizolarni kuchaytirishi va katta zarar yetkazishi mumkin.

4. Soxta ma’lumot va manipulyatsiya vositalari: Sun’iy intellekt yordamida “deepfake” videolar, tovush yozuvlari va boshqa yuqori sifatli soxta materiallar yaratish osonlashmoqda. Bu esa siyosiy manipulyatsiyalarni ko‘paytirib, ijtimoiy tartibsizlik va ishonchszilik muhitini vujudga keltirishi mumkin.

5. Kiberxavfsizlikka bo‘lgan tahididlari: Sun’iy intellekt tizimlari o‘zлari hujum nishoniga aylanishi yoki zararli dasturlarni avtomatlashtirish orqali kiberhujumlar vositasiga aylanishi mumkin. Bunday hujumlar natijasida korxonalar va davlat muassasalariga katta zarar yetishi ehtimoldan xoli emas.

6. Inson nazorati yo‘qolishi xavfi: Avtonom sun’iy intellekt tizimlari mustaqil ravishda qaror qabul qila boshlaganda, insonlar bu tizimlarni boshqarish imkoniyatini yo‘qotishi mumkin. Bu esa kutilmagan va salbiy oqibatlarga, masalan, noto‘g‘ri hisob-kitoblarga yoki texnologik xatoliklarga olib kelishi mumkin.

### **6. Joriy qilish va foydalanuvchilarni o‘rgatish**

Dasturiy vosita keng miqyosda foydalanishga topshiriladi.

- **Ta’lim muassasalariga joriy qilish:** Dasturni o‘quv jarayoniga kiritish.

- **Foydalanuvchilarni o‘qitish:** O‘qituvchilar va talabalar dasturdan foydalanishga o‘rgatish.

- **Qo‘llab-quvvatlash tizimi:** Talabalar va o‘qituvchilarning muammolariga javob berish.

Natijasi: Dasturiy vosita faoliyatini keng auditoriyada ta’minalash.

### **7. Monitoring va tahlil**

Joriy qilingan dasturiy vosita samaradorligi va ishlashini kuzatish.

- **Talabalar ma’lumotlarini tahlil qilish:** Dasturdan foydalangan talabalar natijalari o‘rganiladi.

- **O‘qituvchilarning fikrlarini olish:** Pedagoglarning dastur haqidagi fikrlari va takliflari yig‘iladi.

- **Yangi ehtiyojlarni aniqlash:** Dasturiy vositaga qo‘srimcha funksiyalarni kiritish ehtiyoji o‘rganiladi.

Natijasi: Monitoring va fikr-mulohazalar asosida dasturiy vositani takomillashtirish.

### **8. Yangilash va qo‘llab-quvvatlash**

Pedagogik dasturiy vositaning dolzarbligini ta’minalash uchun yangilanishlar kiritiladi.

- **Funksional imkoniyatlarni kengaytirish:** Yangi talab va ehtiyojlarga mos ravishda funksiyalar qo‘sish.

- **Texnik muammolarni bartaraf etish:** Dasturda aniqlangan nosozliklarni tuzatish.

- **Doimiy yangilanishlar:** Dastur doimiy ravishda zamonaviy texnologiyalarga moslashtiriladi.

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish bosqichlari har tomonlama puxta o‘ylangan va aniq rejalashtirilgan jarayon bo‘lib, uning har bir bosqichi ta’lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu bosqichlarni izchil va sifatli bajarish orqali zamonaviy ta’lim jarayoniga mos, samarali vositalar yaratish mumkin. Bu vositalar talabalarning mustaqil bilim olishiga yordam berib, ularning o‘z-o‘zini rivojlanirish jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning o‘z-o‘zini rivojlanirishi zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda turli dasturiy vositalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu vositalar yordamida talabalar o‘z vaqtini boshqarishni, bilim olishni individual ravishda tashkil qilishni va ijodkorlikni rivojlanirishni o‘rganadilar. Biroq, bu vositalardan foydalanishda ba’zi cheklovlar ham mavjud.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga pedagogik dasturiy vositalarni keng qo‘llashning pedagogik jihatlarini “SWOT” tahlili metodi orqali ko‘rib chiqamiz.

Ta’lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning “SWOT” tahlili

“S” (strength) –kuchli tomoni	“W”(Weakness) –kuchsiz tomoni
<p>1. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etish orqali talabalarning AKTdan foydalanish kompetentligi oshadi;</p> <p>2. Elektron ta’lim tizimida pedagogik dasturiy vositalarning qo‘llanilishi ta’lim berish usul va vositalarini boyitadi. 3.Pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan talabalarni shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin;</p> <p>4. Professor-o‘qituvchi bilan teskari aloqaning mavjudligi;</p> <p>5.Olingan bilimlar darajasini nazorat qilish usullarining mavjudligi.</p>	<p>1. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuterlarning tanqisligi;</p> <p>2. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish imkoniyatiga ega yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;</p> <p>3. Pedagogik dasturiy vositalar asosida elektron ta’limni joriy etish bo‘yicha strategiyani shakllantirishning dolzarbligi;</p> <p>4. Pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish motivatsiyasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarining kamligi;</p> <p>5. Xorijiy davlatlarga nisbatan O‘zbekiston ta’lim tizimida yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etishga sarf-xarajatlarni oshirish.</p>
“O” (Opportunity) –imkoniyatlari	T (Threat) –to’siqlar
<p>1. Talabalar va o‘qituvchilarining mobil qurilmalarining o‘zaro aloqasi hisobiga o‘quv jarayonini boshqarish;</p> <p>2.Kerakli axborotlarni oson qidirish imkoniyati;</p> <p>3. Pedagogik dasturiy vositalarning qo‘llanilishi ta’limni innovatsion yo‘nalishda rivojlantiradi.</p>	<p>1. Pedagogik dasturiy vositalar asosida dars mashg‘ulotlarini o‘tish uchun didaktik ta’motning mavjud emasligi;</p> <p>2. Zamon talablariga javob bermaydigan pedagogik dasturiy vositalarning yaratilishi elektron ta’lim tizimini sifatini tushib ketishiga olib kelishi mumkin;</p> <p>3. O‘quv jarayaonida innovatsion pedagogik dasturiy vositalardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini o‘tish tajribasining yo‘qligi.</p>

### Innovatsion yondashuvlar.

Talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali bo‘ladi:

#### 1. Gamifikatsiya elementlaridan foydalanish.

Gamifikatsiya ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Masalan:

- Talabalar uchun bilimlarni o‘rganish jarayonini o‘yinga aylantiruvchi vazifalar yaratish.
- Ballar, darajalar va mukofotlar tizimidan foydalanish orqali talabalarni rag‘batlantirish.

#### 2. Shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlari.

Raqamlı platformalar yordamida har bir talabaga individual ta’lim rejasi tuzish:

- Onlayn testlar va diagnostika natijalariga asoslanib individual kurslarni shakllantirish.
- O‘zlashtirish jarayonini kuzatish uchun sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash.

#### 3. Masofaviy va gibrild ta’lim texnologiyalari.

Masofaviy ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Canvas) yordamida talabalar mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirish:

- Video darslar va interaktiv mashg‘ulotlarni yaratish.
- Teskari aloqa vositalari orqali talabalar bilan onlayn muloqotni yo‘lga qo‘yish.

#### 4. Kooperativ ta’lim muhitini shakllantirish.

Talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, birgalikda masalalarni hal qilishni tashkil etish:

- Jamoaviy onlayn loyiha va vazifalarni yaratish.
- Virtual laboratoriylar va seminarlar tashkil etish orqali hamkorlikni rivojlantirish.

#### 5. Raqamli simulyatorlar va virtual haqiqat texnologiyalari.

Murakkab fanlarni o‘rganish uchun real hayotga yaqinlashtirilgan virtual simulyatorlardan foydalanish:

- Tibbiyot, muhandislik yoki kimyo kabi fanlarda tajriba o‘tkazish imkoniyatini beruvchi virtual laboratoriylar.

### Ta’lim sifatiga ta’siri.

Innovatsion yondashuvlarning talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyasini rivojlantirishdagi asosiy ta’sirlari quyidagilardan iborat:

• **Bilimlarning chuqurlashishi:** Raqamli texnologiyalar materiallarni chuqur o’zlashtirishga yordam beradi.

• **Motivatsiyaning oshishi:** Zamonaviy yondashuvlar orqali talabalar o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

• **Amaliy ko‘nikmalarining shakllanishi:** Simulyatorlar va real amaliyatga yaqin vazifalar orqali talabalar ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Xulosa.** Axborotlashgan ta’lim muhiti talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion yondashuvlar, masalan, gamifikatsiya, shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlari va virtual texnologiyalar yordamida talabalarning ta’lim jarayoniga jalb etilishi va bilim olish samaradorligi oshadi. Kelgusida raqamli texnologiyalarni yanada takomillashtirish va ularni ta’lim jarayonida qo’llashni kengaytirish dolzarb masala bo‘lib qoladi.

### Tavsiyalar.

1. Talabalar uchun raqamli platformalarda shaxsiylashtirilgan ta’lim kurslarini ishlab chiqish.
2. O‘qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorlash.
3. Virtual va qo‘srimcha haqiqat texnologiyalarini ta’lim tizimiga kengroq tatbiq etish.

### Adabiyotlar:

1. Siemens, G. (2005). Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.
2. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Edmonton: AU Press.
3. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.
4. Moodle Docs (2023). Using Moodle: A Comprehensive Guide to the World’s Most Popular Learning Management System.
5. Воронов, В. Б., & Шустов, А. Ю. (2020). Цифровые образовательные платформы: возможности и вызовы. Москва: Юрайт.
6. Chen, B., & Bryer, T. (2012). Investigating Instructional Strategies for Using Social Media in Formal and Informal Learning. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 13(1).
7. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2012). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer.
8. Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishning nazariy asoslari, “Muğallim hám úzliksiz bilimlendiruv” ilimiyyet-metodikalij journali, 6/2-san, 2024-jil, 195-201 bet
9. Maxsetbayevich, K. T. (2025). Talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 60(3), 296-300.
10. Maxsetbayevich, K. T. (2025). Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning o‘zo‘zini rivojlantirishning nazariy asoslari.// Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 36(2), 50-53.
11. Maxsetbayevich, K. T. (2025). Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalar o‘zo‘zini rivojlantirishga pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish modeli. // Pedagogs, 73(1), 11-14.
12. Maxsetbayevich, K. T. (2025). Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodikasi. // Tadqiqotlar. uz, 53(2), 89-92.
13. Maxsetbayevich, K. T. (2025). Talabalarning mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishni takomillashtirish. // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 36(2), 14-16.
14. Maxsetbayevich, K. T. (2024). Talabalar o‘zo‘zini rivojlantirishga pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish. // Ustozlar uchun, 64(1), 179-183.
15. The pedagogical potential of digital technologies in self-development and effective application methods, // East European Scientific Journal #09(106), 2024, 20-21, DOI: 10.31618/ESSA.2782-1994.2024.1.106.510, <https://archive.eesa-journal.com/index.php/eesa/issue/view/102>
16. Axborotlashgan ta’lim muhitida talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishning nazariy asoslari, // “Muğallim hám úzliksiz bilimlendiruv” ilimiyyet-metodikalij journali, 6/2-san, 2024-jil, 195-201 bet.

## MA’NAVIYAT VA TARBIYA

### INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA MADANIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI QO’LLASH SAMARADORLIGI

Begmatova Dilnoza Muxtarovna,

Samarqand davlat chet tillar instituti, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ushbu ilmiy maqolada talabalarda madaniy immunitetni rivojlanirish uchun individual yondashuv asosida qo'llaniladigan strategiyalarning samaradorligi tahlil qilingan. Madaniy immunitet, individning boshqa madaniyatlarga nisbatan ochiqligi, ularni tushunishi va qabul qilishiga yordam beradigan psixologik va ijtimoiy ko'nikmalar to'plami sifatida ta'riflanadi. Maqolada madaniy immunitetni rivojlanirishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar, jumladan, madaniy bilimlarni oshirish, interaktiv ta'lim usullari, empatiya va kross-madaniy muloqot, psixologik yondashuvlar hamda madaniy kompetentsiyani baholash keltirilgan. Bunday strategiyalarni talabalarda madaniy immunitetni oshirishda qo'llashning samaradorligi tahlil qilinadi, shuningdek, individual yondashuvni amalga oshirishning talabalarning madaniy farqlarni tushunish va boshqa madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishda qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. Maqola, global jamiyatda madaniy farqlarni qabul qilish va bargaror interkultural muloqotni ta'minlashda ta'limning muhim rolini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** madaniy immunitet, individual yondashuv, talaba, madaniy farqlar, pedagogik strategiyalar, empatiya, kross-madaniy muloqot, psixologik yondashuv, madaniy kompetentsiya, ta'lim samaradorligi, interkultural o'zaro aloqalar.

### ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ИММУНИТЕТА У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА

В данной научной статье анализируется эффективность стратегий, направленных на развитие культурного иммунитета у студентов, основанных на индивидуальном подходе. Культурный иммунитет определяется как набор психологических и социальных навыков, которые помогают индивидууму быть открытым к другим культурам, понимать их и принимать. В статье рассматриваются основные стратегии, применяемые для развития культурного иммунитета, включая расширение культурных знаний, интерактивные методы обучения, эмпатию и кросс-культурное общение, психологические подходы и оценку культурной компетенции. Оценивается эффективность применения этих стратегий в процессе повышения культурного иммунитета у студентов, а также обсуждается, как индивидуальный подход способствует лучшему пониманию культурных различий и успешному взаимодействию с представителями других культур. Статья подчеркивает важную роль образования в принятии культурных различий и обеспечении устойчивого межкультурного общения в глобальном обществе.

**Ключевые слова:** культурный иммунитет, индивидуальный подход, студент, культурные различия, педагогические стратегии, эмпатия, кросс-культурное общение, психологический подход, культурная компетентность, эффективность обучения, межкультурное взаимодействие.

### EFFECTIVENESS OF APPLYING STRATEGIES FOR DEVELOPING CULTURAL IMMUNITY IN STUDENTS BASED ON AN INDIVIDUAL APPROACH

This scientific article analyzes the effectiveness of strategies based on an individual approach for developing cultural immunity in students. Cultural immunity is defined as a set of psychological and social skills that help an individual be open to, understand, and accept other cultures. The article presents the main strategies used to develop cultural immunity, including increasing cultural knowledge, interactive teaching methods, empathy and cross-cultural communication, psychological approaches, and assessing cultural competence. The effectiveness of these strategies in enhancing cultural immunity among students is evaluated, and the positive impact of implementing an individual approach on students' understanding of cultural differences and successful communication with other cultures is discussed. The article emphasizes

**Keywords:** cultural immunity, individual approach, student, cultural differences, pedagogical strategies, empathy, cross-cultural communication, psychological approach, cultural competence, educational effectiveness, intercultural interaction.

**Kirish.** Globalizatsiya jarayoni va madaniy almashuvlar bugungi kun jamiyatining ajralmas qismlariga aylangan. Bunday sharoitda, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va turli madaniyatlarga nisbatan ochiqlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish jarayonida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish, ularning boshqa madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarning samaradorligini tahlil qilishga ehtiyoj mavjud.

Ushbu maqolada, individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirishning samaradorligini o'rghanish, shuningdek, bu jarayonni qo'llash uchun qanday pedagogik strategiyalarni amalga oshirish mumkinligi ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ushbu tadqiqotning maqsadi, individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan strategiyalarning samaradorligini o'rghanishdir. Tadqiqotda, madaniy immunitetni oshirishda ta'lif jarayonida qo'llaniladigan turli pedagogik metodlar va yondashuvlar tahlil qilinadi. Asosiy maqsad, talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash, ularning boshqa madaniyatlarni tushunish, qabul qilish va interkultural muloqotda muvaffaqiyatlari bo'lish ko'nikmalarini oshirishdir. Tadqiqot, individual yondashuvning madaniy farqlarni tushunish va global jamiyatda barqaror muloqotni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatishni maqsad qiladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirishning samaradorligini o'rghanish uchun bir qator metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning birinchi bosqichida madaniy immunitet, individual yondashuv va interkultural muloqot mavzulariga oid mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Bu bosqichda madaniy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalar, metodlar va ularning samaradorligi haqida nazariy asoslar aniqlanadi [1,2].

Eksperimental tadqiqot. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida, individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish strategiyalarining samaradorligini o'rghanish uchun eksperimental metod qo'llaniladi. O'qituvchilar tomonidan tanlangan bir nechta guruhlar uchun turli pedagogik yondashuvlar, interaktiv ta'lif metodlari, madaniy bilimlarni oshirish va empatiya rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkaziladi.

So'rovnoma va intervylar. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar va intervylar o'tkazish orqali madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar va muvaffaqiyatlar haqida ma'lumot to'planadi. Bu ma'lumotlar tadqiqotning sifatli tahlilini amalga oshirishda yordam beradi.

Kvantitativ va sifatli tahli. Tadqiqot natijalarini baholash uchun kvantitativ (sonli) va sifatli (mazmunli) tahlil usullari qo'llaniladi. So'rovnomalar natijalarini statistik usullar yordamida tahlil qilish, shuningdek, intervylardan olingan sifatli ma'lumotlarni kodlash va umumlashtirish orqali madaniy immunitetni rivojlantirishning samaradorligi o'rGANILADI[5].

Taqqoslash. Tadqiqotda olingan natijalar individual yondashuv asosida qo'llanilgan strategiyalarni qo'llamagan guruhlar bilan taqqoslanadi. Bu, individual yondashuvning talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirishdagi ta'sirini yanada aniqroq ko'rsatishga imkon beradi.

Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar talabalarning madaniy immunitetini oshirishdagi samaradorlikni aniqlash va o'qitish jarayonini takomillashtirish uchun kerakli pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi [4,6].

Madaniy immunitet — bu individning boshqa madaniyatlarga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi, ularni tushunishi va qabul qilishi uchun zarur bo'lgan psixologik va ijtimoiy ko'nikmalar to'plamidir. Madaniy immunitetni rivojlantirish talabalar uchun boshqa madaniyatlarni qadrash, o'z madaniyati bilan boshqalarni tenglashtirgan holda fikrash va interkultural muloqotda muvaffaqiyatli bo'lish imkonini yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, pedagogik yondashuvlar, o'qituvchilar va ta'lif tizimining madaniy immunitetni oshirishdagi roli beqiyosdir. Talabalar o'z madaniyatlarini anglab yetib, boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi uchun tegishli strategiyalarni amalga oshirish zarurdir.

Individual yondashuvning ta’lim jarayonida qo’llanilishi talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatları, qiziqishlari va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etishga imkon beradi. Bu yondashuv, talabalarni individual ravishda rivojlantirish va ularning madaniy immunitetini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Individual yondashuvni qo’llash orqali talabalar o‘zlarini boshqa madaniyatlarda va ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli ravishda namoyon eta olishadi [3,9].

**Natijalar.** Madaniy immunitetni rivojlantirish strategiyalarining tahlili.

Madaniy immunitetni rivojlantirish uchun bir nechta samarali strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Quyida ba’zi samarali metodlar va yondashuvlar keltirilgan [8,10]:

**Madaniy bilimlarni oshirish:** Talabalarga boshqa madaniyatlar haqida bilim berish, ularning urfatlari, qadriyatlari va an'analari haqida to‘liq ma'lumot taqdim etish.

**Interaktiv ta’lim usullari:** Talabalar o‘rtasida muloqotni rag‘batlantirish, guruhli ishlarda madaniy farqlarni muhokama qilish.

**Empatiya va kross-madaniy muloqot:** Talabalar o‘rtasida empatiya rivojlantirish va madaniy farqlarni qabul qilish ko‘nikmalarini oshirish.

**Psixologik yondashuvlar:** Talabalarga o‘z madaniy stereotiplari bilan kurashishga yordam berish, shaxsiy ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

**Madaniy kompetentsiyani baholash:** Madaniy immunitetni baholash va talabalarning rivojlanish jarayonini kuzatish uchun maxsus testlar yoki anketalar qo’llash.

Quyidagi jadvalda bu strategiyalar va ularning samaradorligi keltirilgan:

Strategiya	Tavsif	Samaradorlik (1-5)
Madaniy bilimlarni oshirish	Talabalarga turli madaniyatlar haqida ma'lumot berish va ularning qadriyatlari haqida tushuncha hosil qilish.	5
Interaktiv ta’lim usullari	Guruhlarda madaniy farqlarni muhokama qilish va o‘zaro tajriba almashish.	4
Empatiya va kross-madaniy muloqot	Madaniy farqlarni tushunish va empatiya rivojlantirish.	4
Psixologik yondashuvlar	Talabalarni o‘z stereotiplarini yengishga o‘rgatish va o‘zaro hurmatni oshirish.	5
Madaniy kompetentsiyani baholash	Talabalar madaniy kompetentsiyalarini baholash va rivojlanish darajasini kuzatish.	4

**Individual yondashuvning madaniy immunitetga ta’siri.** Individual yondashuvni qo’llashning talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish uchun o‘quv jarayonida turli metodlar sinovdan o‘tkazilgan. Bu metodlarning samaradorligi talabalar o‘rtasida madaniy farqlarni qabul qilish va boshqa madaniyatlar bilan muloqot qilishda o‘zgarishlar yuzaga kelishini ko‘rsatdi. Quyidagi jadvalda individual yondashuvni qo’llashning madaniy immunitetni rivojlantirishdagi ta’siri keltirilgan.

Yondashuv	Samaradorlik	Ta’sirlar
Shaxsiy maslahat va tahlil	5	Talabalar o‘z madaniyatlarini anglash va boshqa madaniyatlarga ochiqlikni oshirish.
O‘z-o‘zini baholash va refleksiya	4	Talabalar o‘zaro hurmatni oshirishi va madaniy farqlarni qabul qilishga moyil bo‘lish.
Motivatsion treninglar	5	Talabalar o‘zlarining madaniy xulq-atvorlarini yaxshilash va empatiya rivojlantirish.
O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsiy yondashuv	4	Talabalar individual ehtiyojlarga moslashish va o‘zaro aloqalarni o‘rnatish.

Madaniy immunitetning rivojlanishi, talabalarga boshqa madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli va samarali muloqot qilishni o‘rgatadi. Bunday yondashuv, shuningdek, talabalarning global jamiyatda yashashga tayyor bo‘lishini ta’minlashga yordam beradi. Buning natijasida, talabalarda madaniy farqlarga nisbatan o‘zaro hurmat, tushunish va ko‘proq empatiya rivojlanadi, bu esa jamiyatda barqaror interkultural aloqalarni o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, individual yondashuv talabalarga o‘zlarini madaniy farqlarga ega bo‘lgan dunyoda qulay his qilish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim metodlari ularning o‘ziga xos

xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish orqali madaniy immunitetni rivojlantirishda eng yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Shu tariqa, individual yondashuv madaniy immunitetni rivojlantirishda katta ta’sir ko’rsatadi va talabalarning boshqa madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotda individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish strategiyalarining samaradorligi o’rganildi. Tadqiqotning natijalari, madaniy immunitetni rivojlantirishda individual yondashuvni qo’llashning juda samarali ekanligini ko’rsatdi. Bu yondashuv talabalarga boshqa madaniyatlarni yaxshiroq tushunish, qabul qilish va ularga nisbatan ochiqlikni oshirishda yordam berdi. Tadqiqot davomida o’tkazilgan eksperimentlar va so’rovnomalar natijalari shuni ko’rsatdiki, interaktiv ta’lim usullari, madaniy bilimlarni oshirish, empatiya rivojlantirish va kross-madaniy muloqot metodlari talabalarning madaniy immunitetini oshirishda muhim rol o’ynaydi.

Bundan tashqari, talabalarning madaniy farqlarni tushunish va boshqa madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish ko’nikmalarining oshishi, individual yondashuvning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. O’quv jarayonida individual ehtiyojlar va qobiliyatlarni hisobga olish, talabalar uchun o’ziga xos o’quv muhitini yaratish, ularning madaniy immunitetini rivojlantirishda samarali natijalar berishi mumkin.

Tadqiqotda olingan natijalar, global jamiyatda madaniy farqlarni qabul qilish va interkultural aloqalarni rivojlantirishda ta’lim tizimining muhim ahamiyatini ko’rsatadi. Hozirgi vaqtida, globalizatsiya jarayonida madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilish zarurati oshib bormoqda. Talabalar o’rtasida madaniy immunitetni rivojlantirish, ularning psixologik va ijtimoiy ko’nikmalarini kengaytirish, turli madaniyatlar o’rtasida sog’lom va muvaffaqiyatli aloqalar o’rnatishga yordam beradi.

Biroq tadqiqotning bir nechta cheklavlari ham mavjud. Masalan, o’quv muhitidagi ba’zi holatlar va madaniy immunitetni rivojlantirish uchun kerakli resurslar cheklangan bo’lishi mumkin. Bundan tashqari, individual yondashuvni amalga oshirishda o’qituvchilarning malakasi va metodik tayyorgarligi katta rol o’ynaydi. O’qituvchilar bu jarayonda muhim o’rin tutadi, chunki ularning pedagogik yondashuvi va metodik imkoniyatlari talabalarning madaniy immunitetini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Kelajakda bu tadqiqotni yanada kengaytirish va boshqa ta’lim muassasalarida, shuningdek, turli madaniy guruhlarga ega bo’lgan talabalarga qo’llashni o’rganish zarurdir. Bundan tashqari, madaniy immunitetni rivojlantirishning samaradorligini baholash uchun yangi metodikalar va o’lchov vositalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Shu bilan birga, o’qituvchilar va ta’lim tizimi mutaxassislari madaniy immunitetni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko’rib, bu sohada ilg’or metodlarni qo’llashni davom ettirishi lozim. Bu nafaqat talabalar uchun, balki jamiyatda barqaror va hurmatga asoslangan interkultural munosabatlarni o’rnatishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Begmatova D.M. The process of preparing future teachers for the formation of cultural immunity in students based on the analysis of foreign experiences - Science and innovation, 2024 (<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=11443467316326093755&btnI=1&hl=ru>)
2. Schunk D. H. Learning Theories: An Educational Perspective. Pearson Education. 2008
3. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: 2009. Routledge.
4. Sternberg R. J. Beyond IQ: A Triarchic Theory of Human Intelligence. Cambridge: 2004. Cambridge University Press.
5. Nazarov I. A. Pedagogik psixologiya. Toshkent: 2012 “O’zbekiston” nashriyoti.
6. Tashpulatov A. X. Oliy ta’limda shaxsiy rivojlanish: Psixologik va pedagogik jihatlar. Toshkent: 2014 “O’qituvchi” nashriyoti.
7. Smith J. Cultural Immunity in Education: Pedagogical Strategies for the 21st Century. 2019. Oxford University Press.
8. Chen G. M., & Starosta W. J. Communication Competence and Cross-Cultural Adaptation. 2000. Routledge.
9. Jackson R. Intercultural Communication: An Introduction. 2007. Sage Publications.
10. Bennett M. J. Toward Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity. 1993. In Education for the Intercultural Experience.

## O'QUVCHILARGA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH ORQALI MUSIQIY-ESTETIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARI

*Ergashev Najibullo Xasan o'g'li,  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Mazkur maqolada o'quvchilarga milliy qadriyatlardan foydalanish orqali musiqiy-estetik tarbiya berish mexanizmlari va ularni takomillashtirishda umumiy o'rta ta'limgbosqichi va unda tashkil etiladigan musiqa san'atiga oid ishlarning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlari keltirilgan. Bugungi kunda umumta 'lim maktablarida o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish muammosi yuzasidan pedagogik tadqiqotlarni olib borgan xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot yo'nalishlari xususidagi ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, olimlar tomonidan musiqa shaxsni estetik tarbiyalashning eng muhim va qulay usuli sifatida uslubiy qoidalari va mifik o'quvchilarni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqiy ta'lming ahamiyati tushuntirib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** musiqa, shaxsiy rivojlanish, musiqiy tarbiya, musiqiy-estetik madaniyat, musiqiy idrok.

### МЕХАНИЗМЫ МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

В статье представлены механизмы обеспечения музыкально-эстетического воспитания учащихся на основе использования национальных ценностей, их взгляды на роль и значение ступени общего среднего образования и организованной на ней работы по музыкальному искусству в её совершенствовании. Представлены сведения о направлениях научных исследований зарубежных и отечественных учёных, проводивших педагогические исследования по проблеме развития музыкально-эстетического воспитания учащихся общеобразовательных школ на современном этапе. Кроме того, учёные обосновали значение музыкального образования как важнейшего и удобного метода эстетического воспитания человека, его методические правила, а также значение музыкального образования в воспитании школьников как высококультурных, зрелых людей с высокоразвитым эстетическим вкусом.

**Ключевые слова:** музыка, развитие личности, музыкальное образование, музыкально-эстетическая культура, музыкальное восприятие.

### MECHANISMS OF MUSIC-AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS USING NATIONAL VALUES

*The article presents the mechanisms for ensuring musical and aesthetic education of students based on the use of national values, their views on the role and importance of the stage of general secondary education and the work organized on it on musical art in its improvement. Information is presented on the directions of scientific research of foreign and domestic scientists who conducted pedagogical research on the problem of developing musical and aesthetic education of students in comprehensive schools at the present stage. In addition, scientists substantiated the importance of music education as the most important and convenient method of aesthetic education of a person, its methodological rules, as well as the importance of music education in educating schoolchildren as highly cultured, mature people with a highly developed aesthetic taste.*

**Keywords:** music, personal development, music education, musical and aesthetic culture, musical perception.

**Kirish.** O'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi muammosi pedagogika sohasida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan, ammo Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bu jarayonni yanada keskinlashtirdi. Pivojlanayotgan jamiyatda, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish milliy madaniyatning bir qismiga aylangan holda, uni hayotning turli sohalarida ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan shaxs potentsialining ortib borishi tendentsiyasi mavjud bo'lib, ushbu tendentsiyalar bilan bog'liq holda, mifik tabning ta'limguassasasi sifatidagi vazifalari murakkablashmoqda. Aniqrog'i, yangi ta'limguqsadlari paydo bo'lmoqda va mifik o'quv jarayoni printsipial jihatdan yangi boshlang'ich parametrleriga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda zamонавий mifik tabning ta'limguazifalari nafaqat O'zbekiston pedagogikasi uchun an'anaviy bo'lgan ustuvorlikka ega bo'libgina qolmay, balki davlat ta'limgustandartlari orqali ifodalangan

ta’lim uchun zamонавиј ијтимојиј бујуртманинг мухим асосларини ташкіл қилади. Бунда шахснинг бутун тузилишига, унинг ма’ниви, ахлоқиј, интелектуал, иродавиј, ијодиј ва бoshqa fazilatlariga ta’sir qiluvchi shaxsnинг murakkab va integral fazilatlari alohida ahamiyat qaratiladi. Shaxsnинг murakkab integral sifatlari estetikani o’z ichiga oladi va uning shakli sifatida shaxsnинг san’atdan biri, musiqiy-estetik madaniyati darajasida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, o’quvchilarga milliy qadriyatlardan foydalanish orqali musiqiy-estetik tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb pedagogic muammo hisoblanadi.

Qadim-qadimdan Sharqning buyuk mutaffakirlari badiiy-estetik qadriyatlardan tarbiyaning muhim vositasi sifatida foydalanib kelganlar. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy asarlarida Sharqona ma’naviyat asoslari o’z ifodasini topgan. Shu bilan birga xalq og’zaki ijodiyoti namunalarining yoshlarga ma’naviy-estetik va g’oyaviy-siyosiy tarbiya berishdagi o’rni beqiyosdir. [6]

Bugungi kunda umumta’lim maktabida o’quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish muammosi ilmiy echimni emas, balki ko’proq tashkiliy yoki boshqaruv echimini kurmoqda desak mubolag’ a bo’lmaydi. Ushbu muammo pedagogika fanida va amaliyotida rivojlangan, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar mavjud bo’lib, ushbu muammoni taniqli olimlardan B.T.Lixachev, Y.B.Boreev, A.I.Burov, E.V.Kvyatkovskiy, N.I.Kiyashchenko, B.M.Nemenskiy va boshqalar o’z asarlarida shaxsni estetik tarbiyalash kontseptsiyasi, shaxs estetik madaniyatining yaxlitligi, uning mehnatda, kundalik hayotda va boshqalarda rivojlanish imkoniyati va umuman - badiiy hodisalarini boshdan kechirish, tushunish va ijodiy o’zgartirish masalalari yoritilgan. Musiqiy-estetik tarbiya tushunchalari E.B.Abdullin, Y.B.Aliev, O.A.Apraksina, B.V.Asafyev, A.S.Bazikov, D.B.Kabalevskiy, S.V.Kazakova, L.V.Matveeva, E.V.Nikolaeva, B.L.Yavorskiy kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.

O’zbek olimlaridan, Sh.Abdujalilov, Sh.Atajanova, M.Inomova, V.Karimova, A.Munavvarov, M.Muhammadjonova, A.Muxsiyeva, S.Ochilov, G’.Shoumarov A.I.Ostrovskiy, Q.Quronboyev, Z.Qurban niyozova, Z.Qosimova. M.Abdujabborova, Q.Panjiyevlar yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhidha tarbiyalash yo’nalishida, umumiyo o’rtalim maktablari va sinfdan tashqari musiqa to’garaklarida o’quvchilar shaxsini shakllantirish, tarbiyalash borasida S.K.Anamuratova, S.Fayzulina, R.Hasanov, O.Musurmonova, S.Nishonova, I.Revis, Sh.Rahimova, Q.Mamirov, F.Halilov, D.Qodirov, S.Muratova kabilar tadqiqotlarni amalgalash oshirganlar.

**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Milliy qadriyatlarining jamiyat taraqqiyotida o’ziga xos o’rni bor. Milliy musiqiy merosimizning asrlar davomida bizgacha kelganligi esa unga bo’lgan hurmat e’tibor ijobiy munosabatning mahsuli ekanligidadir. Musiqa madaniy hayotimizda keng o’rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o’ynaydigan san’at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq yunon faylasufi Platon shunday degan edi: “Yoshlikda eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san’atda emasmikan, zeroki, ritm va garmoniya hammadan ko’proq shu vaqtida qalbga chuqur yo’l topadi va salobat baxsh etib, uni ko’rkam qiladiki, agar tarbiya to’gri yo’lga qo’ylgan bo’lsa, aks holda uning teskarisi bo’lib chiqadi. Uning shogirdi Aristotel (Aflatun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi: “Musiqa kishi ruhining axloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga o’z ta’sirini ko’rsatadi”. Shu o’rinda Abu Nasr Forobiyning musiqa haqidagi fikrlari e’tiborga loyiqdир. Forobiy musiqani tarbiyaviy fan deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: “Bu fan shu ma’noda foydaliki, kimning fe’l-atvori muvozanatni yo’qotgan bo’lsa, muvozanatga keltiradi, kamol topmaganalarni kamolga yetkazadi va muvozanatda bo’lmaqanlarning muvozanatini saqlaydi. Bu tananing sog’ligi uchun ham foydalidir, chunki, tana kasalga uchrasa ruhan so’liydi, tana qiyinchilikka uchrasa, ruh ham azobga uchraydi. Shu sababli tananining davolanishi ruhni davolash orqali amalgalash oshiriladi, ovozlarning ta’siri ostida ruhiy quvvatlar o’z substantsiyasiga moslashadi va tartibga, muvozanatga keladi”. [3]

Umumiyo o’rtalim maktalaridagi musiqiy-estetik tarbiya berishda musiqa asarlarini tashkiliy, maqsadli, nazorat ostida o’zlashtirish va hissiy tajriba orqali hissiy-sezuvchi va qadriyatli estetik ongini shakllantirish, musiqiy-estetik ongini o’zlashtirish yo’li bilan amalgalash oshiriladi.

Umumiyo o’rtalim maktalarida musiqiy-estetik tarbiyani tashkil etish quyidagilarga asoslanadi: - ta’limga shaxsga yo’naltirilgan yondashuvning umumiyo tamoyillari bo’yicha: tabiatga muvofiqlik, madaniyatga muvofiqlik, ta’limning insonparvarlik yo’nalishi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta’sirlarning birligi, shaxsiy va faoliyat tarkibiy qismlarining birligi hamda ta’limning ijtimoiy yo’nalishi; - estetik tarbiyaning umumiyo tamoyillari bo’yicha: faol-faoliyatga asoslangan tamoyil; shaxsnинг rivojlanayotgan estetik ehtiyojlarini qondirish; estetik mezonlarni atrofdagi voqelikdagi keng ko’lamli hodisalarga tarqatish; - musiqiy-estetik tarbiyaning xususiy tamoyillari: mazmun tanlash; badiiy-estetik muhitni tashkil etish; estetik zavq.

Umumiyo o’rtalim maktalarida musiqiy-estetik ta’lim samaradorligining quyidagi beshta asosiy sharti mavjud: - mazmun - san’atning turli turlarini sintez qilish, musiqiy obrazni real hayot bilan bog’lash,

hissiy jihatdan boy musiqiy material tanlash; -shakl va usullar - musiqiy-estetik tarbiyaning murakkab tabiat, uning boshqa ta’lim turlari va ta’lim jarayoni shakllari bilan birlashishi; - mavzu - musiqiy-estetik faoliyatda sub’ekt pozitsiyasini doimiy ravishda rivojlantirish, musiqiy tasvirni aks ettirishni tashkil etish, musiqada estetik ma’noni aniqlash, estetik mezonnarni tushunish, individual estetik baholash g’oyalarini shakllantirish va baholash; – natijalar – musiqiy va estetik tarbiya natijalaridan shaxsning musiqiy-estetik madaniyatga bevosita aloqador bo’lmagan sifatlarini jumladan. hissiy, intellektual, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish uchun foydalanish; - boshqaruv - maktab tarbiyaviy ishida shaxsning musiqiy va estetik madaniyati rivojlanishini prognozlash, tahlil qilish, nazorat qilish va tuzatish, o’quvchilarning musiqiy va estetik rivojlanishi uchun muhit sifatida matabning ta’lim ishlari tizimini monitoring qilish kabilardan iborat.

Shaxsning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish estetik munosabatlar, tevarak-atrofdagi voqelikdagi hodisalar va o’quvchilar faoliyatining musiqiy bo’lmagan boshqa turlarida qo’llanilishini baholash va tajribalarning keng doirasida o’quvchilarning musiqiy va estetik tarbiysi va ularning ijtimoiy tarbiysi natijasi deb qaraladi. Shaxsning rivojlangan musiqiy-estetik madaniyati uning ijodiy faoliyatini musiqiy va estetik ehtiyojlari orqali rag’batlantirishga qodir va natijada: shaxsiyatning musiqiy bo’lmagan sohalarini ham rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Tadqiqotchi Y.B.Aliyev yozganidek: “Musika, ..dunyoga bo’lgan munosabatga, butun ongga ta’sir qiladi, bizning hissiy dunyomizga bunchalik kuchli bostirib kiradigan, uni o’ziga bo’ysundiradigan boshqa san’at turi yo’q” [1].

**Olingen natijalar va ularning tahlili.** O’quvchilarga musiqiy-estetik tarbiya berish jarayonida umumta’lim bosqichi yuqori o’rinni egallaydi va bu haqiqat nafaqat yoshlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog’liq bo’lmashdan, balki maktabning o’quvchilar shaxsiyatini rivojlanadirigani ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun qulay imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Umumiyo o’rtalim darajasida o’quvchilarning musiqiy-estetik tarbiysi har qanday tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirib, ta’lim muassasasining ta’lim muhitini hissiy jihatdan to’Idiradi hamda amalda aynan umumiyo o’rtalim bosqichida “muhimroq” ta’lim vazifalarini hal qilish uchun musiqiy-estetik ta’lim tashkil etiladi. Shu sababdan bugungi kunda dunyo miqiyosida fsosiy umumiyo ta’lim darajasida o’quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasini ilmiy asoslangan qayta baholashni amalga oshirish, uning maqsad va vazifalarini qayta ko’rib chiqish, zamonaviy ta’lim jarayoni sharoitlariga moslashtirilgan amaliy vositalarni ishlab chiqish niroyatda zarurligi e’tirof etilmoqda.[2]

Olimlar tomonidan musiqa shaxsni estetik tarbiyalashning eng muhim va qulay usuli sifatida uslubiy qoidalarini ajratib ko’rsatishgan. Umumiyo o’rtalim maktabning o’quv ishlari tizimida musiqa tashkil etilgan estetik ta’limning bir jihat, turi sifatida belgilashga imkon beradi estetik tarbiyaning quyidagi uchlik vazifasini hissiy-sezgini shakllantirish va estetik ongni qadrlash, o’quvchilarning ma’naviy-estetik ehtiyojlarini ro’yobga chiqarish va ularning estetik mezonnarga javob beradigan ijodiy faoliyatini tashkil etish, musiqa asarlarini tashkiliy, maqsadli, nazoratli o’zlashtirish va hissiy tajriba orqali amalga oshiriladi.

Umumiyo o’rtalim bosqichida umumta’lim maktabida o’quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashning hozirgi holatida bir qator qarama-qarshiliklar ajratish mumkin. Ularga: - o’rtalim maktablarida o’quvchilarning estetik ongini rivojlantirish uchun asosiy umumiyo ta’limning davlat ta’lim standartining talablari va musiqiy-estetikaning yangi shakl va usullari to’plamining etarli darajada rivojlanmaganligi o’rtasidagi; - musiqaning estetik hodisa sifatidagi o’ziga xosligi va salohiyati bilan umumta’lim maktabining ta’lim tizimida ulardan foydalanish amaliyoti o’rtasidagi; - musiqaning san’at turi sifatida shaxsning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari va maktab o’quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasiga yetarlicha e’tibor berilmasligi o’rtasidagi qarama-qarshiliklarni kiritish mumkin.

O’quvchilarga milliy qadriyatlardan foydalanish orqali musiqiy-estetik tarbiya berish mexanizmlarinin takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlarimiz quyidagi uch bosqichda amalga oshirilishi belgilangan: - birinchi tashkiliy-tahliliy bosqichda umumiyo o’rtalim maktab o’quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashning o’rnatalgan amaliyotini o’rganish, amaliyotda to’plangan pedagogik tajribalarni umumlashtirish, tadqiqotning uslubiy apparatini ishlab chiqish. musiqiy-estetik tarbiya muammosining tarixiy rivojlanishi va hozirgi holatini o’rganish, ilmiy tadqiqotning yo’nalishlari belgilash va uning dasturini tuzish. - ikkinchi, nazariv izlanish bosqichida tadqiqotning asosiy nazariv qoidalarini ishlab chiqishi, belgilangan talablarga javob beradigan o’quvchilarining musiqiy-estetik tarbiyasini nazariv modellashtirish, musiqiy-estetik tarbiyaning shakl va usullarini sinab ko’rish bo’yicha tajribalar o’tkazish; - uchinchi, tajriba bosqichda ishlab chiqilgan modelni sinovdan o’tkazish, tajriba natijalari bo’yicha empirik ma’lumotlar to’plash, tahlil qilish hamda xulosalar sintezini amalga oshirish.

**Xulosa.** Maktab o’quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash asosida barkamol qilib tarbiyalashga ta’sir etuvchi omillar sifatida maktablarda musiqiy to’garaklar faoliyatiga alohida e’tibor qaratish muhim bo’lib, bunda asosan milliy qadriyatlarga asoslangan milliy musiqa san’atiga o’quvchilarni musiqiy-estetik

rivojlantiruvchi vosita sifatida qarash, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini, xususiyatlarini takomillashtirishga, o’quvchi shaxsiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maktab o’quvchilarni yuksak madaniyatli, estetik didi yuqori darajada rivojlangan komil insonlar qilib tarbiyalashda musiqiy ta’limning ahamiyati beqiyosdir. Xususan, o’zbek musiqa san’ati bu borada katta imkoniyatlarga egadir. Ma’lumki o’quvchilarni musiqiy-estetik ruhda tarbiyalash jarayoni birinchidan musiqa pedagogikasining asosiy umumiy tamoyillariga rioya etilishiga, ikkinchidan estetik didni tarbiyalash bilan bog’liq bo’lgan maxsus shart-sharoitlarni ta’minalashga asoslanishi lozim. O’quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash jarayoni musiqani idrok etish qobiliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog’liq bo’lib, eng avvalo musiqiy idrokni ta’minlovchi tarkibiy qismlarini, ya’ni tamoyillari muhim o’rin egallaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Aliyev Ю.В.Музыка вокруг нас. Журн. // Проблемы современного образования 2010.
2. Асриева О.О. Музыкально-эстетическое воспитание обучающихся на ступени основного общего образования. Автореферат диссертации кандидат наук. М. 2020
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashrièti, 1993. – 222 b.
4. Лорка Ф.Г. О прекрасном. Колыбельные песни // Ф.Г.Лорка. Избранное. М. Эгмонт, 2008.
5. Xamidov X. O’zbek an’anaviy qo’shiqchilik madaniyati tarixi. – Toshkent, 1996. – 160 b.
6. Yusupov R. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. – Toshkent, 2002. – 124 b.

**SA’DIY SHEROZIYNING “GULISTON” VA “BO‘STON” ASARIDAGI TARBIYAVIY  
G‘OYALARING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

*Ergasheva Maftuna Alisher qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Ta’lim- tarbiya  
nazariysi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) 2- bosqich magistranti*

*Mazkur maqolada Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridagi axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalalar o‘rganilgan. Maqolaning asosiy maqsadi ushbu g‘oyalarning zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashdir. Maqolaning asosiy vazifalari – ushbu asarlardagi g‘oyalarning zamonaviy ahamiyatini aniqlash va ularni ta’lim-tarbiyada qo‘llash usullarini tavsiflashdir.*

**Kalit so‘zlar.** tarqqiyot, axloqiy tarbiya, “Guliston”, “Bo‘ston”, zamonaviy ta’lim, ma’naviyat, globalizatsiya, g‘oyalalar.

**СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ИДЕЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ  
СААДИ ШИРАЗИ «ГУЛИСТАН» И «БУСТАН»**

*В данной статье изучаются нравственно-просветительские идеи произведений Саади Ширази “Гулистан” и “Бустан”. Основная цель статьи – определить возможности использования этих идей в современном образовательном процессе. Основные задачи статьи – определить современную значимость идей этих работ и описать методы их применения в образовании.*

**Ключевые слова.** Развитие, нравственное воспитание, “Гюлистан”, “Бостон”, современное образование, духовность, глобализация, идеи.

**CONTEMPORARY SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL IDEAS IN SAADI SHIRAZI'S  
WORKS «GULISTAN» AND «BUSTAN»**

*In this article, the moral and educational ideas of Saadi Shirazi's works “Gulistan” and “Bustan” are studied. The main goal of the article is to determine the possibilities of using these ideas in the modern educational process. The main function of the article is to determine the modern significance of the ideas in these works and to describe the methods of their application in education.*

**Keywords:** development, moral education, “Gulistan”, “Bustan”, modern education, spirituality, globalization, ideas.

**Kirish.** Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, insonning ma’naviy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillar ham mavjud. Aynan shunday sharoitda Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridagi axloqiy qadriyatlar insoniyat uchun ma’naviy ustun sifatida namoyon bo‘la oladi. Ushbu asarlar milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishda o‘rnak bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yosh avlodga tarbiya berishda ajdodlarimiz merosining o‘rni beqiyosdir. Kelajagimiz yoshlariga ta’lim tarbiya berishda odilona bo‘lmoq lozim. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyevning: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatning qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim tarbiyadir” [1] deya aytgan so‘zlaridan ham ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan e’tiborning yuksakligini ko‘rishimiz mumkin. Tarbiya bilan bog‘liq qarashlarni o‘rganish borasida Sharq buyuk mutafakkirlari asarlar muhim ahmiyatga ega. Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Hofiz, Umar Xayyom kabi Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari dostonlarida ham, Xorazmiy, Forohiy, Abu Ali ihn Sino, Beruniy kabi allomalaming ilmiy asarlarida ham, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Bobur kabi ulug‘ shoirlar ijodida ham, Zayniddin Vosifiy, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy kabi tarixchilarimizning tazkiralarida ham insonlarning go‘zal his tuyg‘ulariga doir ko‘pgina qimmatli fikrlar mavjud. Kaykovusning “Qobusnomá”, Yusuf Xos Hojibning “Qutag‘du bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida hayotning go‘zalligidan zavqlanish, odamlar baxt-saodati yo‘lida mehnat qilish fazilatlari ulug‘lanadi.

Sa’diy Sheroziy (1210–1292). Sharq madaniyatining buyuk vakillaridan biri bo‘lib, uning ijodi axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalarga boyligi bilan ajralib turadi. “Guliston” va “Bo‘ston” asarları har bir davrda inson ma’naviy olamini boyitishga xizmat qilib kelgan. Bu asarlar turli tillarga tarjima qilingan bo‘lib, butun

dunyo bo‘ylab o‘quvchilarni hayratga solib kelmoqda. Bugungi kunda bu asarlarning g‘oyalari yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

“Guliston” va “Bo‘ston”ning o‘ziga xos jihatlari:

jamg‘armalari, xotin-qizlar qo‘mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlod milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash ishiga muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish; mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarining imkoniyatlarini o‘quv-tarbiya muassasalarini moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish mahalla hududida o‘quv-tarbiya muassasalarini bilan birgalikda turli ko‘rik-tanlovlari, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish; turli yo‘nalishda iqtidorli bo‘lgan o‘quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko‘ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash; - ilg‘or pedagog xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko‘rsatish; farzandlariga ta‘lim va tarbiya berishda ijobjiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida —Oila saboqlari mashg‘ulotlarini tashkil qilish;

- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san‘atkorlar, ziyorilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va —Usta-shogird rusumida billim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;

mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiyngangan yoshlar uchun ish joylari kyotasining ajratilishiga erishish; har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonda, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhinishakllantirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu ulkan va mas‘uliyatli vazifalarni amalga oshirishda —Kichik biznes va tadbirkorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish, aniq maqsadlar ko‘zlangan istiqbolli rejalarini amalga oshirishda hal qiluvchi kuch va ta’sirga ega bo‘lib bormoqda.

Ishbilarmonlikning faol qo‘llab-quvvatlanishi xalqimiz turmush farovonligini oshirish omili bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilaviy biznesni tashkil etish, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, doimiy ish orinlari yaratish orqali oilalar turmush farovonligini oshirishga alohida e’tibor berilishi tijorat banklari kredit siyosatida oz aksini topdi.

**Xulosa.** Natijada minglab oilalar o‘zlarining oilaviy bizneslarini yo‘lga qo‘ydilar, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini tashkil etish imkoniga ega bo‘ldilar. Yuzlab bog‘dorchilik va sabzavotchilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik bilan shug‘ullanadigan yangi xususiy tadbirkorlik tuzilmalari faoliyat yurita boshladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish, aniq maqsadlar kozlangan istiqbolli rejalarini amalga oshirishda hal qiluvchi kuch va ta’sirga ega bo‘lib bormoqda. Ishbilarmonlikning faol qo‘llab-quvvatlanishi xalqimiz turmush farovonligini oshirish omili bolib qolmoqda. Bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan —Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonunning respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya‘ni: maktabda bolaga biron bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish; o‘quvchi yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordamberish, ularning bo‘sh vaqtlarini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilish; bolalarga ta‘lim berishni ilg‘or pedagogic texnologiyalar, zamona viyo‘quv uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta‘minlash;

1. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda hamkorlik ishlarni rejalashtirish.

2. Oila jamiyatning ajralmas zarur qismi sifatida

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-sod “Umumiyl o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017
4. Karimjonov A.va boshq. Ta‘lim muassasalarida me’yoriy hujjatlar yuritish. – Chirchiq, 2020
5. Abdujalilova Sh. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini. – Toshkent, 2020.

## AR-ROZIY IJODIDAGI PSIXOTERAPEVTIK QARASHLAR

*Xakimova Mukaddas Sadriddinovna,  
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktoranti  
Mukaddasxakimova85@gmail.com  
psixologiya fanlari doktori M.Akramov taqrizi asosida*

*Muallifning axloqiy masalalar bo‘yicha ijodiy izlanishlari natijalari o‘zining mazmun-mohiyatiga boyligi, g‘oyalar yangiligi bilan sharq allomalari e’tiborini tortdi. Darhaqiqat, kitobning mazmuni bilan tanishib chiqib, uning o’rtasidagi jamiyatini tashvishga solayotgan va o‘zining umumbashariy, global tabiat tufayli hayotda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan axloqiy masalalarning butun majmuasini qamrab olganiga amin bo‘lish mumkin.*

**Kalit so’zlar:** axloq, nafs, aql, inson tabiat, zavq, mo’tadillik, ichkilikka berilmaslik, sog’lom hayot, to’g’rilik, to’g’riso’zlik.

### ПСИХОТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АР-РАЗИ

*Результаты творческих исследований автора по вопросам нравственности привлекли внимание учёных-востоковедов своим богатством содержания и новизной идей. Фактически, ознакомившись с содержанием книги, можно быть уверенными, что она охватывает целый комплекс нравственных вопросов, волновавших средневековое общество и не потерявших своей жизненной ценности в силу своего универсального, глобального характера.*

**Ключевые слова:** нравственность, алчность, разум, человеческая природа, удовольствие, умеренность, воздержание от алкоголизма, здоровый образ жизни, честность, правдивость.

### PSYCHOTHERAPEUTIC VIEWS IN AR-RAZI’S WORK

*The results of the author’s creative research on moral issues attracted the attention of oriental scholars with their richness of content and novelty of ideas. Indeed, having familiarized oneself with the content of the book, one can be sure that it covers the entire complex of moral issues that worried medieval society and, due to its universal, global nature, have not lost their value in life.*

**Keywords:** morality, passion, mind, human nature, pleasure, moderation, remembering one’s death, abstinence from alcohol, healthy life, correctness, incorrectness.

**Kirish.** Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ibn Yahyo ar-Roziy, IX asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragi atoqli mutafakkiri hisoblanadi. U 865 yil 28 avgustda Eronning o’sha davrdagi muhim ilmiy va madaniy markazi hisoblangan Ray shahrida tug‘ilgan. Uning bolalik va o’smirlik yillari haqida ishonchli ma’lumotlar yo‘q. Kasbi haqida ham tayinli ma’lumotlar yo‘q, ammo kasbi “zargarlik bo’lgan” degan taxminlar bor. Roziy kimyo faniga bo’lgan qiziqishi tifayli, bu fanni puxta o’zlashtirdi va uning turli muammolari bo'yicha 22 dan ortiq kitoblar yozdi.

O‘rta asr tarixshunoslari Beruniy va Kiftiyning qayd etishicha, kimyoviy tajribalarga haddan tashqari ishtiyoq, olovga doimiy yaqinlik, o‘tkir hid va bug‘lar tufayli Roziyning ko‘zlari og‘riydi. Ko‘zni davolash yo’llarini izlash olimni tibbiyat ilmini o‘rganishga majbur qildi. Bu vaqtda u allaqachon 40 yoshda edi. Shunga qaramay, Bag‘donna tibbiyat fanini shu qadar puxta o‘rgandi va shu qadar mohir tabib bo‘ldiki, zamondoshlari unga “Arab Galeni” laqabini qo‘yishdi.

Keyinchalik u Ray kasalxonasining boshlig‘i lavozimini egallaydi, u yerda xuddi Bag‘doddagidek, tibbiyat nazariyasi va amaliyotini tinimsiz va tirishqoqlig bilan o‘rganadi. U tibbiyat sohasida, o‘z avlodlariga 56 ta ilmiy asar meros qoldirganligini unung asarlari orqali bilish mumkin.

Roziy “Chechak va qizamiq kitobi” (lotin, fransuz, ingliz, rus va fors tillariga tarjima va nashr etilgan) yozgan. Roziy o‘zining ushbu so‘nggi kitobida tibbiyat tarixida birinchi marta bu ikki kasallikni farqlaydi va chechakka qarshi emlash tamoyilini o‘rnatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qolaversa, Roziy 130 dan ortiq fundamental asarlar muallifi bo‘lgan.

Umrining oxirida u katta baxtsizlikka uchraydi. U ko‘r bo‘lib qoladi. Roziy loviyani ko‘p va doimiy iste’mol qilganligi tufayli ko‘r bo‘lib qolgan. Ayrim manbalarga ko‘ra esa, Roziy Xuroson hukmdori Abu

Solih ibn Mansurga kimyo bo‘yicha kitob yozganligi haqida va amir olimga kitobda aytilganlarning haqiqatini tajribalar yordamida ko‘rsatishni buyurganligi haqida aytilgan. Roziy amir amrini bajarishdan bosh tortishi va keyin Ibn Mansur o’sha kitob bilan mutafakkirning boshiga urishni buyurganligi haqida yozilgan. Buning natijasida Roziy ko‘r bo‘lib qolgan, degan taxminlar bor. Roziy 1925-yil 25-oktabrda ona shahri Rayda vafot etadi.

Roziy 235 ta kitob, risola va maqolalar yozgan. Afsuski, mutafakkir merosining katta qismi bizgacha yetib kelmagan. Xususan, Uning falsafiy asarlaridan faqat “Ruhiy tibbiyat” va “Falsafiy hayot yo‘li” asari saqlanib qolgan.

Roziyning “Ruhiy tibbiyat” asari yozilishining aniq vaqtı noma’lum, ammo muallif va o‘rtा asr manbalarining guvohliklariga ko‘ra, u 903-905-yillarda Ray shahrini boshqargan amir Mansur iltimosiga ko‘ra tuzilgan. Shuning uchun biz 903-905-yillar oraliq‘ida yozilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kitobning mazmuni bilan tanishib chiqib, uning o‘rtा asrlar jamiyatini tashvishga solayotgan va o‘zining umumbashariy, global tabiat tufayli hayotda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan axloqiy masalalarning butun majmuasini qamrab olganiga amin bo‘lish mumkin. U davrni ijtimoiy-axloqiy qarama-qarshiliklarga to‘la dinamik davr deb ataydi. Bu kitob orqali faylasuf (olim), inson muammozi va uning axloqiy tamoyillarini takomillashtirish, zavq va azob-uqubat, axloqiy takomillashtirishda aql va odatning ahamiyati, g‘azab, xudbinlik kabi salbiy axloqiy fazilatlar haqida, hasad, o‘limdan qo‘rqish, yolg‘onchilik, baxillik, qayg‘u, ochko‘zlik, mastlik va undan qutulish vositalarni izlash, odob-axloqi haqida, inson hayotining mohiyati haqida, insonlar jamoasining o‘zaro yordami mavjudligi va inson axloqiy taraqqiyotining shartlari haqida ma’lum qiladi.

Muallifning axloqiy masalalar bo‘yicha ijodiy izlanishlari natijalari o‘zining mazmun-mohiyatiga boyligi, g‘oyalar yangiliги bilan sharq allomalari e’tiborini tortdi. Darhaqiqat, kitobning mazmuni bilan tanishib chiqib, uning o‘rtा asrlar jamiyatini tashvishga solayotgan va o‘zining umumbashariy, global tabiat tufayli hayotda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan axloqiy masalalarning butun majmuasini qamrab olganiga amin bo‘lish mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Axloq ilmida bilimdon, aqli kishi o‘z nafsi nazoratsiz qoldirmaydi, balki ularni muttasil boshqarishga, aqlga bo‘ysundirishga intiladi. Roziy mulohazasidan kelib chiqadiki, axloq insonda axloqiy ongni shakllaniradi, ham ijobjiy, ham salbiy fazilatlarni, inson tabiatini, uning ruhiy quvvatini, hayoti va faoliyatining mazmunini to‘g‘ri anglash, hayotdan zavq olishga xizmat qiladi va azoblardan xalos bo‘lish va baxtga erishish yo‘llarini o‘rgatadi.

Mutafakkirning so‘zlariga ko‘ra, odob-axloqining mohiyati shundan iboratki, ruhiy tibbiyotning eng muhim masalasi, uning birlamchi vazifasi, inson baxti bilan bog‘liq bo‘lgan eng oliv ne’mat — zavqning mohiyatini bilish va tushuntirishdan iboratdir.

Zavq azobdan qutulishdan boshqa narsa emasligini ta’kidlaydi. Rohatlanish faqat azob-uqubat ta’siridan qutilishdan iborat bo‘ladi. Rohatlanish yoqimli tuyg‘u, iztirob esa yoqimsiz tuyg‘u. Iztirob kelganda, azob va og‘riq paydo bo‘ladi. Iztirob ketganda esa rohatlanish yuzaga keladi, bunday tabiiy holatga zavq deyiladi. “Agar aqli odam, - deb yozadi u, - bu hodisalarni ko‘rsa, ularga aqli bilan kirib boradi. Ular o‘zlarining xohish-istiklaridan voz kechib, zavqlanish va tinch hayotning sharti farovonlik ekanligini tushunadilar”. Roziyning fikricha, rohatga erishishning yagona muhim sharti har bir narsaga oqilona yondashish, o‘z qilmishining oqibatini oldindan ko‘ra bilish, barcha ehtiroslarni aqlga bo‘ysundirish va ularni bostirish, insonni son-sanoqsiz tubsizliklar tubiga soladigan yomonlikni yengishdir.

**Tahlil va natijalar.** Roziy zavqni mo‘tadillik, mutanosiblik hissi bilan chambarchas bog‘laydi. U lazzatlanishning ma’nosini hayotning barcha ne’matlaridan bahramand bo‘lishda, barcha tabiiy ehtiyojlarni ma’lum bir o‘lchovga ko‘ra qondirishda ko‘radi. Odam ovqatlanayotganda, undagi ochlikni, his-tuyg‘ularni yengish uchun qancha ovqat iste’mol qilishi muhim emas, muhimi oz bo‘lsada ovqat iste’mol qilishida. Zavq o‘z-o‘zidan maqsad bo‘lmasligi kerak. Ya’ni, zavq uchun ovqatlanishda me’yorni his qilish kerak. Kiyinishda ham kiyimni qulayligiga va oddiyligiga e’tibor berish kerak, ortiqcha kiyinmaslik kerak. Uy-joy qilishda ham ortiqcha hashamatga uchmaslik kerak, uy nafislikka moyil bo‘lmasligi kerak. Turar-joy shunday bo‘lishi kerakki, odam o‘zini qattiq sovuqdan va issiqliqdan saqlay oladigan darajada bo‘lishi kerak, shuningdek, ajoyib va hashamatli uy va saroyaq intilmaslik kerak va hokazo.

Haddan tashqari uzlucksiz lazzatlanish, Roziyning fikricha, oxir-oqibat azob-uqubatlarga olib keladi va insonni haqiqiy zavq tuyg‘usidan mahrum qiladi. Misol uchun, inson o‘zini nafsga, ehtiroslarga topshirsa, unda asta-sekin zavqlanish hissi yo‘qoladi. Bunday odamlar, deydi Roziy, azobni zavq bilan, qayg‘uni quvonch bilan adashtirgan bemorlarga o‘xshaydi. Binobarin, Roziy fikricha, ortiqchalik ham, kamchilik ham zavq bilan mos kelmaydi.

Oqilona, quvnoq, sog'lom hayot kechirish, azob-uqubatlardan qochish, adolatli, axloqiy pok, ezzulik, odamlarga foydali bo'lish, ularga xizmat qilish, o'limdan qo'rmaslik kabi zavq nazariyasining asosiy talablarini aytib o'tadi.

Roziy axloqining eng muhim xususiyati ratsionalizmdir. U insonning axloqiy hayotida aql va bilimga katta ahamiyat bergen. Aql tufayli inson nafaqat atrofdagi dunyoni, balki o'zini, faoliyatining asoslarini, ichki ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini va aqliy qobiliyatlarini o'rganadi va bilimning haqiqatini belgilaydi. “Agar har bir kishi, hamma narsani aqlga bo'ysundirish qobiliyatini rivojlantirs, u (aql) butun pokligi bilan, butun nuri bilan porlaydi, so'ngra bizni yakuniy maqsad sari yetaklaydi” deb yozadi Roziy.

Roziy insonni ehtiroslari emas, aqli hukmronlik qilishi kerak, deb o'rgatadi. Aql doimo safarbar bo'lib, lahzalik, aldamchi zavqlarga, ehtiroslarga va impulslargaga qarshi turishga imkon beradi. Aql insonni yomon ishlar qilishdan qaytaradi, hayotini qiziqarli va zavq-shavqlarga boy qiladi. Roziy fikricha, aql insonda go'zal odob-axloqni vujudga keltiradi, unga ehtiroslarni bostirishga, yomonlikni yengishga, maqsad va baxtga erishishga yordam beradi.

Roziy barcha axloqiy tamoyillar, axloqiy hodisalar va axloqiy fazilatlarni aql prizmasidan ko'rib, uning talablariga to'g'ri kelmaydigan amal va xatti-harakatlarni axloqsizlik, degan xulosaga keladi.

Roziy fikricha, inson tabiatan yaxshi bo'lib, sof fitratga intiladi. Bu uning o'zidan ko'ra boshqasiga yaxshiroq taqdirni tilashida ifodalanadi. Lekin kimki odamlarga yomonlik yoki baxtsizlik tilab, ularning baxtsizligidan quvonsa,

keyin u kasal bo'lib, ruhiy va axloqiy davolanishga muhtoj bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Har bir inson yaxshilik qilishi va odamlarga foyda keltirishi kerak deb hisoblaydi.

Roziy odamlarning axloqsiz xatti-harakatlari va fe'l-atvorlaridagi salbiy xususiyatlarni - haddan tashqari ehtiros, bema'nilik, hasad, g'azab, yolg'on, baxillik, g'amginlik, ochko'zlik, ichkilikbozlik, behayolik kabilarni tanqid qilib, quyidagi maqsadni ko'zlaydi:

1) tuzatish va takomillashtirish;

2) shaxs va jamiyatning axloqiy asoslarini odamlarning o'zi va jamiyat manfaatlariga moslashtirish;

3) insonning axloqiy va jismoniy salomatligini, jamiyatning ma'haviy va axloqiy taraqqiyotini ta'minlash;

4) quvnoq va baxthi hayot uchun axloqiy shart-sharoitlarni shakllantirish.

**Xulosa va takliflar.** Roziyning ishonchi komilki, salbiy, tuban axloqiy fazilatlar, xususiyat va motivlar insonni ma'naviy, jismonan va ruhiy jihatdan kamsitadi, hayotini chidab bo'lmas holga keltiradi. Xulosani tasdiqlash uchun mutafakkirning mastlik zararlari haqidagi fikrlariga murojaat qilish kifoya. “Mastlikka qaramlik va haddan tashqari ehtiros, sharob ichish ham inson tabiatining yomon ko'rinishlaridan biri bo'lib, uni o'lim xavfi, turli baxtsizliklar va ko'plab kasalliklarga duchor qiladi. Mastlikka cheksiz berilib ketgan odam oxir-oqibat tez yurak urishi, bo'g'ilish va yurak qorinchalarining tiqilib qolishi bilan og'riy boshlaydi. Bu esa to'satdan o'limga olib keladi. Shuningdek, miyadagi qon tomirlarini yorib yuborishi mumkin. Keyinchalik isitma, ichaklarda va tananing asosiy qismlarida qon ketishi va titroqni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bularning barchasi boshqa dardlar bilan birga insonni aql-idrokini yo'qotishga, fahsh, nomussizlik ishlar qilishga, yaxshi, zarur diniy va dunyoviy ehtiyojlarni idrok eta olmaslik va bajara olmaslikka sabab bo'ladi. Inson bunday holatda, yaxshi narsaga umid qila olmaydi va yaxshi narsaga erisha olmaydi”.

Roziyning “Ruhiy tibbiyot” asari yigirma bo'limdan iborat bo'lib, har bir bo'lim o'zining mazmun, mohiyatga ega:

Birinchi bo'limda Roziy aqlning qadr-qimmati va uni o'rni haqida juda muhim jumlalarni keltirib, maqtab yozadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson har qanday ishda faqat aqlga bo'ysunib ish qilishi kerakligi haqida izohli ta'kidlab keladi.

Ikkinci bo'limda esa, ehtirosni tiyish, uni jilovlash va bu boradagi dono Aflatunning asosiy hukmlari haqida so'zlaydi. Ehtirosga berilish yaxshilikka olib kelmasligi haqida ma'noga ega jumlalar bilan boyitgan.

Uchinchi bo'limda ruh haqida fikr mulohazalar berib o'tadi.

To'rtinchi bo'limda esa inson o'z illatlarini bilishi zarurati haqida yozilgan.

Beshinchi bo'lim sevgi, mehr va zavq haqidagi umumiy fikrlar bayon qilingan. Yuqorida ham zavq haqida qisqacha fikr yuritib o'tildi.

Oltinchi bo'lim behudalikni rad etish haqida bo'lib, inson har bir onini behuda sarflamaslik ta'kidlanadi. Har bir lahza on g'animat ekanligi qayta-qayta yozilgan.

Yetinchi bo'lim hasadni rad etish haqida bo'lib, har qanday hasad ichki va tashi kasalliklarga sababchi bo'lish ehtimoli yuqoriligining tasdig'i satrlardan joy olgan.

Sakkizinchi bo'limda ortiqcha va ko'p vaqt talab qiladigan narsalarni rad etish haqida yozilgan bo'lib, g'azabni rad etadi.

To'qqizinchi bo'limda esa yolg'oni rad etish haqida yozadi. Ya'ni hech qachon yolg'on yaxshilik olib kelmasligi haqida aytib o'tadi.

O'ninchı bo'lim baxillik haqida bo'lib, insonni kasallikka chalinishining katta sabablaridan biri ham baxillik ekanligini ta'kidlaydi.

O'n birinchi bo'lim samarasiz fikrlarning zarari haqidadir.

O'n ikkinchi bo'lim qayg'udan qutulish haqida bo'lib, qayg'udan qanday qutilish yo'l yo'riqlarini o'rgatadi.

O'n uchinchi bo'lim ochko'zlik haqida bo'lib, ochko'zlikning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi yozilgan.

O'n to'rtinchi bo'lim esa sharob ichishdan voz kechish haqida bo'lib, sharobning inson organizmi uchun kompleks zarar yetkazishi mahsus ko'rsatmalar bilan keltirilgan.

O'n beshinchi bo'limda behayolik qat'yan rad etiladi.

O'n oltinchi bo'limda ma'nosiz odatlar, bo'sh o'yin-kulgiga moyillik va aqidaparastlikdan voz kechish haqida gap ketadi.

O'n yettinchi bo'lim xarajatlar va ehtiyojlar o'lchovi haqidadir.

O'n sakkizinchi bo'limda unvonlar, dunyoviy darajalarni qo'lga kiritish uchun harakat va kurashni rad etish va ehtiros va aqlga mos keladigan narsalar o'rtaсидagi farq haqida yozilgan.

O'n to'qqizinchi bo'limda esa oljanob xulq-atvor haqida noyob fikrlar keltirilgan.

Nihoyat so'ngi bo'limda, o'lim qo'rquvini qanday qilib yengish haqida foydali jumlalar keltirilgan.

### **Adabiyotlar:**

1. Ар-Рази, Духовная медицина. –Д: “Ирфон” 1990.
2. Muhammad Zohid Qutqu, Nafs nimadir. –Т: “Sharq” 2021.
3. Shamsiyev E.S., Tursunxodjayeva L.A. Psixoterapiya. –Т: 2011.

## PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

### JADIDLARNING MA’RIFIY QARASHLARI VA TA’LIM TIZIMIGA QO’SHGAN HISSASI

*Samadova Sarvinoz Samad qizi,*

*Buxoro davlat universiteti*

*“Ittimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d(PhD)*

*Ushu maqolada jadidlarning ma`rifiy qarashlari va ta`lim-tarbiya tizimiga qo`sghan hissalari haqida fikr yuritilgan. Jadid ma`rifatparvarlari Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo`ja Behbudi, Abdulla Avloniyarning maorif sohasini isloq qilishda ilgari surgan g`oyalari, ta`lim-tarbiya tizimini rivojlantirish uchun olib borgan faoliyatları atroflichä tahlil qilingan.*

**Kalit so`zlar:** jadidlar, “Usul-i-jadid” maktablari, ta`lim, tarbiya, ma`rifat, maorif, “Usul-u-savtiya”, ta`lim tizimi islohoti, Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo`ja Behbudi, Abdulla Avloniy.

### ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДОВ И ИХ ВКЛАД В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ

*В этой статье рассказывается о просвещённых взглядах джадидов и их вкладе в систему образования. Были тщательно проанализированы идеи джадидских просветителей Исмаилбека Гаспирала, Махмудходжи Бехбути, Абдуллы Авлони по реформированию сферы просвещения, проводимая ими деятельность по развитию системы образования.*

**Ключевые слова:** джадиды, школы “Усуль-и-джадид”, образование, воспитание, просвещение, маорифы, “усуль-у-савтия”, реформа системы образования, Исмаилбек Гаспирала, Махмудходжа Бехбути, Абдулла Авлони.

### EDUCATIONAL VIEWS OF THE JADIDS AND THEIR CONTRIBUTION TO THE EDUCATION SYSTEM

*This article describes the enlightened views of the Jadids and their contribution to the education system. The ideas of Jadid enlighteners Ismailbek Gaspirali, Mahmudkhoja Behbudi, and Abdullah Avlani on reforming the education sector and their activities to develop the education system were thoroughly analyzed.*

**Keywords:** jadids, “Usul-i-Jadid” schools, education, upbringing, enlightenment, Maorifs, “usul-u-sawtia”, education system reform, Ismailbek Gaspirali, Mahmudkhoja Behbudi, Abdullah Avloni.

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotida barcha davrlarda ilm va ma`rifatning o`rnini doim muhim ahamiyatga ega bo`lib kelgan. Shu sababli Vatanimizning shonli tarixida o`zlarining ma`rifatchilik g`oyalari bilan jadidlar muhim o`rin tutadi.

Jadidchilik (arabcha: jadid - yangi) - XIX asr oxiri XX asrboshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma`rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gaspirali rahbarligida qrim-tatarlar o`rtasida vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O`rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko`pincha o`zlarini taraqqiyatparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O`sha davrning ilg`or taraqqiyatparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloq qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar.

“Jadid” atamasi ilk marta Turkiyada Sulton Salim III hukmronligi (1739-1802) davrida paydo bo`ldi. Avstriyaga elchi qilib yuborilgan Abubakr Ratib afandi shohga yozgan bildirishnomalarida u yerda ko`rgan idora tizimini “Nizomi jadid” deb tushuntiradi. Fransuzlarning 1789- yilgi inqilobidan keyin qurilgan yangi boshqaruv tizimi esa turklarda “Fransiya nizomi jadidi” deyila boshlandi. Shu yillari “Nizomi jadid” tor ma`noda askariy tizimni yevropalashtirishni, keng ma`noda ilm-fan, maorif, sanoat va qishloq xo`jaligini zamonalivylashtirishni ko`zda tutar edi [5.9]. Demak, jadid atamasi yangilik tarafdarlarini, yangi g`oyalarni ifoda etuvchi tushuncha sifatida qo’llanilgan.

**Asosiy qism.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator Sharq va musulmon mamlakatlari u vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o`lkasida tarixiy ildizlarga egadir. O`z zamonining ilg`or

namoyondalari bo`lgan jadidlar murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma`rifat tarqatish, ta`lim va tarbiya sohasini tubdan isloh qilish orqali milliy taraqqiyotga erishish g`oyasi bilan maydonga chiqdilar.

Jadidchilik harakatining otasi sanalgan Gaspirali Turkiston va Rossiya muslimmonlarining istilodan keyingi madaniy siyosati bilan shug`ullangan asosiy jadidchilardan biridir. Gaspirali 1883-yilda “Tarjimon” gazetasini chiqarishni boshlagan va shu gazeta orqali diniy ta`lim va jadidlarning islohotchilik g`oyalarini targ`ib qilishga harakat qilgan.

Gaspirali mahalliy talab va sa`y-harakatlardan kelib chiqib Turkistonda yangi usul maktablarning ochilishiga ham katta hissa qo`shtigan, yevropaliklarning jahon tarixiga oid kitoblarida turklarga yetarlicha o`rin berilmaganini ko`rib, ajodolari bo`lmish Turkistonga qiziqib qolgan. Keyinchalik mintaqa ulamolari, faylasuflari va olimlarining islom sivilizatsiyasiga qo`shtigan hissalariga jamoatchilik e`tiborini qaratish maqsadida “Turkiston ulamosi” nomli asarini nashr ettirgan.

Gaspirali tomonidan “Usul-i jadid” maktablari ochilishining asosiy maqsadi quyidagilar:

1. O`qish va yozishni o`rganishda qo`llaniladigan eski alifbo o`rniga tovush usoslangan “Usul-i Savtiya” nomli fonetik ta`limga o`tish.

2. Eski madrasalarda yangi imtihon tizimini joriy qilish.

3. O`quv yili muddatlarini aniqlash va yilni ikki o`quv yiliga bo`lish.

4. O`quvchilarga ona tilini o`rgatib, o`qish va yozishni o`z ona tilida boshlashga imkon yaratish.

5. O`quv jarayonida muhim diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlarni o`quv dasturiga kiritish.

6. Darsliklarni maxsus bosqichma-bosqich tayyorlash.

7. Sinflarga bo`linish tamoyilini joriy qilish.

8. Maktab va madrasalarning moddiy sharoitlarini yaxshilash [3.124].

Turkistondagi “Usul-i jadid” maktablari ikki bosqichdan iborat edi. Birinchi bosqichda, ya`ni boshlang`ich maktabda o`quv jarayoni to`rt yil tashkil qilgan. Birinchi sinfda fors va arab tillarida yozish, o`qish va vaqt birliklari o`rgatilgan. Ikkinci sinfda fors, turk va arab tillari, iymon asoslari, musiqa ilmi, turli she`rlar va misralar o`qitilgan. Uchinchi sinfda fors va turkiy tillarda Qur`on o`qish, ibodat, tawhid ta`limoti, pand-nasihatlar o`rgatilib, insholar yozdirilgan. To`rtinchi sinfda kalom ilmi, fors va turkiy tillarda she`r va nasr, axloq darslari, turk va fors tillari, arifmetika, tarix va geografiya darslari o`qitilgan.

Maktabning ikkinchi bosqichida, ya`ni o`rta maktabning to`rtta sinfida quyidagi darslar o`qitilgan: birinchi sinfda arab, fors, geografiya, payg`ambarlar tarixi, islom tarixi va Sa`diy Sheroziyning “Guliston” asari turkiy tilda o`qitilgan, ikkinchi sinfda tibbiyat, tarix, islom etikasi, arifmetika, fors, turk tili, uchinchi sinfda arab, arifmetika, turk tili va rus tili o`qitilgan, to`rtinchi sinfda arab, rus, qozoq, turk tillari, adabiyot, salomatlik, maktab va hayot, axloq va boshqa ko`plab hayotiy saboqlar o`rgatilgan.

Sakkiz sinf, ya`ni ikkala ta`lim bosqichini tamomlagan o`quvchi arab, fors va turk tillarini bilgan, rus tilida ham bemalol o`qish, yozish va gapirish salohiyatida ega bo`lgan. Har o`quv yili oxirida imtihon o`tkazilib, imtihonlarga ota-onalar taklif qilingan. Bu harakatlardan maqsad birinchidan jadid maktablarning ta`limini ko`rsatish bo`lsa, ikkinchidan oila va maktab hamkorligini ta`minlash edi. Jadid maktablari ta`lim tizimining eski ta`lim muassasalaridan ajralib turuvchi jihatlari shunda ediki, o`quvchilar osondon qiyingga qarab ta`lim olar edilar va o`zlashtira olmagan o`quvchilarni jazolash, tayoq bilan urish jazolari yo`q edi [3.143].

Turkistonda ta`lim imkoniyatlari cheklangan bir davrda asos solingan “Usul-i jadid” maktablari o`quvchilarga tovush usoslangan “Usul-i Savtiya” nomli fonetik ta`lim tamoyiliga ko`ra qisqa vaqt ichida o`qish va yozishni o`rgatishni maqsad qilgan. Bu davrga qadar o`quvchilar bo`g`in usuliga ko`ra o`qish va yozishni o`rgangan edilar. Shuning uchun ham turk o`lkalarida “Usul-i jadid” maktablari uzoq vaqt davomida rus mustamlakasi ostida ta`lim ko`rmagan turk xalqi uchun zamonaviy ta`lim tizimi va madaniyatning asosi bo`ldi.

Barchamizga ma`lumki, jadidlar Turkistonni ilm va ma`rifat orqali taraqqiy ettirishga o`z e`tiborlarini qaratishdi. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo`ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo`jaev (Ubaydulla Xo`jaev), Toshpo`latbek Norbo`tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo`jaev, Usmonxo`ja Po`latxo`jaev, Abdulvoxid Burxonov, Sadiriddin Ayniy, Abdulqodir Muyiddinov (Buxoro), Obidjon Maxmudov, Xamza, Cho`lpon, Is`hoqxon Ibrat, Muxammadsharif So`fizoda (Farg`ona vodiysi), Polvonniyoz xoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi. Ularning jonbozligi va harakatlari bilan Turkistonda keng qamrovli ma`rifatchilik g`oyalarini tarqaldi [7.261].

Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdarlarining ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega bo`lib, ma`rifat darg`alari o`z qarashlarining badiiy-adabiy, tarixiy va pedagogik asarlarida aks ettirganlar. Ma`rifatparvarlarning pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir

merosini o’rganishda ularning boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun mo’ljallab yozilgan axloqiy-ta’limiy darsliklari muhim o’rin egallaydi. Asrimiz boshlarida yaratilgan darsliklardan Maxmudxo’ja Behbudiyning “Kitobat-ul atfol” (“Bolalar maktubi”), Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Sadriddin Ayniyning “Taxisib us-sibiyon”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Qiroat”, “Yengil adabiyot”, “O’qish kitobi”, Muhammadjon ibn Rahimjonning “Odobli bola”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistonii”, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, Is’hoqxon Ibratning “Jome’ ul hutut”, Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Saidahmad Siddiqiyning “Aynul adab” (“Odob ko’zi”), “Ganjinomai hikmat” (“Hikmat xazinasi”), Abduqodir Shakuriyning “Rahnomayi savod” (“Savod chiqarish rahbari”), “Jome’ul hikoyat” (“Hikoyatlar to’plami”), Ismatulla Rahmatullayevning “Alifbe ta’limi”, Nizomiddin bin Mullo Husaynning “Ilmi axloq” kabi darsliklari Turkistondagi yangi usul mакtablarida keng ko’lamda foydalanilgan.

Taraqqiyparvar jadidlar o’z davrining ilg’or qarashlarini mujassamlashtirib, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, ta’lim-tarbiyaga bog’liq bo’lgan fikrlarni ilgari surdilar. Ularning bu boradagi qarashlari bugungacha o’z ahamiyatini yo’qotmadi. “O’rta Osiyo jadidlarining otasi” nomi bilan tanilgan Mahmudxo’ja Behbudiy va mashhur pedagog, ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniyning faoliyatlarini bunga misol qilib keltirsak bo`ladi.

Mahmudxo’ja Behbudiy – dramaturg, publisist, din va jamoat arbobi sifatida tanilgan. Bir necha marta Arabiston, Misr, Turkiya va Rossiyaning yirik shaharlariga sayohatga chiqadi. Sayohatlari davomida yangi usul mакtablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo’lga qo’yadi. Samarqandda Siddiqiy Ajziy va Abdulqodiriy Shakuriylar bilan birgalikda yangi usul mакtablarini tashkil etadi.

Yangi mакtablar uchun “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolayi jug’rofiyai umroniy” (1905), “Muntaxabi jug’rofiyai umumiy” (1906), “Kitobat ul-atfol” (1908) kabi darsliklar chop ettiradi.

Mahmudxo’ja Behbudiy 1913-yilda “Samarqand” gazetasini va “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. U nashriyot va o’z nomi bilan ataluvchi kutubxona tashkil etadi. Gazeta va jurnalda millat va ana yurt dardi, xalqni ma’rifatli qilish, erkinligini ta’minalash masalalariga bag’ishlangan dolzarb maqolalar chop etilardi. Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg’oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib yetgan [6. 227].

Behbudiy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish haqida qat’iyat bilan shunday deydi: “Dunyodagi xalqlar o’z taraqqiyotini boshlang’ich mакtabdan boshlaydi, haqiqatda taraqqiyotning birinchi yo’li mакtabdir. Maktab isloh qilinsa, barcha sohalar isloh qilinadi, takomillashadi. Chunki isloh qilingan mакtabdan oz bo’lsa ham mutafakkirlar yetishib chiqadi” [3.129]. Bu yerdan anglash mumkinki, Behbudiy qarashlariga ko’ra, mакtabni isloh qilishda ikkita maqsadga erishiladi. Birinchidan, mакtablarni isloh qilish orqali umumiy taraqqiyotga erishish; Ikkinchidan, ziyolilarni tarbiyalash, ya’ni jamiyatga ular istagan ziyyolilarni yetishtirib berish.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, Behbudiy tilga olgan eng dolzarb masalalardan biri bu mакtab va ilm-fandir. Bu masala har doim birinchi va asosiy masala bo’lib qolaveradi. Chunki ilm-ma’rifatdan uzoq bo’lgan inson jamiyatda o’z o’rnini topa olmaydi, undan bahramand bo’lolmaydi. “Madaniyatdan mahrum, ishlab chiqarish va ta’lim salohiyati rivojlanmagan xalq dunyoda rohat va baxtga erisha olmaydi. U hayot maydonida butunlay mag’lub bo’ladi va oyog‘ ostida eziladi” [2.117] -deydi Behbudiy.

Behbudiy bir asr muqaddam xalqlarga ilm-fan va maorif kerak, degan edi. Shuningdek, mamlakatda islohot va madaniyat boshlanishini matbuot orqali amalga oshirish kerakligini ta’kidlaydi. Dunyoda omon qolish uchun ilm kerak. Agar siz ilmdan uzoqlashsangiz, ilm sohibi bo’lganlarga qaram bo’lasiz. Bu butun dunyoda tan olingan haqiqatdir. Shuning uchun Behbudiy “Samarqand” gazetasining 1913- yil 12- iyul sonida nashr etilgan “Millat ehtiyoji” nomli maqolasida: “Zamonaviy ilmlardan bexabar xalq, albatta, boshqa xalqlarga qaram bo’ladi. Agar biz bino qurmoqchi bo’lsak, bir muhandisga ehtiyojimiz bor. Lekin hali muhandis kim ekanligini bilmaymiz. Ilmda, tijoratda bilimli hisobchilarga ehtiyojimiz bor. Do’st achitib gapirar deydarlar, haqiqatni gapiradigan va bizni aldamaydiganlar bizning haqiqiy do’starimizdir” -deb ta’kidlaydi.

Behbudiyning fikricha, barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy ilmga ega bo’lish Turkistonning o’ziga kelishi va oyoqqa turishi uchun ikki muhim harakatdir. Agar bu ishlar amalga oshirilsa, albatta, mamlakat rivojlanishini ta’kidlaydi. Shu o’rinda Behbudiy yana ta’lim-tarbiyaga urg’u beradi: “Bir so’z bilan aytganda, boshqa xalqlarning boylari kambag’al va yetimlari uchun mакtab va universitetlar quradilar, kambag’al va yetimlarni o’qitish uchun stipendiya ajratadilar. Boshqa xalqlarning millionerlari tashkil qilgan gazeta-jurnallari, qurgan mакtabi va yaxshi jamiyatni bilan faxrlansa, bizning boylar uyi, ot-aravasi, qilgan to’ylari bilan faxrlanadi. Hatto, o’z o’g’illarini o’qitmagan boylar bor. Bunday holat yaxshi alomatlarga olib kelmaydi. Bolalarni o’qitish kerak. Din va zamonaviy ilmlar otalardan bolalarga meros bo’lib qolishi kerak”[4.14].

Ma’rifatparvarlar o‘z davrida butunlay yangicha pedagogik g‘oyalarni ilgari surdilar. Bu jarayonda Abdulla Avloniy o‘zining shaxsiy o‘qituvchilik tajribasi, dolzarb ilmiy pedagogik risolalari, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari bilan ishtirok etdi.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga egadir. Ushbu asar axloqiy, ta’limiy va tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi” bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

U o‘zbek ta’lim-tarbiya tizimiga birinchilardan bo‘lib “pedagogika” atamasini olib kirib, jadid tarbiyashunosligini tizimlashtirishga intildi.

Abdulla Avloniy ilk bor “Tarbiya - “Pedagogika”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir”[1.36] deya ta’rif bergan. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to’rt bo’limga ajratadi: 1.“Tarbiyaning zamoni”. 2.“Badan tarbiyasi”. 3.“Fikr tarbiyasi”. 4. “Axloq tarbiyasi” haqida hamda uning ahamiyati to’g’risida fikr yuritadi.

Abdulla Avloniy quyidagicha fikr bildiradi: “Yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o‘yin-kulgu, safsata moloya’ni (ma’nosiz) kabi behuda so‘zlar ila o‘tkarmay, har xil kitob, g‘azita va jurnollarni o‘qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur” [1.60].

Behbudiy va Avloniy o‘z asarlari orqali yosh avlodni bilim olishga, o‘z vataniga munosib xizmat qilishga chaqiradi. To‘g’ri tarbiya va ta’lim orqali har qanday muammoni echish mumkinligini sodda va ravon tilda bayon etib beradi. “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”[1.36]- deydi Avloniy.

Turkiston jadidlarining ma’rifiy qarashlari bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan jamiyatimizning ta’lim sohasi muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa** qilib shuni takidlash kerakki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg’onishida va ravnaqida asosiy omil bo‘lib xizmat qildilar. Yoshlarni o‘qishga, bilim olishga va ma’naviy saviyasini yuksaltirishga chorladilar. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish orqali Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, zamонавиy bilimdon mutaxassislar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va farovon etishlariga ishondilar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o‘rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.

Ma’rifatparvar jadidlarning beباho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari o‘zbek xalqining ma’naviyat va ma’rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo’lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg’ularini tarbiyalab kelmoqda.

### Adabiyotlar:

1. A. Avloniy. Tanlangan asarlar.2-jild. T.: “Ma’naviyat” 2009 y.
2. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: “Ma’naviyat “nashriyoti, 1997 y.
3. Israilov. Z. “Türkistan ceditçilerinin dinî düşüncesi” doktora tezi. Bursa 2023 y.
4. Odob-axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyondalari. T.: Yangi asr avlod. 2015 y.
5. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. T.: “Ma’naviyat”. 2002y.
6. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. -T.: “Iqtisod moliya”, 2016 y
7. Xudoyqulov Y.A. Jadidchilarni ma’rifatparvarlik g‘oyalarni bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbliji.// Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamонавиy tadqiqotlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022 y. 17-oktabr.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARINI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o’zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo’lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbliji va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro’yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so’z) va tayanch so’zlar (8-10 ta) ingliz, o’zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to’liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo’lsa, ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko’rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o’ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo’lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to’liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalilanigan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiyoq ro’yxatda ko’rsatiladi. Matn ichidagi ko’chirmadan so’ng iqtibos olingan assarning ro’yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o’rinda kitob, to’plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to’liq nomi, nashr ko’rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko’rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko’rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo’lsa, barcha savol va e’tirozlar bo’yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobjiy bo’lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko’chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o’zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko’rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobjiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnni qisqartirish va unga tahririy o’zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko’rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O’zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet  
tahririyanashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g’aznachiligi  
23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU** 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlaniramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2025-yil 2-son (113)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**  
**Nigora SAYFULLAYEVA**  
**Muharrir: Mexrigyo SHIRINOVA**  
**Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 27.02.2025  
Bosmaxonaga topshirish vaqtி

28.02.2025

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog’i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 21  
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT”  
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy  
ko‘chasi, 190 B-uy.